Xorijiy arabshunoslik maktablarida arab tilidagi qo'shma gap mavzusi ancha yaxshi o'rganilgan bo'lib, bu ma'lum ma'noda Yevropa va Shimoliy Amerika mintaqalarida arabshunoslik maktabi rivoji bilan bog'liqdir. Ushbu mavzuda amerikalik taniqli arabshunoslardan Vicente Cantarino , Holes Clives , Brandabur,A.Clare va boshqa tadqiqotchilarning amalga oshirgan ishlari , ayniqsa , ahamiyatlidir.

Arab tadqiqotchilarining o'zlari bu borada salmoqli ishlarga qo'l urgan bo'lib, ayni tadqiqot ishlari butunjahon arabshunoslik maktablarining e'tirofiga tushgan. Hozirgi zamon arab olimlaridan arab tilidagi qo'shma gap mavzusiga ilmiy ishlari bilan tanilgan namoyondalardan Ash Shamson Ibrohim , Nadim Husayn , Rufail Naxla kabilarni eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Arab tilida qo'shma gap - tuzilishiga ko'ra sodda gapga o'xshash ikki va undan ortiq predikativ birlikning intonatsiya va mazmun jihatidan bir butunlik hosil etishi bilan yuzaga keluvchi gap; gapning struktural jihatdan alohida bir turi. Qo'shma gap tuzilishi va qurilish materialiga ko'ra sodda gapdan farq qiladi. Sodda gapning qurilish materiali so'z yoki so'z birikmalari bo'lsa qo'shma gapning qurilish materiali sodda gaplardir. Sodda gap bitta predikativ asosdan, qo'shma gap esa ikki va undan ortiq predikativ asosdan tashkil

topadi. Arab tilida qo'shma gaplar qanday mazmun munosabatlarini ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi va intonatsiyasiga ko'ra 3 asosiy turga bo'linadi: bog'lovchisiz qo'shma gap (جملة غير متناظرة); bog'langan qo'shma gap (جملة); ergashgan qo'shma gap (جملة ثانوية).

Tarkibidagi predikativ birliklar o'zaro bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi so'z yordamida emas, balki boshqa vositalar yordamida birikkan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gap hisoblanib, bunday qo'shma gaplarda ohang muhim rol o'ynaydi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar aksar hollarda bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar bilan o'xshash, munosabatchilikda ko'rinsada, ular ana shu turdagi gaplarning bog'lovchisiz varianti emas, balki qo'shma gaplarning alohida turi hisoblanadi:

قضى محمد ليلة هادئا مطمئنا نزلت منه الحمى

Muhammad tinch va osoyishta tunni o'tkazdi; bezgak chekingandi.

مؤلف آخر حبيب الى قلبي هو انطول فرانس

Qalbimga yaqin yana bir adib bu Anatol Fransdir.

Tarkibidagi predikativ birliklar o'zaro teng bog'lovchilar yordamida birikkan (teng aloqali) qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gap deyilib, uning tarkibiy qismlari shaklan mustaqil ko'rinsada, mazmunan va tuzilish jihatdan bir butunlikni tashkil etadi.

و كان التيار القادمين لا ينقطع و كان في استقبالهم جماعة من الاوانس الحور و بعد ثلث ساعة من جلوسه تكاثر عددهم و تراحموا نساء و رجالا

Yangi tashrif buyuruvchilar oqimining adog'i yo'q edi. Ular qora ko'z sohibjamol xonimlar tomonidan kutib olinardi. O'tirganiga yarim soat bo'lgach taklif qilinganlar soni shu darajaga yetdiki, erkagu ayol barcha bir joyda jamul jam bo'ldi.

Tarkibidagi predikativ birliklar (sodda gaplar) bosh va ergash holatida bo'lib, ya'ni bosh va ergash gaplardan tuzilib, ergashtiruvchi bog'lovchilar, bir qancha fe'l shakllari, yuklama va ko'makchilar, nisbiy so'zlar va tobelanish ohangi yordamida birikib, biri ikkinchisini aniqlash, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradigan qo'shma gap turi ergashgan qo'shma gap yoki ergash gap deb ham ataladi.

حَلَّهَا عَنْ عَجَزَتِ التِي الْقَضِيَّةُ هِيَ هَذِهِ .

Bu o'sha sen hal qila olmagani muammodir.

Ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi tobe qism ergash gap hisoblanadi. Ergash gap bosh gapga er-gashib (tobelanib), bu gapni yoki uning biror bo'lagini qandaydir (payt, o'rin, sabab, natija va boshqalar) jihatdan aniqlab, belgilab keladi.



Arab tilida qo'shma gaplarning bog'lovchisiz birikishi.

Arab tilida ikki yoki undan ortiq gaplar tuzilishi jihatidan bir-biridan mustaqil bo'lgani holda bo'glovchilarsiz o'zaro birika oladi. Bunda qo'shma gapning sintaktik qurilishi quyidagi ma'nolarga asoslanadi:

1. Konstruktiv jihatdan mustaqil bo'lsada, bir-birini ma'no jihatdan to'ldiruvchi, muayyan g'oyani tavsiflash yoki rivojlantirish uchun:

ولاكن محجوب لم يسمع شيئا كان يرتدي ثيابه بسرة

Ammo Mahjub hech narsani eshitmadi; u shoshilib kiyinayotgandi.

قضى محمد ليلة هادئا مطمئنا نزلت منه الحمى

Muhammad tinch va osoyishta tunni o'tkazdi; bezgak chekingandi.

Ushbu gapda قال ning qo'llanilishi grammatik jihatdan to'la shakllangan gap hosil bo'lishiga olib kelmasada, ko'chirma gapni ifodalashning o'ziga xos grafik uslubi bo'la oladi:

حدثني ذات يوم قال

U bir gal menga aytdiki...

2. Uyushib keluvchi bir necha gap bo'laklarini birlashtirgan holda avval bayon qilingan fikr - mulohazani tasdiqlash yoki tushuntirish uchun:

هنا تبدأ صفحة جديدة من حياة محمد تبدأ حياة الزوجية و الابوة

Shu yerda Muhammadning hayotida yangi sahifa ochiladi: uning oilaviy hayoti va otalik hayoti.

مؤلف آخر حبيب الى قلبي هو اناطول فرانس

Qalbinga yaqin yana bir adib bu Anatol Fransdir.

3. Avval bildirilgan mulohazaning sababini ochib berish uchun:

ذلك أخي كان نبيا انا نبي

O'sha mening akam, u payg'ambar edi, men ham payg'ambarman.

هو سارق قد دخل الدير ليلا

U o'g'ri, kechasi monastirga o'g'irlikka kirdi.

4. Mantiqiy yakun yoki natijani ifodalash uchun:

هو مكاني اصنع فيه ما شئت

Bu yer mening makonim: nimani xohlasam shuni qilaman.

5. Urg'u berilgan takror yoki o'zgarishni ta'kidlash uchun:

اذا هي خلاء ليس فيها طالب واحد

U yer bo'm-bo'sh edi; u yerda birorta ham talaba yo'q edi.

العلم شيء واحد ليس ذا فروع

Ilm yaxlit narsadir, u tarmoqlarga bo'linmaydi.

6. O'zidan avval kelgan gapni izohlash uchun:

كان هذا السلم متوسطا ليس بشديد السعة ولا بشديد الضيق

Zina o'rtacha edi: juda ham keng yoki juda ham tor emasdi.



ما اجمل ذوقهم لون لباسهم كلون سمائهم

Ularning didi naqadar yaxshi: libosining rangi samoning rangidir.

7. Buyruqdan so'ng buyruqning sababini izohlash uchun:

دعه يلعب انه صغير

Qo'yib ber , o'ynasin. U kichkina.

8. Buyruq maylidagi gaplarda yoki muayyan tovush bilan buyruqni amalga oshirish uchun:

تعالوا نعيد اراضي الدير الوسيعة الى سكان هذه القرى المحتاجين

Kel endi , monastirning keng yerlarini qishloqning muhtoj aholisiga qaytarib beramiz.

تعال نمشي الان

Qani ketdik hozir

Odatda buyruq maylida kelgan fe'l yaqin o'tgan zamonni mazmunan ifodalab keladi, bu esa qo'shimcha urg'ulashni anglatadi:

سليه ينيبك

So'ra undan , senga aytib beradi.

... قارن بينه وبين والدته تجد ان

U bilan onasini taqqosla, bas , shuni topasanki...

Shunisi e'tiborga molikki, arab va g'arb olimlari quyidagi strukturalarni shart maylidagi gaplarga xos deb qarashadi. Garchand ularning ba'zilar shart maylidagi gaplarga xos mazmunga ega bo'lsada, tarjima jarayonida shart ma'nosi o'zgarishi mumkin:

دعوني انم فقد سكرت نفسي بالمحبة

Uxlashimga qo'yib beringlar, ruhim muhabbat bilan mastdir.

Ushbu xususiyatni ba'zi bir xitob yoki undov gaplardan keyin ham ko'rishimiz mumkin:

هلمي , حبيبتي , نمش بين الطلول

Mahbubam, kel, xarobalararo yuramiz.

Xulosa.Hozirgi zamon fanining tarkibiy qismi bo'lgan o'zbek arabshunoslik maktabi ham global taraqqiyotning yangicha standartlari va doimiy o'zgaruvchan tamoyillariga mos tarzda o'z tadqiqot maydoniga xos ilmiy-tadqiqot mavzularini aniqlamoqda, bugungi kun jamiyati uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan sohalariga hamohang tarzda ilmiy tadqiqot ishining kompetentligini oshirish va bevosita jamiyat hayotiga samarali ta'sir kuchini oshirish istiqbollari xususida barqaror loyihalarni yaratmoqda. Ana shunday loyihalarning negizida yotuvchi unsurlardan biri arab tilidagi qo'shma gap mavzusi bo'lib , u o'z navbatida arab mamlakatlari bilan turli sohalaridagi keng



qamrovli munosabatlarni rivojlantirish va jamiyatlaroaro o'zaro anglashuvni chuqurlashtirishda katta ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024>
 2. Ne'matullo Ibrohimov., Muhammad Yusupov., Abdulhakim Oripov. Arab tili grammatikasi. I-II jild. Toshkent. G'ofur G'ulom nashriyoti. 2024
 3. Xalidov. B. Z. Arab tili darsligi. Toshkent. Fan. 2007
 4. Talabov. E. Arab tili. Toshkent. O'zbekiston. 1993
 5. Vicente Cantarino. Syntax Of Modern Arabic Prose: the compound sentence. Indiana University Press. 1976
 6. Holes, Clives. Modern Arabic: Structure, Functions and Varieties. London. Longman. 1995
 7. Brandabur. A. Clare. Proceedings of the First International Conference on Arabic-English Contrastive & Comparative Studies, University of Jordan (August 23-28, 1997).
- الشمسان ابراهيم. قضايا النحوية. دار المدني. جدة. المملكة العربية السعودية. 1987
 دكتور نديم حسين. اللغة العربية: قواعد، بلاغة، عروض. بيروت. منشورات بحسون الثقافية
 ليسوعى، الاب روفائيل نخلة. غرائب اللغة العربية (الطبعة الخامسة). دار المشرق. بيروت. لبنان
 نجيب محفوظ، القاهرة الجديدة، القاهرة، المطبعة السلطانية
 طه حسين، الايام، القاهرة، مطبعة العولمة، 2000
 جبران خليل جبران، المجموعة الكاملة لمؤلفات خليل جبران خليل، بيروت، مطبعة العربية
 ، 1995
 توفيق الحكيم، سليمان الحكيم، مجموعة سيرة الادبية، القاهرة، 1968



ONA TILINI O'QITISHDA FILOLOG TALABALARNING KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Nurimbetova S.K.

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch
doktoranti*

Tayanch so'zlar: kompetensiya, frazeologiya, frazeologik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya

Ключевые слова: компетентность, фразеология, фразеологическая компетентность, коммуникативная компетентность.

Key words: competence, phraseology, phraseological competence, communicative competence

РЕЗЮМЕ:

Oliy ta'limda talabalarga ona tilini o'qitishdagi kompetensiyaviy tizimdan foydalangan holda natijaga erishish va frazeologizmlar va frazeologik kompetensiya orqali turli metodik usul va uslublardan foydalangan holda talabalarda ona tilini oson o'rganish va o'zlashtirishga doir tajribalarni amalda qo'llashni tadbqiq etishdan iborat.

РЕЗЮМЕ:

В высшей школе это достижение результатов с использованием компетентностной системы при обучении студентов родному языку, а также применение опыта легкого изучения и усвоения студентами родного языка с использованием различных методических приемов и методов через фразеологизмы и фразеологическую компетентность.

SUMMARY:

In higher education, it is to achieve results using the competence system in teaching the native language to students, and to apply the experiences of easy learning and acquisition of the native language in students using various methodological methods and methods through phraseologisms and phraseological competence.

Hozirgi vaqtga kelib jahon ta'lim tizimida ona tilini talabalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'rgatishni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, filolog talabalarga o'z ona tilini qo'shiqlar va ertaklar asosida o'rgatish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga molik bo'lib, ushbu xorijiy tajribalarni o'rganish va hamkorlik tadqiqotlarini olib borish zaruriyatga aylanganini izohlaydi. Bunda oliy o'quv yurti filolog talabalariga ona tili darsi orqali frazeologik kompetentsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan, ona tili talaffuzini



she'r, qofiyalar, tez aytishlar, qo'shiq, o'yin, ertaklarni multimedia vositalari orqali o'rgatish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy ta'lim standartlariga va talablariga javob bera oladigan metodik qo'llanmalarni yaratish, xorijiy tajribalarni o'rganish va o'z ona tillarini puxta o'zlashtirishlari uchun poydevor yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ona tili darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalari muhim o'rinni egallashi, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish eng muhim strategik resurslardan biriga aylanmoqda. Shuni inobatga olgan holda, tadqiqot ishi mazmunidan kelib chiqib "kompetensiya", "kompetentlik", «frazеologik kompetentsiya» tushunchalarining mazmun-mohiyatini chuqurroq tahlil qilish tadqiqotning vazifalaridan biri bo'lib bu tushunchalarni keng qamrovli ilmiy tahlil etdik.

So'nggi paytlarda ta'lim jarayonida "kompetensiya", "kompetentlik" va «frazеologik kompetentsiya» tushunchalariga almashtirish, olimlar va mutaxassislarni ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvi asosida ta'lim jarayonini qayta tashkil etishga chaqirmoqda. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda barcha fanlarni o'qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv tatbiq etilmoqda. Zamonaviy ta'limda ona tilidan fanga oid bilim, ko'nikma, malaka berishning o'zi yetarli emas. Qolaversa, hosil qilingan bilim, ko'nikma, malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo'llash malakasini shakllantirib berish kerakligi bugungi kun talabini tashkil etadi. Qayd etish joizki, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, talabalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi. Bu tendensiya, adabiyotlarda qayd etilganidek, yangi konseptual asos sifatida qaralmoqda.

"Kompetensiya" so'zi ilk bor 1955-yilda N.A.Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida "faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida" talqin etilgan, "kompetensiyaviy yondashuv" esa ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan.

"Kompetensiyaga asoslangan yondashuv (competence based approach)" tushunchasi asosida "kompetensiyaga asoslangan til o'qitish (competence based language teaching)" tushunchasi, keyinchalik esa "kompetensiyaga asoslangan ta'lim (competence based education)" tushunchasi yuzaga keladi.

Oliy o'quv yurti talabalariga ona tilini o'qitishda frazeologik kompetentsiyani shakllantirishda quyidagi yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi:



1) kompetent (kompetensiyaviy) yondashuv kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning yaxlit tizimini va ta'lim oluvchilarning shaxsiy mas'uliyatini shakllantirishga yordam beradi;

2) shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir talaba bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi va amalda qo'llashi;

3) o'z faoliyatini rejalash-tuzishi, uning natijalarini tahlil qilishi va baholashi;

4) talabalarning jamoada hamkorlik munosabatlarini o'rnatish ko'nikmalarining shakllanishi;

5) kommunikativ-kognitiv yondashuv muammoli nutqiy va ijodiy vazifalar lingvistik, reproduktiv-mashq qilish vazifalaridan ustun bo'lishini;

6) tizimli yondashuv asosida talabalarda o'zaro aloqador malakalarni tadqiq qilish, tizim va muhitning o'zaro munosabati;

7) talabalarning nutq faoliyatiga ko'ra variantlilikini ta'minlash, tizimdagi dinamikani o'rganish, rivojlanayotgan yaxlitlik deb tavsiflashga yordam beradi.

D.A.Ivanovning izohlashicha "Kompetensiyaga asoslangan yondashuv - bu mehnat bozori ehtiyojlarini muvofiqlashtirishga urinish asosida ta'lim natijasiga qaratilgan yondashuv bo'lib natijada egallangan ma'lumot miqdori emas, insonning turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati» deb ta'kidlashiga, S.V.Kirdyankina kompetensiyaga asoslangan yondashuv jamiyatning davlat buyurtmasiga muvofiq ta'lim jarayonini yangidan loyihlashtirish deb hisoblashiga asos bo'lgan .

Tadqiqot davomida aniqlashimizcha ba'zi kompetensiyalar, boshqalariga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo'ladi. Shunga ko'ra ularni uchta darajaga ajratish mumkin:

1) Tayanch kompetensiyalar – ta'lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismiga tegishli;

2) Umumiy kompetensiyalar – ma'lum doiraga kiruvchi o'quv predmetlari va ta'lim sohalariga tegishli;

3) Fanlarga oid kompetensiyalar – oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib o'quv fani doirasida shakllantiriladi.

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlilik o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun ahamiyatli bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundariyasi jihatidan turli-tuman ma'nolarni bildiradi. Atamaning mohiyati "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.



Bugungi kunda kompetensiya soʻzi - layoqat, kompetentlik layoqatlilik, taʼlimga kompetensiyaviy yondashuv esa egallangan bilim, koʻnikma va malakalarni oʻz shaxsiy, kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatlarda amaliy qoʻllay olish layoqatlarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim yoʻnalishi deb qaralmoqda.

Til taʼlimida ogʻzaki nutq kompetensiyalarini oʻstirish taʼlim oluvchilarning oʻrganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan oʻz hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda oʻz fikrini ogʻzaki va yozma tarzda mustaqil ifodalay olish va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qoʻllay olish koʻnikmalarini hosil qilish va tilni maqsadli ravishda amaliy qoʻllay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

Frazeologik kompetensiya - bu frazeologik tarkibni bilish va undan muloqot jarayonida foydalanish qobiliyati. Aytish mumkinki, har bir talaba ona tilining frazeologik tizimi haqida tasavvurga ega boʻlishi va bu tizimdan amalda foydalana olishi hisoblanadi.

Koʻp madaniyatli shaxsni shakllantirishda frazeologik kompetensiya muhim rol oʻynaydi. V.N.Telia fikricha, frazeologik birliklar “xalqning oʻyib ishlangan, asrlar davomida ishlangan donoligi, hayotiy tajribasi – madaniyat va mentalitetning asosiy tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi til ongini” ifodalaydi. Shunday qilib, til prizmasi orqali dunyo va maʼlum bir madaniyat uchun ayniqsa muhim boʻlgan barcha narsalarning rasmini (modelini, tasvirini) koʻrish va yaratish mumkin. Shuning uchun ham oʻz ona tilini oʻqitish jarayonida frazeologik kompetensiya oxirgi oʻrinni egallamasligi kerak.

Tadqiqodchi L.Pugacheva frazeologik kompetentsiya kommunikativ kompetentsiyaning bir qismi sifatida qaraladi va leksik kompetentsiya bilan oʻzaro bogʻliqdir. Frazeologik kompetentsiya maʼruzachining nafaqat nutqda tilning majoziy vositalarini idrok etish va ularni adekvat talqin qilish, balki vaziyat, mavzu va aloqa sohasiga, suhbatdoshlarning holatiga muvofiq foydalanish qobiliyatini nazarda tutishini taʼkidlagan.

Kommunikativ kompetentsiyaning lingvistik tarkibiy qismi tilning tizim sifatida tuzilishi haqidagi bilimlarda va ushbu bilimlarni ishlatish koʻnikmalarida namoyon boʻladi. Nutq komponenti talabani muayyan nutqiy vaziyat uchun zarur aloqa vositalarini tanlash qobiliyatida ifodalanadi.

D.Xayms nuqtai nazariga koʻra, kommunikativ kompetensiya quyidagi komponentlarni oʻz ichiga oladi:

- lingvistik (til qoidalari);
- ijtimoiy-lingvistik (dialekt nutqi qoidalari);
- diskursiv (semantik gapning tuzilishini tartibga soladi);
- strategik (suhbatdosh bilan aloqani saqlashni tartibga soladi) .



Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-madaniy kompetensiya - bu ona tilida soʻzlashuvchilarning nutqining milliy va madaniy xususiyatlari va ijtimoiy xulq-atvori (odatlar, odob-axloq qoidalari, stereotiplar, tarix, umuman olganda madaniyat) haqida ma'lum bilimlarga ega boʻlish, shuningdek, muloqot jarayonida ulardan foydalanish qobiliyati. Shuni ham aytish joizki, frazeologik kompetensiya tilni bilishning muhim qismidir. Uning tilni oʻrganish bilan integratsiyalashuvi talabalar oʻrtasida samarali muloqot koʻnikmasiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Alaudinova D. Kompetensiyaviy yondashuv asosida boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining ogʻzaki nutq malakalarini rivojlantirish metodikasi/ Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 20-bet
2. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics / edited by J. B. Pride, J. Holmes. Harmondsworth: Penguin, 1972. P. 269-293.
3. Иванов Д. А., Митрофанов К. Г., Соколова О. В. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий. Учебнометодическое пособие. М.: АГТКи! ИРО. - 2003.- 101 с
4. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с
5. Пугачева Л. Формирование фразеологических компетенций иностранных студентов-филологов. Автореферат. Санкт-Петербург, 2012. 16 с
6. Chomsky N. Language and mind. – New York: Harcourt, Brace & World, 1968. – 342 p.



CONNECTION OF PHONETICS WITH OTHER SCIENCES

Kabulova D.

2nd course of Master's degree

Termez Economical and Service University

Salomova G.

Doctor of philosophy in philological sciences, PhD.

Tayanch so'zlar: fonetika, intonatsiya, tilshunoslik, ko'tarilish, tushish, grammatik, semantik.

Ключевые слова: фонетика, интонация, лингвистика, подъем, падение, грамматический, семантический.

Key words: phonetics, intonation, linguistics, rising, falling, grammatical, semantic.

РЕЗИЮМЕ:

Har bir tilning o'ziga xos intonatsiyasi bor. Intonatsiya odamlar eshitadigan tilni tanib olishga yordam beradi, xuddi qo'shiqning ohangi odamlar eshitadigan qo'shiqni tanib olishga yordam beradi. Agar odamlar qo'shiqning ohangini o'zgartirsa, ularning tinglovchilari odamlar kuylayotgan qo'shiqni tanib olishlari va tushunishlari qiyin bo'ladi. Intonatsiyaga nisbatan ham xuddi shunday: agar odamlar o'zbek intonatsiyasi bilan ingliz tilida gaplashsa, ularning tinglovchisi nima deyotganini tushunishda muammoga duch keladi.

РЕЗИЮМЕ:

В каждом языке есть своя интонация. Интонация помогает людям распознавать язык, который они слышат, точно так же, как мелодия песни помогает людям распознавать песню, которую они слышат. Если люди изменяют высоту песни, слушателям будет трудно распознать и понять песню, которую поют. То же самое и с интонацией: если люди говорят по-английски с узбекской интонацией, их слушателям будет сложно понять, что они говорят.

SUMMARY:

Every language has its own intonation. Intonation helps people to recognize the language that people hear in the same way as the melody of a song helps people to recognize the song that people hear. If people change the melody of a song, their listener will have a hard time recognizing and understanding the song people are singing. The same is true in reference to intonation: if people speak English with Uzbek intonation, their listener will have a problem understanding what they are saying.

Introduction. In general, linguists distinguish several main types of English intonation. Falling intonation and rising intonation are the two basic types. Other main types of intonation include high fall, low fall, fall-rise, high rise, midlevel rise, low rise. They are variations of the two basic types of intonation. Language



learners should master the typical patterns of standard falling intonation and rising intonation before studying their variations.

Intonation is an essential prosodic elements of human speech. It shapes human speech phonetically and helps to express grammatical, semantic and emotional meanings of phrases or sentences. Intonation is a very complicated phenomenon and therefore its definition varies among linguists. The following definitions of intonation have been given by British linguists: "Intonation may be defined as the variations which take place in the pitch of the voice in connected speech, i.e. the variations in the pitch of the musical note produced by the vibration of the vocal cords"(D.Jones. *An Outline of English Phonetics*. Cambridge, 1962, p.275). "By intonation we mean the rise and fall of the pitch of the voice when we speak"(L.Armstrong and I. Ward *A Handbook of English Intonation*. Cambridge, 1931, p.1)[1]

Literature review. The American linguist D. L. Bolinger defines intonation as "... the melodic line of speech, the rising and falling the "fundamental" or singing pitch of the voice ..." (D. I. Bolinger. *The Melody of Language*. *Modern language Forum* 40, (June, 1955), p.20).

P. Ladefoged defines intonation as "the pattern of pitch changes". [11] P. Lieberman regards intonation as "... the entire ensemble of pitch contours, pitch levels and stress levels, that occurs when a sentence is spoken".

From given definitions we can notice that intonation is regarded as pitch changes or speech melody and also stress levels, which accompany an utterance. Speech melody perceived as pitch changes is one of the main components of intonation, but it is not equal to intonation (A. Abduazizov, "English Phonetics A theoretical course" Musiq, Tashkent, 2007, p.178).

Some linguists include other components of intonation in their definition. For example, A.M.Peshkovskij defined intonation as the indissoluble connection of both rhythm and melody (A.M.Peshkovskij. *Intonatsiya i grammatika*. V ego knige "Izbrannyye trudy", Uchpedgiz, M., 1959, p.177). These definitions have been given in a narrow sense.[2]

A broad and adequate definition of intonation is given by V.A.Vassilyev who writes: "On the perceptual level, sentence intonation in a unity of four components, formed by the communicatively relevant variations in: (1) voice pitch, or melody speech; (2) the prominence of words, or their accent; (3) the tempo (rate), rhythm and pausation of the utterance, and (4) voice – timbre, this complex unity serving to express adequately, on the basis of the proper grammatical structure and lexical composition of the sentence, the speakers' or writer's thoughts, volition, emotions, feelings and attitudes towards reality and



contents of the sentence”(V.A.Vassilyev. English Phonetics. [3] A theoretical course. M.,1970, p.290).

G.P.Torsuyev defines intonation as a complex combination of speech melody, distribution of stress in a sentence, tamber of voice and tempo of pronunciation, which serves as the most important means of expressing the meaning of an utterance (G.P.Torsuyev. Fonetika angliskogo yazika. M., 1950, p.212).

A.M.Antinova regards intonation as a complex combination of the following components: (1) speech melody, (2) sentence stress, (3) time characteristics (duration, tempo and pausation), (4) rhythm and (5) tamber (the quality of voice) (A.M.Antinova. Sistema angliskoy rechevoy intonatsii. M., Izd, “Visshaya shkola”, 1979, p.5)

Research Methodology. The latter three definitions of intonation include all the components of intonation and have been given in a very broad sense. We also shade these definitions.

Intonation is a prosodic or suprasegmental characteristics of an utterance or phrase, and therefore it is possible to speak of the prosodic structure of a phrase. By the term “phrase or utterance” we mean the sentence realized phonetically as a unit of speech.

Like other units intonation may be studied in four aspects:

1. Articulatory (physiologically).
2. Acoustic (physically).
3. Perceptually (audiotorially).
4. Functionally (linguistically).

There is a close relationship between all these aspects of intonation. The functional aspect of intonation which deals with a linguistic analysis of it, namely phonological aspect of intonation, has not been studied thoroughly. This aspect is very important I linguistic structuring intonation components and in establishing relations between te phonological, grammatical, lexical and stylistic levels of a language.

Intonation is an inseparable component of vocal communication. It is a non-grammatical and non-lexical component of communication and it refers to pitch variations in speech. Together with other non-grammatical and non-lexical components of communication, such as tempo, rhythm, loudness, sound colour, etc., it belongs to a distinct language system which is called the vocal code. [4] The elements of the vocal code very rarely occur independently of the elements of the verbal code, called segments, and they almost always occur simultaneously with them. “Therefore units of the vocal code are called suprasegmental”. (Hlebec 2004: 83).



Intonation is a very important suprasegmental element because speech would sound robotic without it. Recent studies have shown that hearers pay particular attention to intonation when they are trying to understand a sentence. It is, therefore, essential both for native speakers, who acquired intonation together with their native tongue, and for non-native speakers, who have to learn intonation patterns of a foreign language together with learning that foreign language on the level of segments, to use intonation correctly if they want to be understood. It is equally important to be aware of existence of different intonation patterns and their meanings if a hearer wants to understand parts of communication properly (Al-Sibai 2004: 21-22).

In general, linguists distinguish several main types of English intonation. Falling intonation and rising intonation are the two basic types. Other main types of intonation include high fall, low fall, fall-rise, high rise, midlevel rise, low rise. They are variations of the two basic types of intonation. Language learners should master the typical patterns of standard falling intonation and rising intonation before studying their variations.

Analysis and results. Intonation is based on several key components, such as pitch, sentence stress, and rhythm, pause, timbre of voice and tempo of speech which have their specific functions.

Timbre determines the quality of voice: it may be emotional and normal and helps to shape the meaning of a sentence. The sentence I saw my friend yesterday. May be pronounced in different timbre of voice to express different meanings.

Rhythm does not exist independently, but is connected with all other components of intonation. Rhythm is defined as the regular alternation of stressed and unstressed syllables in a sentence or a word.

Tempo (or rate) of speech which may be normal, slow and quick functions together with rhythm and other components of intonation.[5] Tempo and rhythm are unseparable and function together to express a speaker's emotions, and underline the semantic importance of different parts of a sentence and sense groups.

Sometimes the meaning of a sentence may depend on different pausation, e.g.


You know it all right.

You know it all right.

The sentence possesses definite phonetic features: variations of pitch or speech melody, pauses, sentence stress, rhythm, tempo and timbre. Each feature performs a definite task and all of them work simultaneously. It is generally acknowledged that the pitch of the voice or speech melody, sentence stress and rhythm are the three main components of intonation, whilst pauses, tempo and timbre play a subordinate role in speech.




The pitch of the voice does not stay on the same level while the sentence is pronounced. It falls and rises within the interval between its lower and upper limits. Three pitch levels are generally distinguished: high, medium and low.



The pitch of the voice rises and falls on the vowels and voiced consonants. These falls and rises form definite patterns typical of English and are called speech melody.

Pitch Range is the interval between two pitch levels. It may be normal, wide and narrow.



E.g. *I didn't know you've been to London.*[6]

The use of this or that pitch (and range) shows the degree of its semantic importance. As a rule the low pitch level expresses little semantic weight, on the contrary the high pitch level is a sign of importance, stronger degree of feeling.

It is fairly obvious that words are seldom pronounced by themselves, as vocabulary items. They are usually arranged into sentences in accordance with its grammatical and phonetic structures of the language. And one of the components of the phonetic structure of a language is its intonation. It is the main factor that turns a word or group of words into a sentence. British phoneticians consider intonation as a close connection between intonation and stress whereas American descriptivists speak of intonation and stress as different phonetic phenomena. C.H. Prator states that intonation is the tune of what we say. Quite different is the opinion of the majority of Russian linguists on the problem of intonation. According to their point of view intonation is a complex unity of speech melody, word prominence, tempo, rhythm and pauses, and voice-timbre. [7] The components of intonation all function together, they are inseparable from one another but they can be singled out for the sole purpose of phonetic analysis.

Tempo, rhythm and pauses are considered to be temporal components of intonation. Tempo is a rate, or duration of speech. It may be slow, normal or quick.



The more important parts of a sentence is said at a slow tempo, the less important ones are pronounced quickly. Tempo is closely connected with rhythm. Our speech is subdivided rhythmically into units. Speech rhythm maybe defined as a regular recurrence of stressed and unstressed syllables. The tempo of speech may influence the accentual pattern of words. With the quickening of the speed the carefulness of articulation is diminished, the vowels are reduced or elided, the secondary stress may be dropped, e.g. The 'whole organi'zation of the 'meeting was 'faulty.

The tempo is moderate, mostly constant in reading descriptive and scientific prose and in newspapers, it is quicker in parenthetical and absolute constructions. It is changeable and moderate in drama. It is constant and slow in poetry. The tempo of public speeches depends on the size of the audience and the topic. The climax of a speech is characterized by a change in tempo, range and loudness.

Conclusion. English intonation is a pretty complicated and varied phenomenon. There are dialectal and regional differences in intonation. For example, there is a noticeable difference between British and American intonation. Intonation may sound differently depending on whether the speakers have high or low voices, speak fast or slowly, loudly or quietly, energetically, emotionally, neutrally, or listlessly. Men and women may have their own differences and preferences in intonation. For the purpose of studying, this variety may be described in several intonation patterns characteristic of English speech. And I understood when I was in practical work. Many students of colleges and pupils in schools or the beginners learning English must study intonation.

Literature:

1. Abdurazizov. English Phonetics. A Theoretical Course, T., 2007.
2. Sokolova M.A. and others. Theoretical Phonetics of English.
3. Peter Roach. English Phonetics and Phonology. Cambridge University Press, 2006.
4. Martin Hewings. Pronunciation Practice Activities. Cambridge University Press, 2004.
5. David Crystal. The Encyclopedia of the English Language. London.
6. A.C.Gimson. An Introduction to the pronunciation of English.
7. Dvorjeska M.P., Makuxina T.V., Velikova L.M., Snegirova E.O. Fonetika angliyskoi movi: fonostilistika i ritorika movliennsvoi komunikatsii (Phonetics of English: Phonostylistics and Rhetoric in Speech Communication). Vinnytsya, 2005.
8. Salomova G.A. Research of Abbreviations in English and Uzbek Linguistics.//Journal of advanced linguistic studies.// India-Jan-Jun 2023. (Vol. 10, no. 1, ISSN 2231-4075) – P.430-437. №1 [10.00.00 №13].
9. Salomova G.A. The study of the structure and content of Abbreviations in Uzbek linguistics.// World Bulletin of Social Sciences (WBSS). Germany-2023 y. ISSN: 2749-361X., Vol.19. – P.163-166
10. Salomova, G. A., The structural-semantic analysis of abbreviations and acronyms of the English, Russian and Uzbek languages Thematics journal of English language teaching ISSN2231-4873 Vol-5-Issue-1-2021. Indonesia <http://thematicsjournals.in/index.php/tjs> UIF 2021=7.023 IFS 2020=7.433 DOI10.5281/zenodo.5702901, - P.24-27. (2021).
11. Salomova G.A. Gap qurilmasi komponentlarining qiyosiy tahlili haqida.//Pedagogik innovatsiyalar va yuqori samaradorlikka yetaklovchi ta'limiy g'oyalar Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi. Termiz-2020, 15 may. - B.334-337.



KOLLABORATIV TA'LIM TEXNOLOGIYASINING METODOLOGIK AHAMIYATI

Kojabaeva G.

Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Tayanch so'zlar: pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, o'quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirish, o'qitishning samaradorligini oshirish usullarini kuchaytirish, rus tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarining leksik kompetentsiyasini kolloborativ yondoshuv asosida rivojlantirish, kollaboratsiya.

Ключевые слова: профессионально-педагогическая подготовка педагогов, совершенствование учебной деятельности, усиление методов повышения эффективности обучения, развитие лексической компетентности старшеклассников на занятиях по русскому языку на основе сотрудничества, сотрудничества.

Key words: professional and pedagogical training of teachers, improvement of educational activities, strengthening of methods for increasing the effectiveness of teaching, development of lexical competence of high school students in Russian language classes based on cooperation.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada kolloborativ ta'lim texnologiyasining metodologik ahamiyati to'g'risida so'z yuritilgan. Shu bilan birga kolloborativ ta'limning o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishdagi rolini ochib bergan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье говорится о методологическом значении технологии совместного обучения. В то же время он раскрыл роль совместного обучения в развитии способности учащихся работать в команде.

SUMMARY:

This article talks about the methodological significance of collaborative learning technology. At the same time, it revealed the role of collaborative learning in developing students' ability to work in a team.

Respublikamizda so'nggi yillarda xalq ta'limning sifatini oshirish, bo'lajak pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini, o'quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirish, o'qitishning samaradorligini oshirish usullarini kuchaytirish, ta'limning har bir bosqichidagi maqsadni aniq belgilash, bilimlarni imkon darajasida to'liq egallashning mexanizmlarini ishlab chiqishning asoslari tatbiq etilmoqda. Ta'lim sohasining oldida "...maktablarda ta'lim sifatini oshirish,



pedagog-kadrlarning bilim va tajribasini xalqaro darajaga olib chiqish, oliy o'quv yurtlarining QS va THE xalqaro reytinglarga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish" asosiy va yetakchi vazifalar qilib belgilangan. Shuningdek, "yuqori sinflarda berilayotgan ta'lim va tarbiya sifati, o'qituvchilarning bilimi va mahoratini talab darajasida deb bo'lmaydi. 2023-yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilishni boshlaymiz. Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinadi. Milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi".

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir!" mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko'rgazmasida: "XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan "4K" ko'nikmasi bo'yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko'nikmalar, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish" masalalariga alohida e'tibor qaratish kerakligi va "...darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganishi" zarurligini ta'kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o'qituvchilar majburiyatlari haqida "...bugun darsliklar o'zgaryapti. Shunga yarasha o'qituvchilar ham o'zgarishi kerak", - degan fikrlari o'qituvchilarning kasbiy mas'uliyatni kuchayttirishni talab qiladi.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, yangi avlod darsliklarini yaratish talablari asosida rus tilini o'qitish metodikasi ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish orqali leksik kompetensiyasining takomillashishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda.

Rus tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarining leksik kompetensiyasini kollektiv yondashuv asosida rivojlantirishga qo'yilgan aniq malaka talablari asosida tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarining metodik imkoniyatlarini yanada rivojlantirish bugungi kun uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu masalalar mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Kollaboratsiya – O'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.



Kollaborativ ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) ilk marta pedagogika sohasiga J. Lankaster va A. Bell tomonidan XVIII asrda kiritilgan bo'lib, ular Angliyada mazkur metod asosida dars o'tiladigan maktabochishadi. Keyinchalik esa "hamkorlikda ishlash" ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) boshqa olimlar tomonidan kengroq o'rganildi. Jumladan, J. Devi ta'lim dinamik jarayon bo'lib, nafaqat fanga doir bilimlar berilibgina qolmasdan, o'zaro interaksiya davomida olingan fikr-mulohazalar asosida o'quvchilarning muloqot malakasini rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv tarafdorlari R. Olsen va S. Kagan "Hamkorlikda ishlash ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) – bu guruhli o'quv faoliyati bo'lib, guruhlardagi o'quvchilar o'rtasida ma'lumot almashinuvi bilan olib boriladi", deb ta'rif bergan bo'lsa R. Slavin esa tilni hamkorlikda o'rganish – bu o'quvchilar kichik guruhda muammolarni ijtimoiy hal qilish uchun birgalikda ishlashidir deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi G. Bekimbetova "zamonaviy tadqiqotchilarda 4K ko'nikmalarining o'quvchi faoliyatida qo'llashda qo'yidagi universal ko'nikmalar shakllanish holatlari ko'zatilish holati mavjud. Ular insonning shaxsiy fazilatlarini qo'yidagilar aks yettiradi:

- ularning odamlar bilan muloqot qilish;
- vaqtini samarali tashkil yetish;
- ijodiy fikrlash;
- qaror qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati deya ta'kidlaydi.

Kollaborativ ta'lim texnologiyasi ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi asoschisi L. Vygotskiyning proksimal rivojlanish maydonidagi ichki tor doiradan chiqib, boshqa bilimlroq bilan o'rtadagi doira topshiriqlarini bajarish va buning natijasida tashqaridagi ijtimoiylashuv jarayonisiz o'zi yolg'iz bajara olmaydigan maydondagi bilimni egallashiga turtki bo'ladi.

G. I. Shukina ta'limda faollikni ta'minlashni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni tashkil etgan holda amalga oshirish mumkin deb hisoblaydi.

M. Garsiyaning fikriga ko'ra ushbu yondashuvning ijobiy taraflaridan biri – ta'lim oluvchilar birgalikda ishlayotganda, ular o'z sheriklaridan o'rganish bilan birga, do'stlari bilan birgalikda ishlashdan zavqlanadi.


Kollaborativ ta'lim texnologiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, ta'lim oluvchilar pedagogik jihatdan tuzilgan mashg'ulotlarni bajarish davomida chet tilni o'rganishning muhim sharti hisoblangan ijtimoiylashuv jarayoni sodir bo'ladi. Ushbu yondashuv ustida ilmiy ishlarini olib borgan olimlar S. Kagan



va S.Viderxoldlar ta'lim oluvchilarning kommunikativ aloqada til bilimlarini yaxshilash bilan birga, birgalikda til o'rganish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi hamda, tanqidiy fikrlashni nutq faoliyati turlari: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv bilan uzviy bog'lab o'rgatish kerak deb ta'kidlaydi.

S.Viderxold tanqidiy fikrlashni "hamkorlikda ishlash" (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasiga qo'shish uchun savollar matrisasini ishlab chiqdi.

Ko'plab tadqiqotchilar "hamkorlikda ishlash" (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasidan an'anaviy ta'limda samarali foydalanish uchun e'tibor berilishi lozim bo'lgan elementlarni tadqiq etgan. Jumladan, D.V.Jonson, R.T.Jonson, I.J.Xolubek va P.Roylarning fikriga ko'ra, "hamkorlikda ishlash" (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasida ta'lim oluvchilarning muhokama qilishi, boshqa ta'lim oluvchilarga yordam berishi yoki bir-birlari bilan o'zaro material almashishi muhim ahamiyatga ega bo'lsada, chinakam hamkorlikda bilim olishlari uchun quyidagi to'rtta asosiy element bo'lishi kerakligini qo'yidagicha ta'kidlagan. (1-rasm)



Bu sohada **D.V.Jonson** va hamkasblarining taklif qilgan "hamkorlikda ishlash" (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining asosiy elementlari ma'lum bir fan doirasida chegaralanmagan bo'lib, umumiy jihatdan ta'lim jarayonida o'quvchilarning sinfxonada hamkorlikda muvafaqqiyatli ishlashlari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ta'kidlashicha, o'zaro ijobiy munosabat "hamkorlikda ishlash" (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining yuragi hisoblanadi

Demak, ushbu jagayonda o'quvchilarda jamoaviy ishlash orqali yuqori sinf o'quvchilarining rus tili darslarida qo'yidagi leksik kompetentsiyasi rivojlanadi:

- jamoaviy ishlash jarayonidagi hamkorlik;
- o'quvchilarning jamoaviy ishlash jarayonidagi diskussiya;
- kommunikativ muloqot;
- impravizasiya;
- frazologik ko'nikmalar;
- kreativ ko'nikmalar;
- mas'uliyatni his qilish;



-o'z-o'zini baholash ko'nikmalar rivojlanadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, kollaborativ ta'lim texnologiyasini samarali qo'llash rus tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarining leksik kompetentsiyasini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармони. // <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
2. Yassin A.A., Razak N.A., Maasum N.R. Cooperative Learning: General and Theoretical Background // *Advances in Social Sciences Research Journal*. – 2018. – № 5(8) – P. 643.
3. Socratous M. (2014). The effects of cooperative learning arrangements on the social skills of pupils identified as having severe learning difficulties, who attend special primary schools. PhD dissertation. University of Exeter. – 2014. – P. 55.
4. Olsen R., Kagan S. About cooperative learning // In Kessler C. *Cooperative Language Learning: A Teacher's Resource Book*. New York: Prentice Hall. – 1992. – P. 8.
5. Slavin R. *Cooperative Learning: Theory, Research and Practice*. 2nd ed. New York: Prentice Hall. – 1995. – 194 p.
6. Bekimbetova G.R. Qoraqalpoq tili fanidan o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy ahamiyati // *International journal of recentli scientific researcher's theory*. International scientific journal. ResearchBib Imfact Factor: 7.1. Volume: 2. Issue: 2. February. 2024. ISSN: 2992-8885. uzresearchers.com. –P.185-190. (13.00.00; №14).
7. Щукина Г.И. Исследование активизации учебно – познавательной деятельности.// *Советская педагогика*. – 1983. – № 3. – Б. 36-37.
8. Garcia M. Ten important aspects of a 21st century foreign language teaching approach. // *European Journal of Foreign Language Teaching*. – 2021. – Vol 5 (5). – P. 1-19. doi: 10.46827/ejfl.v5i5.3834
9. Kagan, S. *Cooperative Learning*. San Juan Capistrano, Calif.: Kagan Cooperative Learning. – 1992. – 450 p
10. Wiederhold C. The Question Matrix // San Juan Capistrano, Calif. – 1995. – 284 p.
11. Johnson D.W., Johnson R.T., Holubec I.J., Roy P. *Circles of learning. Cooperation in the Classroom*. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development. – 1984. – 14 p.



RUS TILI DARSLARIDA KOLLOBORATIV TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Kojabaeva G.

Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Tayanch soʻzlar: hamkorlikda ishlash ta'lim texnologiyasi, muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik, rus tili darslarida kolloborativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi, 4K tamoyilini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya.

Ключевые слова: образовательная технология «работа в сотрудничестве», коммуникация, исследование, творчество, методика использования совместных образовательных технологий на занятиях по русскому языку, развитие принципа 4К, критическое мышление, творчество, сотрудничество и общение.

Key words: educational technology “work in cooperation”, communication, research, creativity, methods of using joint educational technologies in Russian language classes, development of the 4K principle, critical thinking, creativity, cooperation and communication.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada rus tili darslarida kolloborativ ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi yoritib berilgan. Rus tili darslarini o'qitishda o'quvchilarning bir-birini o'zaro baholashi muhimligi va bu hamkorlikda ishlashni talab etishi keyingi asosiy element ekanligi aytib o'tiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описана методика использования технологий совместного обучения на занятиях по русскому языку. Отмечается, что следующим основным элементом является важность взаимной оценки учащихся на уроках русского языка и необходимость сотрудничества.

SUMMARY:

This article describes the methodology of using collaborative learning technologies in Russian language classes. It is noted that the next main element is the importance of mutual assessment of students in Russian language classes and the need for cooperation.

XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinnlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti .



4K model – bu har qanday faoliyatda foydali bo'ladigan insonning shaxsiy fazilatlaridir. Xususan, 4K nazariyasi birinchi marta 1950-yillarda Aqshda ishlab chiqilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir inson maktabda, ishda va hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun bunday fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Agar ushbu ko'nikmalar har bir maktab bitiruvchisida bo'lmasa muvaffaqiyatli bo'lishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu masalada 4K ko'nikma (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya) lar insonning xayotiy muommolarini hal qilishga imkon beradi.

4K modelidagi **Kollaboratsiya** “Hamkorlikda ishlash” ta'lim texnologiyasi (Cooperative learning) – bu o'quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlardan biri bo'lib, juftlik yoki guruhli ta'limdan foydalangan holda tilni hamkorlikda o'rganishga urg'u beradi.

J.Ormod ham ma'lum bir fan doirasida emas balki umumiy ta'lim jarayonida sinfda “hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasini samarali tashkil etish uchun izlanishlar olib boradi va J.Rote va B.Oganning taklif etgan komponentlarining uchtasini: yuzma-yuz muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va jamoaviy mas'uliyatni chiqarib tashlashni tavsiya qilib, guruh birdamligi komponentini guruh a'zolarining o'zaro bog'liqligiga o'zgartirgan holda, aniq guruh maqsadi va kichik guruhlar nomli ikkita komponentni qo'shadi. Bizningcha, ushbu elementlar maktab o'quvchilari uchun mos bo'lib, ushbu elementlar tarix va adabiyot darslarini o'qitishda juda muhim bo'lganligi uchun ham asosiy elementlar qatoriga kiritish mumkin.


L.Nelsonning takidlashicha, texnologiya shubxasiz o'qituvchilar va o'quvchilarga hamkorlikdagi onlayn muhitda to'liq ishtirok etish imkoniyatini beradi tarix va adabiyot darslarini o'qitish uchun “hamkorlikda ishlash” (Cooperative learning) ta'lim texnologiyasining taklif qilingan birinchi tarkibiy elementi – bu “o'zaro ijobiy munosabatdir. Agar o'quvchilar berilgan vazifani bajarishda guruhdagi har bir a'zoning muvaffaqiyati muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunsalar, guruh a'zolari orasida ijobiy o'zaro munosabat shakllanadi. Natijada, guruh a'zolari vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun bir-birini qo'llab-quvvatlashi kerakligini tushunib yetadilar. Guruh a'zolari topshiriqni bajarish davomida o'z vazifasini tushunib bajarishsa shu bilan birgalikda guruh muvaffaqiyati uchun boshqa guruh a'zolariga yordam bera olishsa bu o'zaro ijobiy munosabatni anglatishi, shaxsiy javobgarlikni o'zaro ijobiy munosabatning ajralmas bir qismi ekanligidan dalolat beradi. Agar o'quvchilar topshiriqni bajarishda guruh a'zolarini ularni qo'llab-quvvatlashga



harakat qilishsa, individual javobgarlik bir vaqtning o'zida avtomatik tarzda sodir bo'ladi.

Rus tili darslarini o'qitishda o'quvchilarning bir-birini o'zaro baholashi muhimligi va bu hamkorlikda ishlashni talab etishi keyingi asosiy element sifatida "tengdoshni tengdosh baholashi"ni taklif qilishimizga sabab bo'ladi.

4K modelining tarkibiy qismi kolloborativ ko'nikma orqali tengdoshni tengdosh baholashi guruhga o'z xatolarini bilish va ularni o'qituvchiga topshirishdan oldin xatolarni tuzatish imkoniyatin beradi. Bizningcha, tengdoshni tengdosh baholashi qo'yidagi bosqichlarda olib borishni tashkil etish mumkin. (1-rasm)



Demak, bu haqida M.Nelson ham o'zaro baholashni qo'llab-quvvatlaydi va o'qituvchidan va boshqa guruhlardan olingan fikr-mulohazalarga tayanib muntazam ravishda formativ baholashni kiritish kerakligini ta'kidlaydi . Tengdoshi yoki o'qituvchi tomonidan baholanishi har bir guruh a'zosining vazifasini, ularning topshiriqni bajarish uchun qo'shgan hissasini aniq bilishni yoki qatnashmaganliklari uchun jazolashni ta'minlab beradi . Tengdoshni tengdosh baholashda qiyinchilikka uchramasligi uchun mavjud S.Raxmidjati va hamkasblari tomonidan o'quvchilarning gapirish malakasini baholash uchun ishlab chiqilgan baholash mezonini takomillashtirilib, yangi "tengdoshning fikr-mulohazasi" bo'limi qo'shilgan holda quyidagicha o'zgartirish kiritdik:

mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlarni o'rtoqlari bilan birgalikda bajarishda yetakchilik qilishi;

guruh bo'lib ishlaydigan vazifalarda jamoaniing fikrlarini inobatga olgan holda nutq qilish;




interaktiv ishlash va boshqalarning fikrlariga suyangan holda taqdimot qila olish;

o'qituvchi tomonidan berilgan vazifalarni o'rtoqlari bilan bajarishda liderlik qilishi;

jamoaviy ishlashda va shaxslar aro muloqotda nutqiy jarayonni to'g'ri amalga oshirish.

Bu esa o'z navbatida o'quvchilardan diqqat bilan tekshirish uchun bor bilim mahoratini ishga solishi va yuqori kognitiv fikrlash darajasi sifatida keltirilgan analiz va sintez qilishni talab etadi.

Kolloborativ ta'lim texnologiyasi asosida qo'yiladigan mezon talablari qo'yidagicha amalga oshiriladi. (2-rasm)



Ushbu mezonlarning har biriga maksimal uch balldan ajratilgan va har bir baholash mezoniga qay holatda bir, uch, to'rt, besh qo'yilishi batafsil tavsiflangan bo'lib, umumiy hisobda o'quvchi maksimal 25 ball olishi mumkin. O'quvchilarga mazkur baholash mezonini taqdim etilishidan oldin albatta o'qituvchi tomonidan batafsil tushuntirish berilishi, mezonlar va qay holatda uch, to'rt, besh ball qo'yilishining tavsifi batafsil izohlanishi lozim.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida etishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.

Xulosa qilib shuni aytmochimanki, kolloborativ ta'lim texnologiyalarining asosiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish rus tili darslarida o'quvchilarga atrofda voqelikning xilma-xilligiga yo'nalishni beradi, dunyo boy va turli tomonlardan tushunilishi mumkinligini tushunadi, shuningdek muvaffaqiyatli o'qishga hissa qo'shadi.

Xulosa sifatida rus tili darslarida yuqori sinf o'quvchilarining leksik kompetentsiyasini rivojlantirishning afzalliklaridan unumli foydalanib, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini xalqaro tajribadan o'rgangan holda o'quvchilarda qo'yidagi qobiliyatlar rivojlanishi aniqlandi:

-aloqa jarayonida o'ziga xos va yangi bo'lish qobiliyati;



- nostandart kommunikativ vazifalarni hal qilish qobiliyati;
- hamkorlikka asoslangan ta'lim va o'zgartirish faoliyati qobiliyati;
- do'stlik, o'rtoqlik ko'nikmalarining shakllanishi;
- tanqidni idrok etish qobiliyati;
- kommunikativ tasavvur qilish qobiliyati;
- ya'ni fikr-mulohaza va o'z-o'zini aks yettirishga asoslangan nutqiy qobiliyati;
- murakkab qiyinchiliklar va to'siqlarni modellashtirish va bashorat qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Adabiyotlar:

1. И.Б.Клак, Развитие 4к умений учащихся с использованием сервисов google на уроках истории и обществоведения
2. Ormrod J.E. Educational psychology: Principles and applications. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. – 1995. – 662 p.
3. Nelson L.M. Collaborative problem solving // In C. M. Reigeluth (Ed.), Instructional design theories and models: A new paradigm of instructional theory. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum. – 1999. – P. 241-267.
4. Nelson L.M. Collaborative problem solving // In C. M. Reigeluth (Ed.), Instructional design theories and models: A new paradigm of instructional theory. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum. – 1999. – P. 241-267.
5. McWhaw K., Schnackenberg H., Sclater J., Abrami P.C. From cooperation to collaboration: Helping students become collaborative learners // In Gillies R.M., Ashman A.F. Cooperative learning: The social and intellectual outcomes of learning in groups New York: Routledge Falmer. – 2003. – P. 69-86.
6. Rachmijati C., Anggraeni A., Apriliyanti D. Implementation of blended learning through youtube media to improve students' speaking skill // OKARA: Jurnal Bahasa dan Sastra. – 2019. № 13 (2) – P. 153-164. DOI: 10.19105/ojbs.v13i2.2424
7. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.



TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH - DAVR TALABI

Jumaniyazova Z.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, pedagogik ta'lim, qobiliyat, ko'nikma, ijodkorlik.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, педагогическое образование, умение, мастерство, креативность.

Key words: competence, competence, pedagogical education, ability, skill, creativity.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada pedagogik ta'limda kompetensiyaning o'rni, kasbiy kompetensiya, oliy ta'lim muassasasida kasbiy ta'lim muhitini yaratish asosida talaba yoshlarning raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirish, oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish usullari haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматривается роль компетентности в педагогическом образовании, профессиональная компетентность, развитие профессиональной компетентности студентов высших учебных заведений.

SUMMARY:

The article examines the role of competence in teacher education, professional competence, and the development of professional competence of students of higher educational institutions.

Ta'lim funktsionalligi jihatidan jamiyatning har bir sohasini tizim tarzida amal qilishi va rivojlanish dinamikasini ta'minlash uchun xizmat qilib, yangi texnologiyalarni yaratish va tatbiq etish, takomillashtirish, ularni diagnostikasini amalga oshirish, prognoz qilish, sohaga rivojiga to'siq bo'luvchi omillarni o'z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish usul va vositalarini qo'llash yo'llarini belgilab beradi. Bu holat, o'z navbatida ijtimoiy buyurtma sifatida ta'lim oldida bir qator yangi vazifalarni qo'yishni taqozo etadi. Vazifalar milliy manfaatlar va ehtiyojlarni qondirishni inobatga olgan holda belgilanishi lozim. Negaki, ta'limning o'tmishdagi (yuz yillikda) muammosi – ta'limni hammabopligini (barcha uchun) ta'minlashdan iborat bo'lsa, bugungi kun ta'limining muammosi – ta'lim sifatini barcha uchun ta'minlashdan iborat. Shu bois, istiqbolda



ta'lim tizimi oldida vujudga keladigan (xususi) muammo, bu har bir ta'lim oluvchi uchun talaba (individual) ta'lim sifatini ta'minlash (turi va sohasi bo'yicha) masalasi namoyon bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Mazkur ta'lim tizimini, jumladan Oliy ta'limni modernizatsiyasini amalga oshirish milliy taraqqiyotni ta'minlash strategiyasi doirasida ehtiyoj sifatida namoyon bo'ldi. Respublikamiz ta'lim tizimi va undagi o'qitish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi islohotlari tahlil qilinib, shunga ko'ra ta'lim tizimini modernizatsiyalash uning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ishlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

“Taraqqiyot strategiyasi”ning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishining 70-maqsadida: “Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish” [1] belgilangan bo'lib, bu talabalarining kasbiy kompetentligini ta'minlashning institutsional asoslaridan biri sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: “Aksariyat bitiruvchilarning bilim va malakasi mehnat bozori talablariga javob bermayotganini ham tan olishimiz kerak. Mahalliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish darajasi juda past” [2].

Professor V.R. Topildiyev: “bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo'jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta oliy ma'lumot talab etadigan bo'sh ish o'rinlari bor. Lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo'yicha ham bu talabni qondira olmaydi” deya munosabat bildirgan holda buning uchun hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatining to'rtta ustuvor jihatiga e'tibor qaratilayotganini ko'rsatib o'tgan:

birinchisi – oliy ta'lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirishga;

ikkinchisi – o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta'minlash va talabaning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratishga;

uchinchisi – oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirishga;

to'rtinchisi – professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korruptsiyani keskin qisqartirish”ga [3] e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.



Shu sababli ham “Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da ko’rsatib o’tilganidek, “oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo’shadigan, mehnat bozorida o’z o’rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo’lga qo’yish” [7] kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Talabalarining kasbiy kompetentligini ta’minlash o’z navbatida mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash imkonini berishini inobatga olsak, bunda talabalarining kasbiy kompetentligini ta’minlashda quyidagi konseptual qoidalarni inobatga olish talab etiladi:

“nazariya va uslubiyotga ilmiy yondashgan holda oliy ta’lim muassasasi talabalarining raqobatbardoshligini ta’minlash nuqtai nazaridan yaxlit konsepsiyani ishlab chiqish va asoslash;

oliy ta’lim muassasasida kasbiy ta’lim muhitini yaratish asosida talaba yoshlarning raqobatbardoshligini shakllantirishning aniqlangan qonuniyatlari va tegishli tamoyillari sifatida namoyon bo’luvchi strategiya «yadrosi»ni tanlab olish;

oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish bo’yicha strategiyaning nazariy modelini ishlab chiqish;

oliy ta’lim muassasasi talabalarining raqobatbardoshligini ta’minlashni strategik rejalashtirishning tarkibiy va funktsional komponentlarini aniqlash;

zamonaviy mehnat bozorida oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining samarali xulq-atvor xususiyatlarini loyihalash” [4].

Tadqiqotchi A.Y. Axmedov fikricha, “Bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko’nikmalar, o’z-o’zini boshqara olish layoqatlarining o’zaro bog’liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi” [5]. Negaki, XXI asr barcha sohalarida keskin rivojlanishni, jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy omillari chuqur ilmiy ahamiyatga ega bo’lgan manbalarga tayanishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, jamiyatning barcha sohalarida yuqori kompetentli mutaxassislarga bo’lgan ijtimoiy ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Bu esa oliy ta’lim muassasalari oldiga bo’lajak kadrlarning raqobotbardoshligini ta’minlashni nazarda tutadigan innovatsion pedagogik dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish zaruratini qo’yadi.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan kompetensiyaga yo’naltirilgan ishlarni maqsadli va manzilli tashkil etilishi har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Bunda, eng avvalo, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy



mutaxassis tayyorlash - o'quv jarayonida talabaning kasbiy faoliyat asoslarini mustahkam egallashi, amaliy faoliyatli ko'nikma va malakasini shakllantirishi lozim.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz lozimki, zamonaviy talaba egallashi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiya ya'ni amaliy tajriba, olingan bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirish ko'nikmasi, ta'kidlash mumkinki, kasbiy professionalikka o'tadi. Bugungi o'zgaruvchan, beqaror vaziyatda professional tayyorgarlikka ega bo'lgan, taraqqiyotga tez moslashuvchan kadrlarni tayyorlash, ularni pedagogik-psixologik barqarorligini shakllantirish, vaziyatni oldindan prognozlashtirish qobiliyatini rivojlantirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni. 2022-yil 28-yanvar. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan tabrigi. 2020-yil 30-sentabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5569>.
3. Topildiyev V.R. Oliy ta'lim muassasalarida kredit - modul tizimini joriy etish xususida ayrim mulohazalar // Science and innovation international scientific journal, 2022. № 3.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ... diss. – Toshkent, 2007. 286 b.
5. Axmedov A.Y. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari. // Academic research in educational sciences scientific journal volume 1, issue 4, 2020.



INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARIDAN O'QUV MASHG'ULOTLARIDAN FOYDALANISH

Primov D.D.

Xalqaro Nordik Universiteti magistranti

Tayanch so'zlar: texnologiya, metod, ta'lim oluvchilar, pedagog, ta'lim sifati, muammoli ta'lim, mexanizm, trening, g'oya, integratsiya, fanlararo aloqadorlik, tajriba-sinov ishlari, integratsiyalashgan dars, ta'lim samaradorligi.

Ключевые слова: технология, метод, обучающиеся, педагог, качество образования, проблемное обучение, механизм, обучение, идея, интеграция, междисциплинарность, экспериментальная работа, интегрированный урок, эффективность обучения.

Key words: technology, method, learners, educator, quality of education, problem education, mechanism, training, idea, integration, interdisciplinary engagement, pilot work, integrated lesson, educational effectiveness.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada hozirgi kunda o'quv jarayonini ilg'or innovatsion ta'lim texnologiyalar va metodlari talabi asosida tashkil etish unga unga tegishli o'qitish texnologiyalarni joriy qilish, ta'lim mazmunini doimiy ravishda yangilab borishga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье отмечается, что в настоящее время организация образовательного процесса на основе спроса на передовые инновационные образовательные технологии и методы направлена на внедрение соответствующих технологий обучения, постоянное обновление содержания образования.

SUMMARY:

In the article, currently, the organization of the educational process on the basis of the requirement of advanced innovative educational technologies and methods is aimed at introducing related teaching technologies into it, constantly updating the content of Education.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari amaliyotga qo'llay olishiga hamda



mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga hatto xulosalarni xam o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadilar.[3]

«FSMU» metodi.

Texnologiya ning maqsadi:

Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan

xususiyl xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- ta'lim oluvchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:[2]

- ta'lim oluvchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili ta'lim oluvchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

“SWOT-tahlil” metodi. Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to'siqlar

2-rasm. “SWOT-tahlil” metodining tuzilmasi.



3-rasm. “Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“ B A H S - MUNOZARA” metodi

- biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar

mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;

- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

Xulosa qilib aytganda ushbu innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda metodlaridan ta'lim jarayonida foydalanish ta'lim oluvchilar tomonidan



bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plash, ular orqali ma'lum bir yechimga kelishi ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

2024yilning 7-dekabr kuni tajriba-sinov yakunlandi. Natijalar umumlashtirildi va matematik-statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra taqqoslash guruhi ham, tajriba guruhida ham talabalarning "Kompyuter savodxonligi"ning o'zlashtirilishida ijobiy dinamika qayd etilgan. Ammo tajriba guruhining o'zlashtirish darajasi ancha yuqori ekanligi aniqlandi. (1-diagramma)

Tahlillar va natijalar. Yuqoridagi keltirgan fikrimiz isboti sifatida Monamarkazda o'quv jarayonini kuzatdik, dars mashg'ulotlari tashkil qildik hamda tajriba-sinov ishlarini o'tkazdik. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa integratsiyalashgan darslarning bolalarga qay darajada qiziqish uyg'otishini hamda ularning ilmiy salohiyatining oshishiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlari ta'lim jarayonini integratsiyalash texnologiyalari asosida tashkil etish bo'yicha o'tkazildi. Kompyuter savodxonligi darslari bo'yicha ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar amalda sinab ko'rildi. Nazorat guruhlari va tajriba guruhlarida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan testlar bo'yicha darslar o'tilib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahar "Ishga-marhamat" monomarkazidagi Kompyuter savodxonligi guruhi o'quvchilarida o'tkazildi. Ushbu tadqiqot ishida 4/24-guruhi nazorat guruhini, 3/24 tajriba guruhini tashkil qildi. Tajriba-sinov ishida jami 53 nafar o'quvchilari qamrab olindi. Shulardan 29 nafari tajriba guruhi, qolgan 24 nafari nazorat guruhi sifatida olindi.

Tajriba-sinov dasturiga muvofiq, guruhlardan oktabk oyida integratsiyalashgan test-so'rovnoma topshirig'i olindi.

Jadval-1


Integratsiyalashgan test-so'rovnoma topshirig'i jadvali.

Guruhlar	Guruh t/r	Talabalar soni	Dastlabki test so'rovi natijalari Talabalarning o'zlashtirishi % da	Keyingi test so'rovi natijalari Talabalarning o'zlashtirishi % da
Tajriba guruhi	"Kompyuter savodxonligi"	29	74%	84%
Taqqoslash guruhi	"Buxgalteriya"	24	73%	78%



Diagramma-1

Tajriba-sinov natijalarining qiyosiy diagrammasi



Muhokama. Ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi ballarning o'rtacha qiymati nazorat guruhiga nisbatan yuqori. Pedagogik tadqiqotlarda gipoteza sifatida nazorat guruhida olib borilgan an'anaviy metodika asosida olingan natijalar tajriba guruhida olib borilgan maxsus metodika asosida olingan natijalar bilan taqqoslanib, tajriba guruhlaridagi natijalarning samarali ekanligi ko'rsatildi.

Ushbu natijalardan ko'rinib turibdiki, tajriba-sinov asosida o'quvchilarda integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish ijobiy natija bergan. Shunday ekan, dars jarayonida fanlarni integratsiyalash o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi degan xulosaga kelish mumkin.

To'g'ri, integratsion dars faqatgina fanlarning yoki mavzularning uyg'unlashtirilishi bilan samarali bo'lib qolmaydi. Chunki ushbu mujassam darsning samaradorligga erishish uchun maqsadlarni aniq qo'yish, darsni tashkil etishda interfaol metodlarni qo'llash muhim sanaladi.

Bu usullar orqali uyg'unlashgan dars maqsadiga erishiladi va o'quvchilarning bilim olish jarayoni osonlashadi. Integratsiyalashgan darslar har doim ham kerakli natijani beravermaydi. Negaki har bir darsni shu asosda tashkil qilish juda murakkab va o'quvchilar uchun zerikarli bo'lib qoladi. O'qituvchidan integratsiyalashgan dars mashg'ulotlari darsga oldindan mukammal tayyorlanishni, vaqtni to'g'ri taqsimlay olish ko'nikmasiga ega bo'lishni, mavzularni to'g'ri tanlay olish kabi qobiliyatlarni talab etadi. Bu esa, anglashilganidek, o'qituvchiga birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Agar mavzu integratsiyalashgan darslar uchun mos kelmasa, o'qituvchi o'z maqsadiga erisha olmaydi hamda o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirolmaydi.



Demak, integratsiyalashgan darsning muvaffaqiyati bevosita o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, ta'lim tizimga alohida e'tibor qaratish hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Ayniqsa, ularda o'quvchilar bilan ishlashga doir amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga e'tibor qaratish zarur.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, fanlararo integratsiya qanchalik tezlikda darslariga kirib borsa, o'quvchilarning ham nazariya bilan amaliyotni birlashtirishi shunchalik tez bo'ladi. Integral darslarda bola dunyoni yaxlit tasavvur qila boshlaydi, bolaning salohiyati rivojlanadi. Natijada bolaning muloqot qobiliyati, taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar rivojlanadi. Pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim muassasalarida o'qitishning asosiy talabi talabaning hayotiy tajribasi, ilgari olgan bilimlari va qiziqishlari asosida yangi ta'lim berishdir. Muassasadagi fanlarini bir-biriga bog'lab o'qitishda o'qituvchi hamisha o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakasini takomillashtirib borishi kerak, uning pedagogik mahorati o'sib borishi o'quvchilarning faolligida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. A. X. Avezov., A.N.Amrullayeva., M.M.Namozova., "Aqliy hujum" va "Keys study" metodlari yordamida "Funksiya hosila" mavzusini o'qitish. // SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2/ ISSUE 6/ 2021. 1689-1696. <https://cyberleninka.ru/article/n/aqliy-hujum-va-keys-study-metodlari-yordamida-funksiya-hosilasi-mavzusini-o-qitish/viewer>
2. Po'latova R.T.Modulni o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalari // Interpretation and researches. J.: 71-75 <https://cyberleninka.ru/article/n/modulni-o-qitishda-interfaol-ta-lim-metodlari/viewer>
3. Yusupova A.P. Hamkorlik texnologiyasiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish. // J.: Muallim ham uzliksiz bilimlendirio' ilmiy metodik jurnal, 2023. 5/3-son. 328-332 b.
4. Pedagogika/ Nopedagogik OTM uchun darslik. U.I.Inoyatov va b/-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.



PEDAGOGLARDA IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI ISHLASH BO'YICHA TAKLIF VA TAVSIYALAR ISHLAB CHIQISH

Rahimov J.Q.

*Toshkent shahar xalqaro Nordik universiteti, Pedagogika
fakulteti magistri*

Tayanch soʻzlar: pedagogning ijodkorligi, bolalar psixologiyasi, pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatleri, shaxsiy namunasi, mehnat shaxsni shakllantirish, pedagogik mahurat, pedagogik texnologiya, kasbiy mahorat, muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash.

Ключевые слова: творчество педагога, детская психология, личностные и профессиональные качества педагога, личный пример, трудовое формирование личности, педагогическое мастерство, педагогическая технология, профессиональное мастерство, коммуникабельность, трудолюбие, способность представить будущее, профессиональная самостоятельность, сенсорная информация быстро понимается

Key words: creativity of the educator, child psychology, personal and professional qualities of the educator, personal example, Labor personality formation, pedagogical skill, pedagogical technology, professional skill, tendency to communication, workability, ability to imagine the future, professional independence, speed perception of sensory information.

РЕЗЮМЕ:

Pedagog o'qituvchi yuqori madaniyatli mutaxassis, o'z o'quv fanini chuqur biladigan, fan yangiliklari bilan tanishadigan, bolalar psixologiyasini amaliy biladigan, ta'lim-tarbiya metodikasini yuqori darajada egallab olgan shaxs shuningdek barkamol avlod tarbiyalash, pedagogik qobiliyatga ega bo'lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o'qib olish), pedagogik texnikani egallash, ya'ni o'z-o'zini boshqara olish qobiliyatiga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ:

Педагог – это высококультурный специалист, человек, глубоко знающий свой предмет, знакомый с новейшими достижениями науки, обладающий практическими знаниями детской психологии, овладевший методикой обучения на высоком уровне, а также воспитывающий зрелого человека. поколение, обладающее педагогическими навыками (склонность к общению, трудолюбие, способность представлять будущее, профессиональная самостоятельность, быстрое понимание сенсорной информации (чтение по лицу), овладение педагогическими приемами, т.е. ориентирован на умение управлять.

SUMMARY:

The pedagogical teacher is a highly cultured specialist, a person with a deep knowledge of his educational science, familiar with Science News, practical knowledge of children's psychology, a



high level of educational methodology, as well as the ability to educate a harmonious generation, have pedagogical abilities (predisposition to communication, workability, ability to imagine the future, professional independence, speed perception of sensory information (reading from the face)).

Respublikamizda so'nggi yillarda texnikumlarda ta'lim sohasida bir qator sohalarga yetuk, malakali mutaxassislarni tayyorlash, yetakchi xorijiy mamlakatlarning tajribalari, innovatsion texnologiyalarga asoslanish, ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion loyiha va texnologiyalarni to'laqonli tadbiq etishning me'yoriy asoslari ishlab chiqilmoqda. «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot Guliston Agrotexnologiyalar texnikumida olib borildi. Tadqiqot davomida kuzatish, so'rovnoma, amaliy sinov va ta'lim jarayonini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali o'quvchilar o'rtasida ijodiy fikrlash qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishi o'rganildi tadqiqotda 52 nafar 1- kurs o'quvchilari ishtirok etdi. Shuningdek, dars jarayonlarida va boshqa ijodiy yondashuvlar sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot davomida kuzatuv va so'rovnoma orqali sifat va miqdoriy ma'lumotlar yig'ildi. Amaliy mashg'ulot natijalari o'quvchilar ijodiy fikrlash ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tahlil qilindi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilar hamda o'quvchilarni ijobiy fikrlashi rivojlantirish, dunyo qarashlarini o'zgartirish yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning ijodiy fikrlashga yo'naltirish uchun metodologik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni takomillashtirish lozim. Shu maqsadda ushbu ilmiy ishda kelajakdagi mutaxasislarni ijobiy fikrlashni o'rgatishning samarali texnologiyalari va metodlari o'rganildi. Bunda turli metodikalar, pedagogik amaliyotlar va ta'limda innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqsad, o'quvchilarda chuqur fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilish hamda innovatsion ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Bunda Guliston Agrotexnologiya Texnikumida 2 ta guruh "Yengil sanoat" va "Kompyuter Injinerligi" yo'nalishlari tanlab olindi. Tajriba guruhi" etib, "Kompyuter Injinerligi" va "Yengil Sanoat" yo'nalishi esa "Taqqoslash(nazorat) guruhi" etib belgilandi


Tajriba-sinov ishlari 2024 yilning oktabr-dekabr oylari davomida olib borildi. Tajriba guruhi "Tarix" fanining har bir darsida o'tilayotgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash va nazorat-baholash maqsadida o'quvchilar individual, frontal



va guruhlarga bo‘lingan tartibda “Sinektika”, “Jigsaw” metodini bajarib borishdi. Taqqoslash guruhi sifatida tanlab olingan guruhda esa odatdagi tarzda darslarni tashkillashtirildi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilar shu darajada faollashib ketdiki, ular har darsda yana o‘yin o‘ynashni taklif qila boshlashdi.

2024 yilning 7-dekabr kuni tajriba-sinov yakunlandi. Natijalar umumlashtirildi va matematik-statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra taqqoslash guruhi ham, tajriba guruhida ham o‘quvchilarning “Tarix fani”ning o‘zlashtirilishida ijobiy dinamika qayd etilgan. Ammo tajriba guruhining o‘zlashtirish darajasi ancha yuqori ekanligi aniqlandi.

	Guruh t/r	O‘quvchilar soni	Dastlabki test so‘rovi natijalari O‘quvchilarning o‘zlashtirishi % larda	Keyingi test so‘rovi natijalari O‘quvchilarning o‘zlashtirishi% larda
Tajriba guruhi	Kompyuter injinerligi	25	45 %	75%
Taqqoslash guruhi	Yengil Sanoat	27	45%	75%



“Sinektika” metodini (yunoncha -geterojen elementlarning kombinatsiyasi)

“Sinektika” metodini 1960 yilda AQSH da U.Gordon tomonidan ishlab chiqilgan. Sinektika metodi (yunoncha – “geterojen” elementlarning kombinatsiyasi) motivatsiyasiga asoslangan ixtirochilik ijodkorligi usuli. Bu metod ta’lim oluvchilarga muammoning unsurlarini ifodalashga, ijodning bosh maqsad sifatda olishga, qo‘yilgan vazifalarni yechishning xar xil variantlarini izlashga yordam beradi.



Sinektika motivatsiyasiga asoslangan ixtirochilik ijodkorligi usuli. Bu metod ta'lim oluvchilarga muammoning unsurlarini ifodalashga, ijodning bosh maksad sifatda olishga, qo'yilgan vazifalarni yechishning xar xil variantlarini izlashga yordam beradi.

Metod amaliy mashg'ulotlari uchun qulay bo'lib, professional ta'lim muassasalarida mavzu bo'yicha quyilgan muammoni xal qilish yuzasidan o'xshashliklarga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini olg'a suradi. Bunda o'xshashliklar bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bulishi mumkin

1. O'qituvchi mavzu bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifani o'quvchiga bayon etadi.

2. Berilgan vazifani hal kilish yuzasidan o'xshashliklarga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini ifoda etadi.

3. Bunda o'xshashliklar zamonaviy xorijiy tajribaniki, shaxsiy yoki xayoliy bo'lishi mumkin

4. O'quvchi o'z g'oyasini asoslashga harakat qilishga imkon beriladi

5. O'quvchilar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar o'qituvchi va jamoa tomonidan taxlil qilinadi.

Mozaika (Jigsaw) - metodidan foydalanganda o'quvchilarning bir-biriga ijobiy bog'liqligi yuzaga keladi, ular jamoada mas'uliyat bilan ishlashni o'rganadilar.

O'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatni kamaytiradigan, motivatsiyani yaxshilaydigan va o'quv tajribasining zavqini oshiradigan usul hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga ajratadi, etakchini tanlaydi, darsni guruh a'zolari soniga teng bo'lgan bir qator segmentlarga ajratadi, har bir guruhdagi har bir o'quvchiga faqat bitta segmentni o'rganishni tayinlaydi va mashg'ulot oxirida o'rganishni tekshiradi. Hamkorlik bilan o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyat kamayadi va o'rganish motivatsiyasi yaxshilanadi.

- o'quvchilar raqamli texnologiyaga oid yangi g'oya bilimlarini yaratishga yordam beradi;

- o'quvchilar guruhlariga bo'linib, raqamli texnologiyalarga oid yangi g'oyalar haqida ma'lumot beradi.

- o'z guruhlarida o'quvchilar raqamli texnologiyalarga oid yangi g'oyalarni boshqa guruhdagi o'quvchilarga o'rgatish uchun yuqori darajada o'zlari o'rganadilar.

Ushbu texnikadan foydalangan holda, ishlash o'quvchilar yaxshi mutaxassis bo'lishiga va guruhda ijodiy fikrlashni, yangi g'oyalar yaratishni, hamkorlikda ishlashni o'rgatadi.

Tadqiqod davomida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Professional ta'limda pedagoglarning ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda, balki o'qituvchi



va o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro Nordik Universitetida o'tkazilgan 8 haftalik amaliyot pedagogik va boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab muhim jihatlarni o'rganish imkonini berdi.

Xulosalar. Tadqiqot ijodiy fikrlash texnologiyalrining samaradorligini tasdiqlaydi. O'quvchilar hamda o'qituvchilar o'rtasida .Pedagogik texnologiyada oldindan belgilangan asosiy maqsadga erishish kafolatlangan., Pedagogik texnologiyada, asosiy maqsadga erishish bosqichmabosqich amalga oshirilib, har bir bosqichda oldinga qo'yilgan maqsadlar, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar va talab qilinadigan vositalar hamda usul va uslublarning aniq modullari hosil qilinadi. Pedagoglarda va o'quvchilarda ijodkorlik kompetentlligini rivojlantirish texnologiyalarini rivojlantirish hamda o'quv jarayonini boyitadi nafaqat ularni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan mutaxassislar shakllantiradi.

1. Interfaol texnologiyalarini kengroq qo'llash: Dars mashg'ulotlarida **“Sinektika”**, **“Jigsaw”** metodlarini hamda **“Enerjalyzer”** o'yinlar singari usullardan foydalanishni kengaytirish.

2. Ijodiy topshiriqlarni joriy qilish: O'quvchilarga loyihaviy ishlar va mavzuga oid mustaqil ijodiy vazifalar berish.

4. O'quv jarayonini modernizatsiya qilish. Darslarni noan'anaviy shaklda tashkil etish uchun ilg'or texnologiyalarni joriy qilish.

Mazkur maqola ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni PF-5847 08.10.2019. Manba: www.gov.uz.

2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashr., 2011. – 206 b.

3. Ishmuhamedov R., Mirsolieva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 60 b.

4. Серова Л.К. Психология личности спортсмена: учебно-пособие для академического бакалаврианта / Л.К. Серова. – 2-е изд., испр. И доп. – М.: издательство Юрайт, 2019. – 124 с.

5. Hoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2012. – 50 b.

6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: Moliya, 2003. – 192 b.

7. Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova va b. – Namangan: “Navro'z”, 2014. – 263 b.

8. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, D.I. Ro'zieva, M.H. Usmonboeva. – T.: “Fan” nashriyoti, 2012. – 246 b.

9. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'll. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M.H. Usmonboeva, D.Inog'omova. – T.: TDPU,

10. Mahmudov A.X. Kompetentlik yondashuvining didaktik asoslari (2012).



INTELLEKTUAL TIZIMLAR ASOSIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI LOYHALASH

Ibragimov U.M.

BuxMTI, dotsenti

Xalilov F.V.

BuxMTI, katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: mustqil ta'lim, intellektual tizimlar, bilimlar bazasi, pedagogik tamoyillar, pedagogic yondashuvlar, elektron ta'lim komponentlari, texnik komponentlar, texnologik komponentlar, diagnostik elementlar.

Ключевые слова: самостоятельное образование, интеллектуальные системы, база знаний, педагогические принципы, педагогические подходы, компоненты электронного образования, технические компоненты, технологические компоненты, диагностические элементы.

Key words: independent education, intelligent systems, knowledge base, pedagogical principles, pedagogical approaches, components of electronic education, technical components, technological components, diagnostic elements.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada talabalar mustqil ta'limini intellektual tizimlar asosida loyihalashda mavjud pedagogik tamoyillar, uslubiy yondashuvlar, elektron ta'lim komponentlari, texnik komponentlar, texnologik komponentlar, diagnostik elementlardan (metodlar, shakllar, ob'ektlar) foydalangan holda ularning asosida intellektual tizimlarni qo'llashni asoslari hamda intellektual tizimlarni qo'llashda e'tibor qaratiladigan jihatlari hamqida ma'lumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассмотрены принципы использования интеллектуальных систем на основе существующих педагогических принципов, методических подходов, компонентов электронного образования, технических компонентов, технологических компонентов, диагностических элементов (методов, форм, объектов) при проектировании самостоятельного обучения обучающихся на основе интеллектуальных систем. и информация об аспектах, которые следует учитывать при применении интеллектуальных систем.

SUMMARY:

The article examines the principles of using intelligent systems based on existing pedagogical principles, methodological approaches, components of electronic education, technical components, technological components, diagnostic elements (methods, forms, objects) in the design of independent learning of students based on intelligent systems. and information on aspects that should be taken into account when using intelligent systems.



Talabalar mustaqil ta'limini intellektual tizimlar asosida loyihalashda biz albatta mavjud pedagogik tamoyillar, uslubiy yondashuvlar, elektron ta'lim komponentlari, texnik komponentlar, texnologik komponentlar, diagnostik elementlardan (metodlar, shakllar, ob'yektlar) foydalangan holda ularning asosida intellektual tizimlarni qo'llashni loyihalashimiz zarur.

Bunda biz sanab o'tilgan pedagogik tamoyillarni inobatga olishimiz maqsadga muvofiq.

Bunda har bir tamoyil o'quv jarayonini yaxshilash va o'quvchilarni samarali tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Keling, har birini qisqacha ko'rib chiqamiz:

- **Tizimli:** Ta'lim jarayoni tizimli yondashuv bilan tashkil etilishi kerak, bu esa barcha komponentlarning bir-biri bilan bog'lanishini ta'minlaydi.
- **Uzluksizlik:** Ta'lim jarayoni uzluksiz rivojlanishni ta'minlashi va o'quvchilarni doimiy o'qitish jarayoni bilan ta'minlashi kerak.
- **Bashorat qilish qobiliyati:** O'qituvchilar o'quvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga mos ravishda o'qitish usullarini tanlashlari zarur.
- **O'quv jarayonining moslashuvchanligi:** Ta'lim jarayoni o'quvchilar va ularning sharoitlariga mos ravishda o'zgarishi kerak.
- **Ta'limning harakatchanligi:** Ta'lim jarayoni o'zgaruvchan sharoitlarga javob bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.
- **O'qitishni individuallashtirish:** Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish.
- **Birgalikdagi faoliyat:** O'quvchilar o'rtasida hamkorlik va jamoaviy ishlarni rag'batlantirish.
- **Ta'limning mustaqilligi:** O'quvchilarni o'z-o'zini ta'lim olishga tayyorlash va ularga mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.
- **Ob'ektivlik:** O'qitish jarayonida ob'ektiv baholash va tahlil qilishni ta'minlash.

Bu tamoyillarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish, o'quvchilarning samarali o'qishiga yordam beradi.

Pedagogik tamoyillar bizga talabalarni bilim, tajriba va ko'nikmalarni shakllantirish orqali zaruriy kompetentsiyalarni va ushnu kompetentsiyalarning darajalarni shakllantirishda yordam berishi bilan bir qatorda ushbu tamoyillarga asoslangan holda mos uslubiy yondashuvlarni tanlashimiz zarurligini unutmaslik kerak. Shunga ko'ra va ilmiy tadqiqotlarni tahlillarimizga asoslangan holda intellektual tizimlarni talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda qo'llashda quyidagi uslubiy yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dunyoda ko'plab olimlar olimlar sun'iy intellektual tizimlarning rivojlanishiga o'qlarining katta hissalarini qo'shib kelmoqda, bular:

1. **John McCarthy** – sun'iy intellekt atamasini ilk bor o'rta tashlagan olim. Sun'iy intellekt sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borib, Lisp dasturlash tilini yaratgan [1].

2. **Marvin Minsky** – sun'iy intellekt va kognitiv ilm-fan sohalarida muhim tadqiqotlar olib borgan va MITda sun'iy intellekt tajribasiga asos slogan [2].

3. **Herbert A. Simon** – iqtisodiyot, boshqaruv, psixologiya va sun'iy intellekt sohalariga ulkan hissa qo'shgan. Intellektual tizimlar va qaror qabul qilish modellariga oid tadqiqotlar olib brogan [3].

4. **Geoffrey Hinton** – neyron tarmoqlari va chuqur o'rganish (deep learning) texnologiyalari bo'yicha yetakchi olim. Uning ishi sun'iy intellektida inqilobiy o'zgarishlar olib kelgan [4].

5. **Yoshua Bengio va Yann LeCun** – chuqur o'rganishning asoschilaridan biri bo'lib, ular intellektual tizimlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan [4].

6. **Alan Turing** – intellektual tizimlar sohasining fidoyilaridan biri. Uning Turing testi hozirgi sun'iy intellekt tadqiqotlarida ham asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi [5].

Ushu olinmlarning intellektual tizimlar xususan bilimlar bazalarini vosita sifatida talabalar mustqil ta'limini tashkil etishda qo'llash samara berishini inobatga olib uslubiy yondashuvlarni qo'llash zauriytani ta'kidlash kerak.

Uslubiy yondashuvlar ta'lim jarayonida o'qitish va o'qish metodlarini tanlashda foydalaniladigan asosiy nazariy yondashuvlar bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tamoyillar va printsiplarga ega. Quyida ta'limda qo'llaniladigan asosiy uslubiy yondashuvlar haqida qisqacha ma'lumot berilgan:

1. Aksiologik yondashuv

Aksiologik yondashuv ta'lim jarayonida qiymatlarni, axloqiy me'yorlarni va insoniy qadriyatlarni asosiy o'ringa qo'yadi. Bu yondashuv o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularda etika, madaniyat va shaxsiy qadriyatlarni



2.2.1.-rasm. Pedagogik tamoyillar talabalar mustqil ta'limini tashkil etishda hamiyati.



rivojlantirishni ham maqsad qiladi. O'qituvchilar o'quvchilarga o'z qadriyatlarini aniqlash va jamiyatdagi axloqiy masalalar haqida fikr yuritishni o'rgatishadi.

2. Tizimli yondashuv

Tizimli yondashuv ta'lim jarayonini o'zaro bog'langan qismlardan iborat sifatida ko'radi. Bu yondashuv o'quv jarayonini, o'quv dasturlarini va ta'lim jarayonidagi barcha elementlarni bir-biri bilan bog'liq va bir-biriga ta'sir etuvchi tizim sifatida o'rganadi. Tizimli yondashuv, ta'lim jarayonining har bir elementining o'zaro ta'sirini va ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

3. Ekologik yondashuv

Ekologik yondashuv ta'lim jarayonini ijtimoiy va tabiiy muhit bilan bog'liq ravishda o'rganadi. Bu yondashuv o'quvchilarga atrof-muhit, ekologiya va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushuntirishga qaratilgan. O'qituvchilar ekologik muammolar va ularning yechimlari haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarni atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatda bo'lishga rag'batlantiradilar.

4. Madaniy yondashuv

Madaniy yondashuv ta'lim jarayonida madaniyat, an'ana va tarixiy kontekstni inobatga olishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o'quvchilarga o'z madaniyatlarini va boshqa madaniyatlarni o'rganishga yordam beradi, shuningdek, madaniyatlararo tushunishni rivojlantiradi. O'qituvchilar o'quvchilarga turli madaniyatlar va ularning qadriyatlari haqida ma'lumot berish orqali ularning dunyoqarashini kengaytiradilar.

5. Texnologik yondashuv

Texnologik yondashuv ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni anglatadi. Bu yondashuv o'qituvchilarga o'quvchilarning ta'lim olishini yaxshilash uchun texnologik vositalardan foydalanishga imkon beradi. O'qituvchilar interaktiv ta'lim platformalari, multimedia, virtual reallik va boshqa texnologiyalarni qo'llab, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.


6. Axborot yondashuvi

Axborot yondashuvi ta'lim jarayonida axborot va bilimlarni olish va uzatishga asoslanadi. Bu yondashuv o'quvchilarga axborotlarni izlash, tahlil qilish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar axborot texnologiyalaridan foydalanib, o'quvchilarga ma'lumotlarni samarali taqdim etishga va o'zlarining fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirishga rag'batlantiradilar.

Ushbu uslubiy yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.



Pedagogik tamoyillar va mos uslubiy yondashuvlarni qo'llash qanchalik yaxshi samara bermasin biz talabalarning mustaqil ta'limini intellektual tizimlar asosida tashkil etmoqchi bo'lsak, albatta elektron ta'lim komponentalaridan keng foydalanishimizni taqozo etadi.



Elektron ta'lim (e-learning) ta'lim jarayonini raqamli vositalar va texnologiyalar yordamida tashkil etishga qaratilgan yondashuvdir.

2.2.2.-rasm. Talablarni mustaqil ta'limni tashkil etishda pedagogik yondashuvlarni maqsadga yo'naltirilganligi.

Uning samarali bo'lishi uchun bir necha muhim komponentlar mavjud. Quyida elektron ta'limning asosiy komponentlari, ya'ni inson, protsessual va texnologik komponentlar haqida qisqacha ma'lumot berilgan [6]:

1. Inson komponenti

Inson komponenti ta'lim jarayonida ishtirok etadigan barcha shaxslarni, ya'ni o'qituvchilar, o'quvchilar, ma'muriyat va boshqa manfaatdor tomonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentning asosiy jihatlari:

- **O'qituvchi:** O'qituvchi o'z bilim va ko'nikmalarini o'quvchilarga etkazish, ta'lim jarayonini boshqarish va o'quvchilarga yordam berish uchun elektron ta'lim platformalaridan foydalanadi.
- **O'quvchi:** O'quvchilar o'z bilimlarini oshirish, yangi ma'lumotlarni o'rganish va o'z-o'zini ta'lim olish jarayonida faol ishtirok etadilar. Ularning motivatsiyasi va qiziqishi elektron ta'limning muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.
- **Ma'muriyat:** Ta'lim muassasasining ma'muriyati elektron ta'lim jarayonini tashkil etish, resurslarni taqdim etish va ta'lim sifatini nazorat qilish bilan shug'ullanadi.

2. Protsessual komponenti

Protsessual komponent ta'lim jarayonining tashkil etilishi, rejalashtirilishi va amalga oshirilishi bilan bog'liqdir. Bu komponentga quyidagilar kiradi:

- **O'quv jarayoni:** O'quv jarayoni rejalashtirilishi, darslar, topshiriqlar, imtihonlar va boshqa faoliyatlar bilan bog'liq. Protsessual komponent ta'lim jarayonining strukturasi, usullari va metodlarini o'z ichiga oladi.




- **Интерактивлик:** Ta'lim jarayoni davomida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi interaktivlik muhim ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarning faol ishtirokini va fikr almashishini ta'minlaydi.
- **O'qish resurslari:** Elektron ta'lim jarayonida o'quvchilar foydalanadigan elektron kitoblar, video darslar, maqolalar va boshqa resurslar protsessual komponentga kiradi.

3. Texnologik komponent

Texnologik komponent elektron ta'lim jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalarni anglatadi. Ushbu komponentga quyidagilar kiradi:

- **Ta'lim platformalari:** Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi elektron ta'lim platformalari o'qituvchilarga darslarni tashkil etish, materiallarni yuklash va o'quvchilarning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.
- **Raqamli resurslar:** O'quvchilarga taqdim etiladigan elektron kitoblar, video darslar, interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar texnologik komponentga kiradi.
- **Axborot texnologiyalari:** Kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar va boshqa raqamli qurilmalar elektron ta'lim jarayonida axborot va ma'lumotlarni olish, uzatish va baham ko'rish uchun zarurdir.

Elektron ta'lim komponentlari birgalikda ta'lim jarayonini samarali, qiziqarli va moslashuvchan qilishga yordam beradi.



2.2.3.-rasm. Talablarni mustaqil ta'limni tashkil etishda elektron ta'lim komponentalarining o'zaro faoliyatining muhimligi

Bundan tashqari elektron ta'lim komponentlari bilan bir qatorda talabalar mustaqil ta'limini intellektual tizimlar asosida tashkil etishda intellektual tizimlarning to'laqonli faoliyatini yo'lga qo'yishda texnik va texnologik komponentalar, diagnostik-tuzatish bloki komponentalarni qo'llash ahamiyati haqida И.М. Шабазов [7], Н.А. Ахмадов [7], В.М. Трембач [8], Д.Н.Буторин [9], М.Г. Иванов [10] kabi olimlarning



ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlarida o'z natijalarini ko'rsatgan.

Bunda texnologik komponentlar sifatida elektron ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirishda foydalaniladigan texnologiyalar va vositalarni o'z ichiga oladi. Quyida ushbu komponentning asosiy elementlari haqida batafsil ma'lumot berilgan:

1. Elektron platforma

Elektron platformalar o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi interaktivlikni ta'minlash va ta'lim resurslarini taqdim etish uchun mo'ljallangan muhitdir. Ularning asosiy vazifalari:

- **Darslarni rejalashtirish:** O'qituvchilar darslar va o'quv faoliyatlarini rejalashtirish, materiallarni yuklash va baholashni osonlashtiradi.
- **Interaktiv aloqa:** O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida muloqot va fikr almashishni ta'minlaydi.
- **Nazorat va baholash:** O'qituvchilar o'quvchilarning faoliyatini kuzatish va baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. Intellektual tizim

Intellektual tizimlar elektron ta'lim jarayonida o'quvchilarni individual ravishda qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan. Ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- **Moslashuvchan o'qitish:** O'quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim materiallarini taqdim etadi. Masalan, qiyinligi o'quvchining bilim darajasiga qarab o'zgaradigan testlar.
- **O'z-o'zini baholash:** O'quvchilarga o'z bilimlarini baholash va o'z-o'zini rivojlantirish uchun vositalar taqdim etadi.
- **Yana o'rganishga yordam:** O'quvchilarga o'z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda yangi resurslarni taklif qiladi.

3. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (DBMS) ta'lim jarayonida muhim axborotlarni saqlash, boshqarish va uzatish uchun mo'ljallangan. Ular quyidagilarni ta'minlaydi:

- **Axborotlarni saqlash:** O'quvchilar, darslar, materiallar va baholar kabi axborotlarni to'plash va saqlash.
- **Ma'lumotlarga kirish:** O'qituvchilar va o'quvchilar uchun zarur bo'lgan axborotlarga oson kirishni ta'minlaydi.
- **Nazorat va tahlil:** O'quv jarayonini baholash va tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

4. Virtual va simulyatsion dasturlar



Virtual va simulyatsion dasturlar o'quvchilarga haqiqiy hayotdagi jarayonlarni taqlid qilish va o'z ko'nikmalarini amalda sinab ko'rish imkonini beradi. Ularning asosiy afzalliklari:


- **Amaliy ko'nikmalar:** O'quvchilar virtual muhitda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- **Riskni kamaytirish:** O'quvchilar xatoliklar qilishdan qo'rqmasdan, amaliy tajribalar to'g'risida bilim olishlari mumkin.
- **Interaktivlik:** Virtual simulyatsiyalar o'quvchilarga qiziqarli va interaktiv o'quv jarayonini taqdim etadi.

5. Lokal va global tarmoq

Lokal va global tarmoqlar elektron ta'lim jarayonida axborot va resurslarni uzatish uchun muhim rol o'ynaydi. Ularning asosiy jihatlari:

- **Axborot almashish:** O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida tezkor axborot almashish imkoniyatini yaratadi.
- **Resurslarga kirish:** O'quvchilar lokal va global tarmoqlar orqali turli xil ta'lim resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
- **Hamkorlik:** O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida, shuningdek, boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish imkonini beradi.

Ushbu texnik komponentlar elektron ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi va o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.



2.2.4.-rasm. Talablarni mustaqil ta'limni tashkil etishda texnologik komponentalar o'rni

Intellektual tizimlarga asoslangan mustaqil ta'lim platformasi elektron ta'lim jarayonida o'quvchilarga individual ravishda ta'lim olish imkoniyatini yaratish uchun mo'ljallangan zamonaviy platformalardir. Ushbu platformalar, o'quvchilarning ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'zgaruvchan sharoitlariga mos ravishda ta'lim materiallarini taqdim etishga qaratilgan. Quyida bu turdagi platformaning asosiy jihatlari va afzalliklari keltirilgan:

Asosiy jihatlari

**1. Moslashuvchan o'qitish:**

- Intellektual tizimlar o'quvchilarning individual o'rganish uslublarini va tezliklarini aniqlash orqali ta'lim materiallarini shaxsiylashtiradi.
- Har bir o'quvchining qobiliyatiga va qiziqishlariga mos ravishda qiyinchilik darajasini o'zgartirish imkonini beradi.

2. Interaktiv tajribalar:

- O'quvchilarga virtual sinflar, simulyatsiyalar va interaktiv darslar orqali amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.
- O'quvchilar real vaqtda savol berish va muammolarni hal qilish orqali faol ishtirok etishlari mumkin.

3. O'z-o'zini baholash va tahlil:

- O'quvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini baholash uchun turli xil testlar, vazifalar va baholash vositalarini taqdim etadi.
- Natijalar asosida individual o'qitish rejalarini tuziladi va zaruriy o'zgartirishlar amalga oshiriladi.

4. Teskari aloqa:

- Intellektual tizimlar o'quvchilarga ularga mos ravishda teskari aloqa berish orqali o'z o'rganish jarayonlarini yaxshilash imkoniyatini taqdim etadi.
- O'quvchilar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini tushunishlari uchun aniq va shaffof baholashlar oladilar.

5. Axborot va resurslar bazasi:

- O'quvchilarga keng qamrovli ta'lim resurslari, videolar, maqolalar va boshqa materiallarga kirish imkoniyatini beradi.
- O'qituvchilar taqdim etadigan materiallar doimiy ravishda yangilanadi va kengaytiriladi.

Afzalliklari

- **O'z-o'zini rivojlantirish:** O'quvchilar mustaqil ravishda ta'lim olish, o'z bilimlarini oshirish va yangi qobiliyatlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- **Erkinlik va moslashuvchanlik:** O'quvchilar ta'lim jarayonini o'z sharoitlariga va ish rejimlariga mos ravishda boshqarishlari mumkin.
- **Tezkor o'rganish:** Intellektual tizimlar yordamida o'quvchilar yangi bilimlarni tezda o'zlashtirishi va ularga asoslangan muammolarni hal qilishda yordam beradi.
- **Ko'p qirrali baholash:** O'quvchilarning faoliyatini baholash va tahlil qilish jarayoni yanada aniq va ko'p qirrali bo'ladi.



Intellektual tizimlarning qaysi sohada qo'llanilishidan qat'iy nazar eng yutuqli tomonlaridan bir bu ushbu tizimlarning inson yordamida yoki o'zini-o'zi tuzatish hamda modifikatsiyalanishi hisoblanib keyinchalik ushbu imkoniyat uning faoliyatini qaysi sohda bo'lmasain yanada samarali qo'llashga olib keladi, Shunga ko'ra bizning modelda kiritilgan diagnostik-tuzatish blokidan intellektual tizimlar asosida talabalar mustaqil ta'limini loyihalshnin ajralmas qismi hisoblanganligi sabab biz ularni ko'rib o'tsak.

Diagnostik-tuzatish bloki elektron ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash, tahlil qilish va kerakli tuzatishlar kiritish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu blokning asosiy tarkibiy qismlari - metodlar, shakllar va ob'ektlar - quyida batafsil ko'rib chiqiladi:

1. Metodlar

Diagnostik-tuzatish blokida qo'llaniladigan metodlar o'quvchilarni baholash va o'z-o'zini nazorat qilish jarayonini yaxshilashga yordam beradi:

• **Kompyuter testi:**

- Kompyuter testlari o'quvchilarning bilimlarini baholash uchun interaktiv va avtomatlashtirilgan shaklda o'tkaziladi.
- Testlar savollari ko'pincha turli formatlarda bo'ladi: yopiq, ochiq, ko'p tanlovli va boshqa shakllarda.
- O'quvchilarning natijalari avtomatik ravishda qayd etiladi va tahlil qilinadi.

• **O'z-o'zini nazorat qilish:**

- O'quvchilarga o'z bilimlarini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini beradi.
- O'z-o'zini nazorat qilish uchun testlar, savollar yoki interaktiv vazifalar taklif etiladi.
- Bu usul o'quvchilarga o'z zaif tomonlarini aniqlash va ularda ishlash imkonini beradi.

• **Konsultatsiya:**

- O'quvchilarga o'qituvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish imkonini beradi.
- Konsultatsiyalar davomida o'quvchilar o'z savollarini berishlari va tushunmovchiliklarni bartaraf etishlari mumkin.
- Ushbu jarayon o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'z bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

• **Xatolar tahlili:**

- O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan xatolarni tahlil qilish jarayoni.
- O'quvchilar o'z xatolarini va ularga sabab bo'lgan omillarni tushunishlari uchun qo'llaniladi.



- Bu metod o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Shakllar

Diagnostic-tuzatish jarayonini amalga oshirish uchun turli shakllar qo'llaniladi:

- **Masofaviy boshqaruv shakli:**

- Ta'lim jarayoni masofadan turib boshqariladi va amalga oshiriladi, bu o'quvchilarga o'z vaqtida va o'z sharoitlarida ta'lim olish imkonini beradi.
- O'qituvchilar o'quvchilarni masofadan nazorat qilish va baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

- **Uyga vazifalar:**

- O'quvchilarga mustaqil ravishda bajarish uchun uyga vazifalar beriladi.
- Bu vazifalar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

- **Imtihon:**

- Imtihonlar o'quvchilarning bilimlarini yakuniy baholash uchun o'tkaziladi.
- Ular ko'pincha turli formatlarda (yopiq, ochiq, yozma va boshqa) bo'lishi mumkin.
- Imtihon natijalari o'quvchilarning o'quv dasturidagi yutuqlarini baholash uchun asos bo'ladi.

3. Ob'ektlar

Diagnostic-tuzatish jarayonida foydalaniladigan ob'ektlar:

- **Test - sinov materiallari:**

- O'quvchilarning bilimlarini baholash uchun mo'ljallangan testlar.
- Ular ko'pincha standartlashtirilgan va o'quv dasturiga mos ravishda tayyorlanadi.

- **Qo'llanmalar:**

- O'quvchilar uchun mo'ljallangan qo'llanmalar, ularning bilimlarini mustahkamlash va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishda yordam beradi.
- Qo'llanmalarda nazariy materiallar, misollar va amaliy vazifalar keltiriladi.

- **Anketalar:**

- O'quvchilarning fikrlarini, qiziqishlarini va ehtiyojlarini aniqlash uchun mo'ljallangan savolnomalar.
- Anketalar yordamida o'quvchilarning o'qituvchilarga bo'lgan munosabatlarini, motivatsiyasini va o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarini tushunish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan mavjud pedagogik tamoyillar, uslubiy yondashuvlar, elektron ta'lim komponentlari, texnik komponentlar, texnologik komponentlar, diagnostik elementlardan foydalangan holda intellektual tizimlar asosida talabalar



mustaqil ta'limini loyihalashda bilimlar bazasini virtual muhitda akslantirish elementini qo'llashda pedagog sub'yektini faoliyatida pedagogik tamoyillar va uslubiy yondashuvlar keng qo'llaniladi. Bilimlar bazasi ichki elementida elektron ta'lim komponentlari, texnik komponentlar va albatta diagnostik-tuzatish bloklaridan foydalanilsa, talaba elementi texnologik komponent hisoblanmish intellektual tizimlarga asoslangan mustaqil ta'lim platformasining (e-IW) faol ishtirokchisi sifatida diagnostik-tuzatish blokiga bilvosita o'z faolligi orqali bilimlar bazasini keying davriy jarayonda yanada aniqroq ishlashi hamda mustqil ta'limni tashkil etishda nafaqat talabalarda kompetentsiya darajasini aniqlash balki unda pedagog yoki mutaxassis faoliyatiga sub'yektib holatlarni maksimal darajada bartaraf etishga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sanab o'tilgan pedagogik tamoyillar, uslubiy yondashuvlar, elektron ta'lim komponentlari, texnik komponentlar, texnologik komponentlar, diagnostik – tuzatish elementlar hamda bilimlar bazasini virtual muhitda akslantirish ichki bloki faoliyati asosida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish bugungi kunda elektron ta'lim muhitida talabalarni an'anaviy usullar va modellarga nisbatan ularning kasbiy kompetentsiyalarini turli darajalarda shakllantirish imkoniyatini bir necha barobar oshishirishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

1. John McCarthy Doing Optimality Theory. Applying Theory to Data/ April 2018, 322 pages. ISBN: 9781444301199, John Wiley & Sons Limited
2. Marvin Minsky The Emotion Machine: Commonsense Thinking, Artificial Intelligence, and the Future of the Human Mind/ ISBN: 0743276647 Nashr yili: 2007 Til: Rus tilida, 400 bet.
3. Herbert A. Simon Науки об искусственном ISBN-номер: 978-5-354-01182-7 Год издания: 2009
4. Bengio, Yoshua, Yann LeCun, and Geoffrey Hinton. "Deep learning for AI." Communications of the ACM 64.7 (2021): 58-65.
5. Alan Turing Mechanical Intelligence 1st Edition, Volume 1 - January 30, 19920 Editor: D.C. Ince Language: English Hardback ISBN: 9780444880581
6. Muradilloevich, I. U., Tanzilovch, O. K., Anvarovich, A. A., & Baxodirovna, S. I. (2020). Improvement of teaching methodology by using modeling programs of engineering education in higher education of uzbekistan. Journal of Critical Reviews, 7(14), 81-88.
7. И.М. Шабазов, Н.А. Ахмадов Интеллектуальные системы в образовании, обзор и тенденции развития/ Образование будущего DOI: 10.34708/ GSTOU.CONF.2021.47.25.015, 180-188 стр.
8. В.М. Трембач Электронные обучающие системы с использованием интеллектуальных технологий/ Образовательная среда 4/2013 52-62 стр.
9. Д.Н.Буторин Методика проблемного обучения студентов информатике на основе сетевой интеллектуальной обучающей системы/Автореферат Красноярск 2008, 21 стр.
10. М.Г. Иванов База знаний и экспертное сообщество для образования и науки/ Открытое образование 3/2007 70-76 стр.



SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXSIY PSIXOLOGIK CHEGARALARNING AHAMIYATI

Ibraymova A.

Nukus innovatsion instituti assistent o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: shaxs, psixologiyik bilim, reaksiya, psixologik himoyalanish, chegara.

Ключевые слова: личность, психологические знание, реакция, психологическая защита, границы.

Key words: identity, psychological knowledge, reaction, psychological defense, boundaries.

РЕЗЮМЕ:

Мазкур мақолада shaxslararo munosabatlarda shaxsiy psixologik chegaralarning ahamiyati tўғрисида сўз боради.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье говорится о важности личных психологических границ в межличностных отношениях.

SUMMARY:

This article discusses the importance of personal psychological boundaries in interpersonal relationships.

Respublikamizda mustaqillik yillarida inson shaxsiga nisbatan bo'lgan munosabat keskin o'zgardi. Jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir shaxs taqdiriga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, inson hayotining kelajagiga tamal toshi qo'yiladigan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, pedagogika va psixologiya, ijtimoiy psixologiya va bolalar psixologiyasi fanlarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotganligi shubhasizdir.

Jamiyatda ijtimoiy munosobatlari, shaxslararo muloqotlarning o'zgarishlari natijasida shaxsning o'z oldiga qo'yadigan maqsadlari ham, odamni faoliyatga undovchi motivlar ham, irodaviy harakatlarning hususiyati ham o'zgaradi. Psixologiya fanining muhim sohalaridan biri shaxs psixologiyasidir. Bu tarmoq shaxsning individual xususiyatlari – xarakteri, temperamenti, qobiliyati, xulq-atvorining yetakchi omillari, kasb-hunarga moyilligini o'rganadi. Bir necha o'n yillar davomida milliy psixologiya tadqiqotlari shaxs faoliyati prinsiplariga asoslangan edi. Milliy psixologiyada shaxs ikki qarash bilan o'rganiladi.



- Barcha psixologik jarayonlar - e'tibor, xotira, fikrlash shaxga tobe bo'lgan tanlangan xarakterga ega aktiv holtaga egadur. (motivatsiya, qiziqish, xarakter).

- Shaxsni o'z-o'zidan o'rganish qarshi bilan strukturasi, uning shakllanishi nazariyasini o'rgandi.

Shaxs – ijtimoiy va shaxslararo munosabat mahsuli, ongli faoliyatining subyekti bo'lmish individdir. Ma'lum ma'noda xarakter tipi quyidagi tartibda baholanadi:

1. Etakshi mayllar, affektlar, temperament.
2. Menning adaptiv va ximoya funksiyasi.
3. O'z-aro ta'sirlanishning o'bektiv munosabatlari.
4. Shaxsiy Menning sub'ektiv munosabatlari: shaxsiy chegaralar belgilash, qadiriylar, o'zini idrok etishi.

Shaxsiy chegaralarga to'qtalib o'tsak. Shaxsiy chegaralar nima o'zi?

Ishonsh hududi (ishonsh chegaralari) - biz har birin son bilan o'zimiz o'rnatgan aloqa chegaralari. Masalan, biz ba'zi tanishlarimiz bilan faqat ob-havoni muhokama qilishga tayyormiz. Va boshqalar bilan – ishda yoki shaxsiy hayotda bo'lgan voqiyalarni bulishamiz.

Sog'lom shaxsiy chegaralar belgilari:

- Siz bunday chegaralarni birovning maslahati bilan emas, mustaqil belgilaysiz;
- Ular siz ushuncha muhitni shakllantiradi vaziyat etkazmaydi;
- Ular moslashubchan bo'lib, vaqt o'tishi bilan har bir odam uchun o'zgarishi mumkin;
- Ular sizning shaxs va makoningiz yaxlitligini ko'rsatadi;
- Ular sizga qiyin vaziyatlarda ishonish beradi.

Shaxsiy chegaralar qachon buziladi?

Inson o'z qadiriylari yoki hissiyotlarini e'tiborsiz qoldirganda, boshqalarni rozi qilish o'zligidan keshganda shaxsiy chegaralarning buzilishi haqida gapirish mumkin. Yoki u o'zi boshqa odamlarning shaxsiy chegaralarini buzadi. Masalan, kattalar ko'pinsha kishik bolalarning jismoniy chegaralarini buzadi: bola istamasa- da uni yonoqlaridan tortib, qo'llariga olishadi. Shu bilan birga, kishik yoshli bolaning ota-onasi vaziyatni tabassum bilan kuzatishi yoki bolani itoatkor bo'lishga undaydi. Ayrim yoshdagilar kattalar atrofdagilargaa “yo'q” deya olmaydi va ozlarining manfaat va rejalariga zid ravishda ularning harqanday talablarini bajaradilar. Tanganing ikkinshi tomoni – bu o'z shikoyatlari yoki maslahatlari bilan so'ralmaganlarida bezobta qiladigan odamlar. Ayrim odamlar esa salomlashganda hamma bilan quchoqlashib, opishib ko'rishadi (bu hammaga ham yoqa bermaydi).



Shaxsiy chegaralar nima uchun kerak?

Shaxsiy chegaralar biz boshqa odamlar bilan muloqotda bo'lganimizda qulaylik "hudud"imizni aniqlashga yordam beradi. Biz belgilovchi chegaralar (masalan, qadriyatlar tizimi) bilan bir qatorda himoya chegaralari (bizlarni salbiy tajriybalardan himoya qiladigan)ni tizib chiqamiz. Himoya chegaralari sizning atrofingizdagi odamlar bilan tuzilgan shartnomaga o'xshaydi.

Shaxsiy chegaralar nafaqat o'zimizni yanada qulay his qilishimiz, balki o'zligimizni aniqlashga ham yordam beradi.

Siz o'z shaxsiy chegaralaringizni belgilab oldiniz ba kimdir ularni buzishga harakat qilayotganini angladingiz. Nima qilish kerak:

- O'z chegaralaringizni ayting. Odamlar hardoyim ham shaxsiy chegaralaringizni ataylab buzishmaydi. Ular me'yor chegarasida harakat qilyapman, deb o'ylashadi. Siz indamasangiz, ular o'zlarining g'oyalari va xatti-harakatlari sizga noqulaylik tug'dirayotganini bilishmaydi ham.
- "Men xabarlar"dan foydalaning. Bunday texnika orqali siz suhbatdoshingizga ishingizdagi gaplarni uning ko'ngliga tegmasdan ayta olasiz. Bunday xabarlarida siz o'zingiz va tuygularingiz haqida gapirasiz: "Mendan nariroq o'tiring" iborasi o'rniga "Ruparamda o'tirsangiz, o'zimni qulayroq his qilaman", "Yana olma sharbatini oldingmi, undan nafratlanaman" o'rniga "Menga olma sharbatidan ko'ra apelsin sharbati koproq yoqadi".
- "Yo'q" deyishni organing. Barsha ushun yaxsi bo'lishga majbur emassiz. Siz ushun noqulaylik tug'diradigan biron bir ishni qilish so'ralsa, bemalol radeting. Boshqalarning iltimoslarini o'z xohishlaringiz, imkoniyatlaringiz va vaqtingizga ko'ra qabul qiling yo rad eting. Ehtimol, hamkasbingiz keshqurun qarindoshini to'yiga boorish ushun sizdan hisobotini tugatishda yordam berishingizni so'rar. Agar vaqtingiz va xo'hishingiz bo'lsa, buni qilishingiz mumkin. Lekin bu sizga noqulaylik tug'dirsa, iltimosini rad etish ayb emas.
- Iltimoslarini bajarmaganingiz ushun sizdan hafa bo'lishsa, bu sizning aybingiz emas. Axir, siz o'zingiz ushun qadrli bo'lgan narsani himoya qilyapsiz! Hamkasbingizga hisobotini tugatishga yordam bermaganingiz ushun xafa bo'ldimi? U ishini qilishga ulgurmasa, bu sizni aybingiz emas, rejalariga qilib ishini to'g'ri taqsimlashi kerak edi.
- Shaxsiy chegaralarni himoya qilishda qat'iylik muhimdir. Ayrim xarakatkar sizga noqulaylik keltirayotganini darhol tushuntiring. Ehtimol, vaziyat yana takrorlanadi va qayta-qayta tushuntirishingizga to'g'ri keladi. Agar sizning so'roblaringizni e'tiborsiz qolishda davom



etsa, «sankciyalar» ni qo'llang. Ular individual bo'ladi: munosabatlarning tabiatini ozgartirishdan orani butunlay ochiq qilishga qadar.

- Chegaralaringiz buzilishiga qansha uzoq payt toqat qilsangiz, o'zligingiz va shaxsingizni shuncha tez yo'qatasiz. Har doim hamma ushun yaxshi bo'lish mushkul. Va agar siz atrofingizdagilarning doymiy roziligiga muhtoj bolsangiz, psixolog bilan maslahatlashib ko'rarsiz?

Jamiyat sizga o'z standartlarini ilgari suradi, ular har xil va qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Ularni o'zingizda sinab, sizning dunyoqarashingizga qanshalik mos kelishini tekshirib, ozingizning chegaralaringizni belgilashingiz mumkin.

O'zaro munosabat jarayonida siz boshqa odamlarning qadriyatlariga duch kelasiz va ular sizning fikringizga mos kelmasligi mumkin. Ularni o'rganib va ichki dunyongiz bilan solishtirish orqali shaxsiy chegaralaringizni aniqlaysiz.

Shaxsning psixik jihatdan o'sishiga o'zlikni anglash, o'zini-o'zi baholash va o'zaro munosabatlar xususiyatlari muhim hisoblanadi. Bu eng avvalo inson shaxsining psixologik asoslarini shakllantiruvchi, uning emotsional-hissiy, intellektual, ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga zamin yaratuvchi ontogeneznining dastlabki bosqichlariga taalluqlidir. Bunda oiladagi munosabatlar, xususan ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatning mohiyati, o'zaro shaxslararo muloqot katta rol o'ynaydi.

Shaxsiy chegaralar – shaxsan siz uchun qadrli bo'lgan narsalardir. Siz o'zingizni, hayotdagi o'rningizni, nimani yoqtirishingizni, nimani yoqtirmasligingizni, nimani yahshi his etayotganingizni va siz uchun nima yomonligini tushunasiz.

Adabiyotlar:

1. Egamberdieva N Ijtimoiy pedagogika / Oliy ta'lim muassasalari ushun darslik. – T. A.Navouy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009y.
2. Sunnatova. R. Irgasheva N.Tajiyeva.S. “Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish”. “SMY-AZIYA” – “san'at” jurnali nashriyoti. 2008.y.



UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA KREATIVLIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Yakubova M. Yu.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Tayanch so'zlar: kreativlik, iqtidorlilik, modernizatsiya, texnologiya, pedagogik kreativlik, kasbiy innovatsion kompetentlik, axborot-kommunikatsiya, kompetensiya, disput, diskussiya, milliy mentalitet va stereotiplar, diagnostika, tafakkur, istiqbolni

Ключевые слова: креативность, талант, модернизация, технология, педагогическое творчество, профессиональная инновационная компетентность, информационно-коммуникативная компетентность, спор, дискуссия, национальный менталитет и стереотипы, диагностика, мышление, перспектива

Key words: creativity, talent, modernization, technology, pedagogical creativity, professional innovative competence, information and communication competence, dispute, discussion, national mentality and stereotypes, diagnostics, thinking, perspective

РЕЗЮМЕ:

Maqolada bo'lajak pedagog kadrlarda kreativlik kompetensiyalarni shakllantirish ahamiyati va zarurligi, ta'limni modernizatsiyalash sharoitida ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, ta'lim-tarbiya samaradorligini sifat bosqichiga ko'tarish, pedagogik kreativlik kompetensiyalarni shakllantirish haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, muallif pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalarni aytib o'tgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье раскрывается важность и необходимость формирования творческих компетенций у будущих педагогических кадров, углубления их научных и практических знаний в условиях модернизации образования, поднятия эффективности образования на качественный уровень, формирования педагогических творческих компетенций. Также автор упомянул навыки, которые позволяют педагогам организовать творческую деятельность.

SUMMARY:

The article reveals the importance and necessity of forming creative competencies among future teaching staff, deepening their scientific and practical knowledge in the context of modernizing education, raising the effectiveness of education to a qualitative level, and forming pedagogical creative competencies. The author also mentioned the skills that allow teachers to organize creative activities.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Xalqaro pedagogik amaliyotda ta'lim oluvchilarning shaxsiy muhim sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. Shu nuqta'i nazardan umumta'lim maktablari o'quvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalari muhim hisoblanadi. Unda, milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini, o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalar belgilangan. Shu o'rinda o'quvchilarning kreativlik kompetenlikka ega bo'lishlarda o'qituvchi yo'llanmasi, ko'rsatmasi, topshiriqlari muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun o'qituvchi doimo izlanishda bo'lishi, fanga qandaydir bir yangiliklar olib kirishga intilishi, o'zining odobi, kasbiy sifatleri bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi darkor. O'z ustida ishlaydigan ijodkor o'qituvchilarning obro' - e'tibori, martabasi ulug' bo'ladi.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Kompetensiya – ta'lim oluvchining nazariy bilimlarga asoslangan hamda aniq bir hayotiy holatlarda muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan, bugungi kun talab etayotgan mustaqillik, ijodkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik kabi kasbiy sifatleri rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat usullaridan foydalanish qobiliyatidir.

Hozirda ko'plab ilm dargohlarida kreativlik kompetensiyalarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratishmoqda. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchilarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda, lekin shunga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar o'zlarida hamda o'quvchilarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayotganligi tajriba-sinov ishlarimizda aniqlandi.

Shu boisdan pedagoglarning o'quvchilarda kreativlik kompetensiyalarni tarbiyalashga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun



birinchi navbatda, kreativ tafakkur o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi zarur.

Quyida kreativlik kompetensiyalarni tarbiyalashning ba'zi mezonlarini keltiramiz:

1. O'z tafakkurini original, optimal yechimlar topish va ularni targ'ib qilishga qaratish, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga o'zini undash;

2. Yangiliklardan yoki boshqa insonlar siz to'g'ringizda noto'g'ri tushunchaga borishidan cho'chimaslik;

3. Keng mushohada etishga harakat qilish, an'anaviy bo'lmagan usullardan foydalanish, o'z tafakkur tarzi, milliy mentalitet va steriotitlar qobig'idan chiqib ketishga urining, erkin ijodiy mushohada yuritish;

4. Agar birinchi tajriba muvaffaqiyatsiz bo'lsa ham, o'z tajribadan voz kechmaslik, noan'anaviy usullarda fikrlashni davom ettirish, masala yechimining boshqa variantlarini topishga harakat qilish, boshqa yo'llarni aqlan qidirib topish, davom etish;

5. Disput, diskussiya, bahs, munozaralar uchun doimo ochiq bo'lish, uni o'ziga qaratilganligiga ishonmaslik, bahsni to'g'ri tashkil qilish, o'z fikrini har qanday bahslashuv jarayonida nazorat qilib borish;

6. Tushunarsiz narsa va hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilish;

7. An'anaviy usullarda faoliyat olib borishdan voz kechish, yangi usullarda ishlashga urinib ko'rish;

8. Yangi g'oyalardan qo'rqmaslik, ularni albatta keng qo'llash kabilar.

Bugungi kunda dunyo ta'lim hamjamiyati, pedagogika va psixologiya oldida ta'lim muassasalarida shaxsni optimal rivojlantirish vazifasi turibdi. XXI asr yoshlarini bilimlarni o'zlashtirishda ertangi jamiyatga tayyorlashda nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy kreativ tafakkurga ega bo'lgan kadrlar qilib tayyorlashimiz zarur. Zero, zamonaviy ta'lim taraqqiyoti yangi bilim, malaka va g'oyalar hisobiga rivojlanadi. Bu esa o'z o'rnida jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi va davlatimiz ravnaqi uchun xizmat qiladi. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik



xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Ya'ni o'quvchida kreativ tafakkur va kreativ fikrlash shakllantirilishi lozim.

Kreativ tafakkur jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichlarini ta'minlash uchun xizmat qiladigan noan'anaviy fikrlash qobiliyati va taraqqiyot omillarini ta'minlashga yo'naltirilgan tafakkur hisoblanadi.

Kreativ tafakkur rivojlangan davlatlarni xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida eng quyi bosqichdan tortib eng yuqori darajalargacha kreativ tafakkur talab qilinadi. Chunki u jamiyat taraqqiyotida uning takomili, o'sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo'tadil saqlanishining vositasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan pedagogik faoliyatda shunday o'qitishni tashkil etish kerakki, o'quvchi kreativ fikrlovchi, kelgusida zamonaviy jamiyat va ishlab chiqarishda muhim rejalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, asoslash, motivatsiyalash, nazorat qilish kabi funksiyalarni kreativ tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Kreativ tafakkur inson ma'naviyati, tarbiyasi, bilimi, intellekti, iqtidori kabilarni ishlata olish qobiliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Demak, har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarda mana shu xislatlarni pedagogik diagnostika metodlari orqali aniqlagan holda, uni shakllantirish va rivojlantirishi zarur.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni ong, tafakkur va aqlni barcha yo'nalishlarda istiqbolni ko'rish va anglashga o'rgatish, ularda tafakkur aqlning peshqadamligi, tafakkurning noan'anaviyligi, oldindan bashoratlay olish, ya'ni prognoz qila olish kabi xususiyatlarni pedagogik jarayonda maqsadli shakllantirilishi kerak.

Har qanday muammoning yechimi bo'yicha bir emas bir nechta yechimlarni ko'rsata olish, hamda ularning barchasini o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlarini har tomonlama asoslab berish, ko'pchilik o'ylab ko'rmaydigan masalaning boshqa jihatlarini ham ochib berish kabi aql peshqadamligiga ega bo'lish;

Zamonaviy taraqqiyot uchun yangi yo'nalishlar va yo'llarni ko'ra bilish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, faoliyatni yangilash, faoliyatdagi masalalar yechimini yangi yo'nalishlarini topa bilish kabi noan'anaviy tafakkurga ega bo'lish;



O‘z mehnat faoliyati sohasidagi istiqbol o‘zgarishlarning mohiyati, zaruriyati, amalga oshirilish muddatlarini tafakkur orqali oldindan anglash kabi prognoz, bashorat qila olish kabi xususiyatlar uzluksiz ta’lim jarayonida shakllanishi va takomillashishi o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini qanday tashkil etishiga bog‘liq

“Texnologiya” fani o‘quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida o‘quvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Shu sababli “Texnologiya” fanini o‘qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchilar, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистоннинг 2020 йил 6 ноябрдаги “Янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сонли фармони. www.lex.uz
2. Якубова М.Ю. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида креатив компетенцияларни такомиллаштириш/ Муғаллим-республика илмий-амалий журнали, 2020 йил. 1/1-сон, . –Б. 69-71 (ISSN 2181- 7138)
3. Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Scholastic Testing Service, Inc., 2004.
4. Белогуров А.Ю. Реализация компетентностного подхода в образовательном процессе // Педагогика. 2012. No 12. С. 6–13
5. Арипджанова Альфия Равильевна Развития креативного потенциала педагогов высших образовательных учреждений в условиях дис. .пед. фан. ном. –Т.: 2017. -194 б.,
6. 15. Ибрагимова Гулсана Нематовна. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида ўқувчиларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. дис. .пед. фан. ном. –Т.: 2017. -194 б.



JADIDCHILIK HARAKATINING BUGUNGI KUNDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHGA VA TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI

Toremuratova G.B.

Ajiniyoz nomidagi NDPI ning mustaqil izlanuvchisi

Таянч сўзлар: milliy o'zlik, qadriyat, tarix, jadidlar, g'oya.

Ключевые слова: национальная идентичность, ценность, история, жадид, идея.

Key words: national identity, value, history, jadid, idea.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada jadidlarning milliy o'zlikni anglashga, milliy ma'naviyatga va adabiyotga qo'shgan hissasi, ilgari surgan g'oyalari, ular yaratgan ta'lim-tarbiya mezonlari haqida ma'lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье представлена информация о вкладе джадидов в реализацию национальной идентичности, национальной духовности и литературы, выдвигаемых ими идеях и созданных ими образовательных критериях.

SUMMARY:

This article discusses the jadids contribution to national spirituality and literature, their ideas, and the criteria for their education.

Milliy o'zlik, istiqloqlig'oyasi jamiyatnisog'lom, ezgumaqsadlarga birlashtiruvchi, ommaga ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beruvchi manba hisoblanadi. U ta'lim tizimida, mustaqil dunyoqarash va tafakkurni shakllantirishda, fikrli, o'z bilim va kuchiga ishonib yashaydigan komil insonni tarbiyalash jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Milliy o'zlikni anglash milliy qadriyatlar tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida aksariyat hollarda uyg'unlashib, har birining bu jarayonga o'ziga xos o'rni bor.

Milliy qadriyatlar tizimiga yangicha yondashuv shuni taqoza qiladiki, bu qadriyatlarlarning tahlilida avvalo xalqning vujudga kelishi tarixi, uning bugungi va kelajagi bilan bog'liq jihatlarni e'tibordan qochirmaslik lozim.

Ta'lim mazmunida qo'shimcha ravishda tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy jarayonda yoshlarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini rivojlantirishda xalq an'analari, milliy qadriyatlardan, tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini



va ahamiyatini yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini o'rganish va ulardan foydalanish manbalari katta imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, tarixiy shaxslar, buyuk alloma bobolarimizning hayotiy yo'li, ma'rifatparvar namoyandalarning harakati, olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va axloqiy qarashlari, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir.

Davlatimiz tarixi va xalqimizning shonli o'tmishi yetuk olim, ziyoli va jamoat arboblari ismlari bilan to'la. Ular hamma vaqt xalqimizning yuksalishi, adolat, tenglik, eng asosiysi ilm-marifat uchun kurashgan.

Shunday ajdodlarimizning bir guruhi XIX asr oxiri XX asr boshlarida milliy mustaqilligimiz va ilm-marifat yo'lida kurashga chiqqan jadidlardir. Ular milliy o'zlik, istiqlool va davlatchilik g'oyalarini ro'yobga chiqarishda va ozod davlat qurishda islohotlarni, eng avvalo, yoshlar va ta'limdan boshlash kerakligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbarining 2020 yili Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: “Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi” (1) deya so'z yuritib, yetuk ajdodlarimiz, xususan, jadidlar faoliyatini o'rganish, ularning g'oyalarini zamonamizga mos holda davom etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri ekanligi haqida ta'kidlab o'tgan edi.

Tarixiy manbalarda jadidchilik turkiy mamlakatlar – Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatarston tarixiga XIX asr oxiri XX asr boshlarida muhim ijtimoiy – siyosiy, ma'rifiy harakat sifatida kirgan. Jadidchilik harakati namoyondalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib etgandilar. Jadidchilik harakatining asosiy g'oyasi avvaliga madaniyat sohasidagi harakat tarzida namoyon bo'lib, ijtimoiy hayotning taraqqiyoti uchun kurashish turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillarning adabiyotini shakllantirish va boyitish, dunyoviy ilmlarni chuqurroq o'zlashtirishga harakat qilganlar.

Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, , Abdulhamid Chulpon, Usmon Nosir singari ma'rifatparvar ulug' maqsadlarga erishish millat madaniyati, ma'rifati, ilm-fanning rivoji bilan bog'likligini har tomonlama teran anglaganlar.

Jadidchilik harakati nomoyondalari va ta'limga qo'shgan hissalar

1. Ismoil Gaspirali (1851-1914): Jadidchilik harakatining asoschisi. “Usuli jadid” (yangi usul) deb nomlangan, zamonaviy va samarali ta'lim usulini joriy etdi. Musulmon xalqlari uchun ilk o'zbek tilida nashr etilgan “Tarjumon” gazetasini chiqardi.



2. Abdulla Avloniy (1878-1934): “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida ta’lim-tarbiya masalalariga bag’ishlangan. “Istiqbol” jurnalida ta’lim-tarbiya, xalq ma’rifati, milliy ong va tarbiya mavzularida maqolalar yozdi. Zamonaviy usulda, o’zbek tilida darsliklar va ilmiy-metodik asarlar yaratdi. O’quv yurtlarida ona tili va milliy madaniyatni rivojlantirishga katta hissa qo’shdi.

3. M.Behbudiy (1875-1919): Yangi usuldagi maktablar tashkil etishda faol ishtirok etdi. “Najot” gazetasi ta’lim-tarbiya, xalq ma’rifati, milliy ong kabi mavzularda chop etilgan. O’zbek tilida darsliklar yozdi va ularni nashr ettirdi.

4. Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931): “Usuli jadid” maktablarini tashkil etishda faol qatnashdi. O’zbekistonda birinchi pedagogika institutining tashkil etilishida faol istirok etdi. Yangi pedagogika g’oyalarini targ’ib qildi va tashviqot qildi.

Sharqona ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limnan ajratib bo’lmaydi. Ma’naviyatni shakllantirishdagi muhim omil esa mamlakat yoshlarining ta’lim-tarbiya tizimi bo’lib, uning dolzarbligini jadidlarning yetuk nomoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi qo’yidagi satrlar ham isbotlaydi: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”(2) “Ilm insonlarning madori hayoti, raxbari, najotidir” degan fikrlari hozir ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q.

Jadidlarlar nomoyondalari, jumladan A.Avloniyning fikricha, har bir kishi bilim olmog’i, ma’rifatni qalbiga joy qilmog’i, ma’naviy fazilatlar bilan bezanmog’i lozimki, bular oxir-oqibat milliy o’zlikni tanishga, komil inson sifatlariga erishuvga olib keladi va shunday shaxslar kamol topgan jamiyatda Vatan ravnaq topadi, xalq saodatga erishadi.

Ma’rifatparvar jadid namoyandalari millatning millatlilik uning ona tili va u tilda yaratilgan adabiyoti ekaniga alohida urg’u berganliklari uchun ham o’tgan asr boshida adabiyot ham shaklan, ham mazmunan yangilandi. Behbudiy “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebaxo millat boshqalarga poymol bulur” degan so’zlarni keltirib o’tadi. Abdulhamid Chulponning mashhur “Adabiyot yashasa – millat yashar” degan shiori millat qalbida aks sado berdi.

Jadidchilik harakatining asosiy tamoyillaridan ta’limning jamiyatdagi o’zgarishlarga katalizator sifatida ko’rilishi edi. Ular zamonaviy pedagogik usullardan foydalangan holda o’quvchilarda tanqidiy fikrlash, izlanuvchanlik va tirishqoqlik kabi ko’nikmalarni uyg’otdilar.

Jadidlar ta’lim-tarbiyani faqat maktabda o’rgatiladigan vosita emas, balki bu o’quvchida mustaqil fikrlash va ijodkorlik ruhini kashf etish deb hisoblagan.

Usuli jadid maktablarining vujudga kelishi bilan an’anaviy o’qitish usullarining tubdan isloh qilish, ta’lim olib borishning yangi usullarini ishlab chiqish, darslik va qo’llanmalar yaratish jadidlarning dolzarb masalasiga aylandi. O’qitishda



ko'rgazmalik, ifodali o'qish va uning turlari, nutq o'stirish usullari (Behbudiy, Fitrat), "Tovush-harf" metodi orqali o'qitish, ijtimoiy tarbiya, maktabgacha ta'lim tizimini yangi usulda olib borish, isloh qilish kabilar aynan jadid pedagoglari tomonidan ishlab chiqildi.

Shunday qilib, jadidchilik harakati:

- Jamiyatning barcha qatlamlarini bir g'oyaga ishonishga jalb eta oldi. Ushbu g'oya milliy o'zlikni anglash va milliy uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi;

- Jadidlar o'z g'oyaviy va amaliy harakatlari orqali millat mustaqilligi uchun kurash olib bordi;

- Madaniyatni, ilm-fanni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida shakllantira oldi va millatni milliy o'zlikni anglashga chaqirdi.

Milliy o'zlikni anglash tuyg'usini rivojlantirishda ta'lim jarayonida: o'qituvchilarimiz xalq an'analari mazmun-mohiyatini chuqur tushunishi va ularni yaxlit tarzda mavzuni tushuntirishga yo'naltira olish mahoratiga ega bo'lishi; ularni xalqning tarixi, millat sifatida shakllanishi va rivojlanishi nuqtayi nazaridan o'rgatish; o'quvchi-yoshlarning psixologik his-tuyg'ulariga ta'sir eta oladigan, tushunchalarni o'zlashtirishga rag'bat uyg'ota oladigan metod va shakllarni izlab topish; olgan nazariy bilimlarni amalga mustahkamlashga imkoniyat yaratishi samaradorlikka yerishishning muhim omillari hisoblonadi.

O'quvchi-yoshlarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usin, milliy istiqloq g'oyasini rivojlantirish uchun millat tarixi, urf-odat va an'analari, milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan ma'naviy meros, madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar asoson mezon bo'lib xizmat qilar ekan milliy mustaqillik g'oyalarini ilgari surgan jadidlar harakati va ularning namoyondalarining faoliyatlarining bugungi kunda ahamiyati alohida e'tirofga loyiq. Shu sababli olimlarimiz istiqloq davrida shakllangan milliy tarbiyashunosligimizni jadid ma'rifatparvar pedagoglarning qarashlari bilan boyitish fikrini ma'qul toptilar. Chuningdek, davlat siyosatida jadid ma'rifatparvarlarning o'z davrida o'ynagan roli e'tirof etildi.

Jadidlar ta'limni modernizatsiya qilish, ma'rifatparvarlik ruhini targ'ib qilish yo'lidagi fidoyiliklari tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bugungi kunga kelip jadidlarni tadqiq qilishda yo'l ochilishi yoshlarning ular tasvirlagan va o'stirishga intilgan avlod bo'lishini undaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.01.2020.// uza.uz/uz/posts/milliy-marifatimiz ustunlari.

2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq . Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent, 2018,28b.

3. Behbudiy B "Tiyotr nadur", "Oyina" jurnali, 1914 yil 10may. Tanlangan asarlar.Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018 yil 15-b.

4. Dolimov.U. Milliy uyg'onish pedagogikasi, -T,2014 yil.



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH IJTIMOIIY MUAMMO SIFATIDA

Xolmo‘minova A.Z.

TerDPI, o‘qituvchi

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, pedagogik faoliyat, innovatsiya, innovatsion faoliyat, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik, mutaxassislik, professional ta‘lim, intellektual ta‘lim.

Ключевые слова: начальное образование, педагогическая деятельность, инновация, инновационная деятельность, компетентность, профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, специализация, профессиональное образование, интеллектуальное образование.

Key words: primary education, pedagogical activity, innovation, innovative activity, competence, vocational competence, pedagogical competence, specialization, professional education, intellectual education.

PEZIOME:

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorlashning hozirgi holati, kompetentsiya, uning tarkibiy qismlari, boshlang‘ich ta‘lim sohasida faoliyatni boshlashi lozim bo‘lgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash masalalari ko‘rib chiqilgan.

PEZIOME:

В данной статье рассмотрено современное состояние подготовки будущих учителей начальных классов к инновационной деятельности, ее критерии, ее компоненты и части, инновационная подготовка будущих учителей начальных классов, которым предстоит начать работу в сфере начального образования, вопросы активизации.

SUMMARY:

In this article, the current state of training of future primary school teachers for innovative activity, its criteria, its components and parts, innovative training of future primary school teachers who should start working in the field of primary education. issues of activation were considered.

Mamlakatimiz ta‘lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uning milliy zaminini mustahkamlash ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon talablari darajasiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishning pedagogik shart - sharoitlari va imkoniyatlarini



o'rganishga oid tadqiqotlar olib boruvchi nufuzli oliy ta'lim muassasalari va markazlarida bu boradi bir qancha samarali natijalarga erishilmoqda. Shunga ko'ra, ta'lim tizimidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik, ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liqligini belgilaydi.

Zamonaviy sharoitlarda tobora ortib borayotgan pedagogika sohasining maqomi va mazkur yo'nalishdagi malakali mutaxassislarga bo'lgan talabning ortib borishi, oliy pedagogik ta'limning yaxlit tizimida ularning innovatsion - pedagogik tayyorgarligini zamon talablari darajasida modernizatsiyalash zaruratini belgilaydi.

Boshlang'ich ta'limning rivojlanish tamoyillarini tahlil qilish asosida bo'lajak o'qituvchi o'zining maqsadli yo'nalishlari va ishlash metodlariga ko'ra hozirgi kundagi hamkasblariga o'xshamasligi to'g'risida xulosaga kelishimiz mumkin. Ularning asosiy farqi shundaki, bilimlarni yetkazib berishga urg'u qaratmaydi, balki, maqsadini o'quvchilar shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganlikda namoyon bo'ladi, shuningdek, yangi davr o'qituvchilari rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyalariga ega bo'lishadi.

Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatikaning rivojlanishi ommaviy ijtimoiy-pedagogik harakat, umumiy o'rta ta'lim maktablari tuzilmasi, maqsadlarining tezkor rivojlanishiga bo'lgan mavjud ehtiyoj va pedagoglarning ulardan foydalana olmasligi o'rtasida ziddiyatning vujudga kelishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan yangi bilimlarga, "innovatsiya", "yangiliklar joriy qilish", "innovatsion jarayonlar", "innovatsion faoliyat" kabi yangi tushunchalarni tushunib yetishga ehtiyoj kuchaydi.

"Innovatsiya" so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "yangilash, o'zgarish, biror yangilik kiritish, yangiliklar joriy qilish" ma'nosini anglatadi.

Pedagogik adabiyotlarda ta'lim sohasida innovatsiyaning ikki turi ajratib ko'rsatiladi: birinchi turga keltirib chiqaruvchi ehtiyojga aniq bog'lanmagan yoki innovatsion jarayonlarni amalga oshirish shart-sharoitlari, vositalari va yo'llarining yaxlit tizimini to'liq anglamasdan turib, stixiyali ravishda vujudga keladigan innovatsiyalar kiradi. Bu turdagi innovatsiyalar to'liq ilmiy asosga ega bo'lmaydi, asosan yuzaga kelgan vaziyat talablaridan kelib chiqib empirik asosda yuz beradi. Bu turdagi innovatsiyalarga ko'plab innovatsion jarayonlarni olib kirgan "pedagogik g'oyalar generatorlari", entizuazist o'qituvchilar faoliyatini kiritish mumkin.

Ikkinchi turga pedagogik voqelik faktlarini muntazam o'rganishga va tahlil qilishga moyil bo'lgan o'qituvchi-novatorlarning, o'qituvchi-tadqiqotchilarning



puxta o'ylangan, maqsadga yo'naltirilgan, ilmiy jihatdan asoslangan faoliyati mahsuli bo'lgan innovatsiyalar kiradi. Ular o'zlarini juda ko'p marotaba tekshirib ko'rishadi va muammoni yechish modellarini yaratishadi. Natijada, ular o'zlarining g'oyalari haqida gapirishni boshlaganlarida bu g'oyalar oddiy faraz, qiziqarli topilma, usul, o'ziga xos yechim, uzoq davom etgan tadqiqiy izlanishlar sifatida emas, balki, pedagogik qoida sifatida o'rta tashlashadi.

Amaliyotning ko'rsatishicha, har qanday innovatsiya me'yoriy faoliyat doirasidan chetga chiqadi va olg'a intilishga harakat qiladi. Lekin shu bilan birgalikda avvalgi tajribalarga e'tibor qaratish, faoliyatni mavjud tajriba bilan solishtirish kerak bo'ladi. Innovatsiyalar odatda bir necha muammolar kesishgan paytda vujudga keladi va mutlaqo yangi masalalarni hal qiladi, pedagogik jarayonni uzluksiz yangilanib borishiga olib keladi.

“Yangiliklarni kiritish” tushunchasini biz ham yangilik, ham ana shu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayoni sifatida ta'riflaymiz. Yangilik – bu alohida olingan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oyadir, bu g'oya ob'ektiv ravishda yangi yoki yangi emasligi ahamiyat kasb etmaydi, biz uni vaqt bo'yicha – bu yangilik ochilgan payt yoki undan birinchi marta foydalanilgan payt bo'yicha aniqlaymiz.

Pedagogik yangiliklarning uch ko'rinishi ajratib ko'rsatiladi:

1) yangilik deb butunlay yangi va ilgari ma'lum bo'lmagan ta'lim, g'oyalar va harakatlarni aytishimiz mumkin. Bu kabi tamomila yangi va o'ziga xos yangiliklar juda kam;

2) eng ko'p uchraydigan yangiliklarga moslashtirilgan, kengaytirilgan yoki qayta shakllantirilgan g'oya va harakatlar kiradi, ular ma'lum muhitda va ma'lum vaqt oralig'ida o'ziga xos dolzarblikka ega bo'ladi;

3) pedagogik yangiliklar o'zgargan sharoitlarda maqsadlarni qaytadan qo'yish bilan bog'liq ravishda ilgari mavjud bo'lgan harakatlarning qaytadan yuzaga chiqishi tufayli vujudga keladi, zero, yangi shart-sharoitlar ma'lum bir ijobiy g'oyalarning muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Innovatsion jarayon – bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarni pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitligidir.

Innovatsion jarayon mikrotuzilmasini ko'rib chiqqan holda olimlar yangiliklar joriy qilishning “hayotiylik bosqichi” tamoyilini qayd etib o'tadilar, chunki yangiliklar joriy qilish vaqt davomida kechadigan jarayondir. Bu jarayonda faoliyat turlari bo'yicha yangilikni yaratish va amalga oshirishni ta'minlovchi bir qator bosqichlar mavjud bo'ladi.



Birinchi bosqich – yangi g‘oyaning tug‘ilishi va yangilik tamoyilining vujudga kelishi, uni shartli ravishda “ochilish bosqichi” deb atash mumkin. Bu bosqich odatda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar natijasi hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich – ixtironing yaratilishi, ya’ni qandaydir ob’ektda o‘z ifodasini topgan moddiy yoki ma’naviy mahsulot – namuna.

Uchinchi bosqich – yangilikni joriy qilish, bunda yangilik amaliyotda sinab ko‘riladi va oxiriga yetkaziladi; bosqich yangilikdan barqaror samara olish bilan yakunlanadi.

To‘rtinchi bosqich – yangilikning tarqalishi, ya’ni keng ko‘lamda joriy qilinishi, yangilikning boshqa sohalariga ham kirib borishi.

Beshinchi bosqich – yangilikning aniq bir sohada hukmronlik qilishi, muqobil yangilikning yuzaga kelishi ro‘y beradi. Bosqich yana ham samaraliroq yangilik bilan almashtirilishi orqali yakunlanadi.

Oltinchi bosqich – yangi mahsulot (g‘oya) bilan almashtirilishi munosabati bilan yangilikdan foydalanish ko‘lamining qisqarishi .

Bizning fikrimizcha, innovatsion jarayonning ushbu navbatma-navbat bir-birining o‘rnini bosuvchi bir necha bosqichli tuzilmasi uni haqiqatda amalga oshirishning soddalashtirilgan sxemasini aks ettiradi.

Aniq bir innovatsion jarayon ko‘rib chiqilgan barcha bosqichlarni qat’iy ketma-ketlikda va uzluksizlikda o‘z ichiga olishi shart emas. Shunday bo‘lsa-da, keltirilgan bosqichlarning davomiyligi turlicha bo‘lishi va ular o‘zaro kesishishi mumkin.

Pedagogik innovatsion faoliyat – printsiptial ravishda pedagogik jamoa tomonidan amalga oshiriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar, ijod va turmush tarzidir. Bu pedagoglarning tashabbusi (yangi g‘oyalari, loyihalari, rejalari, aniq bir harakatlari va boshqalar) bo‘lib, bu tashabbus tashabbuskorlarning o‘zlariga va ana shu tashabbusda ishtirok etishni istaganlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu joriy vaziyatga jonli ta’sir etuvchi, jarayonning barcha ishtirokchilari, eng avvalo, uning tashabbuskorlari ongi va tushunchalarining o‘zgarib borishini nazarda tutuvchi pedagoglarning ijod va turmush tarzidir.

Biz innovatsion faoliyatni ta’lim muassasalarini rivojlanish rejimidagi faoliyatining bir jihati sifatida tasavvur qilamiz. Innovatsion faoliyat deganda, ijobiy sifat o‘zgarishlari bilan tavsiflanuvchi ma’lum bir bosqichlar ketma - ketligi tushuniladi. Bu faoliyat aniq bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda tan olingan standartni ifoda etuvchi me’yordan chetga chiqishni, muqobil me’yorlarni joriy etishni, boshqa sohalaridagi me’yorlardan foydalanishni nazarda tutadi.



U rivojlanish uchun kerak bo'lgan vositalar to'plamini ta'minlaydi, pedagogik voqelikni ongli ravishda o'zgartirishni nazarda tutadi.

Pedagogning innovatsion faoliyati bo'lajak o'qituvchining ijod jarayoni va butun pedagogik jamoaning ijod jarayoni bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi kerak. Pedagogning ijodiy harakatlari butun jamoaning izlanishlari bilan muvofiqlashtirilmasa, pedagogik yangiliklar joriy qilish yaxlit, sermahsul jarayon bo'la olmaydi. Shunga ko'ra ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatga zaruriyat tug'iladi. Bu faoliyat hamisha ziddiyatli bo'lib, uning o'zi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi va bu ziddiyatlarni hal etish orqali rivojlanib boradi. Demak, maktab xodimi – innovator “xavfsiz sinovlar o'tkazish” psixologiyasining bilimdoni bo'lishi kerak.

Bundan tashqari pedagogik nashrlarda ko'p marta qayd etilganidek, maktabni o'zgartirish borasidagi harakatlarga nafaqat alohida odamlar tomonidan, balki bu birmuncha xavfli – o'qituvchilar jamoasi tomonidan kasbiy guruh sifatida ko'rsatilayotgan qarshilikni ham e'tiborga olish kerak. Shuning uchun ham maktabda o'zgartirishlar jarayonini boshlash g'oyasiga ishonqiramay qarashlari, keyinchalik uning yo'lini to'sib qo'yishlari mumkin. Albatta, o'qituvchilarning innovatsion jarayonga kerakli munosabatini qandaydir vaqt davomida ishontirish, me'yoriy yondashuv va majburlash orqali ta'minlash mumkin.

Bo'lajak o'qituvchini aniq maqsadni ko'zlagan holda innovatsion faoliyatga tayyorlash – bu yaxlit, bir jarayon. U o'zaro bog'liq va bir - biri bilan shartlangan davrdan tashkil topgan. Oliy ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalash, shuningdek, maxsus muassasalarda o'qish va maktabdagi amaliy pedagogik faoliyatning o'zaro almashib kelishi asosida tashkil qilingan. Qayd etib o'tilgan davrlarni o'qituvchi shaxsini bosqichma - bosqich rivojlantirib borishning yaxlit jarayoniga birlashtirilishi - uni innovatsion faoliyatga kiritishning asosidir. Ammo bizning tadqiqotimiz uchun bu davrlarning birinchisi muhimroq, chunki bo'lg'usi o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni innovatsion faoliyat tuzilmasini modellastirgan holda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish shart - sharoitida muvaffaqiyatli va to'laqonli kechadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar innovatsion faoliyat tushunchasi mazmunini quyidagicha talqin etish imkonini berdi: innovatsion-pedagogik faoliyat – pedagogik jamoa tomonidan amalga oshiriluvchi maqsadga yo'naltirilgan harakatlar, ijodkorlik, izlanuvchanlik, bilimdonlik, muloqotchanlik, innovatsion faollik, tashabbuskorlik va o'z ustida muntazam ishlash va kreativlikka kasbiy-motivatsion yo'nalganlik hamda majmuaviy muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyat mahsuli hisoblanadi.



Uzluksiz ta'lim tizimida kasbiy - tadqiqiy va kasbiy-pedagogik jihatlar aniq ajralib turadi. Markaziy o'rinda nafaqat pedagogik izlanishning predmetli mazmunini, balki o'qituvchining innovatsion faoliyatda ishtiroki shaklini ham qaytadan yaratish imkonini beruvchi kasbiy-pedagogik jihat turadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosi ma'lum maqsadlarga bo'ysunuvchi bir necha o'zaro aloqador va funktsional komponentlarni o'z ichiga olgan tizim sifatida ifodalanib, mazkur tizimda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari loyihalandi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash ijtimoiy-gumanitar, psixo-pedagogik, tabiiy-ilmiy, kasbiy tayyorgarlik bilan bog'liqligi metodologik yondashuv asosida tahlil qilindi.

Adabiyotlar:

1. Абдукаримов Х. Профессиональное воспитание личности учителя в процессе непрерывного педагогического образования: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. - Т., 1997. - 46 с.
2. Адизов Б. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: Пед.фан.док.... дисс. - Т., 2002. - 276 б.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство: Учебное пособие для магистратуры всех специальностей. - Т.: «Чулпан», 2005. - 200 с.
4. Ахиллоев Т.А. Формирование профессиональной компетенции будущих педагогов в условиях вузовского образования / Известия ВУЗов Кыргызстана. . - №15. 2018. - С. 121-124.
5. Морозов Е.П., Пидкасистий П.И. Подготовка учителей к инновационной деятельности// Сов. Педагогика, 1991. - №10. - С. 83-93.
6. Поташник М.М., Хомерики О.Г. Структуры инновационного процесса в образовательном учреждении //Магистр, 1994. - №5. - С. 25-29.
7. Кабдикаиоров К.К., Монахов В.М. Педагогическая технология проектирования учебного процесса // Вестник КазГУ. - Алма-Ата, Педагогические науки, 1998. - №1. - С. 52-54.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH JARAYONIDA REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SHARTLARI

Xurramova M.B.

*Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: pedagogik mahorat, refleksiya, kasbiy refleksiya, shaxsiy refleksiya, intellektual refleksiya, refleksiv ko'nikma, pedagogik odob, pedagogik tayyorgarlik.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, рефлексия, профессиональная рефлексия, личностная рефлексия, интеллектуальная рефлексия, рефлексивные умения, педагогический этикет, педагогическая подготовка.

Key words: pedagogical skills, reflection, professional reflection, personal reflection, intellectual reflection, reflexive skills, pedagogical etiquette, pedagogical preparation.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada refleksiya tushunchasi tahlili, bo'lajak o'qituvchilarning intellektual refleksiya jarayonida refleksiv qobiliyatdan foydalana olishi, pedagoglarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotda undan samarali foydalanishi, bo'lajak o'qituvchilarga xos pedagogik tayyorgarlikga ega bo'lish shartlari, mutaxassisning pedagoglik odobi, mas'uliyatli va burchiga ega bo'lishi, refleksiyani insonning "ijobiy faoliyatlari majmuasi" nuqtai nazaridan o'rganish, pedagogik mahoratni egallashning shartlari, mazmuni, mohiyati, zaruriyati, bunda doimiy tadqiqotlar o'tkazish, tajribani o'rganish, tahlil qilish va xulosalar ishlab chiqish zarurati bo'yicha keng va chuqur bilimlarni olish va takomillashtirish orqali shakllanish mazmuni ochib beriladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется понятие рефлексии, способность будущих учителей использовать рефлексивные умения в процессе интеллектуальной рефлексии, способность педагогов приобретать профессиональные знания и эффективно использовать их на практике, условия наличия педагогических знаний. специфическая подготовка будущих учителей, педагогическая этика специалиста, ответственность и долг, рефлексия обучения с точки зрения «комплекса положительной деятельности» человека, условия, содержание, сущность, необходимость приобретения педагогического мастерства, проведение непрерывных научных исследований. , опыт обучения, анализ Содержание образования раскрывается путем получения и совершенствования широких и глубоких знаний о необходимости делать и делать выводы.

SUMMARY:

In this article, the analysis of the concept of reflection, the ability of future teachers to use reflexive skills in the process of intellectual reflection, the acquisition of professional knowledge by pedagogues and its effective use in practice, the conditions for acquiring pedagogical training



specific to future teachers, the specialist pedagogic ethics, responsibility and duty, learning reflection from the point of view of the "complex of positive activities" of a person, the conditions, content, essence, necessity of acquiring pedagogical skills, conducting continuous research, learning experience, analysis The content of formation is revealed by obtaining and improving broad and deep knowledge on the need to make and draw conclusions.

Bugungi rivojlangan bir davrda ta'lim-tarbiya jarayoniga katta e'tibor berilmoqda. Zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanish davrida ta'lim tizimiga va unda faoliyat olib borayotgan bo'lajak o'qituvchilarga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda pedagogik tayyorgarligiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini va faoliyati davomida uning yutuqlari, kamchiliklari va kelajakda o'z oldiga qo'ygan ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini tahlil qilishi pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirishdan iboratdir. Bugungi bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi va uning o'z faoliyatini tahlil qiluvchi soha – refleksiya tushunchasiga e'tibor qaratildi. Uzluksiz ta'lim tizimida kasbiy pedagogik tayyorgarligini tahlil qilish va ularning kelajakdagi tadqiqot ishlariga ham nazariy, ham metodik amaliy yordam berishdan iboratdir [1].

“Bugungi zamonaviy falsafada esa refleksiya nazariy va amaliy jihatdan farqlanadi. Birinchisi, bo'lajak o'qituvchilar tomonidan tushunchalarning rivojlanish jarayonining yagona tushunchalar doirasidagi bir ta'rifdan boshqasiga o'tish imkoniyatini beradigan metod sifatida; ikkinchisi esa individual harakat yoki fikrni tushuncha bilan nisbatlash jarayoni, bunda nisbatlash o'lchovi ustidan nazorat ta'minlanishi kerak”. Hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o'rganilayotgan “refleksiya-psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, andragogika, kibernetika va boshqa ko'plab murakkab fanlarning tadqiqot ob'ekti sifatida tanqid qilinmoqda. Pedagog olim V.A.Slastenin[2] fikricha, refleksiya bo'lajak o'qituvchilarning o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olishdir. Demak, refleksiv ko'nikma – o'zini o'zi bilishi, o'zini o'zi tushunishi, o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi boshqarishi, o'zini o'zi nazorat qilishi va o'zini o'zi baholashdir”.

G.M.Kadjaspirovaning[3] fikricha, “pedagogik refleksiya insonni o'z o'zini anglashi deb, bunda nafaqat bo'lajak o'qituvchilar o'z xatti-harakatlariga to'g'ri baho berishi balki, bo'lajak o'qituvchilar bilan pedagog muloqot chog'ida o'zaro hamkorlik qiladigan o'quvchilar, ta'lim-tarbiyaga mas'ul shaxslar, ota-onalar uni qanday qabul qilishini rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonunlarini anglashga qaratilgan tushuna olish qobiliyatidir”. Demak, refleksiya bo'lajak o'qituvchilarning o'zini o'zi anglashi, bilishi, xulosa chiqarish zahirida



o'zining ijobiy va zaif tomonlarni bilib, o'z o'zini takomillashtirishga intilishi, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

Ushbu maqolada asosiy ko'zda tutilgan maqsadlardan biri bo'lajak o'qituvchilar pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishida kasbiy refleksiyaning ahamiyati asosida bugungi bo'lajak o'qituvchilarning faoliyatida ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyatlarini o'zlari baholab, kelajak faoliyati haqida tavsiyalar berishdan iboratdir [1].

Bugungi bo'lajak o'qituvchilarning intellektual refleksiya jarayonida refleksiv qobiliyat muhim bo'lib, u pedagogga kasbiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotda undan samarali foydalanishda katta yordam beradi.

A.Xoliqovning[4] ta'kidlashicha: "o'qituvchi pedagogik faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan ko'p yillik tajribalar asosida qilingan nazariy xulosalar pedagogik mahoratning rivojlanish jarayonini beshta elementdan iborat tizim asosida o'rganish imkoniyatini beradi. Bu bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalari rivojlangani sari kechadigan va uning asosida uzluksiz pedagogik kasbiy mahoratini va o'z o'zini takomillashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan jarayonlarni chuqurroq tushunishni ta'minlaydi[4].

Aytish lozimki, bo'lajak o'qituvchilarning doimiy pedagogik faoliyati mazmunan refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha refleksiv ko'nikma tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi.

Zero, refleksiv ko'nikma jarayonida bo'lajak o'qituvchilar o'zi tanlagan pedagogik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqidagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi, va ixtiyoriy ravishda shaxsiy pedagogik tayyorgarlik zanjirini hosil qiladi [1].

Bo'lajak o'qituvchi refleksiv ko'nikmalari uning o'ziga xosligi, uning professional o'zini takomillashtirish va shaxsiyatning o'zini o'zi anglashi, o'ziga xos analitik pozitsiyani egallash qobiliyatiga ega bo'lgan, o'ziga xos va amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatini ta'minlovchi muayyan psixologik mexanizm sifatida qaraladi.

G.P.Shedroviskiyning[5] ishlarida refleksiyaga bo'lajak o'qituvchilar pedagogik faoliyati rivojlanishining asosiy omili va tabiiy mexanizmi sifatida katta ahamiyat berilgan. G.P.Shedroviskiy[5] refleksiyani insonning "ijobiy faoliyatlari majmuasi" nuqtai nazaridan o'rganishni taklif qiladi. U qandaydir pedagogik faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'lmasa, bu g'oya asosida ushbu faoliyat doirasidan tashqariga "refleksiv chiqish" tizimi quriladi, deb hisoblaydi. Bunda bo'lajak o'qituvchilar amalga oshirilmagan faoliyatdan, yangi faoliyat



pozitsiyasiga o'tadi va "fikran ma'nolar qurish" vositalariga ega bo'ladi, ulardan kelib chiqib, birlamchi faoliyatni tushunadi va tavsiflaydi. Bunda ikkinchi yangi faoliyatda birinchisidan muhim "material" sifatida foydalanadi.

Olimlarning bu kabi xulosalari refleksiv ko'nikma bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishda (o'z ijodiy mehnati natijasidan qoniqmasligi aslo mumkin emasligi bilan belgilanadi) shijoati, kasbiy faoliyatiga oid yangiliklarni muntazam izlanishida, ijodkorligida namoyon bo'lishi bilan asoslanadi. Demak, refleksiya bo'lajak o'qituvchilarning o'z o'zini kasbiy takomillashtirishiga ham asos bo'ladi, deb aytish mumkin.

Kasbiy pedagogik tayyorgarligida refleksiv jarayonlarni o'rganib ta'kidlash mumkinki, refleksiya nafaqat pedagogik tayyorgarligini rejalashtirish bilan bog'liq hodisa, balki refleksiya mohiyatini kasbiy faoliyatni optimallashtirish maqsadida ham qo'llanadi.

Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik tayyorgarligining asosiy xususiyatlaridan biri uning rivojlanishida uzluksizlikning mavjudligidadir. Demak, refleksiv jarayonda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi, kasbiy sifatleri mavjudmi yoki yo'qmi deb qayd etishi kerak emas, balki ularning rivojlanishi, boyib borishini, kuchayishini rag'batlantirish inobatga olinishi zarur. Ta'lim jarayoni aynan shunga xizmat qilishi kerak, qachonki bilim, ko'nikma va malaka ongli ravishda o'z o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina u ishlaydi. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan talablar va ular faoliyatining refleksiya qilishi bugun ziyolilarning vazifasidir.

Biz ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini tahlil qilib, kasbiy refleksianing ahamiyati o'rganildi. Refleksiv ko'nikma nafaqat pedagogik faoliyat, balki bilim, ko'nikma va malakalarning o'sishini ta'minlaydi. Hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish asosi ham sanaladi. Har qanday bo'lajak o'qituvchilar o'z o'zini tarbiyalashi va o'z o'zini rivojlantirishiga hatto juda kuchli intilishi bo'lsa ham, o'zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus malakasiz belgilay olmaydi. Bu pedagog faoliyatidagi muvaffaqiyatga erishishi bo'lajak o'qituvchilarning o'z ustida ishlashga tayyorgarligi, uning o'z o'zini tahlil qila olishi, o'z o'zini tashxislash qobiliyatining qanchalik shakllanishi bilan bog'liq. Har bir bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalari uning o'z o'zini takomillashtirishda, shijoatida, muntazam kasbiy faoliyatiga oid yangiliklar ustida izlanishida, ijodkorligida innovatsion faoliyatida namoyon bo'lishi bilan asoslanadi. Shunday qilib, refleksiya bo'lajak o'qituvchilarning o'z o'zini kasbiy takomillashtirish uchun asos bo'ladi. Shu bois uning refleksiv ko'nikmalari asosida pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi o'rinli. Refleksiv



ko'nikma bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat kasbiy faoliyat balki bilim, ko'nikma va malakalarning o'sishini ham ta'minlaydi. Har qanday pedagog o'zini o'zi rivojlantirishga juda kuchli intilishi bo'lsa ham, pedagogik tayyorgarliksiz unga erisha olmaydi. Oliy ta'lim tizimida refleksiyaning o'rni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiya psixologik omil sifatida ichki holatlarning o'zini o'zi boshqarish jarayonlariga va kasbiy faoliyatning mazmunlilikiga yordam beradi. Kuzatiladigan barqaror refleksiyaning rivojlanish darajasi va professionallik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik. Shubhasiz, "kasbiy kompetensiya kasbiy faoliyatning yetakchi kognitiv komponenti sifatida qaraladi. Ong va fikrlash shaxsning rivojlanishini oldindan belgilab beradi va shu bilan birga kasbiy kompetensiyalarning rivojlanish darajasiga ta'sir qiladi".

Kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallash, shuningdek, amaliy faoliyatning xususiyatlarini tushunish uchun qayta ko'rib chiqish jarayoni, aslida o'quv jarayonining o'zi talab qilinadi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, refleksiya o'z ruhiy holatlarini boshqarish jarayonidir. Refleksiya bo'lajak o'qituvchilarga olingan natijalarni shakllantirishga, keyingi rivojlanish maqsadlarini qayta belgilashga, o'z-o'zini takomillashtirish yo'nalishlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Bo'lajak o'qituvchilarning profesional odobi bu xususiyatni ham o'z ichiga oladi. Ma'lumki, inson oldida bir muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik kasbi ana shunday xususiyatga ega. Chunki o'qituvchilik ishida hamma vaqt ham qo'llash mumkin bo'lgan tayyor qoida, retsept yoki shablonlar yo'q. Bo'lajak o'qituvchilar shaxsni shakllantiradi, kutilmagan vazifalarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o'quv jarayonini mustaqil bajaradi. Pedagogik ijodkorlikning tub mohiyati ishning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

Tashxisning mohiyati haqida gapirishdan oldin tashxisni umumiy yondoshuv hamda tashxislash amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida qaraladi. Tashxis-bu didaktik jarayon bo'lib barcha sharoitlarni oydinlashtirib, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxis didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit orqali yuqori natijalarga erishishi mumkin emas. Ta'lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Bu esa ta'lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarini uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat bo'ladi.



Ma'lumki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarini ularga yerishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda bahaolaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarini aniqlaydi. Tashxislash nazaorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarni aniqlash, voqealarning keyingi rivoji taxminlashni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Baholashning mazmu munozaralar davom etmoqda. Pedagogik baho nimani qayd etish lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko'rsatishi lozimligi: ta'lim oluvchi o'zlashtirishning qat'iy belgilovchi –sifat ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi yoki aksincha bo'lishi kerakmi, yoki bu ta'lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda.

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi yo'nalganlikka ega bo'lishi, o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim.

So'nggi yillarda olimlar o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamodalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalari tashkil etadi.

Pedagogik tayyorgarlik manbai - pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba deganda bo'lajak o'qituvchilarning o'z vazifasiga ijodiy, yangicha ndashishi, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi samarali yo'l va vositalarni qidirib topa bilishi tushuniladi, ijodiy ishlaydigan bo'lajak o'qituvchilar tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarga xos pedagogik tayyorgarlikka ega mutaxassis pedagoglik odobiga, mas'uliyatli va burchiga ega bo'lgan, pedagogik jarayonning ehtiyojlarini ob'ektiv ravishda bajarayotgan shaxsdir.

Adabiyotlar:

1. Шеранова М.Б., Шукурова Х.С., Алимкулов С.О. Особенности формирования современного педагога. Молодой ученый. Учредители: ООО "Издательство Молодой ученый". ISSN: 2072-0297eISSN: 2077-8295. №22 (102) Год: 2015. Страницы: 884-887.



2. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. //Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. //Под ред. В.А.Сластенина. 2 ч. –М.: Гуманит. изд. центр. ВЛАДОС, 2003. – 256 с
3. Коджаспирова Г.М. Теория и практика профессионального педагогического самообразования.-М.: МГОПИ, Альфа, 1993.- 120с
4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat (darslik). -Т., 2011.
5. Щедровицкий П.Г. Очерки по философии образования. М., 1993. 276 с.
6. M.Xurramova. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning mazmuni. "XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 1(8), 55–58. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/itftdm/article/view/1744>
7. M., K. . (2023). Theoretical and methodological foundations of the technology of forming reflective skills in future teachers. Journal of science, research and teaching, 2(8), 107–110. Retrieved from <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/280>
8. M.Xurramova. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning mazmuni. "XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 1(8), 55–58. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/itftdm/article/view/1744>



STEAM YONDASHUVINING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Nigmatullayeva S.M.

Termiz Davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Tayanch so'zlar: STEAM ta'lim, ijodiy yondashuv, texnologik qobiliyatlar, fanlararo integratsiya.

Ключевые слова: STEAM-образование, творческий подход, технологические навыки, междисциплинарная интеграция.

Key words: STEAM education, creative approach, technological skills, interdisciplinary integration.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqola, "STEAM yondashuvining ta'lim tizimidagi ahamiyati va samaradorligi," boshlang'ich ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va fanlararo integratsiya jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan. STEAM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San'at va Matematika) yondashuvi, o'quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yondashuvni joriy etish jarayonlari, o'quvchilarga texnologiyalar bilan ishlashni o'rganish va real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlash imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ:

Данная статья, "Важность и эффективность подхода STEAM в системе образования," посвящена развитию творческого мышления и процессам междисциплинарной интеграции в начальном образовании. Подход STEAM (Наука, Технология, Инженерия, Искусство и Математика) играет важную роль в развитии творческого мышления, навыков решения проблем и инновационных компетенций учащихся. Рассматриваются процессы внедрения данного подхода в систему образования Узбекистана и возможности подготовки учащихся к работе с технологиями и решению реальных жизненных проблем.

SUMMARY:

This article, "The Importance and Effectiveness of the STEAM Approach in the Education System," focuses on the development of creative thinking and interdisciplinary integration processes in primary education. The STEAM approach (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) plays a crucial role in enhancing students' creative thinking, problem-solving skills, and innovative competencies. The article discusses the implementation processes of this approach in the education system of Uzbekistan and the opportunities for preparing students to work with technologies and solve real-life problems.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat ilmiy, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bugungi kundagi texnologik



o'zgarishlar o'quvchilarga yangi yondashuvlarni o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ta'lim tizimida ayniqsa STEAM modeli o'quvchilarning kreativ va texnik bilimlarini mustahkamlashda yetakchi vositalardan biridir. Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtirgan holda, STEAM yondashuvi ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qilishga xizmat qiladi.

STEAM yondashuvi o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilar o'z g'oyalarini nafaqat matematik yoki ilmiy asosda, balki san'at va kreativ yondashuv orqali ham amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. N. Sodiqova [1.102] ning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, "STEAM modeli bolalarni ijodkorlik va yangi g'oyalarni yaratishga undaydi, bu esa ularning kelajakdagi ta'lim va kasbiy muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi." Bu jihat ayniqsa boshlang'ich ta'limda muhimdir.

O'quvchilarning ijodiy yondashuvlari va problemalarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishda, ular turli xil muammolarni echish jarayonida yangi g'oyalarni ishlab chiqishlari kerak. Bu jarayonlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini va tanqidiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Fanlararo integratsiya va texnologiyalarni qo'llash. STEAMning eng katta afzalliklaridan biri fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarning ko'nikmalarini birlashtirishidir. D. Karimov [2.63] o'z tadqiqotida STEAM yondashuvining boshlang'ich sinflarda qiziqarli loyihalarni amalga oshirishga yordam berishini ta'kidlaydi. O'quvchilar fizika, matematika va san'atni birlashtirib, amaliy muammolarni hal qilishda qo'llaydilar. Masalan, o'quvchilar muayyan muammoni hal qilish uchun kerakli bilimlarni birlashtirib, o'z loyihalarini yaratishda foydalanadilar.

Bu jarayon nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki o'quvchilarning ijodiy yondashuvlarini ham kuchaytiradi. O'quvchilar jamoada ishlash, vaqtni boshqarish va yangi texnologiyalar bilan ishlashni o'rganadilar, bu esa kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatlarida ularga yordam beradi.

Texnologik jamiyatga tayyorlash. STEAM modeli o'quvchilarni texnologik bilimdon shaxslar sifatida tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari texnologiyalar bilan ishlashni o'rganish orqali kelajakda ularga zarur bo'ladigan ko'nikmalarni egallaydilar. Ushbu yondashuv o'quvchilarning ta'lim sifatini yaxshilash, innovatsion fikrlash va muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishga undaydi.



Bu jarayonda muhim omil - o'quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlashdir. O'quvchilar STEAM orqali yangi texnologiyalarni o'rganish imkoniga ega bo'ladilar, bu esa ularni kelajakda o'zlarini muhandislik, dizayn va ilmiy sohalarda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Shuningdek, bu yondashuv ularni innovatsion fikrlashga va muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishga undaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi STEAM yondashuvi tajribalari. O'zbekistonda STEAM yondashuvi joriy etilgandan beri, maktablar va oliy ta'lim muassasalari ushbu modelni keng tatbiq etib kelmoqda. Ushbu yondashuv, nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, balki ularning ijodiy fikrlash, tanqidiy qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Loyihalarga asoslangan o'qitish metodlari. STEAM yondashuvining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarga fan va texnologiyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi tomonidan qabul qilingan yangi ta'lim dasturlari va o'quv materiallari STEAM yondashuvini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda darslarda innovatsion metodlardan foydalanish, shuningdek, o'quvchilarni jamoada ishlashga undovchi faoliyatlar o'tkazish ham muhimdir.

Maktablarda o'quvchilarga STEAM yondashuvi asosida darslar olib borilayotgani, turli xil loyihalar va tadbirlar o'tkazilayotgani o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam bermoqda. Misol uchun, "Fan va Texnologiya" o'quv dasturida muammolarni hal qilish uchun o'quvchilarga turli xil muammolarni ko'rsatish va ularga yechim topishga yo'l-yo'riq ko'rsatish amaliyoti kengaytirilmoqda. Bu orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, balki amaliy ko'nikmalarini ham oshiradilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi tomonidan o'quvchilarga STEAM yondashuvi asosida darslar olib borish uchun o'qituvchilarga maxsus seminarlar va treninglar o'tkazilmoqda. Bu o'qituvchilar, o'quvchilarga STEAM yondashuvining ahamiyatini yetkazish va ularga ushbu yondashuvdan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tadbirlar, masalan, ilmiy-amaliy konferensiyalar va STEAM loyihalari, o'quvchilarni yangi g'oyalar bilan tanishtirish va ularni innovatsion fikrlashga undashga qaratilgan. Bu tadbirlar orqali o'quvchilar o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniga ega bo'ladilar.



Xulosa. Umuman olganda, STEAM yondashuvi o'quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlar, balki kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham berish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yondashuvning kengayishi, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari, STEAM yondashuvini joriy etish orqali, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlarini kuchaytirishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova, N. (2022). "Boshlang'ich ta'limda ijodiy yondashuv va STEAM integratsiyasi," O'zbekiston Milliy Universiteti nashri.
2. Karimov, D. (2023). "STEAM yondashuvining boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi," Andijon davlat universiteti ilmiy jurnali.
3. Moliya va iqtisodiyot ta'limi. (2021). "STEAM ta'lim yondashuvi: yangiliklar va amaliyot." Moliya va iqtisodiyot ta'limi jurnali.
4. Innovatsion ta'lim. (2020). "Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvining ahamiyati." Innovatsion ta'lim.
5. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. (2022). "O'zbekiston ta'lim tizimida STEAM yondashuvining joriy etilishi." Ta'lim vazirligi.



TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA PERSONALLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Boynazov Z.U.

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrası o'qituvchisi

Turobov M.S.

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: paradigma, kompetensiya, didaktik, kreativ, protses, usul, yo'nalish, interaktiv

Ключевые слова: парадигма, композиция, дидактический, творческий, процесс, метод, направление, интерактивный

Key words: paradigm, competence, didactic, creative, process, method, orientation, interactive

РЕЗЮМЕ:

Zamonaviy ta'lim paradigmasida talabalarning mustaqil ishlariga muhim didaktik maqsad berishga imkon beruvchi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirishning asosiy tamoyillari haqida.

РЕЗЮМЕ:

Об основных принципах формирования компетентностного подхода, позволяющего придать самостоятельной работе учащихся в современной образовательной парадигме важное дидактическое назначение.

SUMMARY:

About the basic principles of the formation of a competency-based approach in the modern educational paradigm, which allows to give an important didactic goal to the independent work of students.

Kognitiv tizim, kognitiv tuzilma (lotincha: cognitio «idroq, tasavvur qilish, ishning tahlili») - xarakter, tarbiya, kuzatish va atrofdagi dunyoni aks ettirish natijasida ongda rivojlangan bilimlar tizimi (shaxsning). Ushbu tizimga asoslanib, maqsadlar qo'yiladi va ma'lum bir vaziyatda qanday harakat qilish kerakligi haqida qarorlar qabul qilinadi, kognitiv jarayondan qochishga harakat qiladi. Kognitiv tizimning asosi - fikrlash, ong, xotira va tilning o'zaro ta'siri; bunday tizimning tashuvchisi insonning miyasi



Kognitiv tizimning belgilovchi xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ekspressivlik — til tizimi vositasida soʻzlashuv qobiliyati;
- samaradorlik — amaliy muammolarni tez va samarali hal qilishga yoʻnaltirish;

Pedagogika yoʻnalishida talim olayotgan oliy taʼlim muassasasi talabasining ijodiy salohiyatini oshirishning eng yaxshi usullaridan biri bu - mustaqil ijodiy faoliyat hisoblanadi. Ushbu yoʻl talabani mavjud ilmiy muammoni shakllantirish ilmiy va amaliy yechim yoʻlini ishlab chiqish, yechim boʻyicha umumiy natijaga erishish, isbotlash kabi koʻnikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil ijodiy faoliyat talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Mustaqil taʼlim ijodiy faoliyat olib talabalarni oʻquv mashgʻulotida olgan bilimlarini hayotda namoyon etish, oʻqituvchi ishtirokisiz mustaqil kreativlik asosida qaror qabul qilishiga oʻrgatadi. Mustaqil ijodiy faoliyatni toʻgʻri shakllashtirish har qanday oʻquv predmetini oʻzlashtirish imkoniyatini oshirishi, qaysidir manoda talabani bilim, malaka, koʻnikma olishiga undashi, motivatsiyasini oshirishi lozimdir. Hozirgi kunda talaba shaxsi uchun mustaqil ijodiy faoliyatning oʻquv protsesining yuklamasi sifatida belgilanib qolganligi, mustaqil ijodiy talim mavzularini toʻgʻridan-toʻgʻri fan dasturidagi mavzular bilan bir xilligi, mustaqil ish mavzusining malum bir muammoga yoʻnaltirilmaganligi balki aksariyat hollarda turli manbaalardan olinadigan tayyor materiallar orqali yoritilishi hamda mustaqil ijodiy ishni amaliyotda tatbiq qilmaslik kabi holatlar talim sifati samaradorligining dolzarb muammolaridan biri. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini pedagogik boshqarish.

Talaba oʻzining harakatini rejalashtirishi.

- Oʻz maqsadini tanlash, ularga erishishning yoʻl va vositalarini aniqlashi.
- Berilgan topshiriqlarni yechish uchun oʻz imkoniyatlarini birlashtirish, taʼshkillashtirishi.
- Oʻz faoliyatini nazorat qilishi va mos ravishda baholash.
- Oʻzining keyingi harakatlarini oʻzi nazorat qilishi va oʻzini oʻzi baholashni amalga oshirishi. Talabalarning mustaqil taʼlim va ijodiy ishini tashkil etishda uning quyidagi shakllaridan foydalanish mumkin. [2]

- ayrim nazariy mavzularni oʻquv adabiyotlar yordamida kutubxonada mustaqil oʻzlashtirish va mavzuning mohiyatini yoritib berish;

- kompyuter sinflarida elektron darsliklar, virtual stendlar, multimedia dasturiy majmualari yoki oʻrgatuvchi hamda bilimlarni nazorat qiluvchi interaktiv kompyuter dasturlari yordamida topshiriqlarni mustaqil oʻzlashtirish;

- hisob-grafik, jadval-diagramma ishlarini aniq maqsadlar asosida bajarish;



- laboratoriya yoki amaliy mashg'ulotlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, ularning maqsadlarini belgilab olish; maket, model, namunalar, detallar yoki kompyuter dasturlari yaratish orqali ko'rik tanlovlarda qatnashish va ularni namoyish etish; berilgan mavzu bo'yicha referat yoki ma'ruza tayyorlash, seminar yoki anjumanlarda ma'ruza qilish;

- fanlar bo'yicha sinfdan tashqari berilgan misol va masalalarni, nazariy savollarni, test topshiriqlarini bajarish;

- mintaqaviy ta'lim portallarining axborot manbalari bilan ishlash, boshqa ta'lim muassasalarining axborot-ta'lim resurslaridan foydalanish;

- o'qituvchi ko'rsatmasiga binoan reyting tizimi asosida o'tkaziladigan nazorat turlariga yoki yozma ishlarga tayyorgarlik ko'rish fan olimpiadalarida qatnashish uchun an'anaviy bo'lmagan misol, masala yoki topshiriqlarni bajarish;

- imitatsion o'yinlar tashkil etish, ularning ssenariylarini tayyorlash, tahlil etish;

Ishlab chiqarish tashkilotlari bilan birga tuzilgan xo'jalik shartnomalarida faol ishtirok etish. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishni kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, O.Yu. Polyanichko o'z-o'zini tarbiyalash kompetensiyasini shakllantirishni talabalarning sinfdan tashqari mustaqil ishi tizimining asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati E.N. Trushchenko, muayyan sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin.[6]

- talabalarning ichki, tashqi va protsessual motivatsiyasini rivojlantirish orqali mustaqil ijodiy faoliyatga munosabat motivatsiyasini ta'minlash;

- o'quv kurslarini kasbiy yo'naltirilgan vazifalar tizimi sifatida loyihalash, ularni hal qilish talabaning ta'lim faoliyatidan professional faoliyatga o'tishga imkon beradi;

- telekommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning o'quv faoliyatini metodik jihozlash;

- bo'lajak mutaxassis shaxsining kasbiy rivojlanish jarayonini monitoring qilish asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash. [3]

Zamonaviy ta'lim paradigmasida talabalarning mustaqil ta'lim ishlariga muhim didaktik maqsad berishga imkon beruvchi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirishning asosiy tamoyillari O.E. Lebedev. Bu tamoyillarga ko'ra, ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy ma'nolaridan biri mustaqil ijodiy ishlash qobiliyatini shakllantirish, qo'shimcha ravishda ta'limning tashkiliy asosidir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv



doirasidagi asosiy jarayon talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, maqsadlarni shakllantirish va qaror qabul qilish nafaqat kognitiv tizimning mazmuni va yangi olingan ma'lumotlarga, balki insonning jismoniy va ruhiy holatiga va boshqa omillarga ham bog'liq. [7]

Xususan, bu yangi olingan ma'lumotlarni taqdim etish shakliga sezilarli darajada bog'liq. Shunday qilib, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati, bir tomondan, faoliyat turi sifatida, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatiga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan voqealar tizimi yoki pedagogik shartlar sifatida qaraladi. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyati didaktik salohiyatga ega, chunki mustaqil ta'lim, ijodiy ish jarayonida o'quv materiali bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish ham, bu bilimlarni kengaytirish, turli xil ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish va analitik qobiliyatlarning rivojlanishi sodir bo'ladi. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etishda kompetensiyaga asoslangan uslubiy yondashuv mustaqil ta'lim ijodiy ish natijasida talabalar tomonidan talab qilinadigan kompetentsiyaning tegishli darajasiga erishganligini hisobga olish va talabalar mustaqil ijodiy faoliyatining asosiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi:

- maqsadlilik;
- xabardorlik;
- tuzilishi;
- samaradorlik;
- kreativlik.

Shunday qilib, Sun'iy kognitiv tizimlar, ya'ni kognitiv funksiyaga ega bo'lgan sun'iy intellekt belgilariga ega bo'lgan mashinalarga xos bo'lgan biologik bo'lmagan tizimlar ham ajralib turadi, bu esa, o'z navbatida, "voqealarni o'z vaqtida bog'lash, interaktiv fazoviy-vaqtni voqealar modelini qurish qobiliyatini anglatadi. [8]

Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashga kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatidan kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich o'tishga yordam beradigan ichki motivatsiyali faoliyat sifatida qaralishi kerak. Talabalarning ijodiy mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish jarayonida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish talabani kasbiy faoliyatini rivojlantirishga shaxsiy qo'shilishini nazarda tutadi.

Pedagogik shartlar majmuini hisobga olgan holda talabalarning mustaqil ta'lim ijodiy faoliyatini tashkil etish kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta'minlaydi. Tadqiqotchilar quyidagi shartlarni asosladilar:



- ichki va tashqi protsessual motivatsiyaning rivojlanishini ta'minlash;
- o'quv kurslarini kasbiy yo'naltirilgan vazifalar tizimi sifatida loyihalash;
- telekommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning o'quv faoliyatini metodik jihozlash;
- talabalarning mustaqil ta'lim ijodiy ishlari ustidan nazoratni ta'minlash;
- talabalarga mustaqil ishning mavzulari, shakllari va yo'nalishlarini tanlashda o'zini o'zi belgilash imkoniyatini berish;
- talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati uchun topshiriqlar mazmunining ijodiy xususiyati;
- talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini ilmiy-uslubiy ta'minlash va axborot bilan ta'minlash. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini tashkil etish jarayoni o'quv fanining xususiyatlariga, uning tuzilishiga, soatlar hajmiga, javoblarga bog'liq. [9]

Adabiyotlar:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2005.
2. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., Abduraxmonov Sh., Abdullayeva Q., Gaipova N. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyalari. Metodik qo'llanma. T.:TDPU Rizografi, 2014. 675 b.
3. Bobomurodova L.E. Innovasion ta'lim jarayonida bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarining kasbiy-metodik ijodkorligini takomillashtirish. Diss. ... Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).- Samarqand, 2022.
4. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. avtoref. – T.: 2018. - 70 b..
- 5.Boynazov Z. U. From Mother Tongue Science In Elementary Grades Theoretical Foundations Of The Organization Of Extraneous Work //World of Scientific news in Science. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 50-57.
6. Boynazov Z. Boshlang 'ich sinflarda bugungi ta'lim jarayoni va usullari //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.
7. Boynazov Z. U. Ways to increase literacy in a mother tongue lesson //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 29-32.
8. Boynazov Z. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish jarayoni //Interpretation and researches. – 2024. – T. 1. – №. 1.
- 9.Zafar Boynazov.In mother language and reading literacy classes uzbek children's literature for students new approaches in teaching.2022/12/12 Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 2/3.138-146



TA'LIM TARBIYADA ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Azimova D.U.

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim matematika va onatili kafedrasi katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: tarbiya, ta'lim, metod, bilim, ma'rifat, oila, axloq, darslik, muallim, maktab, vatan, jaholat, fikr tarbiyasi, ota-ona.

Ключевые слова: воспитание, воспитание, метод, знание, просвещение, семья, нравственность, учебник, учитель, школа, страна, невежество, воспитание мысли, родители.

Key words: education, education, method, knowledge, enlightenment, family, morality, textbook, teacher, school, homeland, ignorance, education of thought, parents.

PEZIOME:

Ushbu maqolada buyuk ma'rifatparvar davlat arbobi Abdulla Avloniyning hayot yo'li, ijodi, u yaratgan darsliklarning jamoatchilikka taqdim etilishi, uning pedagogik faoliyati, adabiyotga qo'shgan hissi haqida ma'lumot berilgan. Hozirgi kunda uning tarbiya bo'yicha fikr va mulohazalarining ahamiyati va qo'llanishi haqida ma'lumot berilgan.

PEZIOME:

В данной статье представлены сведения о жизненном пути, творчестве великого государственного деятеля-просветителя Абдуллы Авлони, представлении общественности созданных им учебников, его педагогической деятельности, вкладе в литературу. В настоящее время представлена информация о важности и применении его мыслей и мнений по вопросам образования.

SUMMARY:

This article provides information about the life path, creativity of the great enlightened statesman Abdulla Avloni, the presentation of the textbooks he created to the public, his pedagogical activity, and his contribution to literature. Currently, information is provided about the importance and application of his thoughts and opinions on education.

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand -to'quvchi oilasida dunyoga kelgan. Ota-onasi savodli kishilar bo'lgan. Abdulla Avloniy eski usul maktabini tamomlagandan keyin 12 yoshida madrasaga o'qishga kiradi. Juda ham iqtidorli bo'lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she'rlar yozaboshlaydi. Dastlabki she'rlarida va "Hijron" degan maqolasida xalqni yangi usul maktablarida o'qib-o'rganishga targ'ib qiladi.



Abdulla Avloniy 1907-yilda “Shuhrat”, “Osiyo” nomli yangi gazetalarchiqara boshlaydi, lekin Chor amaldorlari tez orada gazetalarini yoptirib qo’yadi. Abdulla Avloniy keyinroq “Sadoyi Turkiston”, “Turon” gazetalarida va “Kasabachilik harakati” nomli jurnalda muharrir bo’lib ishlaydi. Shundan so’ng, u o’zbek matbuotining zabardast vakili, o’zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida taniladi. Abdulla Avloniy xalq orasida ilg’or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma’rifatni tashviq qilishdagazeta, jurnallarning roli g’oyat katta ekanligini yaxshi bilar edi. Shu sababli ham Abdulla Avloniy 1907-yili “Shuhrat”, “Osiyo” nomli gazetalar chiqarib, unga muharrirlik qiladi. Gazetaning birinchi sonida matbuotning roli, gazetaning vazifasi haqida fikr yuritib, “Matbuot har insonga o’z holini ko’rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong’i kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat g’oyalarini yoyuvchidir” deb, baliqning suvsiz yashamog’i mumkin bo’lmagani kabi insonning ham ilmsiz yashamog’i mumkin emasligini uqtiradi

Odob-axloq, tarbiya tushunchalarini o’z asarlarining asosiy poydevori sifatida ilgari surgan, o’zbek dramaturgiyasi va teatrining yangicha maorifi va matbuotining asoschilaridan sanalmish Addulla Avloniy Arab va fors tillarini yoshlikdagi mustaqil mutolaa vaqtida egallagan. Hijron taxallusi bilan she’rlar bitgan. “Avloniy matbuot ishlarida faol ishtirok etish bilan birga Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi muallim” kabi darslik va o’qish kitoblarini yaratgan.” [1] Adibning “Ikkinchi muallim” kitobi “Birinchi muallim” kitobining uzviy davomidir. Mazkur kitob maktabni olqishlovchi she’r bilan boshlanadi. Ijodkor o’z she’rida maktabning ulug’ dargoh ekanligiga urg’u beradi:

*Maktab sizni inson qilur,
Maktab hayot ehson qilur
Maktab g’ami vayron qilur
G’ayrat qilib o’qing o’g’lon!
Maktabdadur ilm-u kamol
Maktabdadur husn-u hilol
Maktabdadur milliy xayol
G’ayrat qilib o’qing, o’g’lon!*

Shoir bu misralar orqali maktabni insonning najotkori, kishilarni komillik va kamolot sari yetaklovchi kuch sifatida talqin qiladi. [2]

Abdulla Avloniy – shoir, dramaturg, publitsist. Shu bilan bir qatorda, pedagogik faoliyat ham uning hayotida muhim sahifa hisoblanadi. U faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab umrining oxirigacha o’qituvchilik qildi, maktablar uchun darsliklar yaratdi, pedagogika fanining amaliy va nazariy masalalari bilan shug’ullandi. Shuni aytish joizki, u musulmon Sharqi



pedagogikasining ulugʻ bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy oʻzbek pedagogikasining asoschisi, oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish metodikasi faniga tamal toshi qoʻygan mutafakkirdir. U faoliyati davomida zamonaviy pedagog va metodistlarni yetishtirdi. Bizga maʼlumki, adabiy oʻqish darslarining asosiy vazifasi oʻquvchilarni ifodali oʻqishga oʻrgatish hisoblanadi. Pedagogik usul vazifasini bajaruvchi ifodali oʻqish natijasida asar voqealari, mazmuni, gʻoyasi oʻquvchilar koʻz oʻngida gavdalanadi.

“Oʻzbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy ilk bor pedagogikaga “Pedagogika”, yaʼni “bola tarbiyasining fanidir” deya taʼrif bergan. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi toʻrt boʻlimga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.
2. “Badan tarbiyasi”.
3. “Fikr tarbiyasi”.
4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati toʻgʻrisida fikr yuritadi.”

[3] Avloniy “Tarbiyaning zamoni” boʻlimida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammam: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini taʼkidlaydi. “Tarbiya bizlar uchun hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deb uqtiradi Avloniy . Avloniy taʼlim va tarbiya uzviy bogʻliq ekanini ham taʼkidlaydi:

“Dars ila tarbiya orasida biroz farq boʻlsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydi, birining vujudu biriga bogʻlangan jon ila tan kabitur”- deydi.

“Tarbiyani kimlar qilur?”

Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, «birinchi uy tarbiyasi. Bu birinchi ona vazifasidir. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir», - deb javob bersak, bir kishi deyurki, «Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qoi toʻqmoq onalarmi?

Oʻzlarida yoʻq tarbiyani qaydan olib berurlar», - der.” [4]

Tarbiya, axloq va taʼlim tiriklikning muvozanatini ushlab turuvchi muhim tirgaklardir. Tarbiya yoshlikdan toʻgʻri yoʻlga qoʻyilmasa, keyin uni oʻzgartirib boʻlmaydi. Tarbiyasizlik nafaqat shaxsni tanazzulga boshlaydi, balki xalq, millat va vatan taraqqiyoti uchun ham yovdir. Goʻyoki, bir hunarmand kulolchi tomonidan yasalgan koʻzga qaytadan shakl berib boʻlmagani kabi, oʻz vaqtida berilmagan tarbiyani ham kechiktirib boshlashdan maʼno yoʻq. aqliy rivojlantirish bilan birga, jismoniy sogʻligi xususida ham koʻp oʻrinlarda toʻxtalib oʻtadi. Yurt ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, ularning maʼnaviy va jismoniy kamolotiga bogʻliqdir.” Shu bois Abdulla Avloniy yoshlarni ilm, foydali hunar egallashga, kitob mutolaasiga undaydi. Shuningdek, adib ilmsizni jaholat bilan tenglashtirib, shunday fikrlarni bildiradi: “Jaholat deb oʻqimagan, bilimsiz, hech narsaga tushunmaydurgan nodonlikni aytilur”, - deydi.” [5]



Shuni aytish joizki, ta'lim-tarbiya, axloq va ilmni bir-biriga bog'lab, ularni uzluksiz ravishda yonma-yon olib borish kerak. Tarbiya va ilm har birimizning mukammal shaxs sifatida gavdalanishimiz uchun kerak. Tarbiyali va mushohadali yoshlar vatan kelajagidir. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari bizga ana shularni o'rgatadi.

O'zining axloqiy qarashlarini birinchi navbatda millatparvar, vatanparvar, ilm-fanni sevuvchi, vijdonli insofli kishilar tarbiyasiga alohida e'tiborini qaratgan. Avloniy o'zi ochgan maktablarga "Pedagogik asarlar": darsliklar va qo'llanmalar yaratadi. Bular: "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Gulistoni maktab" singari darsliklari, "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami inqilobga qadar bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko'p yangi usul maktablari uchun qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda, ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl va vositalarining majmuasi tushuniladi.

"Bugungi kunda "O'quvchilarni imtihonni bir xil eski uslubda o'tkazish uchun o'quv dasturini o'qishga majburlashdan ko'ra, turli xil yangi va innovatsion g'oyalarni qo'llash orqali ularning aqliy xulq-atvorini oshirishga ko'proq e'tibor qaratadigan o'qitish usuli oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy o'qitish metodlaridir". [6] Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta'lim tizimida innovatsion



deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl, va vositalarining majmuasi tushuniladi.” Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. “ [7] Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men ayta» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.” Prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. “ [8] O'zbek adabiyoti yosh avlodni barkamol qilib voyaga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan, taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy sherlar» hamda «Birinch muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni» kabi darslik va o'qish kitoblari ham xarakterli bo'lib, yaxlit bir tadqiqot uchun manba bo'la oladi. Ayniqsa, uning ilk savod chiqarishda bilim va tushunchalarni bolalar ongiga sodda va tushunarli yetkazishi alohida etiborni tortadi. Shuni inobatga olib, bu asarlarni jiddiy o'qib chiqish va unda ilk darslikka xos tuzilmani, g'oyaviy to'liqlikni, kitoblardagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganib chiqish zarur. Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinch muallim» kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobini xrestomatiya deb atasak joiz bo'lar, desak xato bo'lmas. Kitob maktabni olqishlovchi she'r bilan boshlanadi: Maktab sizi inson qilur, Maktab hayot ehson qilur, Maktab g'ami vayron qilur, G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!



Maktabdadir ilmu kamol, Maktabdadir husnu jamol, Maktabdadir milliy xayol, G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon! Bu she'rda Avloniy maktabni insonning najot yo'li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch, deb maqtaydi. Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy guliston yoxud axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi» bir ilm axloq haqida fikr yuritiladi. «Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib «Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur», - deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega.» [9] O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi martapadagogikaga «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fanidir», deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi adib. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi.

U bir qancha bosqichdan - uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Tarbiya talqini O'zbek adabiyotida ma'naviy qadriyatlar, muhabbat, mehnat, tinchlik, ijod, mehnat, insoniyat, adolat, xalq bilan bog'liq muhim qadriyatlar, qo'llanilgan tarbiyaviy asoslar va boshqalar kabi mavzular bilan bog'liqdir. O'zbek adabiyoti shu muhim qadriyatlar orqali milliy ma'naviyatni o'zida hamda o'zbek xalqi va jamiyatining umumiy ma'naviyatida o'rnatishga harakat qiladi. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" asari tarbiya talqiniga oid badiiy asarlardan biridir. Ushbu asar orqali o'zbek adabiyotida o'rgatiladigan ma'naviyqadriyaviy tamoyillar, madaniyat, adabiyotshunoslik, insoniyat va tarbiya talqini mavzulari zarur asarlarda ko'rsatiladi. Abdulhamid Cho'lponning "Binafsha" asari ham tarbiya talqiniga oid muhim namunalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar, yosh bola Binafshaning o'qituvchilar va oilasining tarbiyasi orqali insonning ma'naviy rivojlanishini ifodalaydi. Tarbiya talqini orqali insonning umrini bag'ishlagan yetakchi tamoyillar "Binafsha"da namoyon bo'ladi. Didaktik adabiyot – badiiy ifodalangan pand-nasihat tarzidagi adabiyot. Bunda axloqiy-ta'limiy, ilmiy-falsafiy, diniy bilimlar va g'oyalar badiiy talqin qilinadi.

U insonga xos xulqni ikkiga – yaxshi va yomonga ajratadi. «Yaxshi xulqlar» deb nomlangan birinchi qismida u 31 fazilat, «Yomon xulqlar» deb atalgan



ikkinchi qismdaesa 20 illatga ta'rif beradi. O'z mulohazalarini dalillash uchun Qur'oni karim oyatlari va hadislardan, shuningdek, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Sa'diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlarini keltiradi. Har bir axloqiy katego-riyaga o'z munosabatini bildirgach, o'shafikrning mazmunini ifodalovchi bayt yo biror maqol-hikmat ilova qiladi. Avloniy "axloq ulamosi"ning qarashlari asosida insonlarning axloqini yaxshi vayomon xulqlarga ajratadi, bunga ularning nafs tarbiyasini asos qilib oladi. U yaxshi xulqlarga fatonat, nazofat, shijoat, intizom, vijdon, vatanni suymak kabi fazilatlarini kiritsa, g'azab, shahvat, jaholat, safohat kabi illatlarni yomon xulqning belgilari deb biladi. Avloniyning ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalarini kuylagandastlabki she'rlari o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotining hamisha bebaho mulki bo'lib qoladi. Ubu turkumga mansub she'rlarida o'zbek mumtoz adabiyotidagi she'riy shakllarni katta ijtimoiy mazmun, ma'rifatparvarlik g'oyalari, hajviy ruh va xalqona ohanglar bilan boyitdi. Abdulla Avloniy bolalar uchun ham bir qancha she'r va masallar yozgan. Shoir buasarlariida maktab yoshidagi bolalarning fikr doirasini kengaytirish, ularda maktab va kitobga, mehnatga, tabiatga, Vatanga muhabbat uyg'otishni maqsad qilib qo'ygan. Uning ko'pgina she'rlari zahirida Vatanni sevish g'oyasi yotadi. Shoir bu she'rlarida Vatanni sodda va samimiy misralarda tasvirlaganki, faqat o'sha 10-yillarning o'rtalaridagina emas, balki bugungi maktab yoshidagi bolalar ham ulardan katta estetik zavq olishlari mumkin. Darhaqiqat, shoir Vatan ta'rifini boshlab,

"Tog'laridan konlar chiqar,

Yerlaridan donlar chiqar...

Havosi o'tayoqumlik,

Cho'llari bor toshlik, qumlik,

Toshkand emas, toshqand erur;

Kesaklari gulqanderur", [10]

deyabolalarda ona diyorga katta mehr uyg'otishga erishadi. Ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she'riyatida markaziy o'rin egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. "Maktab", "maorif", "ilm", "fan" kabi tushunchalar shoir she'rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko'tariladi, "jaholat" va "nodonlik" esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Tarbiya – "Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur", - deydi [11] Avloniy. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yoshvaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabi durki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur. Zero, «Hassinu axloqiko'm» amri



sharifi uzraxulqimizni tuzatmakg'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishiningasosiypanjasi tarbiyadur. Axloqimizning binosini go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar «tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shundayo'sarlar, tabiat o'zgarmas», – demishlar. Lekin bu so'z to'g'ri emasdur. Chunki tarbiyaningaxloqqa, albatta, ta'siri bo'ladur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan, jon ila chiqar», manabu so'z to'g'ridur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallama fandumiz: «Beshikdan to mozorga borguncha ilm o'rgan», – demishlar. [12]

Bu hadisi sharifning ma'nosi bizlarga dalildur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya salohiyatini baholash va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot orqali o'quvchilarning bilimlari, mantiqiy fikrlash ko'nikmalari va real hayotdagi muammolarni yechish qobiliyati aniqlanadi. Bu esa mamlakatlarning ta'lim tizimini rivojlantirishda va o'quvchilarni kelajakda yanada muvaffaqiyatli ta'lim olishiga tayyorlashda katta hissa qo'shadi

Adabiyotlar:

1. Nodira Saidova. Abdulla Avloniy asarlarida ta'lim va tarbiyaga oid qarashlar. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842
2. To'g'onboyeva Xadichabonu. “Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyat haqidagi fikrlari” Iqror jurnali /2023
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent “ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” D avlat ilm iy nashriyoti 2004.
4. Boshlang'ich sinfda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari Jamiyat | 12:00 / 27.11.201 Kun.uz.
5. Abdirashidova M. I., Azimova D. U. Teaching primary class students to think independently based on the competent approach //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 161-171.
6. Abdullah Avloni's Pedagogical Views And Its Essence Dilfuza Usmonovna Azimova Дата публикации 2021/5/31 Журнал The American Journal of Social Science and Education Innovations Стр 255-260
7. Usmonovna, A. D., & Jovlievna, N. M. (2024). Use of steam technologies in primary education training. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(03), 134-137.
8. Azimova D. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish // Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.
9. Azimova D., Narzullayeva M. O'qituvchining nutq texnikasi va notiqlik madaniyati tarixi // Research and Implementation. – 2024.
10. Azimova D., Yunusova M. Xalq pedagogikasida tarbiyaning umumiy usullari // Research and Implementation. – 2024.
11. Abdullayeva, N., Raxmonova, O., & Azimova, D. (2024). Bolalar jamoasi - pedagogik ta'sirning asosiy shakli. Research and Implementation. извлечено от <https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/672> 2024-06-19



BIOLOGIYA FANINI O'QITISH MAZMUNIGA ABU ALI IBN SINO TA'LIMOTLARIINI SINGDIRISH VA AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Tojiboyeva S.X.

Qo'qon davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: mutafakkir ta'limoti, tarbiya, o'quvchi, shakllanish, maktab, biologiya fani, meros.

Ключевые слова: учение мыслителя, образование, ученик, образование, школа, биологическая наука, наследие.

Key words: thinker's teaching, education, student, formation, school, biological science, heritage.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari yuqori sinf o'quvchilarining ta'lim va tarbiyasini mutafakkir Abu Ali ibn Sino ta'limotlari asosida tashkil etish istiqbollari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik imkoniyatlar to'g'risida fikrlar bildirilgan. Allomaning ta'limotlarini meros sifatida biologiya fani darslari mazmuniga singdirish g'oyalari, zamonaviy va yangi dunyo-qarashdagi o'quvchi-shaxsni shakllantirishdagi ahamiyati bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье освещаются перспективы организации обучения и обучения старшеклассников общеобразовательных средних учебных заведений на основе учения мыслителя Абу Али ибн Сины. Также были высказаны мнения о дидактических возможностях, направленных на формирование духовно-нравственных качеств у студентов. Описаны идеи внедрения учения Алломы как наследия в содержание уроков биологии, их значение в формировании личности ученика в современном и новом мировоззрении.

SUMMARY:

This article highlights the prospects of organizing the education and training of upper class students of general secondary educational institutions based on the teachings of the thinker Abu Ali ibn Sina. Also, opinions were expressed about didactic opportunities aimed at forming spiritual and moral qualities in students. The ideas of inculcating Alloma's teachings as a legacy into the content of biology lessons, their importance in forming a student-personality in a modern and new world view are described.

Mamlakatimizda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan. Mazkur Davlat dasturi doirasidagi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va



sohani yangi bosqichga olib chiqish” [1] deb, nomlangan beshinchi ustuvor yoʻnalishning 73-maqsadida “Buyuk ajdodlarning boy ilmiy merosini chuqur oʻrganish va keng targʻib etish”; “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb, nomlangan toʻrtinchi ustuvor yoʻnalishning 42-maqsadida “2026-yilga qadar oʻquv dasturlari va darsliklarni ilgʻor xorijiy tajriba asosida toʻla qayta koʻrib chiqib, amalda joriy etish”, 44-maqsadida “Maktablarda taʼlim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” chora-tadbiri belgilab olindi. Ushbu islohotlar taʼlim jarayonining huquqiy-meʼyoriy asoslarini innovatsion tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga, taʼlim subyektlarining ehtiyojlarini qondirishga, yosh avlodni aqlan va maʼnan barkamol inson qilib tarbiyalash, allomalarimiz merosidagi bagʻrikenglik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan gʻoyalar asosida zamonaviy, yangi dunyo-qarashdagi oʻquvchi-shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Abu Ali ibn Sino taʼlimoti asosida umumiy biologiya darslarida oʻquvchilarning sogʻlom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish va oʻqitish texnologiyalarini takomillashtirish – yangi mazmundagi, uzluksiz taʼlim tizimini yaratishdagi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Biologiya darslarida mutafakkir taʼlimotlaridan foydalanish va uni oʻqitish metodikalarini takomillashtirishdan maqsad taʼlim mazmuniga Abu Ali ibn Sino taʼlimotlari singdirilgan darslarda oʻquvchilarning oʻzlashtirishiga oid muammolarni bartaraf etish va samarali natijalarga erishishdir.

Abu Ali ibn Sino taʼlimotlari tabiiy-ilmiy qarashlar bilan uzviy bogʻliq. Uning fikricha, mavjudotlarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, oʻzaro munosabati, biridan ikkinchisiga oʻtishi va darajalarini har tomonlama oʻrganishdan iborat. Allomaning “Donishnoma”, “Ash-shifo”, “Kitob al-ishorot va at-tanbihot” (“Ishora va koʻrsatmalar”) kabi yirik asarlar bilan birga “Risalat baʼd al-afadil ila ulama madinat as-salom” (“Tinchlik shahri (Bagʻdod) olimlariga baʼzi fozillarning riso-lasi”), “Al-mukataba bayna Abi Said ibn Abi-l-Xayr va ash-Shayx ar-Rais” (“Abu Said ibn Abu-l-Xayr bilan Shayxurrais oʻrtasidagi yozishma”), “Ar-risala an-nayruziya” (“Navroʻz munosabati bilan yozilgan risola”), “Risala fi-l-hudud” (“Taʼriflar haqida risola”), “Risala fi-l-mantiq”, “Risala fi-l-uqul” (“Aql haqida risola”), “At-taʼliqot” (“Izohlar”) kabi risolalar ham bizgacha yetib kelgan [6].

“Kitob al-ishorot va at-tanbihot” 1035-1036-yillarda Isfahonda yozilgan Ibn Sinoning soʻnggi va eng mukammal falsafiy asari boʻlib, 1340-1341-yillarda koʻchirilgan. Uning birinchi qismi mantiqqa, ikkinchi qismi esa hikmatga oiddir. Fasllarga boʻlib oʻrganiladigan asardan misol tariqasida “Ruhning tanadan



ajralishi” (ديرجتلا) [2] deb, nomlanadigan mavzuga e’tibor qaratsak. Unda badan va ruhning har biri 3 ko‘rinishdan birida ekani aytiladi. Xususan, badan: a) go‘zallik va sog‘lomlikda yuqori darajada; b) go‘zallik va sog‘lomlikda yuqori bo‘lmagan darajada; d) xunuk va kasal holda bo‘ladi.

Birinchi va ikkinchi turga mansub insonlar dunyoviy baxt-saodatga butunlay yoki qisman noil bo‘ladilar yoxud eng kamida har qanday ta’na-dashnomlardan uzoq bo‘ladilar.

Ruhning holati ham 3 turli bo‘lib: a) aql va xulq fazilatida mukammal; b) aql va xulqda, asosan, aqlda yuqori darajada bo‘lmagan holat. Bu toifa ruh egalari ham yaxshi insonlar hisoblanadi. Chunki aqlda yuqori darajada emasliklari ularning aybi emas, lekin xulqda yuqori darajada bo‘lishga mas’uldirlar. d) Aqli ham, xulqi ham past dara-ja-dagi kishilar. Ularning shu darajaga tushganlarining boisi ruhlaridir.

“Al-ishorot va at-tanbihot” asaridagi yana bir fasl “Xursandchilik va baxt-saodat” deb, nomlanadi. Ibn Sinoning fikricha, avom ongida shunday fikr qaror topganki, eng kuchli va insonlar intiladigan rohat bu – hissiy rohatdir, qolganlari unga nisbatan kuchsiz. Lekin bu aldamchi fikr. Shahmat o‘ynayotgan kishining qorni och bo‘lishiga qaramasdan keltirilgan ovqatni rad qilishi yoki keyinroqqa kechiktirishi uning g‘alabaga bo‘lgan ishtiyoqidan darak beradi va bu ichki zavq hissiy lazzatdan ancha kuchli. Shuningdek, vijdon yoki nomusni saqlash haqida gap ketarkan, olijanob kishi uchun ochlik yoki chanqoqlik arzimagan narsaga aylanadi. Bundan ichki zavq tashqi huzur-halovatdan ustun ekani ma’lum bo‘ladi. Bu sifat nafaqat ongli, balki ongsiz jonzotga ham ta-alluqli. Masalan, ovchi itning o‘zi och bo‘lishiga qaramay o‘ljani egasiga olib kelib tutqazishi, bola boquvchi jonivorning o‘zidan ko‘ra bolasiga g‘amxo‘rlik qilishi va uning hayoti uchun kerak bo‘lsa jonini xatarga qo‘yib, o‘zini himoya qilgandan-da, qattiqroq kurashishi ma’lum. Tashqi huzur-halovatdan ichki zavq ongsiz bo‘lgan taqdirda ham ustun ekan, ong va aqlning lazzati qanday bo‘ladi? Allomaning bu savolga javobi insonning aqidasi, uning borliq va tabiatdan tashqari dunyoni bilishga intilishi haqidagi mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi.

“Ilm – narsalarni insoniy aql nuqtayi nazaridan shunday idrok etishki, unga xato va yanglishish qo‘shilmasin. Agar u aniq hujjatlar va haqiqiy dalillar bilan bo‘lsa hikmat deyiladi” [3]. “Bayon esa, o‘z fikrida yashiringan ma’nolarni, ularning xayoldagi yoki aqlidagi ko‘rinishini xitob qilinayotgan kishining ongida aks ettirishga go‘zal suratda erishishdir” [4]. “Rostgo‘ylik faqat tilning ishtirokidagina bilinadigan fazilat emas, balki qalbda asli-asosi namoyon bo‘lib, xayol, idrok, fikr va xotira ham uni tasdiqlab turadigan sifatdir” [5]. Modomiki, har qanday xavfli ijtimoiy illat, og‘ir jinoyat negizida axloqsizlik



yotar ekan, Abu Ali ibn Sinoning axloqqa doir qarashlari hozirgi kunda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda va bu g'oyalar yosh avlodning barkamol inson bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyatga ega. Ularni atroflicha, chuqurroq o'rganish esa Sharq xalqlari madaniyati va ma'naviyatining rivojida Ibn Sino kabi qomusiy olimlarimizning xizmatlari katta ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi.

Abu Ali Ibn Sino fanning qaysi bir sohasiga qo'l urmasin, har davrda yosh avlodning kamol topishida ta'limot sifatida xizmat qiladi. Uning shoir va adib sifatida yozgan asarlari ham o'zining ta'limiy jihatdan ko'zga tashlanib turadi. Jumladan, "Sirr al-qadar" ("Ta'qdir sir-sinoati"), "Ar-risala al-azhaviya" ("Yoritish risolasi"), "La saoda fi haza-l-olam ala-l-itloq vala shaqova" ("Bu dunyoda faqat baxt ham, mutlaqo baxtsizlik ham yo'q"), "Risala fi an la maxofata li-l-mavt" ("O'limdan qo'rqmaslik haqida risola"), "Kitab al-mabda' va-l-maod" ("Dastlabki va kelajak [hayot] haqida kitob"), "Risala al-mi'rojiya" ("Me'roj haqida risola"), "Risala fi-l-ilohiyot" ("Ilohiyot haqida risola"), "Al-kalima al-ilohiya" ("Ilohiyotga doir so'z"), "Al-fayz al-ilohiy" ("Ilohiy fayz") kabi kichik risolalari yuqorida nomlari keltirilgan "Donishnoma", "Ash-shifo", "Kitob al-ishorot va at-tanbihot" [6] kabi katta hajmdagi asarlarning ayrim boblari ushbu mavzuni yoritadi.

Ibn Sinoning "Sirr al-qadar" risolasida ta'kidlashicha, insonlar uchun belgilab qo'yilgan taqdirning siri va hikmatini uch asos tashkil etadi: 1. Olamning nizomi haqida umumiy tushuncha. 2. Yaxshilik va yomonlik haqida batafsil tushuncha. 3. Inson o'zi yashab o'tgan dunyosidan mas'ul bo'lishi haqida umumiy tushuncha.

Mazkur uch asosiy ma'lumotga ega bo'lgan kishi uchun taqdirning sir-sinoati haqida bosh qotirishga hojat qolmaydi. Balki, borliqda ro'y beradigan, insonga bog'liq bo'lganu bo'lmagan har qanday hodisaning o'ziga xos hikmatini ta'kidlagan holda Ibn Sino risolaning asoslariga – birinchisi (olamning nizomi) yoki uchinchi (insonlarga u dunyoga qaytishni ta'kidlash)ga emas, balki ikkinchisi (yaxshilik va yomonlik haqidagi tushuncha)ga ko'proq to'xtaladi. Fikrimizcha, buning sababi shuki, birinchi va uchinchi asos inson ixtiyoridan tashqaridagi narsalar bo'lib, kishi uchun ular haqida nazariy bilimga ega bo'lishining o'zi yetarli.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, dunyoning nizomi benuqson va juda mukammal. Alloma bu olamning mavjudligi mukammal va ma'lum nizom asosida ekanini ta'kidlarkan, Aflotunning "jami narsalar rejalangan va xohish asosida ro'y beradi", degan fikrlarini ham keltiradi. "Borliqda yuz beradigan yomonliklar esa nisbiydir... Hakim zotning nazdida olamni yaratishdan u yomonliklar



iroda qilingan emas, balki murod – yaxshiliklardir”. Bu yerda allomaning turli jiddiy kasalliklar va shuningdek, o‘lim bilan bog‘liq holatlarga ishora qilayotganini anglash qiyin emas. Alloma “insonga yaxshilik va yomonlik bo‘lib tuyuladigan narsalarda o‘ziga xos hikmat va sabablar yotadi”, demoqchi. “Yaxshilik qiluvchi inson o‘zining ichki dunyosi qanchalik kamol topganiga qarab, undan lazzatlanadigan, yomonlik esa nafsning qanchalik nuqsonga yuz tutgani miqdoriga qarab o‘z sohibini uqubatga olib boradigan narsa”. Ibn Sinoning fikricha, olamda kishilarning fe‘l-atvorlariga ta’sir etishdan maqsad – yaxshi amallarga nisbatan qiziqish va yomon ishlarga nisbatan ularda nafrat uyg‘otishdan iboratdir. “Buyruq va qaytariq har doim ham dunyoqarashi turli xil bo‘lgan insonlarni birdek qanoatlantirmasligi mumkin. Bu borada barcha kishilar mushtarak bo‘lgan, barchaga ta’sir etadigan vosita bor. U ham bo‘lsa maqtoov va aybloov. Maqtoovda qiziqtirish, aybloovda esa qaytarish bor. Birinchi holat – yaxshilik qiluvchini o‘zi xohlaydigan (o‘sha yaxshiligiga) o‘xshash narsaning qaytishiga qiziqtirish. Ikkinchisi – qaytarish bo‘lib, badjahl odamni yomonliklarni takrorlashdan qaytarishdir. Kim tarafidan ayni vaqtda boshqaga nisbatan yomonlik sodir bo‘layotgan bo‘lsa, modomiki, uni o‘ziga nisbatan ham bo‘lishini xohlamas ekan, bu ishga qodir bo‘lgani holda o‘sha fe‘ldan tiyiladi” [6].

Biologiya fanlarini o‘qitishda o‘quvchilarning diqqat-e’tibori va faolligini yanada oshirish uchun o‘quv materialini bayon etish jarayonini hisobga olish zarur. Uzoq vaqt o‘quvchilar e’tiborni jalb etish ham charchatadi, dars o‘tish uslubingizning xilma-xil bo‘lishining yagona yo‘li – mutafakkir ta’limotlari singdirilgan darsni o‘tish texnologiyalarini takomillashtirishdir. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jara-yonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish va e’tibor kuchayib bormoqda. Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar asosida ular egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishga, xulosani o‘zlari chiqarishga undalmoqda.

Ta’lim mazmuniga milliy va umuminsoniy qadriyatlar g‘oyalarini singdirish asosida yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash tarbiya jarayonining eng muhim vazifasidir. Globalla-shuv davrining muammolaridan biri – inson salomatligi va tabiatga oid xavfni bartaraf etishga imkon beruvchi bilimlar bilan qurollantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o‘quvchining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishi uchun sharoitlar yaratilgan. Biologiya fanini o‘qitish mazmuniga Abu Ali ibn Sino ta’limotini singdirishni takomillashtirish asosida o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda



turli metodlari va ularni qo'llashni bilish zarur. Binobarin, biologiya fanini Abu Ali ibn Sino ta'limotlaridan foydalanilgan va o'qitish metodikalari takomillash-tirilgan darslarning olib borilishi (o'qitish) jarayonining o'zi muammoning yechimlaridandir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni.
2. Abu Ali ibn Sino. Al-ishorot va at-tanbihot (Nasiriddin at-Tusiy sharhi va Doktor Sulaymon Dunyo tadqiqi bilan). – Qohira: Dor al-maorif, 1985, 306–308 b.
3. Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol. /Tuzuvchilar: Sh.Shomuhammedov, J.Kamol, A.Irisov. – T.: G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980, – 132 b.
4. Abu Ali ibn Sino. Risala fi-l-axloq. SHQM qo'lyozmasi. Inv. № 2385 100b-b.
5. Abu Ali ibn Sino. Fi tazkiyat an-nafs. SHQM qo'lyozmasi. Inv. № 2385 101b-b.
6. Tojiboyeva S. Methods Using Great Thinkers' Teachings about Nature and Human Health at Biology Lessons. Eastern european Scientific Journal. Germany №01. 2019. – P. 379-384.



TARIXIY TAJRIBALAR ASOSIDA TALABA-YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Mirzaxmedov Sh.M.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: ajdodlar, tarixiy qahramonlar, talabalar, vatanparvarlik ruhi, vatanparvar shaxs, maʼrifat, taraqqiyot.

Ключевые слова: предки, исторические герои, студенты, патриотический дух, патриотическая личность, просвещение, развитие.

Key words: ancestors, historical heroes, students, patriotic spirit, patriotic personality, enlightenment, development.

PEZIOME:

Ushbu maqolada tarixiy tajribalar asosida talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni rivojlantirish istiqbollari va ularni tarixiy qahramonlar haqidagi tafakkurlarini boyitishga qaratilgan tavsiflar keltirigan. Shuningdek, yoshlarni yuksak axloqiy fazilatlariga ega, insonparvar, jismonan baquvvat, vatanni sevadigan, harbiy bilimga ega, milliy gʻurur ruhida tarbiyalashda tarixni oʻrganish masalasi yoritilgan.

PEZIOME:

В данной статье, основанной на историческом опыте, предусмотрены перспективы развития духа патриотизма у студентов, обогащения их представлений об исторических героях. Также освещена проблема изучения прошлого в воспитании молодежи с высокими моральными качествами, человечностью, физической подготовленностью, патриотизмом, военными знаниями, национальной гордостью.

SUMMARY:

This article highlights the prospects of developing students and young people in the spirit of patriotism and enriching their thinking about historical heroes based on historical experiences. Also, special attention was paid to the issue of studying the past in educating young people in the spirit of high spiritual and moral qualities, humanitarianism, physical strength, love for the motherland, military knowledge, and national pride.

Mamlakatimizda uzluksiz taʼlim rivojining bevosita demokratik islohotlar chuqurlashuvi, yaʼni taʼlim-tarbiya jarayonini tarixiy tajribalar asosida talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni rivojlantirishni kengayishi bilan ham bogʻliqligidir. Taʼlimdagi islohotlar sharoitida barkamol avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy tajribalar asosida



talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni rivojlantirishda dastlab bevosita pedagogikaga oid fanlar orqali amalga oshiriladi. Tarixiy tajribalar asosida talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni rivojlantirish va ta'limda ijtimoiy tarbiyaga alohida o'rin berilishi, ya'ni darsdan tashqari sharoitda ular mustaqil ishlarni bajarishlari orqali ham o'rganadilar. Shuningdek, tarixiy tajribalar asosida talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik tarbiya munosabatlarining chuqurlashuvi bilan ham xarakterlanadi. Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni rivojlantirishga kompleks yondoshuv yuksalib borayotganligi alohida ahamiyatga ega. Yoshlar kamolotining davlatimiz taraqqiyoti, uning kelajagi, bevosita barkamol shaxs shakllanishi bilan uzviy bog'liqligi masalasi, ular ongiga vatanparvarlik ruhini yanada chuqurroq singdirishda tarixiy tajribalarga mansub manbalardan samarali foydalanishni taqazo qiladi.

Talaba yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixni o'rganish alohida o'rin tutadi. Tarix yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun ko'plab real misollarga boy ekanligi ma'lum. Bunday misollarning har biri o'ziga xos vatanparvarlik harakatlarini ifoda etadi. Ular yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalashda Vatan, xalqi, o'tmish ajdodlarning hayotini bilish, ularni to'g'ri tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqara olish imkonini beradi. Vatan, vatanparvarlik hissiyoti, Vatanga bo'lgan muhabbat haqida gapirish bugungi kunda xalqimiz orasida urf bo'lgan emas. Ajdodlarimiz azal-azaldan yurtiga, xalqiga bo'lgan muhabbatini, sadoqatni amalda isbotlab kelishgan va yosh avlodga bu haqda uqtirib kelishgan. Bunga ajdodlarimizdan Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi hamda Amir Temurlar haqidagi tarixiy misollar bo'lsa, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida sodir bo'lgan voqealar chog'ida hayotini Vatan himoyasiga baxshida etgan, so'nggi nafasigacha o'z xalqi, Prezidenti va harbiy qasamyodiga sodiq qolgan Bobur G'aniyev, Ruslan Narziyev, Qahramon Madolimov, Asilbek Mirzayev, Ulug'bek Barnoyev, Sayyor Sadinov, Bahrom Jo'rayev, Ma'ruf Rajabov, Elomon Otajonov, Doniyor Tojiboyev, Anvar Otabekov va Alisher Salimov kabi yoshlarning qahramonliklari zamonaviy vatanparvarlikka yorqin misol bo'ladi. Vatanimizda yashab ijod etgan jahonga mashhur buyuk allomalar, sarkardalar hayoti va faoliyati, ularning insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish vatanparvarlik tarbiyasi uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Hozirgi kun yoshlariga ibrat bo'ladigan, ko'hna tarixda Vatan uchun jon fido qilgan olovqalb ajdodlarimizdan buyuk vatandoshimiz Najmiddin Kubro Chingizxondek zolimning marhamatidan Vatan ozodligi yo'lidagi kurashda qurbon bo'lishni afzal ko'rdi [4]. U o'zining ibratomuz fidokorligi bilan



vatanparvarlik yosh tanlamasligini, yurtiga mehri kuchli inson hatto 76 yoshida ham dushmanga qarshi jang qilishga o'zida kuch topa olishi mumkinligini isbotladiki, bu Vatanga sadoqat, xalqiga muhabbatning oliy ko'rinishidir.

Xalqimizning mard, jasur, vatanparvar farzandlaridan yana biri, harb san'ati bilimdoni Jaloliddin Manguberdi esa Vatanni ozod ko'rmoq istagida ko'p ming sonli mo'g'ul lashkariga Alpomishdek na'ra tortib, hamla qildi. Garchand u dushmani to'la yengolmagan bo'lsada, ularning saflarini parokandalikka uchratdi. Undagi jasorat, metin iroda, Vatanga, xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbat Chingizxondek sarkardani ham qoyil qoldirdi. Yovning lashkariga qiron keltirish va shu orqali g'animda havas va hasad hislarini uyg'otish harbiy mahoratning yuksak ko'rinishi bo'ldi. Bundan tashqari, Jaloliddin Manguberdining milliy g'ururi kuchliligi bois o'z jigarlarini yov qo'lida qullikda ko'rishni xohlamadi.

Buyuk sarkarda bobomiz Amir Temur nafaqat jan-gu jadallardagi g'alabalari bilan, balki mo'g'ul bosqini tufayli vayron bo'lg'an yurtni obodonlashtirish va tarqoq holga kelgan davlatni birlashtirish orqali ham o'z iqtidori, salohiyatini to'la namoyon etdi. Jumladan, pedagog olimlardan M.M. Murtozayevaning "Sohibqiron ta'limotidagi ekologik qarashlar" nomli asarida quyidagilarni, "Samarqandda ko'pdan-ko'p bo'stonlar barpo qilib, baland va mustahkam qasrlar bunyod etdi. Ularning har qaysisi g'aroyibotli tartibda, ko'rkam va ajib suvratda edi. Bo'stonlar asosini mustahkam qilib, fahomatli mevali ko'chatlar bilan ularni bezadi. Ulardan birini Eram bog'i, ikkinchisini Dunyo ziynati, yana boshqasini Firdavs jannati, unisini Shimol bog'i, bunisini Oliy jannat deb atadi" [2] kabi fikrlarni, Amir Temurning obodonchilik ishlari xalq manfaatlariga xizmat qilganini ta'kidlab o'tadi. Buyuk sarkarda Amir Temur bilan birga Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Boburlarning harbiy sanati va mahorati jahon harbiy akademiyalarida bugungi kunda ham keng o'rganib kelinmokda.

Miloddan avvalgi VI asrda saklar va massagetlar Doro I boshchiligidagi qudratli qushinning kulini ko'kka sovurdilar. Yengilmas sanalgan Aleksandr Makedonskiy qushinlariga esa Markaziy Osiyo mintaqasidagi kichik bu hududni o'ziga bo'ysundirish uchun uch yil kerak bo'ldi [3]. Markaziy Osiyo xalqlarining qurolli tuzilmalari shu kabi arab qushinlari hamda Chingizxon cheriklariga ham muvaffaqiyatli qarshi turdilar. O'zbekiston hududida tashkil topgan qo'shilmalar va qismlar Ikkinchi jahon urushi paytida fashizmni tormor qilishda juda faol qatnashib o'zlarini misli ko'rilmagan shon-shuhratga burkadilar. Bu esa jasorat eskirmas qadriyat ekanligidan dalolat beradi.



Xulosa, tarixdan ibrat olgan holda o'z aql-zakovatimiz, kuch-g'ayratimizni to'liqroq namoyon etish vositasida intellektual salohiyatimizni xalqimiz farovonligi, yurtimiz tinchligi, osmonimiz musaffoligi, ozod va obod Vatan, erkin fuqarolik jamiyatini qurish singari eng oliyjanob hamda ustuvor maqsadlarga yo'naltirishimiz lozimdir. O'tmishda ajdodlarimizning, Vatanimiz uzoq va yaqin tarixining turli davrlarida ona Vatan, xalq himoyasi yo'lida yuksak fidokorlik va qahramonlik namunalarini ko'rsatib o'chmas nom qoldirgan. Ko'plab manbalarda tarixiy harbiy qahramonlar to'g'risidagi keng ma'lumotlar berilganligini inobatga olgan holda yoshlarni muntazam ravishda tarixiy tajribalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tavsiya etiladi.

Yaqin yillardagi Vatanimizning tinchligi va farovon hayoti yo'lida o'z jonlarini qurbon qilgan jasur o'g'lonlarning ko'rsatgan jasorati ham alohida ahamiyatga ega. Ularning jasorati ham talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda dasturi amaldir. Ta'lim muassasalarida pedagogikaga oid fanlar mazmuniga tarixiy tajribalar asosidagi vatanparvarlikni singdirilish zarur va ajdodlarning jasorati mamlakatimiz yoshlariga o'rnak bo'lishi, ularning tarbiyasi to'g'ri yo'lga quyilishida xizmat qilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Ismoilov M., Sharopov A. Tarix atamallari lug'ati. – T.: 2013. – 560 b.
2. Murtozayeva M.M. Sohibqiron ta'limotidagi ekologik qarashlar. Jamiyat va boshqaruv jurnali. – Toshkent: 2010, №4. 56-57 b.
3. Rajabov Q., Qandov B., Rajabova S. O'zbekiston tarixining muhim sanalari (eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 480 b.
4. Sodiqov H., Yo'ldoshev B., Inoyatov I. O'zbekiston qurolli kuchlari (o'tmishda va hozirda). – Toshkent: TaG'akkig sapoy, 2014. – 248 b.
5. Temur tuzuklari / Tahrir hay'ati: B.Abdusalimov va boshq. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 184 b.



NEMIS TILI YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Xudanova Sh.N.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: nemis tili, talabalar, kasbiy pedagogik, kompetentlik, raqamli texnologiyalar, rivojlantirish.

Ключевые слова: немецкий язык, студенты, профессиональная педагогика, компетентность, цифровые технологии, развитие.

Key words: german language, students, professional pedagogy, competence, digital technologies, development.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida pedagogik ta'lim sohasini yuqori samaradorlikka erishtirish, keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishi, xalqaro tajribalar va raqamli texnologiyalarni joriy etishga oid fikrlar yoritilgan. Shuningdek, nemis tili darslarida talabalar kasbiy pedagogik kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga oid olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligi to'g'risida fikrlar keltirilgan. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali qator imkoniyatlarga ega bo'lish borasida qaydlar ham aks ettirilgan.

РЕЗЮМЕ:

Keyingi yillarda ochiq osmon ostidagi muzeylarda qadimdan shakllanib kelgan an'anaviy hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish orqali ma'lum bir hududlarda turizmni rivojlantirish tendensiyasi rivojlanmoqda. Bu esa turistlarning tegishli hududning tarixi va etnografiyasi haqida tasavvurini boyitib, o'tmishdagi rekonstruksiya qilingan aholi yashash manziliga tashrif buyurish imkoniyatini beradi. Shuningdek, turistlarning xohishlariga qarab, ish dastgohlarida o'zlari ham bevosita ishlab chiqarishda ishtirok etish imkonini beradi. Shu tariqa mehmon ishtirokchiga yoki jarayon boshqaruvchisiga aylanadi. Bular tegirmonchilik, to'quvchilik, temirchilik, kulolchilik, duradgorlik, zargarlik buyumlarni ishlab chiqarish bo'lishi mumkin. So'nggi 10-15 yil ichida butun dunyoda muzey qurilishi sohasida haqiqiy "bum" kuzatildi. Bugungi kunda ko'plab shaharlarda mavjud muzeylarni tubdan kengaytirish va qayta qurish loyihalari ko'rib chiqilmoqda, sayyohlarni jalb qilish maqsadida san'atning qadimiy turlaridan ultramodern turlarigacha bo'lgan namunalarini saqlaydigan va ifodalovchi yangi muzeylar yaratilmoqda. Muzeylarni rivojlantirishga, shu jumladan muzey qurilishiga katta mablag' sarflanmoqda. Ko'rinishidan konservativ va xotirjam ko'rinadigan ushbu muassasa zamonaviy globallashuv jarayonlariga katta zamonaviy korporatsiya singari ajoyib tezlik bilan qo'shilmoqda va ilgari tasavvur qilib bo'lmaydigan miqdordagi mehmonlarni qabul qilmoqda.[3] Bunga 2010 yilda ochilgan Metzdagi Pompidu markazining filiali misol bo'la oladi. Yangi markaz binosi yapon me'mori Shigeru Ban va fransuz me'mori Jan de Gastin tomonidan ishlab chiqilgan.[4] Muzeining ko'rinishi ulkan qo'ziqorin, sirk chodiri yoki tunda shaharni yoritadigan sehrli chiroqni eslatadi.[5] Muzeining bunday g'ayrioddiy ko'rinishi shahar aholisi orasida haqiqiy zavq bag'ishladi va sayyohlarning katta e'tiborini tortdi. Ushbu

badiiy loyihaning timsoli shahar rivojlanishining yangi bosqichiga aylandi. Shu sababli "... muzey qurilishidagi zamonaviy me'moriy yechimlar shaharlarning turistik jozibadorligini oshiradi, dunyoning turli burchaklaridan turistlarni jalb qiladi. Shu jihatdan muzeylar infratuzilmasini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish orqali ko'rsatiladigan xizmatlarning interaktivligini oshirish, muzeylarning faoliyatiga innovatsion axborot texnologiyalarini keng joriy etish va muzey eksponatlarining raqamli shakllarini yaratish orqali muzey eksponatlarini ko'rish imkonini beradigan infratuzilmani yaratish"[6] bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ham muzeylarni davr talabidan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish, ularning qiyofasini, ekspozitsiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish, fondlarini boyitish, ashyolarini ilmiy o'rganish, asrab-avaylagan holda zamonaviy uslubda ta'mirlab kelajak avlodlarga yetkazish, jahonga namoyish etish yo'llarini bir tizimga solish muhim masalalardan hisoblanadi.[7] Shu sababli O'zbekistonda ham turizmni innovatsion asosda rivojlantirish, turistlarni mamlakatimizga kelishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishda virtual namoyishlar, multimediya dasturlaridan foydalanish yo'lga qo'yib borilmoqda.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, turizmning rivojlanish tendesiyalari bu sohaning mamlakat iqtisodiyotida asta-sekin muhim ahamiyat kasb etishini ko'rish mumkin. Shuning uchun muzeylar yo'nalishining rivojlanishiga alohida e'tibor berish zaruriyatga aylanib bormoqda

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев парламентга Мурожаати 2018-йил 22-декабр. Халқ сўзи газетаси. 23 декабрь.
2. Романчук В.А. Музейный туризм. Учебно-методическое пособие. Санкт-Петербург, 2010 – Режим доступа: <http://history.spbu.ru/userfiles/Romanchuk.PDF>
3. Захарченко И.Н. Художественный музей как храм современной культуры. . – Режим доступа: https://tourlib.net/statti_tourism/zaharchenko3.htm.
4. Международные новости на RFI. Филиал современного искусства им. Помпиду открылся в Метце. – Режим доступа: <http://www.russian.rfi.fr/frantsiya/20100511-filial-muzeya-sovremennogo-iskusstva-im-pompidu-otkrylsya-v-mettse/>
5. Архитектурное сообщество, дизайнерские ресурсы. Новый филиал центра Помпиду вне Парижа. – Режим доступа: <http://rdh.ru/architecture/public-projects/294-novyy-filial-centra-pompidu-vn-parizha.html>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 августдаги ПК-3920-сонли - «Ўзбекистон Республикасида маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // Lex.uz.
7. Ҳабибуллаев Н. Музей ва фан-таълим /Ўзбекистон музейлари истокболлари. – Тошкент, 2013. – Б.7



ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

RAQAMLI PEDAGOGIKA, FIZIKA FANINI RAQAMLI PEDAGOGIKA ASOSIDA O'QITISHNING AHAMIYATI

Nazirov J.M.

*Termiz davlat universiteti,
Umumiy fizika kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: raqamli pedagogika, fizika, platforma, raqamli ta'lim savodxonligi, masofaviy ta'lim, multimediali ta'lim, sun'iy intellekt, virtual sinf, simulyatorlar.

Ключевые слова: цифровая педагогика, физика, платформа, цифровая образовательная грамотность, дистанционное образование, мультимедийное образование, искусственный интеллект, виртуальный класс, симуляторы.

Key words: digital pedagogy, physics, platform, digital educational literacy, distance learning, multimedia education, artificial intelligence, virtual classroom, simulators.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada raqamli pedagogikaning bugungi ta'lim tizimidagi o'rni va bo'lajak fizika fani o'qituvchilariga fizika fanini o'qitishda raqamli pedagogikadan foydalanishning bugungi kundagi dolzarb jihatlari yoritilgan. Hozirgi ta'lim tizimida raqamli pedagogikaning ahamiyati to'grisida bazi bir olimlarning ilmiy qarashlariga to'xtalib o'tilgan va raqamli pedagogika bugungi kundagi o'qitishning eng samarali usuli ekanligi, bo'lajak fizika fani o'qituvchilarini tayyorlashda ijobiy nateja berishi ko'rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описывается роль цифровой педагогики в современной системе образования и современные аспекты использования цифровой педагогики при обучении физике будущих учителей физики. Затронуты научные взгляды некоторых ученых на важность цифровой педагогики в современной системе образования и показано, что цифровая педагогика является наиболее эффективным методом обучения на сегодняшний день и оказывает положительное влияние на подготовку будущих учителей физики.

SUMMARY:

This article discusses the role of digital pedagogy in today's education system and the current issues of using digital pedagogy in teaching physics to future physics teachers. The scientific views of some scientists on the importance of digital pedagogy in the current education system are discussed, and it is shown that digital pedagogy is the most effective method of teaching today and has a positive effect on the training of future physics teachers.

Fizika fanini o'qitishda raqamli pedagogikadan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'sirini oshirish va o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Raqamli pedagogika ta'limni

raqamli texnologiyalar bilan boyitishga asoslanadi va o'quvchilarga yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va samarali o'qish jarayonini taqdim etadi. Ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratish zarur. Ta'lim oluvchilarga faqatgina o'qituvchilar va kitoblar orqaligina bilim beribgina qolmay, balki Internet tarmog'i, turli xil



1-rasm. Raqamli ta'limni rivojlantiruvchi omillar

online platformalar va raqamli muhit orqali bo'lajak fizika fani o'qituvchilarining o'z bilimlarini mustahkamlash shu bilan birga raqamli ta'lim savodxonligini ham rivojlantiriladi. O'quv auditoriyalarida olmagan to'liq ma'lumotlarini raqamli dunyoda axborot dengizi bo'lgan internetda, turli xil bepul va pullik bo'lgan raqamli ta'lim platformalardan topadilar.

Laurillard ning ilmiy qarashlariga ko'ra pedagogika va texnologiyani birlashtirish o'qituvchilarning faolligini va ilgari cheklangan imkoniyatlarini oshirishga va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berishga xizmat qiladi. Misol uchun, raqamli ta'lim resurslari orqali, agar ilgari o'qituvchi darsni yakunlab, materialning qisqacha mazmunini taqdim etgan bo'lsa, raqamli ta'lim asosida o'qitishda talabalar bu rolni o'z zimmlariga olishlari mumkin. Ular ma'lumotlar boyligini oshirish uchun raqamli manbalardan, havolalardan, online simulyatorlardan ta'limga oid bo'lgan vezual muhitlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlash va boyitishlari mumkin. Har bir ta'lim beruvchi zamonaviy ta'limni ta'lim oluvchilarga yetkazish uchun zamon talabidagi texnologik o'zgarishlarni doimo o'rganishi masalan, videolar, animasiyalar va veb-saytlar yaratish kabi savodxonliklarni o'zida rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Raqamli ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, o'quv xonasining raqamli transformatsiyasida bloklarga asoslangan va topshiriqlarga asoslangan o'qitish va qo'llash ta'lim islohotining keng istiqbollari ta'minlaydi. Bu jarayonlar bo'lajak fizika fani o'qituvchilarning ta'lim samaradorligi va motivatsiyasini



oshirishga, o'quvchilarga o'quv topshiriqlarini yaxshiroq bajartirishga yordam beradi.

Fizika fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun o'qituvchi o'zining raqamli kompetensiyasini yuqori darajada rivojlantirishi kerak. Bu kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Raqamli vositalardan samarali foydalanish (interaktiv ta'lim platformalari, simulyatsiyalar, onlayn testlar va boshqalar).
- O'quvchilarni raqamli vositalarni o'rganishga undash va ularga bu vositalarni ta'lim jarayonida to'g'ri qo'llashni o'rgatish.
- Raqamli materiallar va platformalar yordamida o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini oshirish.

Raqamli pedagogika o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar asosida o'qitish bo'lajak fizika fani o'qituvchilariga fizikaning optika bo'limini o'qitishda tajribalarini, optik hodisalarni ko'rsatishda qo'llanilishi o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

O'quvchilar uchun ijobiy emotsiyalarni yaratish, muvaffaqiyatni tan olish va xatoliklarni muammolar sifatida qabul qilish muhimdir. Raqamli texnologiyalar, masalan, o'z-o'zini baholash vositalari yordamida bu jarayonni yengillashtirish mumkin.

Raqamli ta'lim platformalari o'qituvchilar va talabalar uchun uydan real vaqt jarayonida, geografik cheklolvorsiz onlayn ta'limni ta'minlab beradi. Raqamli ta'limni yanada samaraliroq loyihalash va tashkil etish uchun nazariy asos va amaliy tajriba beradi.

Raqamli ta'lim platformasi

Raqamli ta'limning asosiy elementi mavjud bo'lib ular vazifalar, resurslar, usullar va xizmatlardir;

- Muammoga yo'naltirilgan vazifalar raqamli ta'limning umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi;
- O'quv resurslarini tayyorlashda "multimediali ta'lim qonunlari"ga rioya qilish kerak;
- Raqamli ta'lim usullari talabalarning mustaqil bilim olish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq;
- Raqamli ta'lim xizmatlari turli ta'lim vositalarini qo'llab-quvvatlashni talab etadi;

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, internet tarmog'idan foydalanish kabilar rivojlanishi kelajakdagi hayotning barcha jabhalariga keng ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda va raqamli transformatsiya jadallashgani sayin,



ta'lim sohasidagi ta'lim mazmuni va vositasi sifatida raqamli texnologiyani tushunish va undan raqamli texnologiyalarni ta'limda qo'llash talabi paydo bo'ladi. Yangidan yangi iste'dodlarni, bilimli zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlash ta'lim tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shunga ko'ra, raqamli ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va barcha fuqarolar uchun imkoniyatlarni kuchaytirishni asosiy maqsad sifatida e'tibor qaratish lozim. Raqamli ta'lim va ta'limning integratsiyalashgan platformasi va raqamli darsliklarning real mazmuni turli xil tarkiblar, ta'limni boshqarish tizimlari va o'quv vositalari bilan birga o'quvchilar uchun moslashtirilgan ta'lim sifatida ishlab chiqish va amalda qo'llash bo'lajak fizika o'qituvchilariga fizikaning optika bo'limini o'qitishda yuqori samara beradi. Ta'limda raqamli texnologiyani qo'llash, mahoratni kengaytirish va inson-mashina hamkorligini rivojlantirish o'qitishning raqamli transformatsiyasining kaliti hisoblanadi va samarali o'qitishga xizmat qiladi.

Raqamli pedagogika ta'limida psixologik muhitni yaratish juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bo'lajak fizika fani o'qituvchilarini o'qitish jarayonida ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash va ma'naviy yordam ta'limda muvaffaqiyatga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarni qiyinchiliklarga qarshi kurashishga undash, o'z bilim va qobiliyatlariga bo'lgan ishonchni oshirish va hatto muvaffaqiyatsizlikdan so'ng ham motivatsiyani saqlab qolish zarur.

Raqamli pedagogika texnologiyalari yordamida ta'lim oluvchilar uchun ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash mumkin. Masofaviy ta'lim



va raqamli vositalar yordamida o'quvchilar mustaqil ravishda darslarga tayyorlanishi va qo'shimcha ma'lumotlarni o'rganishi mumkin. Raqamli pedagogika bo'lajak fizika fani o'qituvchilarini mustaqil ishlashga o'rganish va rivojlantirish imkoniyatini yaratadi, shuningdek, ularni o'qish doimiyligini taminlab beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Ta'limda texnologiyani qo'llashni samarali rag'batlantirish uchun eng asosiy tamoyillarni belgilab olish kerak, ya'ni texnologiyani ta'lim jarayonida qo'llanilish mantiqi texnologiya ortidagi qo'llash printsiplari bilan belgilanadi, bu esa ta'lim texnologiyasini talab qiladigan muammolarni hal qiladi, muammolarni hal qilish va qanday hal qilish kerakligi ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, ta'limda texnologiyani qo'llash haqiqatan ham samarali bo'lishi uchun ta'lim va o'qitishning asosiy qonuniyatlari va tamoyillarini o'rganish asosida texnologiyani oqilona qo'llash kerak.

Raqamli pedagogikani bu ta'lim nazariyasi va amaliyotini, informatika, psixologiya, kognitiv fan, inson-kompyuter o'zaro ta'siri va boshqa fanlarni birlashtiradi o'rganish, jumladan, baholash, repetitorlik va murabbiylik va kompyuterga asoslangan ta'lim, virtual sinflar va o'quv muhitlari hamda raqamli hamkorlikni qamrab oladi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan ko'proq texnologiyani qo'llash sohalari (masalan, onlayn ochiq kurslar, mobil ta'lim, aralash ta'lim va boshqalar) ishlab chiqish bu raqamli texnologiyalarni takomillashtirish, raqamli o'quv muhitini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida "Fizika va astronomiya" ta'limining uzviyligini ta'minlash konsepsiyasi. Toshkent, 2021yil.
2. Yo'ldasheva, G. Fizika fanini o'qitishda dasturiy vositalar va virtual laboratoriyalar. Academic research in educational sciences, 2(6), 612-616.
3. Nazirov J.M, Nazarov B.J, "Raqamli pedagogika. raqamli pedagogika qulayliklari va uni joriy etishdagi muammolar" Journal of Effective innovative publication.uz Learning and Sustainable Innovation 259-264. <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/566>
4. N.S.Sayidova. "Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar" O'quv-uslubiy majmua Buxoro – 2024.
5. Finlyandiyaning "Raqamli xizmatlarni taqdim etish to'g'risida"gi qonuni (306/2019)
6. Bed Prasad Dhakal: Digital Pedagogy: An effective Model for 21st Century Education
7. Nazirov J.M, Nazarov B.J, Chorshanbiyeva N.A. Organization of Teaching Methodology for Future Physics Teachers Based on Digital Pedagogy// Best journal of innovation in science, research and development//77-81// <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1772>.



AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Kudenov T.M.

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
assistent-o'qituvchi*

Tayanch so'zlar: o'z-o'zini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogika, ta'lim, texnologiya

Ключевые слова: саморазвитие, информационные и коммуникационные технологии, педагогика, образование, технологии

Key words: self-development, information and communication technologies, pedagogy, education, technology

РЕЗЮМЕ:

Axborotlashgan ta'lim muhiti talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Axborot texnologiyalari yordamida talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiyasi oshadi. Ular ma'lumotlarga kirishni kengaytirish orqali o'z bilimlarini mustaqil ravishda boyitish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Axborot muhiti talabalarga ta'lim traektoriyalarini mustaqil ravishda tanlash va ularga mos materiallar bilan ishlash imkonini beradi. Interaktiv vositalar yordamida ular o'z-o'zini nazorat qilish va bilimlarini baholashni samarali tashkil qiladilar.

РЕЗЮМЕ:

Информированная образовательная среда создает широкие возможности для студентов и поддерживает процесс саморазвития. Мотивация студентов к самостоятельному саморазвитию повышается с помощью информационных технологий. У них появится возможность самостоятельно обогатить свои знания, расширив доступ к информации. Информационная среда позволяет студентам самостоятельно выбирать образовательные траектории и работать с подходящими им материалами. С помощью интерактивных инструментов они эффективно организуют самоконтроль и оценку своих знаний.

SUMMARY:

An informed educational environment creates broad opportunities for students and supports the process of self-development. Students' motivation for independent self-development is increased with the help of information technology. They will have the opportunity to enrich their knowledge on their own by expanding access to information. The information environment allows students to independently choose educational trajectories and work with suitable materials. With the help of interactive tools, they effectively organize self-monitoring and assessment of their knowledge.



Ta'lim jarayoni shaxsning ma'lumot olish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish orqali o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan faoliyatidir. Bugungi kunda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

O'z-o'zini rivojlantirish - bu shaxsning mustaqil ravishda o'z imkoniyatlarini anglash, bilim olishga intilish, ko'nikmalarini kengaytirish va hayotiy maqsadlarini amalga oshirish uchun o'z ustida ishlash jarayonidir. Ushbu jarayon shaxsning ichki motivatsiyasi, o'zini anglash darajasi va axborot manbalaridan foydalanish qobiliyatiga asoslanadi. Ta'lim jarayonida o'z-o'zini rivojlantirishni shakllantirish, avvalo, talabaning o'qish jarayoniga nisbatan faol, mas'uliyatli va ijodkorlik yondashuvini ta'minlashni talab qiladi.[1]

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalari raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish asosida pedagogik faoliyatning yangi texnologiyalarini yaratish, shuningdek, axborot – kommunikasiya texnologiyalari va samarali ta'lim muhiti sharoitida ta'lim muassasalari faoliyatini loyihalash bo'yicha bilimlarni tarqatish markazlariga aylanib bordi. O'quv, uslubiy va ilmiy-uslubiy ishlar jarayonida ishlab chiqilgan raqamli ta'lim resurslari o'qituvchining muvaffaqiyatli faoliyatining ko'rsatkichiga aylandi. Hozirgi kunda elektron ta'lim tizimi (e-learning) dunyoning eng rivojlangan davlatlarida keng qo'llanilmoqda. Respublika oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonida ham axborot texnologiyalaridan keng foydalanish uchun barcha sharoit yaratilib borilmoqda. O'quv laboratoriyalari zamonaviy jihozlar (internetga ulangan kompyuter auditoriyalari, interfaol doskalar, portativ videoprojektorlar va boshqalar) bilan jihozlangan. O'qituvchilar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha seminarlar o'tkazilmoqda. Raqamli ta'lim resurslari zamonaviy ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan grafik, matn, raqamli, nutq, musiqa, video, fotosuratlar va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot manbai sifatida keng qo'llanilmoqda, Ta'lim muassasalari keng o'qitish va ayniqsa, monitoring qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan Moodle (modulli, ob'ektiv yo'naltirilgan dinamik o'quv muhiti), HEMIS (oliy ta'lim jarayonlarini boshqarishga qaratilgan milliy elektron platforma) kabi elektron qobiqlardan faol foydalana boshladilar.[2]

Ta'kidlash joizki, raqamlashtirishga yordamchi va instrumental rol berilishi kerakdirki, bu talabalarning intellektual salohiyatidan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi. Smirnov A.V tadqiqotida ko'pgina talabalarda "shaxsiy boshqaruv"ning umuman yo'qligi, o'z kunini oqilona rejalashtirish qobiliyati, individual vaqtni rejalashtirishning shaxsiy ahamiyati pastligi qayd etilgan. Bu holat talabalarning o'quv faoliyatidagi o'zini o'zi boshqarish



qobiliyatini rivojlantirish muammosi ochiqligicha qolayotganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, kasbiy rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini o'qitishga ko'maklashuvchi o'z-o'zini rivojlantirish fazilati kelajakdagi kasb egalari va mutaxassislarning eng ko'p talab qilinadigan fazilatlaridan biriga aylanadi. Pedagogikaga "O'z-o'zini rivojlantirish" tushunchasi o'zaro bog'liq bo'lgan falsafa, tabiatshunoslik, sinergetika va psixologiya kabi fanlardan kirib kelgan. Falsafa va tabiatshunoslik fanlari nuqtai nazaridan, o'z-o'zini rivojlantirish moddalarning sifat jihatidan yangi xususiyatlarining paydo bo'lishining eng muhim omili bo'lib, muvozanatsiz rivojlanayotgan tizimlarda tartibni oshirish yoki ichki sabablar ta'sirida tizimlardan tashqaridagi muhit bilan o'zaro ta'sirlashganda ochiq muvozanatsiz rivojlanayotgan tizimlarda tartib darajasining paydo bo'lishi va chuqurlashishi jarayonidir.[3]

Pedagogikada "O'z-o'zini rivojlantirish" tushunchasining mohiyatini aniqlashning umumiy qabul qilingan bir nechta yondashuvlari mavjud:

1. Shaxsiy yondashuv o'z-o'zini tashkil qilishni shaxsga xos xususiyatlar sifatida ko'rib chiqadi.

2. Faoliyatli yondashuv talabalarining o'quv jarayonidagi o'zini o'zi tashkil etishini ma'lum bosqichlardan iborat jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Faoliyatli yondashuv o'z-o'zini rivojlantirishning tuzilishini, uning komponentlarini mavjud aloqalarini, shuningdek ularning faoliyatni mustaqil tashkil etish samaradorligiga ta'sirining ahamiyatini o'rganadi.

3. Shaxsiy-faoliyatli yondashuv o'z-o'zini rivojlantirishni jarayon komponentlari va shaxsning shaxsiy xususiyatlarining integratsiyasi deb hisoblaydi.

4. Texnik yondashuv umumiy ta'limga texnologik yondashuvning paydo bo'lishi bilan shakllandi. U ko'pincha shaxsiy, faoliyatli va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar doirasida amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv kontseptsiyada talabaning o'z faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirishga qaratilgan (aqliy mehnatni ilmiy tashkil etish, o'z-o'zini boshqarish, vaqtni boshqarish ga doir usullar va uslublar o'rganiladi va ishlab chiqiladi. [4]

O'quv faoliyatida talabalarining o'zini o'zi tashkil etish masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan mualliflar o'z-o'zini rivojlantirish tushunchasini turlicha tavsifladilar:

- bu o'quv jarayonida kasbiy rivojlanish maqsadlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan va yo'naltirilgan, talabalarining o'quv ishlarini tartibli, ongli ravishda



tashkil etish jarayonidir . Bu ta'rifda o'z-o'zini rivojlantirishning aksiologik komponenti mavjudligi kuzatiladi;

- o'z-o'zini tahlil qilish, o'z – o'zini nazorat qilish, o'zini o'zini tartibga solish, oldindan ko'ra bilish, maqsadga yo'naltirilganlik, o'z-o'zini tanqid qilish va o'z-o'zini intizomlashtirish qobiliyatini rivojlantiradigan ongning shaxsiy tuzilmalari majmuasidir. Bu o'qishda, ishda va shaxsiy hayotda o'z vaqtini optimal taqsimlash, ya'ni o'z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish, o'z hayotini ongli ravishda boshqarish (o'z taqdirini o'zi belgilash) va tashqi sharoitlarni engib o'tish uchun kundalik amaliyotda tasdiqlangan ish usullarini izchil va maqsadli qo'llashdir. Muallifning ushbu ta'rifi o'z-o'zini rivojlantirishning shaxsiy komponenti va bashorat kompetensiyasi mavjudligini ta'kidlaydi.


- bu o'zini o'zi tartibga solishning individual traektoriyasi orqali namoyon bo'ladigan faoliyatni tashkil etishning maqsadli algoritmgiga ega bo'lgan ko'nikmalar majmualarining integratsiyaviy birligi bilan tavsiflangan shaxsning tartibli va dinamik tuzilishidir. Bu bilan, muallif o'z-o'zini rivojlantirishga xos bo'lgan tartiblilik, dinamizm, tarkibiy qismlarning integratsiyasi, shakllangan maqsad sari ma'lum bir traektoriya bo'ylab o'zini o'zi tashkil etishning barcha tarkibiy qismlarining birligida namoyon bo'lish kabi fazilatlarini ajratib ko'rsatishni ko'zlatadi. - bu talabaning kasbiy ahamiyatga ega o'quv ishlaridagi o'zini o'zi boshqarish va o'z-o'zini tartibga solish maqsadlaridan kelib chiqqan va yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, u o'z o'quv ishini mustaqil oqilona tashkil etish muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan intellektual operatsiyalar tizimi orqali amalga oshiriladi (Bunda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonini tashqi tashkil etishdan talabalarning o'zini o'zi tashkil etishiga o'tish sifatida qaraladi). Ushbu ta'rif o'z-o'zini rivojlantirish muayyan faoliyatni motivatsiyali boshqarish bilan tavsiflanganligini ko'rsatadi. - bu regulativ universal ta'lim mahorati bo'lib, uning mohiyati o'z ta'lim faoliyatini refleksli tashkil etishga qaratilgan tartibga soluvchi universal ta'lim harakatlarining majmuini amalga oshirish bilan belgilanadi.[5]


Shuning uchun, o'z-o'zini rivojlantirish ta'rifida o'rganish mahoratiga tenglashtirilgan.

- bu shaxsning ta'lim, kasbiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyatida shaxs tuzilishining muhim tarkibiy qismlaridan ongli va maqsadli foydalanish va takomillashtirish mahoratida namoyon bo'ladigan qobiliyatidir . Muallifning ta'rifida o'z-o'zini rivojlantirish o'z-o'zini rivojlantirishga olib kelishi ta'kidlangan.

- bu o'rganilayotgan sub'ektlarning quyidagi ko'nikmalar guruhlarini shakllantirish asosida maqsadni shakllantirish va unga erishish yo'llarini belgilash qobiliyatidir: kasbiy faoliyatni rejalashtirish; modellash; kasbiy faoliyatni oqilona tashkil etish; uni bosqichma-bosqich amalga oshirish; nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishni tashkil etish; kasbiy faoliyatning borishi va natijalarini tuzatib borish. Ta'rif muallifi o'z-o'zini tashkil qilishni ko'nikmalar majmuasidan iborat bo'lgan o'z oldiga maqsad qo'yish qobiliyati bilan tenglashtiradi. [9]

- Bu har bir yoshning o'z muammolarini mustaqil yechish, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish, mustaqil yashash ko'nikmalarini egallash va o'zini-o'zi boshqarishda ishtirok etish qobiliyatlari va malakalari majmuini egallash qobiliyatidir. Bu yerda o'z-o'zini rivojlantirish deganda qobiliyat va ko'nikmalarni egallash qobiliyati, ya'ni rivojlanish tushuniladi; Bu talabalarning individual motivlari, maqsadlari va qadriyatlari ta'siri ostida amalga oshiriladigan kelajakdagi





rivojlanishning individual yo'lini aniqlash va zarur bilimlarni olishning murakkab jarayonidir. Muallif o'z-o'zini tashkil qilishni talabalarga xos bo'lgan motivlar va qadriyatlar yordamida amalga oshiriladigan rivojlanish jarayoni sifatida belgilaydi.[6]

Shunday qilib, "o'z-o'zini rivojlantirish" tushunchasining tarkibiy - mazmuniy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan belgilangan vazifaga muvofiq - milliy va xorijiy tadqiqotlarni

tahlil qilish asosida, ushbu paragrafda o'quv faoliyatda talabalarning o'zini o'zi tashkil etishning: 1) motivatsiya; 2) o'z-o'zini va vaziyatni tahlil qilish; 3) maqsadni belgilash; 4) rejalashtirish va rejani amalga oshirish; 5) refleksiya va baholash; 6) tuzatish; 7) oldinga qarab harakatlanish, kabi tarkibiy bosqichlari yoritib berilgan.

O'z-o'zini rivojlantirish — shaxsning ongli ravishda o'z qobiliyatlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini kengaytirish, hayotiy maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatidir. Bu jarayon shaxsning ichki ehtiyojlari va motivatsiyasi asosida amalga oshadi hamda uning intellektual, kasbiy va shaxsiy o'sishiga xizmat qiladi.

O'z-o'zini rivojlantirishning ta'limdagi ahamiyati

- Talabaning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash: Har bir talaba o'z qobiliyatlarini mustaqil rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.
- Moslashuvchanlikni oshirish: Talabalar o'zgaruvchan muhit va yangi sharoitlarga tez moslashadi.
- Shaxsiy yutuqlarni rag'batlantirish: Talaba bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallab, ulardan foydalanishga tayyor bo'ladi.
- Texnologiyalarni samarali qo'llash: O'z-o'zini rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish talabalar uchun cheklanmagan o'quv resurslariga yo'l ochadi.[7]

Ta'lim jarayonida o'z-o'zini rivojlantirishning omillari. Ta'lim jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish shaxsning o'z qobiliyatlarini mustaqil rivojlantirish va bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu jarayonni samarali



amalga oshirish bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni tahlil qilish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[8]

O‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati

Bugungi raqamli davrda zamonaviy texnologiyalar o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonining muhim omillaridan biriga aylandi. Ular ta'lim olishni yanada qulay, samarali va moslashuvchan qilishi bilan birga, shaxsning rivojlanishiga imkoniyatlarni kengaytiradi. Ushbu texnologiyalar ta'limning barcha bosqichlarida individual yondashuvni ta'minlash va shaxsiy salohiyatni to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.[10]

Adabiyotlar:

1. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*.
2. Anderson, T. (2008). *The Theory and Practice of Online Learning*. Edmonton: AU Press.
3. Moodle Docs (2023). *Using Moodle: A Comprehensive Guide to the World's Most Popular Learning Management System*.
4. Воронов, В. В., & Шустов, А. Ю. (2020). *Цифровые образовательные платформы: возможности и вызовы*. Москва: Юрайт.
5. Chen, B., & Bryer, T. (2012). Investigating Instructional Strategies for Using Social Media in Formal and Informal Learning. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 13(1).
6. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (2012). *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs*. San Francisco: Pfeiffer.
7. Куденов, Т. М. (2024). Мустақил ўз-ўзини ривожлантириш кўникмаси ва бошқариш моделлари. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 22(5), 83-89.
8. Куденов, Т. М. (2024). Ахборотлашган таълим муҳитида мустақил билим олиш кўникмасини ривожлантириш функциялари. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 4(3), 216-221.
9. Makhsetbaevich, K. T. (2023, July). Functions of developing independent learning skills in an informed learning environment. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 2, No. 7, pp. 55-58).
10. Куденов, Т. М. (2023, July). Развитие навыков самостоятельного обучения в информационной учебной среде. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 8, pp. 7-11).



CHIZMALARNI CHIZISH VA O'QISH METODIKASI

Shafolatov Z.J.

Qarshi davlat universiteti dotsenti

Tayanch soʻzlar: o'quv-grafik, chizma shriftlari, chizma chiziqlari, chizmaformation, chizmalarga o'lchamlar qo'yish, masshtab.

Ключевые слова: учебные-графика, шрифты чертежа, линии чертежа, формат чертежа, нанесение размеров на чертежи, масштабирование.

Key words: educational-graphics, drawing fonts, drawing lines, drawing format, drawing dimensions, scaling.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada chizmalarni chizish va o'qish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В этой статье рассматриваются возможности совершенствования методики рисования и чтения рисунков.

SUMMARY:

This article discusses the possibilities of improving the technique of drawing and reading drawings.

Bugungi kun ta'lim tizimi oldidagi eng muhim vazifalardan biri talabalarning mustaqil ish bajarish yo'li bilan qo'shimcha bilimlar olishlarini tashkil qilish, dars jarayonining mazmunini boyitishda zarur metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'lib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda o'quv-grafik ishlarini mustaqil chizish va o'qitishda pedagogikaning muhim talablaridan biri-talabalarga alohida yondoshishni taqozo etadi. Qiyin o'zlashtiradigan ba'zi bir talabalar bilan qo'shimcha grafik mashg'ulotlar o'tkazish, fanni chuqurroq o'rganishni xohlaydigan talabalarga esa o'ziga xos ilmiy tomondan yondashish zaruriyati o'z kuchida qolmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishning bir nechta yo'llari mavjud.

Birinchi yo'li talabalar bajaradigan o'quv-grafik ishlarini tartibga solish; ikkinchi yo'li esa har bir grafik ish uchun kamida o'ntadan yakka tartibdagi variant misol tariqasida berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi;



uchunchi yo'li bu variantlardan talabalar mustaqil foydalanishlari mumkinligi hisobga olish;

mustaqil bajarish jarayonida chizma qoidalariga to'liq rioya qilinsa yuqori natija olish mumkin.

Chizma shriftlari. O'zDSt 2.304-97 da shriftlarning ikkita A va B turlari belgilangan. Ular qiya (75° burchak ostida) hamda tik yozilishi mumkin.

Shriftlarni yozishdan oldin shrift chiziqlarining yo'g'onligi d ga teng kataklar chizib olinadi. Shriftlarning barcha elementlari shu kataklar orqali aniqlanib yoziladi. Shrift chiziqlarining yo'g'onligi d shriftning turi va balandligiga qarab belgilanadi. A turdagi shrift uchun O1/14Л, B turdagi shrift uchun O1/ЮЛ olinadi.

B turdagi bosma katta harflarning balandligi $Л=10 d$, yozma kichik harflarning balandligi $s=ld$, harflarning orasidagi masofa $d=2d$ olinadi. So'zlar orasidagi masofa eng kamida $e=6 d$ ga teng bo'ladi.

1, 2, 3-shakllarda bir turdagi shriftlarning yozilish namunalari tasvirlangan. Eski o'zbek yozuvi arab alifbosiga asoslangan bo'lib, uni kataklar yordamida yozishni taklif etiladi. Harflarning barcha elementlari kataklar orqali aniqlab yoziladi. Bu yerda harflarning kataklar o'rtasidagi satr (shtrix) chiziqqa nisbatan joylashishiga ahamiyat beriladi. Chizma chiziqlari. O'zDSt 2.303-97ga binoan chizma chiziqlarining turlari, ularning tatbiq qilinish asosiy tutash chiziq qalinligi (yo'g'onligi) s bilan belgilanadi, qolgan chiziqlar yo'g'onliklari shu asosiy tutash chiziqqa nisbatan olinadi. Ingichka va yo'g'on shtrix-punktir chiziqlardagi punktirlar-nuqtalar ko'rinishida tasvirlanmasdan, biroz cho'zilganroq nuqta, ya'ni ikkita nuqta yonma-yon joylashgandek tasvirlanadi. Tutash to'liq chiziq «ilon izi» kabi chiziladi.

Chizmaformati. Har qanday chizma O'zDSt 2.301-96 da ko'r-satilgan $>10841 \times 1189$, A $7=841 \times 594$, Л2=420x594, Л5=297x420, Л4=210x297 formatli qog'ozlarga chiziladi.

Asosiy yozuv. Chizmalarni, ya'ni chizma nomi, masshtabi, chizmasi chizilayotgan detal materiali, chizma tuzuvchining familiyasi chizmani tekshiruvchi va qabul qiluvchilarning familiyalarini va boshqa ko'rsatmalarni o'z ichiga oladigan asosiy yozuv O'zDSt 2.104-68 ga binoan chizmaning pastki o'ng burchagida joylashtiriladi.

Chizmalarga o'lchamlar qo'yish. Har qanday chizmaga uning o'lchamlari qo'yiladi. O'lcham chiziqlari orasidagi masofa 7-10 mm bo'ladi. Aylanaga o'lcham qo'yishda uning qiymat soni oldiga aylana diametrini belgilaydigan « 0 » shartli belgi, aylana yoyi qiymatining soni oldiga «R» belgi, kvadratlari kesimlar uchun kvadrat «•» belgisi qo'yiladi. Diametr, radius, kvadrat belgilar



o'lcham qiymatlari sonlari bilan bir xil balandlikda yoziladi. O'lcham chiziqlari chiqarish chiziqlariga strelkalari bilan tegib turadi. Yarim aylanadan kattaroq va to'liq aylanagacha diametr belgisi, yarim aylana va undan kamroq aylana yoyiga radius belgisi, kvadrat kesimlar uchun kvadrat belgisi ulaming o'lcham kattaligi raqamlari oldiga qo'yiladi.

Masshtablarga muvofiq chizma hujjatlarini barcha turlari uchun uch xil masshtab tasdiqlangan.

1. Kichiklashtirish masshtablari: 1:2; 1:2,5; 1:4; 1:5; 1:10; 1:20; 1:25; 1:40; 1:50; 1:75; 1:100; 1:200; 1:400; 1:800; 1:1000 Haqiqiy kattalikdagi (natural) masshtab: 1:1.

2. Kattalashtirish masshtablari: 2:1; 2:5:1; 4:1; 5:1; 10:1; 20:1; 50:1; 100:1.

3. Haqiqiy kattalikdagi masshtab M1:1 da tasvirlangan detal chizmasiga nisbatan M1:2 va M2:1 larda tasvirlangan detal chizmalari taqqoslash uchun berilgan.

Grafik vazifa, ya'ni yakka tartibda bajariladigan ish deganda, o'tilgan mavzu asosida uyda (darsdan tashqari) mustaqil bajariladigan chizma tushuniladi. Grafik ish ma'lum format (bichim) da standart qonun-qoidalariga amal qilingan holda bajariladi.

Talabalarda grafik bilimlarni shakllantirish murakkab jarayon hisoblanib, o'quv jarayoni bilan chambarchas bog'langan. O'quv jarayonida hamma talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, dars o'tish imkoniyati o'quv-grafik ishlarni bajarishda yakka tartibda yondashishdek yuqori bo'lmaydi. Shuning uchun o'qituvchi talabalar bilan dars jarayonida foydalana olmagan imkoniyatlarni mustaqil grafik ishlarni chizayotganida amalga oshirishi mumkin. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalar asosan bilim va ko'nikmalarni yakka tartibdagi o'quv grafik ishlarni bajarish orqali olmoqdalar. Chunki dars jarayonida beriladigan nazariy bilimlar asosan grafik ishlar orqali amalda mustahkamlanadi.

Grafik ishlarni tekshirish bosqichma-bosqich olib borilsa, yaxshi natija beradi. Birinchi tekshirishni talabalar grafik ishlarni ingichka chiziqlarda chizib kelganlaridan keyin o'tkazish mumkin. Bunda talaba qog'ozga chizmani qanday joylashtirganligi, hoshiyasi (ramkasi), chizmaning pastki o'ng burchagidagi asosiy yozuvidagi xatolar tekshiriladi. Chizma masshtabi, o'lchamlar, geometrik yasashlar diqqat bilan kuzatiladi. Standart talablarni to'g'ri bajarilgan bo'lsa, qalamda «Taxt qilishga ruxsat» deb yoziladi va tekshirilgan sana belgilanadi.



Agar standart talablari buzilgan, chizmada xatolar bo'lsa, talabaga mavzu qaytadan to'liq tushuntirib berilgani ma'qul. Bunday chizmaga «Tuzatilsin» deb yozib, tekshirilgan sana belgilab qo'yiladi. Shu tartibda chizma xatodan holi bo'lguncha qayta-qayta tekshirilib, yo'l qo'yilgan xatolarning tuzatish yo'llarini erinmasdan tushuntirish kerak. O'qituvchi navbatdagi tekshirishlar orqali talabalar bilan yakka tartibda ish olib borishda qaysi talabaga qanday murakkablikdagi grafik ish variantini tavsiya etish, qaysi biriga mavzuni umumlashtirib yoki maydalab tushuntirish mumkinligini bilib oladi.

Chizmalar taxt bo'lgandan keyin ikkinchi tekshirishni o'tkazish mumkin. Bunda standart talablariga to'liq rioya qilinganligi asosiy maqsad qilib olinadi. Butun chizma bo'yicha chiziq turlarining yo'g'onliklari bir xil bo'lishiga ahamiyat beriladi. Ko'pincha talabalar o'lcham va markaz chiziqlarini standart talabida chizishmaydi, ulami detal konturidan chiqarish chizig'ini o'lcham chizig'idan ortiqcha qilib chizishadi, ya'ni 3-5 mm dan ortig'ini o'chirishmaydi. Oxirgi tekshiruvda asosiy yozuvning to'g'ri yozilganligi tekshirilib, baho qo'yiladi.

Ba'zi talabalar chizmani chizishning oxirgi bosqichida ham xatoga yo'l qo'yishadi. Bunday vaziyatda chizmani qayta chizdirmasdan, iloji boricha, o'sha chizmaning xato joyini tuzatishga imkon berish lozim.

Grafik ishlarni baholash paytida chizma o'z vaqtida, ya'ni ko'rsa- tilgan muddatda topshirilayotganligi, ya'ni uning sifati hisobga olinadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, talabalar bilan yakka tartibda ish olib borilsa, ularning fanga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi. Talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonini va mustaqil grafik ish bajarish davrini shunday tashkil qilish kerakki, bunda o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga, ya'ni talabani o'qitish, unga bilim berishdek sharaflari burchini odilona ado etadi.

Adabiyotlar:

1. Yu. Qirg'izboyev va b. Mashinasozlik chizmachiligi kursi, T., «O'qituvchi», 1981-y.
2. I. Rahmonov va b. Chizmachilikdan mashq va masalalar to'plami, T., «O'qituvchi», 1988-y.
3. I. Rahmonov. Chizmalarni chizish va o'qish, T., «O'qituvchi», 1992-y.
4. I. Rahmonov. Chizmachilikdan didaktik o'yinlar, T., «O'qituvchi», 1992-y.
5. I. Rahmonov. Chizmachilikdan test, T., «O'qituvchi», 1994-y.
6. I. Rahmonov. Chizma geometriya kursi va texnikaviy grafikadan test, T., «O'qituvchi», 1996-y.
7. I. S. Vishnepolskiy, V. I. Vishnepolskiy. Chizmachilik, T., «O'qituvchi», 1990-y.



O'QUV JARAYONINI BOSHQARISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Habibullayev M.H.

Urganch davlat universiteti assistant o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv jarayoni boshqaruvi, Innovatsion metodika, axborot savodxonligi, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati, bilish faolligi, zamonaviy ta'lim usullari.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, управление образовательным процессом, инновационная методика, информационная грамотность, педагогические технологии, качество образования, познавательная деятельность, современные методы обучения.

Key words: information and communication technologies, educational process management, innovative methodologies, information literacy, pedagogical technologies, quality of education, cognitive activity, modern educational methods.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada o'quv jarayonini boshqarishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati, ularning ta'lim sifatini oshirishdagi o'рни, o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada pedagogik jarayonlarda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi, AKT vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish usullari hamda uning o'quv-tarbiya jarayoniga ijobiy ta'siri asoslangan. Shuningdek, maqola muallifi o'quvchilarda axborot savodxonligini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni tadqiq qilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описаны теоретические и практические принципы использования информационно-коммуникационных средств в управлении образовательным процессом. Анализируется значение информационно-коммуникационных технологий в современных образовательных процессах, их роль в повышении качества образования, возможности развития познавательной активности учащихся. В основу статьи положены эффективность использования инновационных технологий в педагогическом процессе, методы совершенствования методики использования средств ИКТ, а также их положительное влияние на образовательный процесс. Также автор статьи исследовал современные подходы, направленные на формирование информационной грамотности у студентов.

SUMMARY:

This article covers the theoretical and practical foundations of using information and communication means in managing the learning process. The importance of information and communication



technologies in modern educational processes, their role in improving the quality of education, and their potential for developing students' cognitive activity are analyzed. The article is based on the effectiveness of using innovative technologies in pedagogical processes, methods for improving the methodology of using ICT tools, and its positive impact on the educational process. The author of the article also studied modern approaches aimed at forming information literacy in students.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar har bir o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. AKT vositalarining keng joriy etilishi nafaqat ta'limning texnologik bazasini mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, bilish faolligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarini boshqarishda AKT imkoniyatlaridan foydalanishning samarali metodikalarini ishlab chiqish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalar yordamida ma'lumotlarni tezkor uzatish, ulardan maqsadli foydalanish va tahlil qilish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur maqola o'quv jarayonlarini boshqarishda AKT vositalaridan foydalanishning metodik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini yoritadi.

Metodika. O'quv jarayonini boshqarishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish metodikasi o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni samarali tashkil etish, ta'lim mazmunini yetkazish hamda bilimlarni baholash jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan. Quyida AKT vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish va ulardan foydalanishning asosiy metodik jihatlarini ko'rib chiqiladi:

O'quv materiallarini taqdim etish uchun elektron darsliklar, multimediali slaydlar, video darslar va infografikalardan foydalaniladi. Bu materiallar zamonaviy dasturiy vositalar, masalan, PowerPoint, Canva yoki boshqa o'xshash platformalar yordamida tayyorlanadi.

Interaktiv usullarni qo'llash: Onlayn platformalar, masalan, Zoom, Microsoft Teams, Google Meet orqali darslarni o'tkazish o'quvchilar bilan jonli muloqotni tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, Quizizz, Kahoot[1] yoki Google Forms kabi vositalar yordamida testlar va interaktiv savollarni ishlatish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanish: AKT imkoniyatlaridan foydalanib masofaviy darslarni tashkil etish, o'quv materiallarini elektron



platformalarda (Google Classroom, Moodle[2]) joylashtirish va o'quvchilarning faoliyatini monitoring qilish usullari qo'llaniladi.

Axborot texnologiyalari yordamida ta'lim jarayonini boshqarishda ma'lumotlar bazasini yuritish, natijalarni tahlil qilish va talabalarning faoliyatini kuzatishning zamonaviy usullari ishlatiladi. Bu uchun Microsoft Excel, Access yoki maxsus ta'lim boshqaruvi tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarning tushunchalarni qanchalik yaxshi o'zlashtirganini aniqlash va ularning fikrlarini olish uchun AKT vositalaridan foydalangan holda teskari aloqa mexanizmi joriy etiladi. Bu jarayon uchun onlayn forumlar, chat guruhlar yoki bloglar samarali bo'lib, ular o'quvchilar o'rtasida muloqot va fikr almashishni kuchaytiradi. Har bir o'quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga mos individual o'quv dasturlarini yaratishda AKT vositalari katta yordam beradi. Masalan, adaptiv o'quv tizimlari (Smart Sparrow, Edmodo) orqali o'quvchilar uchun shaxsiylashtirilgan o'quv rejalarini taklif etish mumkin.

Mazkur metodika orqali axborot-kommunikatsiya vositalari ta'lim jarayoniga nafaqat qulaylik, balki sifat jihatidan yangi imkoniyatlar olib kiradi. Shu sababli, ushbu yondashuvlarni tizimli ravishda qo'llash va rivojlantirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. O'quv jarayonini boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha adabiyotlar tahlili ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu tahlilda milliy va xorijiy ilmiy manbalar, monografiyalar, maqolalar hamda konferensiya materiallari o'rganilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishi pedagogik nazariyalar bilan chambarchas bog'liq. P.V. Syominning[4; 169] AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha ishlari ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish imkoniyatlarini yoritadi. Shuningdek, L.S. Vigotskiy[7; 241] kabi pedagoglarning interaktiv va amaliy ta'limga oid qarashlari AKTning o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Dunyo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, masalan, UNESCO[5]ning ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalari, global tajribani o'rganishga yordam beradi. Xususan, masofaviy ta'lim va raqamli ta'lim platformalarining muvaffaqiyatli amaliyotlari Finlyandiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Bu tajribalar AKT vositalarining nafaqat ta'lim sifati, balki uning qulayligini oshirishdagi rolini namoyon etadi.

O'zbekistonda AKT texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar qatorida, A. Usmonov[6; 15] va D. Qurbonovanning[3; 10] ilmiy ishlari alohida e'tiborga molikdir. Ushbu



tadqiqotlar o'quv jarayonida AKTdan foydalanishning samaradorligi va bu texnologiyalar yordamida o'quvchilarning axborot savodxonligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Таянч сўзлар: раҳбар, менежмент, таълим, таянч компетенция, коммуникатив, тизимли таҳлил, режалаштириш, назорат.

Ключевые слова: лидер, менеджмент, образование, базовые компетенции, коммуникативность, системный анализ, планирование, контроль.

Key words: leader, management, education, basic competence, communication, system analysis, planning, control.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада мактабгача таълим тизимида фаолият олиб бораётган раҳбарларни эгаллаши керак бўлган компетенциялари ва раҳбар шахсига қўйилган талаблар ҳақида фикр юритилган.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются компетенции и требования к руководителям, работающим в системе дошкольного образования.

SUMMARY:

The article discusses the competences and requirements for leaders who work in the preschool education system.

Ўтган давр мобайнида мамлакатимизда ўсиб бораётган авлодни соғлом ва ҳар томонлама етук вояга етказиш, таълим-тарбия жараёнига самарали таълим ва тарбия шакллари ҳамда усуллари жорий этишга қаратилган мактабгача таълимнинг самарали тизимини ташкил этиш бўйича кенг қўламли ишлар амалга оширилди. Шу билан бирга, олиб борилган таҳлил, болаларнинг мактабгача таълим билан қамровини таъминлаш, мактабгача таълим ташкилотларини замонавий ўқув-методик материаллар ва бадиий адабиётлар билан тўлдириш, соҳага малакали педагог ва бошқарув кадрларини жалб қилиш масалаларини ҳал этиш зарурлигини кўрсатмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 май-



даги “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПҚ-4312-сонли қарорига мувофиқ мактабгача таълимни бошқариш тизимини такомиллаштириш, мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини молиялаштириш шаффофлиги ва самарадорлигини таъминлаш, болаларнинг сифатли мактабгача таълим билан қамровини ошириш, ундан тенг фойдаланиш имкониятларини таъминлаш, мазкур соҳада давлат-хусусий шериклигини ривожлантириш, мактабгача таълим тизимида инновацияларни, илғор педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш каби бир қанча вазифалар белгиланган.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар жараёнида ишлаб чиқаришни ривожлантириш, ташкилот ва корхоналарнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлаш кўп жиҳатдан замон талабларига жавоб берадиган раҳбар ва мутахассисларни тайёрлаш сифатига боғлиқ. Бугунги кунда ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти бартўрада этиш шароитида раҳбарларни (бошқарувчиларни) тайёрлаш, уларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлашда менежмент фани алоҳида ўрин тутди. Менежмент фанининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари узок вақт давом этиб келаётган тарихий даврлар билан изоҳланади, менежмент алоҳида, мустақил фан сифатида XIX асрнинг охири ва XX аср бошларида шаклланди. Менежмент - инглизча сўз бўлиб, ўзбек тилида бошқарувни ташкил этиш (бошқариш, бошқарув ҳокимияти, ташкил этиш), раҳбарлик қилиш (режалаштириш, тартибга солиш-мувофиқлаштириш, назорат қилиш) маъноларини англатади. Менежмент - бу кўзланган мақсадларга эришиш учун фаолиятни, яъни инсонлар ёки уларнинг гуруҳлари фаолиятини мувофиқлаштириш ҳамда бошқариш усуллари, шакллари ва воситалари мажмуи. Содда қилиб айтганда, менежмент умумий ҳолда у ёки бу фаолият турини ташкил этишни ва унга раҳбарлик қилишни, яъни турли хил соҳаларда фаолият кўрсатаётган инсонларнинг хатти-ҳаракатларини, муносабатларини мувофиқлаштириш, уларнинг имкониятлари ва қобилиятларидан тўғри фойдаланишни ташкил этиш, назорат қилиш ва бошқаришни билдиради. Менежмент энг аввало инсонларни бошқаради, уларни ўз фаолиятига қизиқтириш, тадбиркорликка, меҳнатга ижодий ёндашиш, ўзига ишониш туйғуларини шакллантириш, соҳалар бўйича билим, қуниқма ва малакаларни эгаллашига қўмаклашиш, янгиликка ва ижодкорликка чорлаш, инсонларнинг фаолиятини бошқариш демакдир.



Таълим менежменти - бу илмий асосда ташкил этилган, ўзига хос погонавийликка асосланган бошқарув: раҳбар, педагогик жамоа, таълим олувчилар жамоаси. Шунга кўра бошқарувни турли хил моделлар асосида амалга ошириш мумкин: интеграл модел, биринчи поғона - педагогик жамоа фаолиятини бошқариш, иккинчи поғона - ўқувчилар фаолиятини бошқариш. Таълим менежментининг асосий мақсади - таълим муассасаларида ташкил этиладиган таълим-тарбия жараёнини илмий асосда ташкил эташда, муассаса олдига қуйилган мақсадларга эришиш ва рақобатбардош битирувчилар тайёрлашда таълим-тарбия жараёни иштирокчилари бўлган раҳбарлар, мутахассислар ва ижрочиларнинг муносабатлари ва фаолиятларини мувофиқлаштириш, назорат қилиш ҳамда самарали бошқаришни таъминлашдан иборат.

Ф.Тейлор (1856-1915) менежментни ўрганишга киришган биринчи мутахассислардан, уни инсон самарадорлиги эмас, ташкил қилиш фаолияти самарадорлиги қизиқтирган бўлиб, илмий бошқариш мактабининг ривожланишига асос солди ва “Илмий бошқариш” мактаби асосчиси сифатида меҳнатни меъёрлаш асосларининг методологиясини ишлаб чиқди, амалиётга ишчиларни танлаб олиш, жойлаштириш ва меҳнатни рағбатлантириш илмий ёндашувини тадқиқ қилди. Бошқариш фанининг ривожланиши Ф. ва Л. Шилбертлар номи билан ҳам боғлиқ, улар меҳнат ҳаракатлари соҳасида тадқиқотлар ўтказиб, иш жойини ташкил қилишнинг илмий тамойилларини ишлаб чиқдилар. Бошқарув назариялари асосчиларидан бири А. Файоль бошқариш жараёнининг 5 та асосий функциялари: режалаштириш, ташкил қилиш, кадрларни танлаш ва жой-жойига қўйиш, раҳбарлик (мотивлаш) ва назоратни ажратиб кўрсатади. А. Файоль томонидан ишлаб чиқилган тамойилларнинг моҳияти қуйидагича: меҳнат тақсимооти; авторитет ва ҳокимият масъулияти; интизом; раҳбарлик бирлиги; фармойиш бирлиги; шахсий манфаатнинг умумий манфаатга бўйсунishi; меҳнатни рағбатлантиришнинг марказлашган ва марказлашмаган бошқарув мувоzanати; бир турдаги менежерларнинг ишини мувофиқлаштириш; тартиб; одиллик; самимийлик; ходимлар катъийлиги; ташаббус.

Бошқарув компетенциясига республикаимиз олимлари ўз қарашларидан келиб чиқиб турлича таърифлар беришган.

Олий таълим муассасаси раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлиги – таълимий, тадқиқотчилик ва бошқарув соҳасида самарали фаолият олиб бориш учун зарур бўладиган билим, кўникма ва малакаларга, шахсий-ижтимоий аҳамиятли сифатларга эга бўлиш, аниқ ва ностандарт вазиятларда мустақил қарор қабул қила олиш, ўзини ўзи бошқариш



ва ҳар бир хатти-ҳаракати учун масъулиятни ҳис этиш билан боғлиқ тайёргарлик даражасидир.

Мактабгача таълим ташкилоти раҳбарининг бошқарув компетенцияси – бу мактабгача таълим ташкилотларида раҳбарнинг бошқарув функцияларини

профессионал равишда бажаришга тайёрлиги ва қобилиятини белгилаб берувчи, билимларни, қадриятларни, коммуникатив ва ташкилий-услубий фаолият таркибий қисмларининг йиғиндисидаги ажралмас шахсий-касбий тавсиф бўлиб, бу бошқарув вазифаларини самарали олиб боришни таъминлайди.

Мактабгача таълим тизимида фаолият олиб бораётган раҳбар ва педагог ходимлар қўйидаги таянч компетенцияларга эга бўлиши зарур деб ҳисоблаймиз:

- Ижтимоий-ҳуқуқий компетенция
- Шахсий-рефлексив компетенция
- Коммуникатив компетенция
- Тизимли-таҳлил компетенцияси
- Акборат коммуникацион технологиялардан фойдаланиш компетенцияси.

Мактабгача таълим тизимида фаолият олиб бораётган раҳбарлар касбий-педагогик ва бошқарув компетенцияларига эга бўлишлари керак.

Касбий компетенция педагогик ва психологик билимларни эгаллашни ўз ичига олади.

Бошқарув компетенцияси ўз ичига лидерлик, конфликтларни бошқариш, лойиҳаларни бошқариш, стратегик фикрлаш, креативлик, инновацияларга очиқлик ва яна бир қанча компетенцияларни ўз ичига олади.

Ҳар бир оила, меҳнат жамоаси, тизим, вазирлик, соҳа ва мамлакатнинг бугунги тинч, фаровон ҳаёти, ижтимоий-иқтисодий ҳолати ва эртанги истикболи кўп жиҳатдан уни бошқариб бораётган раҳбарнинг шахсига, унинг маънавияти, ақл-заковати, билими, ҳаётий тажрибаси, инсоний хислатлари, шахсига хос бўлган индивидуал-психологик хусусиятларига боғлиқдир.

Мактабгача таълимни бошқарув тизимида фаолият олиб бораётган ҳар бир раҳбар ўз шахсига қўйилган талабларни мукамал билиши ва унга амал қилиши лозим:

- Раҳбар, авваламбор, ўз соҳасининг яхши мутахассиси бўлиши, унинг турли босқичлари ва жавҳалари, турли лавозимларда ишлаган бўлиши баробарида ўзини ижобий томондан кўрсатган бўлиши керак;



-Одамлар билан ишлашни яхши кўриш, бу фаолиятдан завқланиши, инсонларга бўлган меҳрини ифодалай олиши лозим;

-Ташкилотчилик ва ташаббускорлик хислатлари раҳбар шахсида етарли даражада шаклланган бўлиши зарур;

-Ўзининг ташкилоти, муассасаси, соҳасининг ютуқ ва муаммоларини аниқ тасаввур қилиши, уларнинг истиқболини белгиловчи ривожланиш йўллари яхши билиши керак;

-Ўз соҳасида янгиликни жорий этишга доимо эҳтиёж сезиши, шу билан бирга, ҳар бир “ялтираган” нарсга ҳам “олтин” эмаслигини яхши уққан ҳолда иш кўриши ва доим ҳам эскиси ёмон бўлавермаслигини билиб иш кўриш лозим;

-Раҳбар барча вазифаларни ўзича бажаришга уринмаслиги, балки уларни ўздан куйидаги раҳбарга тўғри тақсимлаши, вазифаларнинг ўз вақтида бажарилишини назоратда тутиши, зарур бўлганда, ўзининг қўли остидаги кичикроқ лавозимдаги раҳбарлар фаолиятини мувофиқлаштириши, ходимларини мустақил ва ташаббус билан ишлашга ўргатиши лозим;

-Тасарруфидаги кадрларнинг устун ва заиф томонларини, потенциал имкониятларини яхши билиши ва шунга кўра уларнинг имкониятларидан ўринли фойдаланиши керак;

-Ёш, истиқболли кадрларнинг мутахассис ва раҳбар сифатида ўсишлари учун шарт-шароит яратиши керак, уларнинг фаоллигини ошириш, раҳбарлик ишларини босқичма-босқич ишониб топшириб бориш лозим;

-Кадрларни иш фаолиятига кўра маънавий ва моддий рағбатлантириб туриш даркор;

-Жамоада соғлом психологик муҳит яратиш ва ходимлар орасида меҳр-оқибатни кучайтириш орқали жамоанинг бир аҳил оиладек шаклланишини таъминлаш зарур;

-Раҳбар яхши психолог бўлиши ва ходимларининг ёш, жинс, миллий, индивидуал-психологик хусусиятларини ҳисобга олиши лозим;

-Раҳбарлик услублари ичида асосан демократик услубдан фойдаланган ҳолда, баъзи ходимларга, айрим вазиятларда, авторитар усулларини қўллаш зарурлигини унутмаган маъқул;

-Раҳбар ўз ходимларининг ижтимоий ҳимоясини таъминлаш чораларини кўриши керак, лекин бу ижтимоий ҳимоя ходимларини боқимандаликка ўргатмасдан, аксинча, ўзлари қўшимча ишлаб ўз иқтисодий аҳволларини яхшилашга рағбат уйғотиши керак;

-Раҳбар деярли ҳар бир жамоа, муассаса, системада мавжуд бўладиган табиатан ғийбатчи, ўзларини, ҳатто, баъзан ўз ака-укаларини ҳам кўра ол-



майдиган бахил, “тирноқ орасидан кир қидирадиган”ларнинг “фаоллашуви”га сабаб бўладиган хатти-ҳаракатларни қилмаслиги шарт;

-Раҳбар ўз системаси, муассасаси, жамоаси шаънини, обрўсини ўйлаши, унинг қадрсизланишига йўл қўймаслиги ва шу туйғуни ўз ходимларида шакллантириши зарур;

-Раҳбар ўз ходимларини ўзга система, раҳбарларга “емиш”га бермаслиги керак. Уларни ҳимоя қилиши, зарур бўлганда иш манфаатида қаттиқ жазо чораларини ўзи қўллаши керак;

-Раҳбарлик фаолияти раҳбардан оғир-вазминликни, ҳиссиётларга берилганда уни ақл ва тафаккур билан жиловлай олишни талаб қилади. Муҳим масалалар бўйича “етти ўлчаб – бир кес” принципига амал қилиши лозим;

-Раҳбар ўз ходимларининг яхши ва ёмон кунларида, тўй ва азаларида доимо бирга бўлиши, ходимларига моддий-маънавий ёрдам бериши керак;

-Раҳбар яхши кайфиятда юриши зарур, негаки, унинг ҳиссий ҳолати атрофдаги ходимларининг кайфиятига ҳам таъсир қилади;

-Раҳбар муомала-мулоқот маданиятига ва юмор ҳиссига эга бўлиши лозим. Баъзан айрим ходимларнинг камчиликларини ҳазил тариқасида кўрсатиши мумкин. Бунда ходимга раҳбарнинг танбеҳи оғир ботмайди, лекин ходим ўз хатосини тушунади;

-Кадрларни тўғри танлаш, уларни қўйилаётган лавозими талабларидан келиб чиққан ҳолда жойлаштириш, кадрларни, айниқса, кичик раҳбарларни танлашда асосий мезон сифатида шахснинг мутахассислик ва инсонийлик фазилатларига таяниши лозим;

-Раҳбар ўз ҳулки, муомала-мулоқот маданияти, ходимларига меҳрибонлигини ва ўзга бир қанча инсоний сифатлари билан қўли остидаги ходимларда ўзига нисбатан қўрқинч ҳисларини эмас, балки ўз шахсига нисбатан меҳр, самимий ҳурмат ҳисларининг юзага келишига эришиши керак;

-Раҳбарлик фаолиятида хатосиз ишлаб бўлмаслигини яхши уқиб олган ҳолда, хатосиз ишлашга интилиш эмас, балки самарали ишлаб, хатони иложи борица камроқ қилиб, уларни ўз вақтида бартараф этиш чораларини кўриши керак

-Ходимларга кўпроқ эркинлик ва мустақиллик бериш зарур. Уларнинг ҳар қадамини назорат қилишдан сақланиш лозим. Янгиликларни жорий этаётганда йўл қўйган хатоларини кечириш. Хатоларини ўзлари тўғрилаши учун вақт ва имконият бериш даркор;



-Ходимлар олдиға қўйиладиган вазифалар аниқ ва равшан, уларнинг қўлидан келадиган ва шу билан бирға, иложи борича мураккаблик даражаси ходимларнинг фаолияти жараёнида янада юксалиши, яхши мутахассис ва раҳбар сифатида шаклланишиға хизмат қиладиган бўлиши керак;

-Раҳбар соғлом ҳаёт кечиришда, маданий ҳордиқ чиқаришда, мутахассис ва раҳбар сифатида ўз устида доимо фаол ишлашда, энг мураккаб вазиятлардан оқилона чиқиб кета олишда, юксак инсоний фазилатларни ошқора ифодалашда ўз ходимларига намуна бўлишиға интилиши зарур;

-Ҳар ҳафта бир неча соат ўз системаси, жамоаси, муассасаси истиқболини белгилаши мумкин бўлган масалалар устида ўйлаши ва туғилган фикрларини мутахассислар билан тор доирада муҳокама қилиш мақсадиға мувофиқдир;

-Дунёда ҳеч нарса абадий бўлмагани каби, раҳбарлик ҳам абадий бўлмаслигини, раҳбар уни фақатгина ўз фаровонлигини таъминлаш манбаи деб тушунмаслиги, бу “касаллик”қа қарши унда “маъмурий-ижтимоий иммунитет” бўлиши шарт. Ҳар бир раҳбар авваламбор ундан халқ орасида қандай ном қолишини, бу эса унинг раҳбарлик фаолиятининг мазмуни билан белгиланишини чуқур англаб етиш керак

-Раҳбар вақти-вақти билан ўзини ўзгалар: ходимлари, бегоналар, унинг тасарруфида бўлмаганлар кўзи билан кўриши фойдадан холи бўлмайди. Бундан ҳамма ҳам бир хил баҳо бермайди, чунки улар ичида дўстлар, душманлар, қўл остида ишлаётган ва бор ҳақиқатни айта олмайдиганлар, муваффақиятни кўра олмайдиганлар ва бошқа тоифадаги одамлар бор. Шунинг учун ҳам кўпчилик, турли табақа одамлардан олинган ва умумлаштирилган баҳо объектив баҳоға яқин бўлишини унутмаслик керак;

-Ҳар бир раҳбарнинг объектив баҳоси аксарият ҳолда раҳбар ишдан кетганда, ўзға иш, лавозимға ўтказилгандан сўнг берилади. Буни ҳар бир раҳбар унутмаслиги ва вақти-вақти билан ишдан кетгандан сўнг уни ҳозир ўраб турган ва тасарруфидаги ходимлари қандай муносабатда бўлиши мумкинлигини ўйлаб, аниқ тасаввурға эға бўлиши лозим

-Раҳбарлар борки, ўзининг ва яқинларининг бугунги ҳузур-ҳаловати, манфаати, йўлида минглаб кишиларнинг эртанги кун насибасини яримта қилади, раҳбарлар борки, минглаб кишиларнинг нафақат бугунги, балки ўз тадбиркорлиги, ишнинг кўзини билиши ва халқпарварлиги билан эртанги кун насибасини ҳам бутун қилади. Ўзи ҳам яхши яшайди, халқини ҳам боқади

-Раҳбар шахсига бундан буён қўйиладиган ва унинг аҳамияти йиллар сайин ошиб борадиган талаблардан бири – ўз она тилини ва рус тили-



ни мукаммал билган ҳолда, хорижий тиллардан бирида эркин мулоқатда бўла олишидир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, таълимни қайси бир бўғини бўлишидан қатъий назар унда фаолият олиб бораётган раҳбарнинг билими, кўникмаси ва малакасига эътибор қаратиш ва уни ўз ўрнига қўйиш тизимни ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади. Раҳбар бошқарув компетенцияга эга бўлиши ва раҳбар шахсига қўйилган қўйилган талабларни пухта билиши муҳим. Раҳбарни бошқарув компетентлигини юқори бўлиши таълим сифатини оширишга ва ҳодимлар ўртасида ишга бўлган масъулиятни кўтарилишига замин бўлади.

Адабиётлар:

1. “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида” ПҚ-4312-сонли қарори, 2019 йил 8 май.
2. Тухтабоев А. Маъмурий менежмент. Т., “Молия”, 2003 йил, 141-бет.
3. Абдуллаева Н.Ш Кластерли ёндашув асосида мактабгача таълим ташкилотларида таълим сифатини ошириш механизмларини такомиллаштириш педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати Б-12 Тошкент-2023 йил.
4. Мирсолиева. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати Б-14 Тошкент-2019 йил.
5. Ҳамдамова. Малака ошириш жараёнида мактабгача таълим ташкилоти раҳбарининг бошқарув компетенциясини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати Б11-12 Тошкент-2020 йил.
6. Шоумаров Ғ.Б. Раҳбар шахсига қўйилган талаблар. Тақдимот 2024.



YANGI INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O'RGATISH

Turdiyeva G.

Termiz davlat pedagogika insituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi fakulteti

Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi

II bosqich magistranti Ilmiy rahbar: PhD Qodirova Sh.

Tayanch soʻzlar: maktabgacha ta'lim, kata yosh, texnologiya, usul, metod, tajriba, intellekt, muammo, mutaxassis.

Ключевые слова: дошкольное образование, возраст, технология, метод, методика, опыт, интеллект, проблема, эксперт.

Key words: preschool education, age, technology, method, methodology, experience, intelligence, problem, expert.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va bolalarning bilim olishida asqotadigan usul va metodlar haqida soʻz boradi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье говорится об использовании современных технологий в обучении иностранным языкам детей дошкольного возраста, а также о методах и методах, улучшающих обучение детей.

SUMMARY:

This article discusses the use of modern technologies in teaching foreign languages to preschool children, as well as methods and techniques that improve children's learning.

Yurtimizda bolalarning ta'lim-tarbiyasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimida alohida yangilanish va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi"-deya ta'kidlaydi yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev [1]. Prezidentimiz tomonidan



Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish borasida keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ishlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama intellektual qobiliyatga ega bo'lgan shaxslar bo'lib yetishishining asosidir. Darhaqiqat, so'ngi 5-6 yil ichida yurtimizda ta'lim sohasida jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida juda katta ishlar amalga oshirildi. Har bir narsaning mustahkamligi uning poydevoriga bog'liq bo'lganligidek, yoshlarning bilimli, salohiyatli bo'lishi uzluksiz ta'limning bosh bo'g'ini maktabgacha ta'limning qanday berilishiga va uning sifatiga bog'liq. Ingliz tili faoliyatlarini yangicha tashkil etish va unda har kuni bolalarni til o'rganishga bo'lgan qobiliyatlarini shakllantirib boruvchi innovatsion jarayonlarni olib borish juda muhimdir. So'nggi yillarda ingliz tilini o'rganayotganlar soni keskin oshdi. Ilg'or odamning tillarni bilmasdan qololmasligi deyarli hamma uchun inkor etilmaydi. Bolalarga chet tilini o'rgatish yoshi ham o'zgardi. Agar shu paytgacha metodika birinchi navbatda maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lsa, endi ota-onalar bolalarni imkon qadar ertaroq, ya'ni maktabgacha ta'lim yoshidanoq chet tili bilan tanishtirishga harakat qilmoqdalar. Bundan tashqari, maktabgacha yosh mutaxassislar tomonidan ushbu turdagi ta'lim uchun eng qulay davr sifatida tan olingan.

Ingliz tiliga talab ortib borayotgan bugungi jamiyatda malakali chet tili mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ba'zi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, ularning yetishmasligi juda achinarli natijalarga olib keladi. Tilshunoslik asoslariga zo'rg'a ega bo'lgan odamlar o'zlarini bolalarga ta'lim berishga qodir deb bilishadi, chunki bu bilimlar go'yoki kichik bolalar uchun yetarli. Natijada, vaqt behuda ketmoqda, balki bolalarning ushbu sohadagi keyingi ta'limiga ham zarar yetmoqda. Barchamizga ma'lumki, o'qitishdan ko'ra qayta o'rganish qiyinroq va bolaning talaffuzini tuzatish og'irroq masala. Ammo bolalar oldiga tilni yaxshi biladigan kishilar kelganda ham ko'pincha kerakli natijaga erisha olmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish maktab o'quvchilari va kattalarni o'qitishdan ko'ra alohida metodik yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayon. Uslubiy savodsiz vazifalarga duch kelgan bolalar uzoq vaqt davomida chet tilini o'rganishni rad etishlari, o'z qobiliyatlariga ishonishlarini yo'qotishlari mumkin. Belgilangan ushbu vazifalardan kelib chiqib, ushbu magistrlik dissertatsiyasini biz maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tillarini o'rganish sohasidagi imkoniyatlarini tavsiflaymiz, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun chet tillarini o'rganishning asosiy maqsad va vazifalarini ko'rsatgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatishning asosiy usullari, foydalaniladigan innovatsion vositalarga e'tibor qaratdik.



Ingliz tilini bolalarga o'rgatishda ularning tajribasini jalb etish va o'rganishga qiziqish o'sishi uchun innovatsion usullar juda muhimdir. Texnologiyalar, interaktiv darsliklar va ta'limiy o'yinlar tilni o'rganishni qizg'indirib, o'rganish natijalarini oshirishadi. Shu tufayli, interaktiv dasturlar, ta'limiy o'yinlar va onlayn platformalar yosh o'quvchilarni qizg'indirib, bu jarayonni mamnun etadi. Qo'shimcha ravishda, tillarining tajribasini oshirish uchun interaktiv darslar juda muhimdir. Rollash, guruh faoliyatlari va tillar ichidagi hikoyalar tili o'rganishni dinamik va qiziqarli jarayon qiladi. Ular emotsional o'zgarishlarni oshirish, yangiliklarni qayta ko'rib chiqish va muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bera olishadi. Bu usullar faqat o'quvchilarning xususiyatlari bo'yicha yo'nalishlarni boshqarishga yordam beradi, balki ijodkorlik va qiyinchiliklarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Global asrda ma'no muhim bo'lgan texnologiyalar o'z vazifasini bajaradi. Interaktiv ilovalar, ta'limiy o'yinlar va onlayn platformalar tilni o'rganishni osonlashtiradi, bu vositalar orqali ta'lim jarayonini tezlashadi. Texnologiyadan tashqari, interaktiv mashg'ulotlar ham juda muhimdir. Rollash, guruh faoliyatlari va tillar ichidagi hikoyalar ta'limni o'rganishni dinamik va qiziqarli jarayon qiladi. Bundan tashqari, bu usullar farzandlarning turli o'qish xususiyatlarini bajarishga yo'l qo'ymaydi, balki ijtimoiy muloqotni rivojlantiradi, kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchilar shaxsiy usullar yaxshi natijalar olish uchun mukharrir bo'lishni tanib, uning asosiy talablariga mos ravishda maslahat bera olishadi. Insonlar o'zgaruvchan va hayotiy zarur tavsiyalar berishadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yangiliklar, ta'limiy muassasalarni yanada rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Raqobatli bo'lish uchun, yangi texnologiyalarni o'rganish, ularni mashg'ulotlar jarayonida amalga oshirish va bolalarga maqbulroq ta'lim berish kerak. Shu tufayli, tarbiyachilar o'z malakalarini va bilimlarini yanada oshirib, bolalarga eng yaxshi ta'limi ta'minlashadi. Umumiy holda, bolalarga ingliz tilini o'rgatishda innovatsion usullar yosh o'quvchilarni qiziqtarish va o'rganishni sevgi bilan bog'lash uchun zarurdir. Chet tili nafaqat maktablar va universitetlarda, balki ko'plab qo'shimcha maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ta'limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi. Chet tilini o'qitishning asosiy muammosi bolalarning yoshi. Ma'lumki, bolalar o'rganish uchun qulayroqdir. Yaqin vaqtgacha o'qitish metodikasi bolalarga qaratilgan edi maktab yoshi, endi ota-onalar chet tilini o'rganishni iloji boricha erta boshlashga intilmoqda. Maktabgacha yoshi, ayniqsa, chet tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulaydir. Bu yoshdagi bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirliги bilan ajralib turadi, ular o'zlarining nutq tajribalarini, tilning "sirlarini" tushunishga qiziqishadi. Ular kichik hajmni



osongina va qat'iy eslashadi til materiali va uni yaxshilab ko'paytiring. Yoshi bilan bu qulay omillar kuchini yo'qotadi. Chet tilni o'rganish uchun erta yosh afzalroq bo'lishining yana bir sababi bor. Bola qancha yosh bo'lsa, shuncha kamroq bo'ladi. So'z boyligi yilda mahalliy til, ammo shu bilan birga uning nutqiga bo'lgan ehtiyojlari ham kam: kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda, ona va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi bunday katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi kattaroq bolalarnikiga qaraganda yorqinroq bo'ladi. Bolalarni o'qitish - bu maktab o'quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladigan juda qiyin masala. Agar kattalar chet tilida gaplashsa, bu uning boshqalarga o'rgatishi mumkin degani emas. Uslubiy jihatdan nochor darslarga duch kelganda, bolalar uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishlari va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qotishlari mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak. Butun dunyodagi ta'lim tizimlari yoshlarni bog'langan dunyoning murakkab haqiqatlariga tayyorlash uchun kurashmoqda. Ko'pgina ta'lim tizimlari markazlashtirilgan ta'lim dasturlari va standartlashtirilgan testlarga katta e'tibor qaratgan bo'lsa-da, ta'lim, shuningdek, yoshlarga mantiqiy bo'lishi va chambarchas integratsiyalashgan va o'zaro bog'liq bo'lgan globallashtirilgan jamiyatda faol rol o'ynashi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlashi kerak degan qat'iy fikr mavjud. Biz insoniyat tarixidagi boshqa avlodlarga qaraganda ko'proq bolalar bilan ta'lim-tarbiyada yashaymiz, madaniyati, e'tiqodi, qadriyati va dunyoqarashi xilma-xil tengdoshlari bilan ishlaymiz va shaxslararo munosabatdamiz. Biz ularni xilma-xillikni qabul qiladigan jamiyatlar qurish vositalari bilan ta'minlashga intilamiz. Bu esa ochiq fikrlashni rag'batlantirishdir. Biz hammamiz bilamizki, biz Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga dunyoning xilmaxilligiga dunyoqarashda keng yondashishga yordam berishni xohlaymiz, lekin biz bunga erishishimizga yordam beradigan adekvat va oddiy o'qitish tadbirlarini xohlaymiz - bu kabi natijalarni berish bizning o'rganishimizga va ota-onalarning bolalarga bo'lgan talab va ehtiyojdir. Mahalliy madaniyatga moslashish uchun ularga quyidagilarni o'rganish tavsiya etiladi: bolalarni hurmat qilish, sinf madaniyatiga chidamli bo'lish, ularning muammolarini tinglash va maslahat berish, do'stona va hazil tuyg'usiga ega bo'lish, mavzu yuzasidan bilimdon bo'lish.

Ijtimoiy-madaniy yondashuvning til ta'limidagi umumiy maqsadi kursantlarni ingliz tili vositalari orqali ko'p madaniyatli dunyoda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish orqali faol hamkorlikka tayyorlashdir. Til



muayyan ijtimoiy-madaniy voqelikni aks ettiruvchi vosita bo'lib, uni egallash orqali biz madaniyatga tegishli olam manzarasini ham egallaymiz. Til bilishning o'zi aslida madaniyat belgisining bir ko'rinishidir. Barchamizga ma'lumki bizning buyuk bobokolonlarimiz ham qadimdan ikki, uch tilni bilganlar. Bu esa ularga boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish va hamnafas yashash imkonini bergan. Darhaqiqat, bugungi kunga kelib Ingliz tillarini o'qitishning ijtimoiy-madaniy konteksti o'zgargan deb ayta olamiz. Xalqaro muloqot tillarini o'qitishning hozirgi bosqichida tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini bilish tildan foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Tilni madaniyat bilan birga o'rganish zamonaviy til ta'limining asosiy yo'nalishi hisoblanadi va buni amalda unumli ishlata olish katta muvaffaqiyatlarga olib keladi. Tilni o'rganilayotgan jamiyat madaniyatidan uzilgan holda o'rganish mumkin emas, til va madaniyat bu har doim yonma-yon ishlatiladigan bir butun tushunchadir. Chunki til jamiyat taraqqiyoti mahsuli va uning madaniyati tashuvchisidir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017- yil 19 - oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 25-yilligiga bag'ishlangan "Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasidagi nutqidan
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli "2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish strategiyasi" qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim muassasalarida Ingliz tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 610-son Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 32 (792) son, 2017. – B. 167-169
5. X.B.G'aniyevaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning zamonaviy usullari" nomli ilmiy maqola 2022
6. M.U. Ibrohimova Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish. International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages" Volum 2.2022
7. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.-T.:O'qituvchi,2016 y.
8. www.tdpu.uz.
9. www.pedagog.uz



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MNEMONIKA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Inadullayeva S.Q.

TerDPI Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil etish kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: mnemonika texnologiyasi, maktabgacha ta'lim, tafakkurni rivojlantirish, xotira, mantiqiy fikrlash, o'quv jarayoni.

Ключевые слова: мнемотехника, дошкольное образование, развитие мышления, памяти, логическое мышление, образовательный процесс.

Key words: mnemonics, preschool education, development of thinking, memory, logical thinking, educational process.

PEZIOME:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishda mnemonika texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda mnemonika texnologiyalari orqali bolalarning xotira, tasavvur va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari ko'rib chiqiladi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish bilan birga, bolalarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

PEZIOME:

В данной статье подчеркивается важность использования мнемотехники в развитии навыков мышления детей дошкольного возраста. В исследовании рассматриваются методы развития у детей памяти, воображения и логического мышления с помощью мнемических технологий. Эти технологии делают учебный процесс интересным и эффективным, служат повышению интереса детей к обучению.

SUMMARY:

This article emphasizes the importance of using mnemonics in developing preschool children's thinking skills. The study examines methods for developing children's memory, imagination, and logical thinking using mnemonic technologies. These technologies make the learning process interesting and effective, and serve to increase children's interest in learning.

Kirishqismi. Bugungikunda ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va tafakkur faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish kelajakda ularning akademik muvaffaqiyatlari, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda faol ishtirok etishlari uchun poydevor yaratadi.



Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalik davrida bilim olishga bo'lgan qiziqishni qo'llab-quvvatlash va ularni muammoli vaziyatlarni hal qilishga o'rgatish tafakkur jarayonlarini rivojlantirishning muhim shartidir.

Mnemonika texnologiyasi bolalarning eslab qolish va o'rganish qobiliyatlarini oshirishda samarali vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiya xotirani faollashtirish orqali o'quv materiali o'zlashtirilishini osonlashtiradi va bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirishga ko'maklashadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, mnemonika metodlari bolalarning mantiqiy fikrlashini, tasavvur qilish qobiliyatini va kuzatuvchanligini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi[1].

Maktabgacha yoshda bolaning rivojlanishida axborotni o'zlashtirish qobiliyatini faollashtirish katta ahamiyatga ega, chunki bu davrda ular dunyoqarashi shakllanadi va bilim olishga bo'lgan asosiy ehtiyojlar yuzaga keladi. Mnemonika texnologiyasidan foydalanish esa bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga samarali va qiziqarli o'quv jarayonini taqdim etish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu tadqiqot mavzusi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mnemonika texnologiyalarining samarali qo'llanilishi ta'lim sifati va mazmunini oshirish bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali biz jamiyatda bilimli, tafakkur qobiliyati rivojlangan avlodni tarbiyalashga hissa qo'shamiz.

Mnemonika texnologiyalari zamonaviy ta'lim jarayonida bolalarning kognitiv rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar, asosan, eslab qolish va fikrlash qobiliyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular bilimlarni mantiqiy, tizimli va ijodiy shaklda o'zlashtirish imkonini beradi. Mnemonika usullarining asosiy tamoyili - murakkab axborotni sodda, qiziqarli va esda qolarli tarzda taqdim etishdir. Bu jarayonda rasm, so'z, harakat va boshqa multimodal yondashuvlardan foydalaniladi, bu esa bolaning eslab qolish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Asosiy qism. Mnemonika texnologiyasining ta'rifi va ahamiyati. A. B. Ilg'orov (2018) o'z tadqiqotlarida mnemonika texnologiyalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyatini batafsil o'rgangan. Uning fikricha, mnemonika usullari nafaqat eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi, balki bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Muallif mnemonika usullarini bolalar tafakkurining rivojlanishi uchun psixologik va pedagogik jihatdan muhim vosita deb ta'riflaydi va ushbu texnologiyaning quyidagi jihatlarini ta'kidlaydi:



1. Xotirani faollashtirish: Mnemonika usullari yordamida bolaning xotirasi yanada samarali ishlaydi, chunki axborotlar vizual va assotsiativ shakllarda taqdim etiladi. Bu esa bolaning miya faoliyatini rag'batlantiradi va eslab qolishni osonlashtiradi.

2. Tafakkur jarayonlarini rivojlantirish: Ilg'orovning fikriga ko'ra, mnemonika usullari bolaning mantiqiy fikrlashini faollashtiradi. Masalan, maxsus kodlar, ramzlar yoki rasmlı diagrammalar orqali bolalar murakkab tushunchalarni osonroq tushunib, ularga mantiqiy bog'liqlik yaratadi.

3. Ijodiy fikrlashni shakllantirish: Mnemonika usullari ijodiy jarayonlarni rag'batlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Axborotlarning rang-barang va qiziqarli shaklda taqdim etilishi bolalarning tasavvur qilish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. Qiziqishni oshirish: Mnemonika texnologiyalari ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi, bu esa bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, rasmlı sxemalar, o'yin shakllari yoki hikoyalar orqali bolalar bilim olish jarayonida faollashadi.

A. B. Ilg'orov o'z tadqiqotida bolalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ham ta'kidlagan. Chunki mnemonika texnologiyalari barcha bolalarga birdek ta'sir qilmaydi, ularning o'zlashtirish darajasi, qiziqishlari va tafakkur shakllariga moslashtirilishi lozim.

Shuningdek, muallif mnemonika texnologiyalari orqali o'quvchilarni faollashtirish pedagogikaning zamonaviy vazifalaridan biri ekanligini qayd etadi. U psixologik asos sifatida L. S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga tayanib, mnemonikaning bolalarni yanada yuqori rivojlanish darajasiga olib chiqishga yordam berishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, mnemonika texnologiyalari bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda universal va samarali yondashuv sifatida ta'riflanadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat maktabgacha ta'limda, balki boshqa ta'lim bosqichlarida ham keng qo'llanilmoqda va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda[2].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkur qobiliyatini rivojlantirish. Maktabgacha yosh davri bola tafakkuri va intellektual qobiliyatlarini shakllantirish uchun asosiy bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola nafaqat atrof-muhitni idrok qilishni, balki o'z fikrlarini ifodalashni, murakkab mantiqiy aloqalarni tushunishni va muammolarni hal qilishni o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, maktabgacha yoshda ijodiy fikrlashni rivojlantirish bola kelajakda samarali o'qish va ijodiy faoliyat yuritishi uchun poydevor yaratadi.



Shu sababli, ta'lim jarayonida tafakkur qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion usullar va texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

V. A. Petrova (2020) o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin texnologiyalari va mnemonik usullarning samaradorligini tahlil qiladi. Uning fikriga ko'ra, bolalarning fikrlash jarayonini faollashtirish uchun darslar qiziqarli va bolalarning psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. U mnemonika materiallarini bolalarning qiziqishini oshiruvchi vosita sifatida ta'riflaydi va quyidagi tamoyillarni tavsiya etadi:

1. Rang-baranglik va interaktivlik: Mnemonika materiallari bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan rang-barang va qiziqarli ko'rinishda taqdim etilishi lozim. Bu bolalarda vizual tasavvurlarni kuchaytiradi va o'quv materialini eslab qolishni osonlashtiradi. Masalan, rasmlı kartalar, chizmalar yoki hikoyalar orqali taqdim etilgan mnemonik materiallar bolalarni faol o'quv jarayoniga jalb qiladi.

2. O'yin texnologiyalaridan foydalanish: Bolalarning tafakkurini rivojlantirish uchun Petrova o'yin texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya etadi. Masalan, "kim tezroq eslaydi" o'yini, "nima o'xshash va nima farq qiladi" vazifasi kabi o'yinlar bolalarning mantiqiy fikrlashini faollashtiradi va ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantiradi. Petrova o'yinlar orqali bolalarning o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishni eng samarali yondashuvlardan biri deb hisoblaydi.

3. Assotsiativ fikrlashni rivojlantirish: Mnemonik usullar bolalarning mantiqiy va assotsiativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ular o'zaro bog'liq ma'lumotlarni eslab qolish va ishlatishda yordam beradi. Petrova mnemonik sxemalar orqali bolalarda ob'ektlar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash qobiliyatini shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi.

4. Bolalarning faolligini oshirish: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mnemonik usullar va o'yin texnologiyalari bola o'quv faoliyatining faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa ularning xotira va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish uchun optimal sharoit yaratadi. Masalan, bolalar guruhlarda ishlash orqali muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi va turli fikrlarni o'rganib, o'z dunyoqarashini kengaytiradi.

V. A. Petrova o'z tadqiqotlarida mnemonik va o'yin texnologiyalarini birlashtiruvchi yondashuvni ilgari suradi, bu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali metodlardan biri sifatida ko'riladi. U ta'kidlaganidek, darslarning interaktiv va qiziqarli bo'lishi bolalarda o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, bu esa ularning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi[3].



Psixologik yondashuvlar. Mnemonika texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi bolalarning psixologik xususiyatlari va xotira jarayonlariga asoslanadi. N. A. Xaydarova (2020) o'z tadqiqotlarida mnemonika usullarining bolalarning eslab qolish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini chuqur o'rgangan. Uning ilmiy ishlari mnemonika texnologiyalari psixologik yondashuvlar bilan uyg'un holda ishlatilganda bolalarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

N. A. Xaydarova tadqiqotida quyidagi jihatlar muhim deb ta'kidlanadi: Xaydarovanning tadqiqotlariga ko'ra, bolalar xotirasi yoshga qarab rivojlanadi va maktabgacha davrda axborotni eslab qolish qobiliyati sezilarli darajada shakllanadi. Mnemonika texnologiyalari, xususan, vizual materiallar (rasmlar, diagrammalar, chizmalar) yordamida bolaning xotirasi faollashadi. Vizual tasvirlar bola miyasida assotsiativ bog'lanishlar yaratib, axborotni uzoq muddatli xotirada saqlash imkonini beradi. Misol uchun, rasmi kartalar yordamida bolalar yangi so'zlarni yoki tushunchalarni oson eslab qolishi kuzatilgan. Rasmi mnemonik sxemalar bolalarga murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli shaklda tushuntirish imkonini beradi. Xaydarovanning fikricha, rasmi sxemalar orqali axborot tuzilmalarini aniqroq idrok qilish mumkin. Masalan, o'quv materiallari bolalarga mantiqiy ketma-ketlikda, tasvirlar yoki belgilar orqali tushuntirilganda, ular axborotni tezroq va samarali eslab qoladi. Xaydarova psixologik yondashuvlar haqida gapirar ekan, bolalarning individual psixologik xususiyatlariga moslashish zarurligini ta'kidlaydi. Har bir bola axborotni turli usullar orqali eslab qoladi: kimdir ko'rgazmali tasvirlar orqali, kimdir esa so'z va nutq orqali. Shu sababli, mnemonika texnologiyalari bolaning o'ziga xos qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim. Xaydarova mnemonikadan foydalanish nafaqat xotirani, balki ijodiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Masalan, bolalar o'zlari uchun rasmi sxemalar yaratish orqali ijodiy jarayonga kirishadi, bu esa ular uchun ta'limni qiziqarli va interaktiv qiladi. Shuningdek, ular rasmi sxemalar orqali tushunchalar va hodisalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni tushinishga o'rganadi. Xaydarovanning tadqiqotlarida shuni ta'kidlanadi: mnemonika texnologiyalarining psixologik asoslari bolalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi. Rasmi materiallar, qiziqarli hikoyalar va boshqa ko'rgazmali usullar bolaning ta'lim jarayonida faollashishiga yordam beradi. Bu jarayon, o'z navbatida, bolaning akademik va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.[4].

Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarning roli: Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv



jarayonining samaradorligini oshirishga va ta'lim sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim bosqichida innovatsion texnologiyalar bolalarning intellektual, ijodiy, va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. M. Fayzieva (2019) o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ahamiyatini chuqur o'rgangan va mnemonika texnologiyalarini ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida taqdim etgan.

Innovatsion texnologiyalarning ta'rifi va ahamiyati: M. Fayzievaning ta'kidlashicha, innovatsion texnologiyalar – bu ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yo'naltirilgan yangi yondashuvlar va metodlar to'plamidir. Ayniqsa, mnemonika texnologiyalari bolalarning eslab qolish va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Fayzievaning fikricha, mnemonika texnologiyalari ta'lim jarayonini nafaqat qiziqarli va samarali qiladi, balki bolalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Mnemonika texnologiyalari ta'limda: Mnemonika texnologiyalarining asosiy mohiyati shundaki, ular bolalarning axborotni samarali va qiziqarli tarzda o'zlashtirishlariga ko'maklashadi. Fayzieva mnemonikaning quyidagi afzalliklarini ta'kidlaydi:

- Vizual materiallardan foydalanish: Bolalarning eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish uchun ko'rgazmali vositalar (rasmlar, chizmalar, diagrammalar) ishlatiladi.
- Qiziqarli va oson o'zlashtiriladigan format: Mnemonika texnologiyalari axborotni rasm, hikoya yoki o'yin ko'rinishida taqdim etadi, bu esa bolalar uchun o'quv jarayonini yanada jozibador qiladi.
- Ijodiy tafakkurni rag'batlantirish: Mnemonik metodlar bolalarga tasavvur qilish va yangi g'oyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: M. Fayzievaning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, mnemonika texnologiyalari bolalarda ijodiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay platforma yaratadi. Misol uchun, bolalar yangi tushunchalarni o'zlashtirishda rang-barang rasmlar yoki qiziqarli hikoyalar asosida ish olib boradi, bu esa ularning ijodiy yondashuvini rag'batlantiradi. Bundan tashqari, mnemonika texnologiyalarining o'yin elementlari bolalarda ijodiy fikrlashni kuchaytiradi va ularni o'z g'oyalarni mustaqil ravishda ifodalashga undaydi.

Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish: Innovatsion texnologiyalar, jumladan, mnemonika usullari, ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish



uchun muhim vosita hisoblanadi. Fayzieva shuni ta'kidlaydiki, mnemonika texnologiyalaridan foydalanish:

- Bolalarning bilimlarni eslab qolish qobiliyatini oshiradi;
- Ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi;
- O'quv jarayonida bolaning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Misol sifatida Fayzieva maktabgacha yoshdagi bolalarga o'quv materiali rasmlı kartalar orqali o'rgatilganida, ular yangi tushunchalarni tezroq o'zlashtirganini va ular bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli bajarganini ko'rsatadi.

Bolalarning individual xususiyatlariga moslashish: Fayzieva innovatsion texnologiyalarni qo'llashda bolalarning individual psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi. Mnemonika texnologiyalari bolaning qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan holda ishlatilsa, ularning ta'lim jarayoniga qiziqishi sezilarli darajada oshadi.[5].

Xalqaro tadqiqotlar: Mnemonika texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham keng o'rganilgan. Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar mnemonika usullarining bolalar rivojlanishiga ta'sirini chuqurtahlil qilgan. Ushbu texnologiyalarning bolalarning kognitiv qobiliyatlari, xotira, mantiqiy tafakkur va ijodiy rivojlanishiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlovchi ilmiy ishlanmalar mavjud.

C. S. Andersonning 2017-yilda o'tkazgan tadqiqoti mnemonika texnologiyalarining maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot AQShning bir necha maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazilgan bo'lib, unda turli mnemonik usullar qo'llanilgan. Anderson tadqiqoti quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Xotira va eslab qolish qobiliyatini oshirish: Tadqiqot davomida bolalarga rasm, so'z, va hikoyalar asosida mnemonik mashqlar bajarish taklif etilgan. Ushbu usullar bolalarning axborotni eslab qolish qobiliyatini 20-30 foizga oshirgan. Bolalar mnemonika texnologiyalari yordamida yangi so'zlarni tez o'zlashtirib, ularni amaliyotda samarali qo'llashgan.

2. Tafakkur jarayonlarini rivojlantirish: Anderson mnemonik sxemalar bolalarda mantiqiy tafakkur qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Masalan, bolalar hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun rasmlı sxemalardan foydalangan. Bu ularda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmasini kuchaytirgan.

3. Ijodiy yondashuvni qo'llab-quvvatlash: Mnemonika texnologiyalari bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam bergan. Bolalar rasmlı kartalar yoki o'yin elementlari yordamida o'z tasavvurlarini kengaytirgan va



yangi g'oyalarni ishlab chiqqan. Masalan, tadqiqotda qatnashgan bolalar oddiy hikoyalardan murakkab hikoyalar tuzish qobiliyatini namoyish etgan.

4. Bolalarning qiziqishini oshirish: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mnemonika texnologiyalaridan foydalanish bolalarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Vizual va interaktiv materiallar yordamida o'quv jarayoni bolalar uchun yanada qiziqarli bo'lgan.

C. S. Anderson tadqiqot natijalarida mnemonika texnologiyalarining quyidagi afzalliklarini qayd etgan:

- Bolalarning xotira va eslab qolish qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilash;
- Bolalarning axborot bilan ishlashda mantiqiy va ijodiy yondashuvlarini kuchaytirish;
- Ta'lim jarayonida bolalar faolligini va qiziqishini oshirish;
- Rasmi va interaktiv materiallarning ta'lim jarayonidagi samaradorligini ta'minlash.

Tadqiqot yakunida Anderson mnemonika texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy qilishni tavsiya etadi. U bu usullar nafaqat maktabgacha ta'lim, balki boshlang'ich va o'rta maktab bosqichlarida ham samarali bo'lishini ta'kidlagan[6].

Xulosa. Mnemonika texnologiyalari ta'lim jarayonida bolalarning intellektual va kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda zamonaviy va samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat eslab qolish qobiliyatini rivojlantirishga, balki bolalarda mantiqiy va ijodiy tafakkur shakllanishiga ham xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mnemonika texnologiyalari o'quv jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi, bu esa bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Mahalliy va xalqaro tadqiqotchilar: A. B. Ilg'orov, V. A. Petrova, N. A. Xaydarova va C.S.Anderson tomonidan olib borilgan ilmiy ishlanmalar shuni ko'rsatadiki, mnemonika texnologiyalari orqali:

- Bolalarning xotira jarayonlari faollashadi va bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlash qobiliyati oshadi;
- Vizual va rasmi materiallar orqali o'quv jarayonini soddalashtirish va bolalarning eslab qolish jarayonini osonlashtirish mumkin;
- O'yin elementlari va mnemonik sxemalar yordamida ijodiy va mantiqiy fikrlash rivojlantiriladi;
- Ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi va bolalar bilimni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadi.



Mnemonika texnologiyalarini qo'llash nafaqat bolalarning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularning shaxsiy qobiliyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ushbu texnologiyalarning joriy etilishi bolalar uchun ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, mnemonika texnologiyalarining pedagogik jarayonlarga integratsiyasi o'qituvchilarga bolalarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi.

Shu sababli, mnemonika texnologiyalarini ta'lim tizimida keng qo'llash nafaqat pedagogik amaliyot uchun dolzarb, balki ilmiy va innovatsion jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish kelajakda bilimli, ijodkor va mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Xaydarova, N. A. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi. Toshkent: Ilm va rivojlanish.
2. Ilg'orov A. B. (2018). Mnemonika texnologiyalarining pedagogik jarayondagi ahamiyati. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Petrova V. A. (2020). Maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalari va mnemonika. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
4. Xaydarova N. A. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi. Toshkent: Ilm va rivojlanish.
5. Fayzieva M. (2019). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Samarqand: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
6. Anderson C. S. (2017). "The Impact of Mnemonics on Cognitive Development in Early Childhood Education." *Journal of Early Childhood Research*, 15(3), 205-220.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATINI FALSAFIY BILIMLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Mamatqulova Sh.O'.

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: intellektual salohiyat, qobiliyat, iste'dod, o'yin, syujetli-rolli o'yinlar, abstrakt bilimlar, genetika va irsiyat.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, способности, талант, игра, ролевые игры, абстрактные знания, генетика и наследственность.

Key words: intellectual potential, abilities, talent, game, role-playing games, abstract knowledge, genetics and heredity.

РЕЗЮМЕ:

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish va takomillashtirish dolzarb masalalari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

Сегодня развитие интеллектуального потенциала дошкольников является одним из наиболее актуальных вопросов. В данной статье освещены актуальные вопросы развития и совершенствования интеллектуального потенциала дошкольников.

SUMMARY:

Today, the development of the intellectual potential of preschool children is one of the most important issues. This article covers topical issues of developing and improving the intellectual potential of preschool children.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Maktabgacha ta'lim - ertangi kunimizga zamin"dir. Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta'lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Masalan, Shvetsariyalik psixolog J. Piaja o'zi olib borgan tadqiqotlar asosida ta'kidlashicha, 7-8 yoshdan kichik bolalar raqam bilan bog'liq faoliyatga qodir emas. Shuningdek, bolaning psixik rivojlanishida ta'lim mazmunining o'zgarishi va uning ta'siri haqida L.A.Venger, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin,



V.V.Davidov va boshqalar asarlarida keng tadqiq etilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasining asosiy vazifalari- jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya berib borishdan iboratdir. Psixologlar fikricha bu yoshda bolada bilish jarayonlari rivojlanib borganligi sababli unga o'rgatilgan har bir yangilikni tez ilg'ab oladi, ongiga singdirib boradi. Bolalikda aqliy rivojlanish asosini bolada shakllanayotgan idrok etish va fikrlash harakatlarining yangi turlari tashkil etadi. Bu yoshda avtodidaktik, o'zi o'rgatuvchi o'yinchoqlar (matryoshkalar, qutichalar, kubchalar, mozaika va boshqalar) bola ongini tez rivojlantiradi. Intellektualpsixologik o'yinlar bolani har tomonlama komil shaxs bo'lib shakllanishidagi asosiy vositalardan biridir. Maktabgacha ta'lim davridagi bolani har tomonlama komil inson bo'lib shakllanishida didaktik o'yinlar asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Intellektualpsixologik o'yinlarning barchasini quyidagi uch turga ajratish mumkin: 1. Buyumli o'yinlar(o'yinchoqlar, tabiiy materiallar) 2. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar 3. So'z o'yinlari Ta'lim jarayonida zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bolalar intellektiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qism.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017- yil 30-sentabrda PF5198 - sonli "Maktabgacha ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni qabul qilinib, unda maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash asosiy maqsad qilib belgilangan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intellektual salohiyatining rivojlanishida ulardagi tug'ma qobiliyat va iste'dod muhim ahamiyatga ega. Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan bolalarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib, hayotga tatbiq etadilar. Ammo, barcha yoshlarimizga ham birdek tug'ma talant, qobiliyat va iste'dod nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib borishdek muhim vazifa birinchi navbatda pedagoglarimiz va keng jamoatchilik zimmasiga ya'ni oila, o'quv muassasalari, korxona, tashkilot, ustaxona boshqaruvchilari zimmasiga tushadi. Kattalar tug'ma aql sohiblari bo'lgan bolalarning yo'lini to'sishni yaxshi ko'radilar. Bolaga "uni qilma", "bu senga foyda keltirmaydi" kabi so'zlarni ko'p ishlatishadi. Unga xato qilib, xulosa chiqarib, uni to'g'irlash uchun yo'l topishiga sharoit yaratib



bermaydilar. Kattalarning talab hamda vazifalaridan charchagan bolalar bora-bora hafsalasiz va umidsiz bo'lib, xushchaqchaq ko'ngillarini berkitib oladilar, qalblarida borini o'rtoqlashmay qo'yadilar. Fikrlarini ochiq bildirmaydilar. Bolaga bunday munosabatda bo'lish ularni o'z ichki olamlariga badarg'a qilish, demakdir. Natijada esa, ularni u olamdan ortga qaytarish qiyin kechadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishidagi dolzarb masalalari bo'yicha Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası qoshida "Bolajon" innovatsion bog'chasi o'z faoliyatini boshlagan. Fargona viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi bilan hamkorlikda ish olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bu fikriy faoliyatning ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazlidan abstrakt, nazariyga o'zgarishidir. Bolada tushunchalar va tushunchalar tizimi muntazam shakllanib boradi. Bolaning anglash va fikrlash rivojlanishi darajasi qancha yuqori bo'lsa, u o'zlashtirgan, foydalanayotgan tushunchalar shuncha murakkab bo'ladi. Shu tarzda, umumiy holda bola psixik rivojlanishi jarayonini uch asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin: 1) ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi, 2) o'zlashtirilgan usullar qo'llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi, 3) shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishi. Ushbu mavzu yuzasidan davra suhbatlari o'tkazildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari psixologlari bilan tajribalar almashildi. Bolada intellekt ona qornidan rivojlanishni boshlaydi. Bolalarda asosiy intellektual rivojlanish bosqichi maktabgacha va maktab yoshiga to'g'ri keladi. Genetika va irsiyat intellektual salohiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kimdir tabiatan tez hisoblaydi, kimdir tug'ilganidan boshlab matematikani yaxshi ko'radi, kimdir gapirishdan oldin kuylaydi. Bolalarda aloqa va bilim qobiliyatlarini rivojlantiradigan faoliyatning muntazamligini ta'minlash orqali intellektni rivojlantirish mumkin. Temperament va xarakter xususiyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchisining intellektini rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. Ota-onalar bilan munosabat va oiladagi emotsional muhitni me'yoriy darajaga keltirish bola intellektini rivojlantirishga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ota-onalari bilan intellekt, intellektual salohiyat va uni rivojlantirishning dolzarb masalalari to'g'risida suhbat uyushtirildi. Ota-onalar o'zlariga kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Xulosa. Faoliyatning umumiy turi aniqlangach, bolalar tomonidan ayrim usullar turli darajada qo'llanilishi mumkin. O'quvchilar faoliyatning nisbatan yuqori shakllari va turlariga (shuningdek, aqliy) masalan, aniq va abstrakt bilimlarni bog'lay olish va o'zaro nisbatini aniqlay bilishga o'rgatilishi lozim. Bolaning fikrini ham tez-tez inobatga olib turilsa, uning o'z-o'ziga



bo'lgan ishonch hissi ortadi. Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o'zgarishi va murakkablashishi sodir bo'lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlarni, ya'ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatlarini o'zgaradi, usullar yig'ilishi va o'zgarishi sodir bo'ladi. Bola ko'p miqdordagi turli harakatlarni bajara oladi, bilim va tasavvurlari o'zgaradi. Qizlar va o'g'il bolalar yetuk va komil shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil hayot tarziga aylanishi zarur. U ham bo'lsa zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Bunda ota-ona, oila muhiti muhim o'rin egallaydi. O'rgimchak to'ridek dunyoni egallab olgan elektron olam bolalarning ongu shuurini butunlay egallab olmasidan oldinroq ularda hayotda har bir narsaning me'yorini bilish ko'nikmasini hosil qilishimiz va bunga o'zimiz ham amal qilishimiz juda zarur. Zero bola aytganni emas, ko'rganini qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish orqali yuksak intellekt sohiblarini tarbiyalashimiz bizning asosiy maqsadlarimizdan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun. T.: 23 sentabr 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan (1)
3. Ismoilovich I. M. (2021, July). Issues of transformation of educational experience of developed countries. In Euro-Asia Conferences (pp. 227-239).
4. D.M.Mirzayeva. Maktabgacha yoshidagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish muammolari. Central asian academic journal of scientific research. Volume 2022 yil.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Turdiyev A.G'.

*Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha
ta'limda tarbiyani tashkil etish kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, texnologiyalari, multimedia, bolalar, malaka, psixologiya, communication technologies.

Ключевые слова: дошкольное образование, технологии, мультимедиа, дети, умения, психология, коммуникативные технологии.

Key words: pre-school education, technologies, multimedia, children, skills, psychology, communication technologies.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiya(multimediada)dan foydalanish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga axborot texnologiyadan foydalanib ta'limni tashkil qilish, ularda kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda boshlang'ich bilim ko'nikmalarini rivojlantirish haqida qisqacha so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье кратко рассматривается использование инновационных технологий (в мультимедиа) в дошкольном образовании, организация обучения с использованием информационных технологий воспитанников дошкольных образовательных организаций, а также развитие у них базовых знаний, навыков с использованием коммуникативных технологий.

SUMMARY:

This article briefly discusses the use of innovative technology (in multimedia) in preschool education, the organization of education using information technology for the students of preschool education organizations, and the development of basic knowledge skills in them using communication technologies.

Kirish. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini multimedia vositalari asosida tashkil etishga alohida ahamiyat berilyapti. Multimedia vositalariga, birinchi navbatda, elektron darsliklar, kompakt disklar, video-audio tasmlar, turli taqdimotlar kiradi. MTTda multimedia texnologiyasidan foydalanishdagi masalalardan yana biri ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish,



unga mos ishlanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy qilish zarurligidir. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili: Axborot texnologiyalarini katta tezlikda rivojlanishi bilan ta'lim tizimiga masofali o'qigish - Internet tarmog'i orqali o'qitish texnologiyasi kirib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'lim tizimiga zamonaviy psixologik-pedagogik uslublarni qo'llash uchun keng imkoniyatlar ochib bermokda. Hozirgi kun ta'lim tizimida, shu jumladan, MTTlarining ta'lim-tarbiya jarayonida ta'limga oid o'yinlar va masofali ta'lim texnologiyalaridan foydalanish alohida o'rin tutayotganligi uchun ushbu masalalarni kengroq o'rganib chiqish maqsad qilib olindi. Ta'limiy o'yinlar: vazifalari, xususiyatlari va asosiy turlari. Ta'limga oid o'yinlar ta'lim berishning zamonaviy psixologik-pedagogik texnologiyasida muhim o'rin egallaydi. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish usul sifatida XX-asrning 70-yillarida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda qo'llanilish sohasiga mos ravishda ta'limiy o'yinlarning har xil turlari mavjud. Masalan, zobitlarni tayyorlashda harbiy o'yinlar, aktyorlar uchun syujet-rolli o'yinlar, tijoratchilar va rahbarlar uchun maxsus treninglar mavjud.

Multimedia texnologiyalari o'quv jarayonini boyitadi, o'rganishni yanada samarali qiladi, idrok etish jarayoniga ijobiy ra'sir qiladi. Bugungi kunda multimedia texnologiyalari axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Dasturiy metodik ta'minlash, moddiy texnik bazasini takomillashtirish, shuningdek, professor o'qituvchilarning malakasini majburiy oshirish ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli tatbiq etish istiqbolini ko'rsatmoqda.

Multimedia – bu bir necha ma'lumot taqdim etish vositalarining bir tizimga birlashishi, matn, sxema, jadval, diagramma, fotografiyalar, video va audio fragmentlar va boshqa har xil ma'lumotlarni raqam ko'rinishida ishlab chiqish, yaratishning dasturiy-apparat vositasidir. Multimediadan foydalanish ma'lumot qabul qilishning yangi va sifatli darajasini ta'minlaydi.

Multimedia va grafikadan foydalangan holdagi ta'lim faqatgina matndan foydalangan holdagi ta'limdan yahshi va samaralidir. Multimedia materiallari talab darajasida to'g'ri ishlab chiqilgan bo'lsa, ta'lim oluvchilarda aniq va samarali mental model(tasavvur) shakllanishiga yordam beradi. O'tkazilgan kompleks tadqiqot natijalariga ko'ra to'g'ri ishlab chiqilgan multimedia materiallarining afzalliklari quyidagilardan iborat:



1. Muqobil istiqbollar.
2. Faol ishtirok.
3. Tezkor ta'lim olish.
4. Bilimlarni xotirada saqlash va qo'llay olish.
5. Tizimli ravishda tushuna boorish.
6. Mustaqillik va e'tiborlilik.
7. Axborotlar ketma-ketligi va tezligini boshqarish.

Multimedia materiallarining potensial afzalliklari to'g'risida Mayer ham aytib o'tgan bo'lib, tinglovchiga video va audio axborotlarni qabul qilish imkoniyatini yaratgan holda, alohida olingan ushbu imkoniyatlarning har biridan ham ko'ra multimedaning ma'lum ustunligi mavjuddir.

Multimedia dasturlari orqali o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ma'lumotning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi.

Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda multimedia texnologiyalari inson faoliyatining biznes, ta'lim, tibbiyot va boshqa shu singari turli sohalarida qo'llanishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu faoliyat yo'nalishlarida multimedia mahsulotlarini yaratish uchun keng ko'lamdagi dasturiy mahsulotlar mavjud.

Microsoft PowerPoint – taqdimot tayyorlash uchun oldindan ishlab chiqilgan shablonlardan iborat. Ushbu dasturiy mahsulot audio va videofayllar, animatsiyalarni hosil qilish, har xil diagrammalar yaratish, taqdimotni himoyalash, fotoalbomni avtomatik generatsiyalash funksiyalariga ega.

Opus Presenter Pro – interfaol taqdimot uchun instrument bo'lib, o'rgatuvchi materiallar katalogini namoyon etadi. PowerPoint bilan raqobatlasha oladigan, interfaolliigi jihatidan ustunlikka ega bo'lgan mahsulot.

Multimedia Builder – foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan, katta bo'lmagan mustaqil exe-ilovalarni yaratadi. Foydalanuvchi uning yordamida murakkab tillarni o'rganish uchun vaqt sarflamasdan multimedia dasturlarini tuza oladi. Buning uchun MMB skriptlari tili yordam beradi.

AutoPlay Media Studio – taqdimot, elektron qo'llanma, multimedia ilovalari ko'rinishidagi har xil multimedia elektron nashrlarini yaratish uchun mukammal vositadir.



Macromedia Action – taqdimotni hosil qilish elementlarini yagona izchillikda yoki ekran knopkasi orqali chiqarish mumkin bo'lgan alohida tasvirlardan tashkil topgan interfaol dasturiy mahsulot.

Astound – faqat taqdimot yaratish vositasi emas, multimedia yaratish uchun mo'ljallangan instrumentlar hamdir. Astound Draw moduli chizma obyektlar bilan ishlashga, xususiyatlar hosil qilish, egri chiziqlar ustida ishlashga mo'ljallangan o'ziga xos to'plamga ega. Astound Video moduli ikkita videokanal va har xil effektlardan foydalanishga mo'ljallangan oltita xususiyat bilan ishlash xarakteriga ega.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'ptarmoqli o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik tajriba usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar. Multimedia va gipermedia texnologiyalari kuchli taqsimlangan ta'lim resurslarini birlashtiradi, ular bolani idroki shakllanishi va namoyon bo'lishi uchun muhitni ta'minlaydi. Multimedia va telekommunikatsiya texnologiyalari tizimda prinsipial jihatdan yangi uslubiy yondashuvlarni ochadi. Multimedia - zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta'minot nazorati ostida vizual va audio effektlarning o'zaro ta'siri, ular matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi.

Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning ushbu qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

1) ekranda ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animasiya samarasi berilgan bo'lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turishida;

2) tovushda;

3) musiqada;

4) animatsiyada;

5) multifikasiyada;

O'yin davomidagi ushbu "kompyuterli" psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumbo'ldiki, maktabgachata'lim yoshidagi bolalarni tarbiyasini shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanish uni MTTlarda samarali qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.



Multimedia vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimedia texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishda qo'shimcha vositalar - kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimedia vositalaridagi ta'lim-tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo'lib, ular animatsiya bilan berilgan bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan, tarbiyachi A harfini an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida, bolaga uning qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi (statik vosita). Multimedia vositasida ko'rsatilganda A harfi kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi (dinamik vosita). Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanayapti. MTTlarda ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi to'liq ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi-pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir MTT tarbiyachilarining o'zlari tayyorlashi mumkin bo'lgan dasturli va rolli multimedia vositalarini (DVD-disk) qo'llash mumkin. DVD video diski multimedaning texnik vositasi sifatida bir necha afzalliklarga ega. Diskdan foydalanib, o'rganiladigan materialni bosqichlar bo'yicha to'la, ba'zi hollarda alohida elementlarini ko'rish mumkin, zarur bo'lganda material qayta namoyish etiladi. DVD video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo'ladi. Multimedia texnologiyasining didaktik vositalari ta'limning didaktik talablariga to'la mos keladi.

Xulosa. Ushbu maqolani tayyorlanishi va olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagilarga erishildi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga multimediyadan foydalanilib mashg'ulotlar tashkil qilindi.
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga axborot texnologiyalar haqida tasavvurlar shakllantirildi.

Adabiyotlar:

1. Kurbonova, Y. D. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining rivojlanishidagi o'ziga xosliklar. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 394–398
2. T.A.G'ayratovich. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediyadan foydalanishning ahamiyati. *innovation in the modern education system* 3 (29), 132-136
3. Sohiba S. Katta va tayyorlov yoshdagi bolalar bilish jarayonlarini shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati // *Innovation in the modern education system*. – 2023



QISQA MUDDATLI GURUHLARDA TALIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING ROLI

Kurbonova Yu.Dj.

*Termiz davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil
etish kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: maktabga tayyorlash, oila bilan hamkorlik, mashg'ulot, qisqa muddatli guruhlar, talim-tarbiya jarayoni, nizom, pedagogning roli, raqobatbardoshlik.

Ключевые слова: подготовка к школе, сотрудничество с семьей, обучение, краткосрочные группы, учебный процесс, регламент, роль педагога, конкурентоспособность.

Key words: preparation for school, cooperation with family, learning, short-term groups, educational process, regulations, role of teacher, competitiveness.

РЕЗЮМЕ:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish, ularni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, ta'lim jarayonida oilalar bilan hamkorlikni kuchaytishirish kabi bazifalar bugungi kunning dolzarb bazifalaridan biridir. Maktabgacha ta'lim tashkollariga qatnamayotgan bolalarni bog'chalarga jalb etish, mashg'ulotlarni zamonaviy talablar asosida olib borish tarbiyachilar oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Maqolada qisqa muddatli guruhlarda talim-tarbiya jarayonini tashkil etish, tarbiyachi ma'suliyati, oila bilan hamkorlik qilish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ:

Охват дошкольников дошкольным образованием, качественная подготовка к школьному обучению, укрепление сотрудничества с семьей в образовательном процессе – одна из важнейших задач современности. Привлекая в детские сады детей, не посещающих дошкольные образовательные учреждения, проводя мероприятия, основанные на современных требованиях, перед воспитателями стоят важные задачи. В статье описана организация образовательного процесса в кратковременных группах, ответственность воспитателя, методы взаимодействия с ними и информация о семье предоставлена.

SUMMARY:

The coverage of preschoolers by preschool education, high-quality preparation for school education, strengthening cooperation with the family in the educational process is one of the most important tasks of our time. Attracting children who do not attend preschool educational institutions to kindergartens, conducting events based on modern requirements, educators face important tasks. The article describes the organization of the educational process in short-term groups, the responsibility of the educator, methods of interaction with them and information about the family is provided.



Maktabgagacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida maktabgacha ta'lim tizimida ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi." deyilgan. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish maqsadida yaratilgan shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mus-tahkam poydevor bo'lib qolmasdan, balki maktabgacha ta'limning raqobatbardosh-ligini oshirishga ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shuningdek, olib boril-gan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabga-cha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabi-yotlar bilan to'ldirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalalarini hal etish borasida ham ijobiy ishlar tashkil etilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlar tashkil qilingan. Ushbu guruhlarda talim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish maqsadida hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan. Ushbu hamkorlik turlariga oilalar bilan hamkorlik, maktab va mahalla bilan hamkorlik ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvar kuni mamlakatimiz Parlamentiga murojaatnomasininig "2020 yilgi ustuvor yo'nalishlar to'g'risida" gi ma'ruzasida shunday ta'kidladi: Ular uchta – ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyot. Bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 60%ga yetkazish rejalashtirilmoqda. Yangi maktablar, shu jumladan xususiy maktablarni qurish, mavjudlarini ta'mirlash davom ettiriladi. Yuqorida keltirilgan nazariy materiallardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotining qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya



jarayonini tashkil etishda ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishining mazmuni va usullarini nazariy jihatdan chuqur o'rgangan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarni o'quv tarbiyaviy jarayonida faol qatnashishni tashkil etishning innovatsion metodikasini ishlab chiqish zarur, deb hisobladik va tadqiqot ishi davomida ayni muammo yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi va tadqiqot ishlari natijalari samarali yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-391-sonli qarorida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, kabi masalalar ko'zda tutilgan.

Tashil etiladigan qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan bolalarning to'laqonli kamol topishini ta'minlash, ularni tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish uchun mo'ljallangan.

Qisqa muddatli guruhlar maqsadlari bolalarning maktabgacha ta'limga to'liq jalb etilishini va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalar maktabgacha ta'lim olishda teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlashdan iborat.

Qisqa muddatli guruhlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini saqlash va mustahkamlash;

- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

- bolaning yosh va o'ziga xos imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab har tomonlama kamol topishini ta'minlash;

- bolani shakllantirishda, tarbiyalashda va o'qitishda oilaga har tomonlama yordam berish;

- bolalarning bilim orttirishini, ijtimoiy-shaxsiy, badiiy-estetik va jismoniy kamol topishini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti qisqa muddatli guruh tarbiyachisi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlash maqsadida eng avvalo bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishi, buning uchun kun tartibini ishlab chiqishi zarur.

Qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lish vaqtidan kelib chiqib ota-onalar bilan muloqot jarayonida ota-onalar uchun vaqt topishi, imkoniyat tug'dirishi, ularni o'z fikr-mulohazalari, quvonch-shodligi, maqsadlari va



tashvish-xavotirlarini bayon etishga da'vat qilishga imkon berishlari lozim. Shuningdek, bolalarning uyda bo'lgan vaqtida ota-onalarga bolalarni rivojlantirish maqsadida tegishli tavsiyalar va vazifalar berishi mumkin bo'ladi.

Qisqa muddatli guruhlarda bolalarni o'qitish va rivojlantirish dasturi turli "mavzular" ni o'z ichiga oladi. Jumladan tasviriyl faoliyat, nutq va savodga o'rgatish va haykaltaroshlik qilish birinchi qadamlarni qo'ying atrof dagi dunyoni bilish, kattaroq bolalar harflar bilan tanishadilar, hisoblashni o'rganadilar, qo'shiq aytish va raqs shuningdek, bolalarni umumiy rivojlanish dasturiga kiritilgan. Qisqa muddatli guruhlarda dasturlarni ishlab chiqish amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, bolaning nozik motorikasi va nutqini rivojlantiradi. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar faol maktabga tayyorgarlik ko'rish - o'qish va yozishni o'rganish, matematika asoslarini o'rganishadi. Bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat qishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifat larni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir. O'yinda bola qishilarning axloq-odob normalarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z istaklarini jamoa hohishidan ustun qo'maslikka, o'zaro kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rgandilar. Ammo o'yinga to'g'ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibat larga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o'yindan keng foydalaniladi. Juda ko'pchilik o'yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o'z navbatida organizmda modda almashinishini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavgdasini to'g'ri o'sishini, harakatlari chiroyli bo'lishini ham ta'minlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobiy ruhiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy, jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi.

O'yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqealikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O'yinda bolalarning avval olgan tassurotlari orqali obraz yaratishlari – xayol juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko'p o'yinlarda avval o'rgangan ashula, she'r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.



O'yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg'ulot o'rtasida bolalar o'yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o'ynashlari uchun 1 soat – 1 soat 20 minut vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o'yinga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'proq syujetli-rolli o'yinlarni, qurilish materiallari, qo'g'irchoqlar bilan, stol usti o'yinchoqlari o'ynashlari mumkin. SHu bilan birga ermak o'yinlardan ham foydalaniladi. Ammo o'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq uyg'onib qoladi. Ammo bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi, balki mazmuni o'zgaradi. Endi bolalarni ko'proq fikriy faollikni talab etuvchi o'yinlar, sport tarzidagi o'yinlar qiziqтира boshlaydi. O'yin bola shaxsini har tomonlama shakllantirish vositasi va ular hayotini tashqil etish shakli, bolalar jamoasini shakllantirish vositasi bo'lib hizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Maktabgacha talim tizimini 2030 yilgacha konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312 sonli qarori 08.05.2019 y
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni T.-2020 y
3. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi. – T., 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli qarori. –T., 2019
5. Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma. –T.: Ma'naviyat, 2013. 159 bet.



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA MILLIY G‘URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI

Kadirova Sh.X.

TerDPI Maktabgacha ta’limda tarbiyani tashkil etish kafedrası dotsenti

Tayanch so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, milliy g‘urur hissini shakllantirishda oilaning o‘rni, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy g‘ururni shakllantirish, oila tarbiyasida doimiy ta’sirchan kuch oiladagi munosabat.

Ключевые слова: фольклор, роль семьи в формировании чувства национальной гордости, формирование национальной гордости у детей дошкольных образовательных организаций, постоянной влиятельной силой в семейном воспитании являются взаимоотношения в семье.

Key words: folklore, the role of the family in the formation of a sense of national pride, the formation of national pride in children of preschool educational organizations, a constant influential force in family education are relationships in the family.

РЕЗЮМЕ:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada muntazam olib boriladigan, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va buyuk ajdodlar ma’naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida xalqimizning boy ma’naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydi.

РЕЗЮМЕ:

Богатое духовное и культурное наследие нашего народа, будущее страны и нации определяют будущее страны в процессе духовно-просветительской работы, которая регулярно организуется в дошкольных образовательных учреждениях.

SUMMARY:

The rich spiritual and cultural heritage of our people, the future of the country and nation determines the future of the country in the process of spiritual and educational work, which is regularly organized in preschool educational institutions.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy g‘ururni shakllantirish maqsadida o‘tilayotgan mashg‘ulotlar mavzulari bolaning har tomonlama rivojlanishiga, yuksak odox-axloqli, milliy g‘ururli, komil inson bo‘lib tarbiyalashiga yordam berishi lozim.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda milliy g‘ururni shakllantirishda nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, balki oilaning ham mavjud holatini



o'rganish muhim ahamiyatni kasb etadi. Chunki, bolalarning bo'sh vaqti, asosan, uyda, oila davrasida o'tadi. Buni hisobga olmaslik, yosh avlod tarbiyasida ota-onaning burchi va vazifalari haqida yanada chuqurroq o'ylamasak xato bo'ladi.

Milliy g'ururning bir jihati Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Vatanini sevmagan, millatining tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas.

Oila tarbiyasida doimiy ta'sirchan kuch oiladagi munosabat, oila muhiti, oila a'zolarining o'zaro aloqasi, ota-ona, aka-uka va boshqalarning hulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti va boshqa holatlar bola kamolotiga ta'sir qiladigan asosiy omillardir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi hulq-atvorli, uning a'zolarining o'zaro munosabatlari samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik samarali bo'ladi.

Imom ibn Kudoma o'zining: "Minxojul-kosidin" nomli kitobida bir necha odoblarni zikr qiladi: "Bola voyaga etib, unda fikrlash alomatlari namoyon bo'lsa, uni yaxshi kuzatish va ahvolini o'rganish lozim bo'ladi. Chunki bolaning qalbi sodda va toza bo'lib, u har qanday naqshni qabul qilishga tayyor. Agar yaxshilikka odatlantirilsa, yaxshilik bilan ulg'ayadi. Agar yomonlikka odatlansa, yomonlik bilan ulg'ayadi va javobgarlik uning yaqinlari bo'yniga tushadi. Shuning uchun bolani ehtiyot qilish, tarbiyalash, yomonliklardan pok tutib yaxshi axloqlarni o'rgatish lozim. Agar bola yuzida hayo nurlari ko'rinib, ba'zi ishlardan uyalsa va hayo qilsa, uni yomon deb bilsa, bu yaratganning hidoyati va axloqining yaxshiligi va qalbining tozaligiga dalolat qiladigan yaxshilikdir. Agar bolaning holati shunday bo'lsa, u balog'atga etganda komil, aqlli bo'lishi bilan kelajagi porloq. Bolaga chiroyli odob berishga rioya qilish diqqat-e'tiborga sazovor ish"¹.

Milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish har bir ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchidir. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ota-onalari bilan ham milliy g'urur, mafkuraviy ta'lim ishlarini olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analarimizga xos shakllarini qo'llash lozim. Chunki, davlat va jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday voyaga etishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'z navbatida milliy g'urur millatning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi.

Yosh avlodni bolaligidan boshlab milliy g'ururli, kishilarga mehr muhabbatli, izzat-hurmatda bo'lish, vatanning qadriga etish va hurmat qilish kabi ijobiy hislatlarni tarbiyalab borish barchamizning vazifamizdir.



Oilaning jamiyat hayotidagi ahamiyatini o'zbek xalqi qadimgi davrlardan oq ta'kidlab kelgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da oila tarbiyasi masalalariga alohida urg'u berilgan. Ushbu asarda oilani himoyalash, bir necha bolani dunyoga keltirib, tarbiyalagan ayollarni mukofotlash, ularga nafaqa tayinlash to'g'risidagi g'oyalar o'z aksini topgan.

Islomiy qadriyatlarda ham oilada farzandni jamiyatga munosib inson qilib tarbiyalash, axloqli, mehnatsevar, go'zal fazilat egasi etib shakllantirishga alohida ahamiyat beriladi. Xususan, "Ota o'z farzandiga axloq-odobdan ko'ra ko'proq meros qoldira olmaydi" degan hadisda oila tarbiyasidagi eng muhim jihat – farzandga axloq-odob in'om etish ekanligi uqtiriladi.

Tarixiy asarlarda mashhur shaxslarning onalari, ularning dono va zukkoligi, farzand tarbiyasida xalq og'zaki ijodidan foydalanganliklari to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Masalan, Ibn Arabshohning "Amir Temur" asarida Amir Temurning zavjalari Saroymulxonim (Bibixonim)ning davlat ishlarida va bola tarbiyasida tutgan o'rni to'g'risida misollar keltirilgan. Abu Ali ibn Sinoning "Tadbiri manzil" asari oilaviy tarbiya muammolariga bag'ishlangan. Unda bola tarbiyasida xalq og'zaki ijodi va uning ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlar bildirilgan.

"Tadbiri manzil" risolasida Ibn Sino inson tabiati azaldan axloqiy yoki axloqsiz bo'lmaydi, degan g'oyaning muhimligini ta'kidlaydi. Odamlar aslida tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya ta'sirida shakllana boradi. Bolalarning tarbiyasini barvaqt boshlagan ma'qul. Tarbiya jarayonida ularga yaxshi ijobiy odatlarni singdirib borish, ishtiyoq va qiziqishlarini sinchkovlik bilan payqab olishga harakat qilish zarur.

Bolaning barkamol inson bo'lib etishishida xalq og'zaki ijodining ta'siri, uning natijasida vujudga keladigan ruhiy, fiziologik holatlar to'g'risida mulohaza yuritilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalangan bola chidamli, mard, jasur va mehnatsevar bo'lib o'sishi ta'kidlangan.

Ibn Sino oila tarbiyasida otaning o'rniga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, oila boshlig'i oila a'zolarini tarbiyalashi, ularni to'g'ri yo'lga boshlashi lozim.

Umuman, Sharq mutafakkirlari barkamol inson tarbiyasida oila, oiladagi muhit, irsiyat kabi omillarga alohida e'tibor qaratish lozimligini uqtiradilar va shu bilan birga xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyatini yuqori baholaydilar.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ota-ona va farzandlar o'rtasida mehr-oqibatning saqlanishiga e'tibor beriladi. Bunda ota o'z o'g'liga nasihat qilarkan,



xalq donishmandligidan unumli foydalanadi. Bola tarbiyasiga oqilona yondashish, xalq donishmandligidan unumli foydalanish, hatto farzanddan norozi bo'lganda ham uni qarg'ash va urushishdan saqlanish, bu sohada ustozlardan ko'mak so'rash lozimligi uqtiriladi.

Shu jihatdan olganda, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida oilada bolalarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda, ayniqsa, buvi va bobolarning o'rni muhimdir.

Xalq og'zaki ijodi namunalari tarkibida unga yondosh manbalar: milliy urf-odatlar, an'analar, xalq o'yinlari, diniy ta'limotlar, xalq amaliy san'ati, musiqa, qo'shiq, raqs kabilar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri ertaklar bolaning ilk yoshidanoq uni quvonchli tuyg'ularga oshno qiladi. Bola ertak qahramonlari bilan birga olis-olislariga "sayohat qiladi". U erdagi hayot bilan tanishadi. Ertak uning aqlini charxlaydi, tafakkurini boyitadi, faraz qilish qobiliyatini o'stiradi. Oilada aytilgan ertakning ravon, obrazli til uslubi bola nutqini rivojlantiradi. Yorqin, hayotiy obrazlar uning hissiyotlariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. U aqlli, oqko'ngil, ijobiy qahramonlar bilan tanishadi, ular falokatga yo'liqqanida qayg'uradi, g'alaba qilishganida, yovuz va xasis kishilarni jazolaganlarda xursand bo'lishadi. Oilada kattalar tomonidan aytilgan ertakning ishonchli axloqiy g'oyalari bolani fikrlashga, o'z xatti-harakatini sevimli ertak qahramonlarining xatti-harakatlari bilan qiyoslashga undaydi, qahramonlar timsolida bolalar qo'rqmas va rostgo'y bo'lishga o'rganadilar. O'z oldilariga aniq maqsadlar qo'yish, unga erishish uchun harakat qilish, turli to'siqlarni engib o'tish, do'stlashish, o'rtoqlariga sadoqatli bo'lish kabi sifatlarni bosqichma-bosqich egallab borishadi.

Oilada kattalar tomonidan aytilgan ertaklarni bola qiziqish bilan tinglaydi. Ertak bolaning yoshiga mos bo'lishi zarur. Ertakni sekin-asta, shoshmasdan, ifodali o'qish, obrazlar qiyofasini bola ko'z oldida gavdalandirish zarur.

Farzand bilan birgalikda ota-onalar ham ertakka mos chizilgan syujetli rasmlarni tamosha qilishlari, ularni sharhlab berishlari lozim. Bolaga unchalik murakkab bo'lmagan savollar berish, uni ertak yoki rasmni qayta so'zlab berishga undash amaliy pedagogik jihatdan juda foydalidir. Bu bolaning xotirasi va diqqatini rivojlantirib, o'qilgan narsaga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Bolaning hayotiy tajribasi bu davrda xali juda oz bo'ladi. Ertak va real olam uning nazarida mutlaqo farq qiladi. Bola "chindan ham jodugar kampir, dev, uchar gilam bo'lganmi?" kabi savollarni beradi. Bunday paytda ota-ona hushyorlik bilan ertaklar bilan moddiy borliq orasida aloqadorlikni hamda farqlarni tushuntirib borishi lozim. Aks holda uning faraz qilish qobiliyatiga putur etadi. Ertaklarga ishonchsizlik bilan qaray boshlaydi. Natijada ularga bo'lgan qiziqishi so'nib



boradi. Masalan, uchar gilamlar o'rniga fan-texnika, davr taraqqiyoti natijasida samolyotlar, oynai jahon o'rniga televizor ixtiro qilinganligini ehtiyotkorlik bilan tushuntirish lozim. Bola ulg'aygan sari ertak va real olam o'rtasidagi aloqadorlikni yaxshi anglab boradi hamda ulardagi axloqiy-estetik qarashlarni chuqurroq o'zlashtirib oladi.

Ertak, rivoyat, hikoyatlar kabilarning bola dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatishining asosiy sabablaridan biri unda real voqelikning bola yoshi va dunyoqarashiga mos tarzda afsonaviy, tushunarli talqin qilinishidir. Bola ruhiy olamiga yaqin kuchli va adolatli insonlar, yoqimtoy jonivorlar xalq og'zaki ijodi qahramonlari sifatida namoyon bo'ladi. XIII–XVI asrlarda temuriylar saltanatida zodagonlar, saroy ahillarining farzandlarini sog'lom, oqila, baquvvat, odobli, so'zga chechan ayol enagalar tarbiyalaganlar. Ayniqsa, enaganing sog'lomligi hamda ozoda va zukkoligiga alohida e'tibor berilgan. Enagalarning bola tarbiyasidagi asosiy vazifasi uni o'z vaqtida to'g'ri ovqatlantirish, ozoda kiyintirish, toza havoda sayr qildirish, ularga axloq-odobdan saboq beruvchi, rivoyat va dostonlarni so'zlab berish kabilardan iborat bo'lgan. Qissalar, ertaklar, rivoyatlar, jangnomalar vositasida enagalar bolalarni go'zal axloqli, zukko, hozirjavob, uddaburon qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishgan.

Ushbu maqsadda ular xalq maqollari, matal va topishmoqlardan ham keng foydalanishgan. Enagalarning xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanib qo'llagan quyidagi tarbiya usullari bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan:

O'rnak-namuna ko'rsatish, o'git-nasihat berish; Vatanga muhabbat, jasurlik, ilmga intilish, adolatparvarlik, to'g'riso'zlik, mardlik, do'stlik, sadoqatilik, ahillik, sog'lom va baquvvat bo'lishga intilish, ozodalikka rioya qilish kabi axloqiy sifatlarni shakllantirish va xokazo. Mazkur maqsadda ular ertak, rivoyat, hikoyat, maqol, qo'shiq kabilardan foydalanishgan.

Bundan tashqari oilada qiyoslash, chiniqtirish, ayrim xususiyatlarni bo'rttirib tasvirlash kabi mantiqiy tafakkur xususiyatlarini rivojlantiruvchi shakllardan foydalanilgan va bolalarda hozirjavoblik, so'zga chechanlik, ravon nutqni tarkib toptirish maqsadida topishmoq, tez aytishdan foydalanganlar.

Bolalarda epchillik, do'stlik, haqgo'ylik, o'zligini namoyon eta bilish kabi fazilatlarni shakllantirishda turli xil milliy o'yinlar ham qo'llanilgan.

Tarix – asrlar guvohi bo'lganidek, xalq milliy ruhining aksi hisoblanmish maqollar ota-bobolarimiz so'zi sifatida avloddan-avlodga etib kelgan xalq og'zaki ijodini boyitib turuvchi durdonalardir.

“Otarlar so'zi-aqlning ko'zi” hisoblangan maqollarning kundalik hayotda, odamlarning bir-biri bilan bo'lgan muomalasida ishlatilishi, kishining zehni



o'tkir, farosatliligidan dalolat beradi. Maqollarning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri salmoqli bo'lib, undagi dono fikrlarni bolalarning ongiga singdirish, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini farqlay olishga zamin yaratadi.

Xalq maqollari yosh avlodning ma'naviyatini o'stirishda, nutq madaniyatining yuksalishida va barkamollashuvida muhim manbadir. Kelajagimiz davomchilari – o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida ona Vatanga sadoqat, ezgulik tuyg'ularini uyg'otish, ota-bobolarimiz merosi – milliy qadriyatlar, milliy an'analar, g'urur-iftixorni tarbiyalashda xalq maqollari alohida o'ringa ega.

Maqollar xalqning tarixiy tajribasida muhim tarbiya vositasi sifatida e'tirof etilgan. Ulardan kundalik hayotda tez-tez foydalanilib turiladi. Ayniqsa, oilaning katta a'zolari bolalarni yaxshilik, ezgulik, qanoat, ozodalik, mehnatsevarlik kabilarga undaganda maqollardan o'rinli foydalanadilar. Maqol qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap bo'lib, u bolani mustaqil fikrlashga undaydi. Lo'nda va aniq fikr bayon qilishga o'rgatadi. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, shuningdek, salbiy illatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan.

Maqol ba'zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta. Maqol bilan matalning bir-biridan farqi shundan iboratki, matalda narsa tasviri, uning tavsifi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr-xulosasi ifodalanadi.

Oilada aytilgan rivoyatlar ham bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Rivoyat – voqea va hodisalar, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya shaklida ifodalanadi. Rivoyatning hajmi qisqa, 2 yoki 3 ta epizoddan tashkil topadi, an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Odatda, oddiy hikoya bayonidan boshlanib, og'izdan-og'izga o'tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi. G'oyaviy mazmuniga ko'ra, tarixiy rivoyat hamda toponim rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning



ideal me'yorlari tashviq etilib, muayyan dalillar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur va boshqalar hayoti bilan bog'liq voqea-hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim rivoyatlarda shahar va qishloq, qo'rg'on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi.

Shuningdek, hadislarida oila munosabatlarini to'g'ri tartibga solish, farzandlarni (halol) komil inson etib tarbiyalashga keng o'rin berilgan. Hadislar farzandning o'z ota-onasiga hurmatda bo'lishi, eru-xotinni murosali, ahil bo'lib bir-birini izzat-hurmat qilishlari, insonlarni ahloqan etuk, ruhan pok boshqalarga nisbatan rahmli, mehr-shavqatli bo'lishga da'vat etadi.

Islom olamining mashhur muhaddisi Imom Buxoriyning "Al Adab al-mufrad" asarining 1-24 boblarida ota-ona hurmatini joyiga qo'yish, ularni e'zozlab, farzandlarning ular oldidagi burchlarini mukammal ado etishlari zarurligi kabi masalalar bayon qilingan.

Hadislar yosh avlod ongida halollik ezgulik, mehribonlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, do'stlik, kamtarlik, chidamlilik, sabr-qanoatlilik kabi fazilatlarini tarkib toptirishda muhim tarbiyaviy manba hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari bolalarda to'g'rilik, haqgo'ylik, kamtarlik, o'z-o'ziga tanqidiy qarash, jonkuyarlik va samimiylik, andishalilik kabi axloqiy sifatlarni shakllantirish, shu bilan birga yolg'onchilik, kibr-havo, o'z-o'ziga bino qo'yish, xudbinlik, andishasizlik kabi illatlarga qarshi kurash tuyg'usini paydo qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolaning o'z maqsadi yo'lida fidoyilik, qat'iyatlilik, mardlik, o'zini tuta bilish kabi irodaviy xususiyatlari ham xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida samarali shakllantiriladi. Bunday sifatlarga ega bo'lgan bolalar har tomonlama kamol topgan bo'ladi.

Hozirgi zamon pedagogikasi bola shaxsiga hurmat va uning shaxs sifatidagi betakrorligini tan olgan holda yondashishni talab qiladi. Mazkur yondashuvning muhim qirralaridan biri bolaning o'ziga xos jihatlariga putur etkazmagan holda unda o'z-o'zini hurmat qilish, doimiy ravishda barkamollikka erishishga intilish kabi sifatlarni qaror toptirishni nazarda tutishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, bola xarakteri asosan u 5 yoshga to'lgunga qadar shakllanadi. Keyingi yosh bosqichlarida uning shaxsiyati asta-sekin rivojlanib boradi. Demak, bolaning qay tarzda shakllanishi uning kelajakdagi hayoti mazmunini belgilaydi.

O'zbek oilalarida farzand tarbiyasida qo'llaniladigan tajribada sinalgan, milliy asosga muvofiq tarzdagi metod-usullar mavjud-ki, ularga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: tushuntirish, odatlantirish, o'rgatish, mashq qildirish, bolalarning kundalik rejimi, ibrat-namuna, iltimos qilish, yolborish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, maslahat berish, o'git-nasihat, undash, maqtash, rahmat aytish, duo



qilish, olqishlash, oq yo‘l tilash, yupatish, ko‘nglini ko‘tarish, ta‘qiqlash (man etish), ta‘na, gina, o‘pka qilish, qoralash, tanbeh berish, yuziga solish, uzr so‘rash, majbur etish, zaharxandalik, ayblash, nafratlanish, gaplashmay qo‘yish (arazlash), aybini iqror qildirish (qizartirish), qo‘rqitish, mulzam qildirish, ogohlantirish, ont-qasam ichirish, do‘q-po‘pisa qilish, siylash va boshqalar. Bularning har biridan o‘z o‘rnida oqilona foydalanish kelajakda barkamol insonni tarbiyalashda yaxshi samara berishi, shubhasizdir.

Bolalarda xalq og‘zaki ijodi vositasida milliy g‘urur hissini shakllantirishda ota-onalar asosan, ikki metoddan foydalanishlari lozim.

Birinchisi ishontirish – bolaga kichikligidanoq bu ishni qilishing kerak, chunki uni amalga oshirish u yoki bu sabablarga ko‘ra zarur deya uqtiriladi. Bola o‘zi bajargan ishning foydali va zarurligiga ertak, doston qahramonlari timsolida ishontiriladi. Masalan, bolaga nima sababdan ovqatlanishdan oldin qo‘lini yuvishi kerakligi, o‘z o‘rnini yig‘ishtirish, o‘yinchoqlarini joyiga tartib bilan qo‘yishi zarurligi, do‘stlashish va do‘stga sadoqatli bo‘lishning foydaliligi kabi g‘oyalar biror ertak asosida yaratilgan diafilmlar, kinofilmlardagi obrazlar orqali ko‘rsatib beriladi.

Ikkinchisi – bolalarni ertak qahramonlaridan ta’sirlanib faoliyat ko‘rsatish orqali ijobiy fazilatlarini egallashga undash. Bolalarni mehnat qilish, yaxshilik, sabr-bardoshga undashda maqollardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bola muayyan ijobiy faoliyatni tartibli va izchil takrorlasa, u odatga aylanadi. Odatlanish kundalik tartib-intizomga rioya qilish, jumladan, salomlashish odobi, do‘stga samimiy munosabat, ota-ona hurmatini saqlay bilish kabi faoliyatning ko‘plab turlarini qamrab oladi.

Boladagi yaxshi xulq, odob-axloq nishonalari asosan xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida qaror toptiriladi. Chunki asardagi turli qahramonlar asosan bolaning ko‘z oldida gavdalanadi. Ularning xatti-harakati bolalar uchun o‘rnak, ibrat vazifasini o‘taydi. Masalan, qanotlari singan qushga dehqonning g‘amxo‘rlik qilishi, baliq bergan risq-nasibaga qanoat qilmagan kampirning qashshoqlashib qolishi bolalarga juda tez ta’sir qiladi. Ularda ochko‘zlikka nafrat, laylakka mehribonlik qilgan dehqonga nisbatan esa mehr paydo bo‘ladi, qanoatlilik tuyg‘usi qaror topadi.

Ota-ona bolada axloqiy sifatlarni shakllantirishga intilar ekan, xalq qahramonlari shaxsiy namunasi samarali foydalanishlari lozim. Bunda ularga ertak va doston qahramonlari yordam beradi. Ertak va doston qahramonlari timsolida bolalarda ish va so‘z birligi, lavz halolligi qaror toptiriladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida bolalarni tarbiyalashda ishontirish bilan birga rag‘batlantirish, isbotlash, ta’sir, ibrat namunasi kabilar muhim ahamiyatga ega.



Bolalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashda ularni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda rag‘batlantirishning muhim jihatlari bolalarni ijobiy qahramonlarga o‘xshatishda namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Mening Alpomishim”, “Go‘ro‘g‘li sultonday pahlavon bolam”, “Jaloliddiy Manguberdidek mard o‘g‘lim”, “Oybarchin qizim, “qaldirg‘ochim”. Bunday rag‘batlantirish natijasida bola ruhiyatida o‘zini xalq qahramonlaridek his etish tuyg‘usi hosil bo‘ladi va yangidan-yangi ishlarni bajarishga ishtiyoq uyg‘onadi. Xalq qahramonlari bolalarni yaxshilikka undovchi omil, stimul vazifasini bajaradi, o‘z kuchiga ishonch hosil qiladi. Ota-ona maqtovi, rag‘batlantirishi, ma‘qullashi unga to‘g‘ri ish qilayotganligi, o‘z vazifasini yaxshi uddalaganligini bildiradi. Lekin bunda me‘yorga rioya qila olish kerak. Oilada bola tarbiyasida tartiblilik, insoniylik, kuzatuvchanlik, tirishqoqlik, vatanparvarlik kabilarni shakllantirishda ertaklar, dostonlar, rivoyatlardan ham samarali foydalanish kerak.

Oilada bolalar kitobxonligini yo‘lga qo‘yishga ota-onalar alohida e‘tibor qaratishlari lozim. Oila kutubxonasining aksariyat qismini folklor namunalari egallashi kerak. Chunki bunday asarlar bola ruhiyatiga yaqin bo‘ladi. Ularning tili sodda, ravon va xalqchildir. Bolada kichik yoshidan boshlab kitobga havas uyg‘otish ota-ona faoliyatida asosiy o‘rin tutishi zarur.

Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarga xalq qahramonlari timsoli aks etgan turli rangli, rasmi nashr qilingan ertak, rivoyat, hikoyatlarni taqdim etish lozim. Bolalarga mazkur kitoblarni o‘qib berish, ularning shaxsiy kutubxonasini tashkil qilish katta ahamiyatga egadir. Bu kutubxonadan xalq og‘zaki ijodiga oid asarlarning o‘rin olishiga ham ota-ona alohida e‘tibor bilan yondashishi lozim.

Nutq yordamida inson o‘z fikri, hissiyotini ifodalaydi, muloqotga kirishadi. Bu esa bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bolada bir yoshga to‘lganida so‘zlarni o‘zlashtirish layoqati vujudga keladi. Ayni shu davrda bola bilan ko‘proq muloqotda bo‘lish lozim. Bolalar ota-onalariga “Nima uchun, bu nima, bu kim?” kabi ko‘plab savollar bilan murojaat qiladilar. Ularning savollariga sabr-toqat bilan javob berish, bolaning atrof-olam, ertak qahramonlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, keyinchalik maktabda turli xil bilimlarni o‘zlashtirishiga omil bo‘ladi. Bolalarni ularning yoshiga mos ertak, she‘r, ashulalar bilan tanishtirib borish lozim. Bola xalq og‘zaki ijodiga oid badiiy asarlardagi jarangdor va obrazli so‘zlarni yaxshi eslab qoladi, hattoki tashqaridan bir-biriga bog‘lanmagandek tuyilgan xalqona iboralar, she‘rlarni o‘zlashtirish ham bolani ona tilidagi tovush va so‘z boyligini o‘zlashtirishi, uning go‘zalligini anglashida katta ahamiyat kasb etadi.

Maktab yoshidagi bolalar badiiy nutq bilan tanishish jarayonida yangi so‘zlar hisobiga o‘z nutqlarini boyitib boradilar. Maktablar, klublar, madaniyat saroylari



turli shakldagi kutubxonalar aholi o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatishda katta ahamiyatga ega. Bunda "Ota-onalar maktabi"ning ham alohida o'rni bor. Turli kasb-hunar egalari bo'lgan ota-onalar pedagogika haqida unchalik to'liq tasavvurga ega bo'lmaydilar. Ularni pedagogika nazariyasi va tarbiya mahoratini egallashlariga bo'lgan ishtiyoqlari birlashtiradi. "Ota-onalar maktabi"ni mahallalar, maktablar huzurida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur "Ota-onalar maktabi" dasturidan pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti kabi fanlar o'rin olishi zarur. Mashg'ulotlar ham qat'iy jadval asosida o'tkazilishi kerak. Bunday dorilfununlarda mashg'ulotlar 1-2 yil davom etishi, mashg'ulotlarni pedagog, psixolog, fiziolog, yurist, shifokor, adabiyotshunos, tilshunos mutaxassislar o'tkazishi lozim. Shuningdek, jamoat tashkilotlarining namoyondalari ham mashg'ulotlarga jalb etilishi kerak. Kursdagi mashg'ulotlar kundalik tarbiyaviy vazifalarni hal etishda ota-onalarga yaqindan ko'mak beradi. Bunda bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalash mahoratini ota-onalar faoliyatiga singdirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida oila tarbiyasi samaradorligini oshirishning turli yo'llari ham mavjud.

Oila pedagogikasining hayot tajribalaridan orqada qolayotganligi uning samaradorligini oshirish yo'llarini izlashni taqozo qilmoqda. Jamiyat hayoti va shaxs tafakkurida ro'y berayotgan murakkab pedagogik jarayonlar o'z vaqtida ilmiy echimlarini topishi lozim. Aks holda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari ezgulik, imon va diyonatni o'zida mujassamlashtirgan insonlar faoliyatini targ'ib qiladi. Ushbu asarlar tinchlik, birodarlik, do'stlik, hamkorlik, ezgulik kabi insoniy fazilatlarini ulug'laydi. Tinchlikka rahna soluvchi, birodarkushlikka asoslangan, xunrezlik va buzg'unchilikni keltirib chiqaruvchi har qanday qarashlarni qoralaydi. Pedagogika tarixida oila tarbiyasining juda ko'p namunalari uchraydi. Yoshlarni noto'g'ri g'oyalardan himoya qilishda xalq og'zaki ijodi namunalari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- xalq og'zaki ijodi namunalari ifodalangan ezgu qarashlarni bolalarga singdirishning yagona dasturini yaratish;
- yosh ota-onalarning xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida bolalarni tarbiyalash sohasidagi bilim va tajribalarini oshirish;
- ota-onalarni oila pedagogikasi, falsafa, adabiyotshunoslik, tarix, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, ma'naviyat, huquqshunoslikka oid bilimlar bilan qurollantirish;



- oilada folklor namunalari yordamida xalq pedagogikasining ijobiy qirralarini umumlashtirish;

- oilalarda xalq pedagogikasining aniq, mukammal, eng muhim – amaliy, ijtimoiy-pedagogik dasturini ishlab chiqib, oila tarbiyasiga tatbiq qilish kerak.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimiz aql-idrok egalari, sofdil kishilarni yovuz kuchlar qo'liga tutqazmaslikka harakat qilganlar, oilada bolalarni ma'naviyat, imon-e'tiqod, insof va diyonat bilan boshqarishga alohida e'tibor berganlar va bunda xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanganlar.

Yoshlarda milliy g'urur hissini tarbiyalashda oila muhiti, ota-ona ma'naviyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra oilaning muqaddasligi, ota-ona va farzandning burchi, tejamkorlik, sabr-qanoat, o'zaro muamola munosabatlari, uy tutish, mehnat tarbiyasi kabilar xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida bolalarga singdiriladi.

Shu sababli bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalashda oilaning vazifalari:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, bolalar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, bolalarning ota-onasiga, Vataniga mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;

- bolalarini axloqiy bilim asoslaridan atroflicha xabardor qilish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib etishishlarini ta'minlash;

- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axloqiy tomonlarini shakllantirish;

- sanitariya-gigiena, estetik me'yorlarni singdirish, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi kurashishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan xalq qahramonlari timsolida unumli foydalanishdan iboratdir.

Oilalar tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish shunisi bilan alohida ahamiyatga egaki, ota-ona yoki bobo-buvi o'z oldiga ongli tarzda muayyan maqsad qo'yadi hamda shu maqsadga erishish uchun intilib, uni amalga oshirishda ertaklar, maqollar, dostonlar, topishmoqlardan unumli foydalanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida oilada bolalarni tarbiyalashda tarbiya metodlaridan unumli foydalanish zarur. Bunda quyidagilarni inobatga olish kerak:

1. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashning maqsadi va vazifalari.

2. Ushbu tarbiyaning mazmuni.

3. Bolalarning yosh xususiyatlari.



4. Bolalarning fikrlash darajalari.
5. Tarbiyalanuvchilarning individual va shaxsiy xususiyatlari.
6. Tarbiyaning boshqaruv elementlari va hokazo.
7. Ota-onalarning xalq ogʻzaki ijodidan xabardorlik darajasi.
8. Tarbiyaviy jarayondan kutiladigan natijalar.

Shunday qilib, oilada bolalarni xalq ogʻzaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalash serqirra jarayon boʻlib, oʻziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni oʻzida namoyon qiladi. Xalq ogʻzaki ijodi namunalari orqali oilada bola felitsitologik (italyancha “felisite” - baxt), iqtisodiy, estetik, kommunikativ, relaksatsiya (emotsional, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini qayta tiklash) funksiyalaridan bahramand boʻladi. Bolalarda milliy gʻurur hissini shakllantirish uchun oilada xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan foydalanish izchil tizim va aniq metodlar yordamida amalga oshirilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Maxmudov Y.F. “Milliy gʻurur-maʼnaviy komillik mezon”. T, Dizayn-Press 2011.327b.
2. Zunnunov A. Oilada bola shaxsini shakllantirish. –T.: Fan, 2006. -112 b.
3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. T.: Sharq, 2004. – 336 b
4. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. Oʻquv koʻllanma. –T.: Respublika «Oila» ilmiy – amaliy markazi, 2006. -140 b.
5. Musurmonova O. Oila maʼnaviyati – milliy gʻurur: Oʻquv qoʻllanma/ S.Ochil umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1999
6. Tadjieva S.X. Ota-ona munosabati bola shaxsi rivojlanishini belgilovchi omil sifatida. Psixol. fan. nom ... diss. – Toshkent, 2009. – 141
7. Tojiboeva H.M. Maktabgacha taʼlim muassasasi va oila oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari // Taʼlimning uzviyligi va uzluksizligini taʼminlash – soha taraqqiyotining muhim mezon: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (6-kitob).–Toshkent, TDIU, 2015. – B. 81-83.
8. Ш.Х. Кадырова. Инновацион таълим-муҳитида мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчиларида миллий ғурур ҳиссини шакллантириш \ Муғаллим ҳам узлуksиз билимлендириш илимий-методикалық журнал. Нукус. 2020 йил. Б.124-127
9. S.X. Kadirova. Formation of national attention in innovative education - preschool educational schools \ European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 2020 й. Б.108-111
10. K.S. Khudoyberdiyevna. Proverbs - a source of upbringing the moral qualities of the personality of preschoolers \ Asian Journal of Multidimensional Research 2021= 7.699



XORIJIY TAJRIBALAR BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Jo'rayev A.U.

*Termiz davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim fakulteti
boshlang'ich ta'lim nazariysi kafedrasida o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: ijodiy, rivojlantirish, shaxs, psixologik xususiyat, ijodiy qobiliyat.

Ключевые слова: творчество, развитие, личность, психологические особенности, творческие способности.

Key words: creativity, development, personality, psychological characteristics, creative ability.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqola bugungi kunda boshlang'ich sinfi o'qituvchisi o'z o'quvchilarida qanday qobiliyatlari borligi, ularning o'qishga bo'lgan intilishi, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi, eslab qolishi va o'z bilimini o'quv torshiriqlarini bajarishda qo'llay olishi, masalalarni echishda puxta fikr yuritishi, verbal va noverbal nutqni qanchalik egallaganligiga qarab olib bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligi masalasi keng yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье речь идет о знании современным учителем начальных классов способностей своих учеников, их желании учиться, уровне усвоения учебного материала, их запоминаемости и их знаниях при выполнении учебных задач. В зависимости от того, насколько студент может использовать, тщательно думать при решении задач и овладевать вербальной и невербальной речью, широко освещается.

SUMMARY:

This article is about a modern primary school teacher's knowledge of the abilities of his students, their desire to learn, the level of assimilation of educational material, their memorability and their knowledge in performing educational tasks. The extent to which a student can use, think carefully when solving problems, and master verbal and nonverbal language is widely covered.

Kirish. Dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'limni tashkil etishda individual yondashuv asosida shaxsni intellektual rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, o'quvchilarga individual yondashgan holda intellektual rivojlantirish masalasi amerikalik olimlari tomonidan "Rueblov-plan", "Nort-Denver-plan", "Batavaya-plan", "Dalton-plan", "Govard-plan", "Yena-plan", "Tramr-plan" va "Keller-plan"lar doirasida ishlab chiqilgan. Angliya, Germaniya va janubiy



Koreya olimlari ushbu muammoni alohida ilmiy jihatdan yoritganlar. Angliyada har bir maktab iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun davlatdan moliyaviy ko'mak oladi, Germaniyada iqtidorli o'quvchilar uchun "Nemis maktab akademiyasi" nomli ta'lim dasturi mavjud. Koreya, Tailand, Singapur va janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida universitetlar huzurida iqtidorli o'quvchilarga chuqurlashtirilgan ta'lim berishga mo'ljallangan o'quv muassasalari faoliyat ko'rsatadi.

Tahlil va natija. Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, fanlarni metodik chuqurlashtirilib o'qitiladigan boshlang'ich sinflarida o'quvchilar uchun individual o'quv dasturlarini tuzish tajribasi keng yoyilmoqda. Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xam individual o'quv dasturi tuzish, amaliyotda qo'llash tajribasi rivojlangan davlatlarda keng yoyilgan bo'lib, individual o'quv rejalari yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan. Shuning uchun ham bu sohadagi tajribalarni o'rganish muhim.

Tadqiqot jarayonida xorijiy tajribalarni o'rgangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy faoliyatga tayyorgarligi doimiy o'zgarib borayotgan sharoitda ilg'or, ijodiy faoliyatga yo'naltirib o'qitish texnologiyasini rivojlantirish, didaktik- metodik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, rivojlantirish mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o'qitish sifatining samaradorligini oshirish, shuningdek, ta'lim muassasasida o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhimdir. Zamonaviy yangilanish, ma'naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor o'quvchilarni tarbiyalash davr talabidir. Yuqoridagi fikrlar kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi o'rni katta ahamiyatga ega.

Ta'lim tizimi yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubda olib borish zarurati pedagogik texnologiyalar yaxlit murakkab dinamik jarayon sifatida qaralib, uning interfaol sifatlari, tarbiyaviy qismlari, funksional tavsifi va uzviyligi izchil tadqiq qilinishini zarurat sifatida qo'ymoqda. Respublikamizda ta'lim jarayonlarini yangi bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyojini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning me'yoriy asoslar ishlab chiqildi va moddiy texnika bazasi takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasiga ustuvorlik berilgan.



Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy faoliyatni loyihalashtirish strategiyalarini takomillashtirishning metodik imkoniyatlari yanada kengayadi

Rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratsak, taraqqiyotga erishish uchun islohotlar, avvalo, ta'lim sohasidan boshlangan. Chunki yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga ustuvor vazifa sifatida qaragan har qanday mamlakat, shubhasiz, kelajak roydevori mustahkamligiga erishadi.

Mamlakatimizda ham istiqloqlarning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, jismonan va ma'nan etuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ammo bugun shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda, jahon bozoridagi keskin raqobat va yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talabning ortib borayotgani ushbu sohani ham isloh qilib borishni taqozo etmoqda. Taraqqiyotning navbatdagi bosqichiga qadam qo'ygan mamlakatimizda ham o'tgan ikki yilda jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning mazmuniga mos ravishda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, maktab ta'lim muassasalari faoliyatni tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish maqsadida xalq ta'lim vazirligi tashkil etilib, tizimni malakali kadrlar bilan ta'minlash, davlat va xususiy sheriklik asosida yaqin istiqbolda mamlakatimizda bog'cha yoshidagi bolalarni to'liq maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, yapon bolalari dunyo miqiyosida hisob-kitob va savodxonlik borasida qobiliyatlari bilan boshqa mintaqa bolalaridan farq qiladi. Yaroniya ta'lim tizimining yagonaligi va o'ziga



xos xususiyatlarining siri nimalar bilan belgilanadi, degan savollarga javob torish muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, 15 ni 19 ga ko'raytirish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi? Albatta, bir daqiqadan ortiq vaqt talab qiladi. Lekin, Yaroniyada bu amalni yosh bolalar ham bajara oladi. Chunki yapon bolalari raqamlarni yoddan bilishmaydi va yod olishmaydi. Ularning o'ziga xos metodikasi "o'yin usuli" hisoblanadi. Ushbu mamlakatda o'quvchilar boshlang'ich ta'limda o'yin orqali muammo yoki masalani o'zlari echishiga va bir biriga o'rgatishga o'rgatiladi.

Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: birinchi – boyish, ikkinchi – G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'yadi. Ta'lim pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik kichik o'rta maktab, 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etib, ta'lim olish bepuldir.

Standart loyiha tuzilishida quyidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan foydalanildi:

-Evrora Kengashining - Uzluksiz ta'lim uchun tayanch kompetensiyalar - umumyevropa standartlari strukturasi to'g'risidagi hujjati (Key competences forlifelong learning — a European Reference Framework).

-Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organization for Economic Cooreration and Develorment (OECD) Xalqaro o'quvchilarni baholash Dasturi (Rrogramme forInternational Student Assessment (RISA) standartlari).

Aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Angliya (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university), AQSH (Rrinceton university), AQSH (Association for Educational Communications and Technology – AECT), Germaniya (Pheinische Friedrich-Wilhelms-Universität Bonn), Janubiy Koreya (Seoul National University, Puchong University, Yonsei University, Sungkyunkwan University, Pohang University of Science and Technology, Pusan National University, Chonbuk National University), Rossiya (Ta'lim akademiyasi), Fransiya (University of Strasbourg), Yaroniya (Miyagi pedagogika universiteti)da olib borilmoqda .

Ma'lumki so'nggi yillarda ta'limni isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, qolaversa, halq ta'limi tizimiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e'tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar 2017 yil 14 martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 20 apreldagi .“Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari



to'g'risida"gi, 2017 yil 22 maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 8 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Qarorlarida o'z aksini torgan. E'tibor beradigan bo'lsak, mazkur qarorlarda uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha turlari qamrab olinganligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham ta'lim sohasini tubdan takomillashtirishga e'tibor qaratilgan. Ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur me'yoriy hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integrasiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud.

Ta'kidlash joizki hozirgi kunda xorijiy tajribalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quv-bilish faoliyatiga quyidagi talablarni qo'ygan:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim mazmunini jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab muntazam shakllantirib va takomillashtirib borish va shunga mos o'quv-bilish faoliyatning mazmun-mohiyati hamda maqsad-vazifalarini integratsiyalash;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv-bilish faoliyatni darsda ham, darsdan tashqari vaqtlarda ham uyg'un holda olib borish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv-bilish faoliyatida ularga ma'naviy, aqliy, hissiy, mehnat, axborotli ta'lim berishni doimo e'tiborga olish. Shu orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayotiy muammolariga yanada ko'proq e'tibor qaratish, innovatsion yangi g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodimizning ijtimoiy-xayot shart-sharoitlarini yaxshilash va keladak xayot yo'llarida xam barcha darajadagi davlat idoralarining eng asosiy, hal qiluvchi vazifa bo'lib qoladi.
- rivojlantirishga ijodiy muhit va psixologik-redagogik hamkorlik katta ta'sir ko'rsatishini ham ko'rsatib beradi.

Kuzatishlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini rivojlantirishda nafaqat o'qitish mazmuniga balki didaktik va redagogik shart-sharoitlar (didaktik maqsadlarga eri-shish uchun o'qitish mazmuni, shakli, metodini, shuningdek, tashkiliy shakllarini maqsadga yo'naltirilgan holda tanlash) har bir boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatiga yo'naltirish yangi bilimlar bilan zamonaviy ravishda boyitib borish, ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarini maqsadli va samarali etkazishni taqozo etuvchi interfaol



jarayon samarali qo'llash tushuniladi. Bu borada, ya'ni ijodiy faoliyat bo'yicha ta'lim berishda modellashtirish metodlaridan foydalanish ijobiy redagogik samara beradi. Shunday qilib, umumta'lim maktab o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda avvalo fanning nazariy tahlillariga e'tibor berish, ta'lim-tarbiya jarayonida ijodiy faoliyatini rivojlantirishga imkon beruvchi didaktik-rsixologik tamoyillar muxim hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilarda muammoli torshiriqlarni yecha olish, o'zaro yordam, o'z-o'zini baholash, o'zaro musobaqalashish kabi ijodkorlikga undovchi o'qituvchining innovasion faoliyati muhitini yaratish kerak bo'ladi. Bu esa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish, o'z-o'zini baholash faoliyatida sarali hisoblanadi hamda ta'lim mazmuniga o'quvchilar bo'sh vaqtini maqsadli tashkil eta olish, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni taqozo etadi.

Xulosa. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimidagi matematik savodxonlik o'quvchilardagi matematik bilim, ko'nikmalarni namoyon qilish va qo'llay olish malakasini anglatadi. O'quvchilarning kundalik masalalarda amaliy matematik bilimlarning mavjudligi ularning ijtimoiy munosabatlardagi faolligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Zero buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan ham yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir.

Adabiyotlar:

1. Jorayev A. Development of creative activity of elementary school students as a pedagogical problem //World Bulletin of Social Sciences. – 2024. – T. 34. – C. 95-97.
2. Boynazov Z. U. From mother tongue science in elementary grades theoretical foundations of the organization of extraneous work //World of Scientific news in Science. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 50-57.
3. Norbotaev K., Juraev A. Improving primary class lessons based on media teaching methodology // World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – T. 16. – C. 43-47.
4. Jo'Rayev A. U. Boshlang 'ich sinf o 'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari va samarali omillari //Inter education & global study. – 2024. – №. 4 (1). – C. 131-134.
5. Jo'rayev A. Multimediali ta'lim vositalari va ularni tayyorlash usullari //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.
6. Boynazov Z. Boshlang 'ich sinflarda bugungi ta'lim jarayoni va usullari //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.
7. Mo'minov, I., & Eshmatov, I. (2023). Boshlang'inch sinflarda interfaol metodlar. Академические исследования в современной науке, 2(15), 70-75.
8. Eshmatov I., Mo'minov I. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o 'quvchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish //Международная конференция академических наук. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 28-31.



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK ETIKA (AXLOQ) TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Suyunova M.A.

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'limda tarbiyani rashkil kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ekologik etika, tabiat, resurs, maktabgacha yoshdagi bolalar, ekologik ta'lim, pedagogik amaliyot, atrof-muhit, erta bolalik, ekologik ta'lim, pedagogik kompetentsiya, interfaol o'qitish usullari.

Ключевые слова: экологическая этика, природа, ресурс, дошкольники, экологическое образование, педагогическая практика, окружающая среда, раннее детство, экологическое образование, педагогическая компетентность, интерактивные методы обучения.

Key words: environmental ethics, nature, resource, preschoolers, environmental education, pedagogical practice, environment, early childhood, environmental education, pedagogical competence, interactive teaching methods.

РЕЗЮМЕ:

Ilmiy maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga nisbatan axloqiy sifatlarni shakllantirish bilan bog'liq jihatlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada maktabgacha yosh davrida tabiatga nisbatan ongli xulq-atvorni rivojlantirishning asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot zamonaviy adabiyotlar va empirik ma'lumotlarni ko'rib chiqish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik amaliyotni joriy etish tajribasiga asoslangan. Muallif maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologiya fanini o'qitishning samarali metodlari yo'qligi, o'qituvchilarning ekologik dunyoqarashni shakllantirishga yetarlicha e'tibor bermayotgani, shuningdek, yosh bolalarning ekologiya bo'yicha o'quv resurslaridan foydalanish imkoniyati cheklanganligi kabi asosiy muammolarni ko'rsatadi. Maqolada vaziyatni yaxshilash, jumladan, interfaol o'qitish usullaridan foydalanish, maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik yo'naltirilgan dasturlarni joriy etish, ekologik ta'lim sohasidagi o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot bolalarni atrof-muhitga mas'uliyatli boshqaruvchi bo'lishga tayyorlash uchun juda erta yoshda ekologik tafakkurni shakllantirishga yanada tizimli va o'ylangan yondashuvni talab qiladi.

РЕЗЮМЕ:

Научная статья посвящена анализу аспектов, связанных с формированием у дошкольников нравственных качеств по отношению к природе. В статье рассматриваются основные аспекты развития осознанного поведения по отношению к природе в дошкольном возрасте. Исследование основано на анализе современной литературы и эмпирических данных, а также на опыте внедрения педагогической практики в дошкольные образовательные организации. Автор указывает на такие основные проблемы, как отсутствие эффективных методов



преподавания экологических дисциплин в дошкольных учреждениях, недостаточное внимание педагогов к формированию экологического мировоззрения, а также ограниченный доступ маленьких детей к образовательным ресурсам по экологии. В статье даны рекомендации по улучшению ситуации, в том числе по использованию интерактивных методов обучения, внедрению экологически ориентированных программ в ДОУ, повышению профессиональной квалификации педагогов в области экологического образования. Исследование требует более систематического и вдумчивого подхода к формированию экологического мышления в очень раннем возрасте, чтобы подготовить детей к тому, чтобы они стали ответственными экологическими менеджерами.

SUMMARY:

The scientific article is devoted to the analysis of aspects related to the formation of moral qualities in preschool children in relation to nature. The article considers the main aspects of the development of conscious behavior in relation to nature in preschool age. The study is based on the analysis of modern literature and empirical data, as well as on the experience of introducing pedagogical practice in preschool educational organizations. The author points out such main problems as the lack of effective methods of teaching environmental disciplines in preschool institutions, insufficient attention of teachers to the formation of an environmental worldview, as well as limited access of young children to educational resources on ecology. The article provides recommendations for improving the situation, including the use of interactive teaching methods, the introduction of environmentally oriented programs in preschool educational institutions, and improving the professional qualifications of teachers in the field of environmental education. The study requires a more systematic and thoughtful approach to the formation of environmental thinking at a very early age in order to prepare children to become responsible environmental managers.

Kelajak avlodni zamonamizning yetuk kishilari qilib tarbiyalash hayotimiz, davrimizning shu kungi eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni ekologik bilimlar bilan tanishtirish muhim rol o'ynaydi. Bizni o'rab turgan tabiat - bitmas tuganmas xazina. Uning jonli va jonsiz tabiati, turli-tuman o'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib, shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea- hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshda bola qiziquvchan bo'ladi. U atrofidagi, MTT hovlisidagi rang - barang gullarni, sharqirab oqayotgan suvlarni, guldan-gulga qo'nib uchayotgan kapalaklarni, betinim sayrayotgan qushlarni ko'rib quv naydi, yayraydi. Bola tafakkurining o'sishida, ona tabiatga bo'lgan qiziqishini ortishida tevarak - atrofdagi tabiatning roli beqiyos kattadir. Bolalarni, tabiat bizga in'om etgan ana shu go'zal manzaralari bilan tanishtirib borishimiz, tabiatning har bir giyohi, har bir hayvonotining insonlar uchun, tabiat uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini aytib, o'rgatib borishimiz, ma'naviy oziqlantirishimiz kerak.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishdan maqsad yosh avlodni ona vatanimizni sevishtirishga, uning o'simliklari, hayvonot olamini asrash, saqlash, ko'paytirish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Buning uchun bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini maktabgacha ta'lim yoshidanoq boshlamoq kerak. Shunga ko'ra ota-



otalar va pedagog tarbiyachilar oldidagi eng muhim vazifalardan biri bolalarni tabiatning go'zalliklarini ko'ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz beradigan voqea - hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lish, tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Tabiat - bu organik (tirik) va noorganik (notirik) dunyoni o'zida qamrab olgan bir butun olam, tabiat - g'oyat xilma-xil shakllari, tarkibiy qismlari bilan insoniyatni qurshab turgan organik va anorganik olamlar, o'simlik va hayvonot dunyosi. Insoniyat esa undan paydo bo'lib, ajralib chiqqan mavjudotdir. Shu bois uning bir mohiyati tabiiy (biologik), ikkinchi mohiyati ijtimoiydir.

Tabiat, tug'ilish, yashash, o'sish, faoliyat maydoni hisoblanadi. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o'sadi, rivojlanadi. Insoniyat tabiatga ta'sir etibgina qolmasdan, unga bevosita bog'liq hamdir. Tabiatga bog'liq omillar texnika, iqtisodiy ekologik munosabatlarni ham belgilaydi. Ana shu holat kishilarning tabiat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarini muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etadi. Bolalarni ilk yoshidan hayvonot olami bilan tanishtirish orqali ularda mehr uyg'otish, jonsiz va jonli tabiatni muhofaza qilish ekologik tarbiyaning dastlabki elementlaridan biri sifatida tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammodir. Ayniqsa, bu yo'nalish maxsus o'rganilmaganligi, hozirgi kunda esa davlat va jamiyatning barkamol shaxsga bo'lgan ehtiyojining kuchayganligi dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolarni tabiat bilan tanishtirish orqali estetik, aqliy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish barcha zamonlarda ham o'ta dolzarb muammolardan hisoblangan. Tabiat bilan tanishish insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon bo'lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada, uning xulqiy go'zalligi ortadi. Shu sababdan ham tabiat bilan tanishtirish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni uzoq tarixga ega. Shu nuqtai nazardan O'rta Osiyo xalqlari tabiatni muhofaza qilish sohasida boy an'anaga ega. Bu bolaning o'sib tug'ilgan joyi haqidagi boshlang'ich bilimlarni bilishi, yer haqidagi asosiy bilimlarni kengaytirish va yerga bo'lgan munosabatning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy tomondan rivojlantirishdan iborat.

Tabiat - bitmas-tuganmas xazinadir. O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sir asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi. tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, insonlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas. Jonli tabiatga



kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yorug'lik. issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi. Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmas tuganmas manbaidir. Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi. Tabiatni asrab avaylash ardoqlash insonning burchi ekanligi haqidagi ta'limotlar Turoni Turkistondan yetishib chiqqan buyuk olimlarning ta'limotlarida o'z ifodasini topgan. Allomalar o'z davrida tabiatdan foydalanish, ular bilan bog'liq bo'lgan voqea, hodisalar haqida boy ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Tabiatga mehr, yuksak axloq-odobini tarbiyalash lozimligini o'z asarida bayon etganlar.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalar orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqildi. O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirish va ijodiy fikrlash darajalarini oshirish mantiqiy masalalar yordamida samarali amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlandi. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, o'quvchilar mantiqiy masalalarni yechish jarayonida turli xil yondashuvlarni qo'llashadi, bu esa ularning ijodiy fikrlash darajasiga ijobiy ta'sir qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mantiqiy masalalarni yechish orqali o'quvchilar qiyin vaziyatlarda muammolarni hal qilishga o'rgangan, bu esa ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirgan. Mantiqiy masalalar nafaqat o'quvchilarning fikrlash jarayonini yaxshilaydi, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalarini, mustaqil



qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham oshiradi. Bunday masalalar o'quvchilarda to'liq va chuqur o'ylash, turli xil yechimlarni izlash hamda noto'g'ri qarorlardan to'g'ri xulosa chiqarish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. Maqolada ko'rsatilgan ta'limiy yondashuvlar boshlang'ich sinf matematika darslarida samarali qo'llanilib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Mantiqiy masalalarni yechish o'quvchilarning nafaqat matematika, balki boshqa fanlar bo'yicha ham umumiy intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Kelajakda mantiqiy masalalarning turi va murakkablik darajasini kengaytirish, ularni shaxsiylashtirilgan ta'limga moslashtirish hamda turli o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra differensial yondashuvlarni ishlab chiqish lozim. Bu orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini yanada rivojlantirish va ularni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga katta hissa qo'shish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Polya, G. (2004). "How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method." Princeton University Press. Ushbu kitob matematik muammolarni yechishda mantiqiy yondashuvlar va strategiyalarni tavsiya etadi.
2. Krutetskiy, V. A. (1976). "The Psychology of Mathematical Abilities in Schoolchildren." Chicago: The University of Chicago Press. Kitobda o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish usullari yoritilgan.
3. Vygotsky, L. S. (1978). "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes." Harvard University Press. Ushbu asar ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik jihatlarini o'rganadi.
4. Burns, M. (2007). "About Teaching Mathematics: A K-8 Resource." Math Solutions Publications. Kitobda boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy yondashuvlar qo'llanilishi tavsiya etiladi.
5. OECD (2014). "PISA 2012 Results: Creative Problem Solving." Paris: OECD Publishing. PISA natijalari ijodiy masalalarni yechish qobiliyatlarini tahlil qiladi.
7. Ernest, P. (1991). "The Philosophy of Mathematics Education." Routledge. Ushbu kitob matematik ta'limning falsafiy asoslarini yoritib beradi va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga urg'u beradi.

Internet resurslar:

- National Library of Virtual Manipulatives (NLVM): nlvm.usu.edu - boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy va ijodiy masalalar resurslari.
- Khan Academy: [khanacademy.org](https://www.khanacademy.org) - matematika va mantiqiy masalalar bo'yicha turli xil onlayn kurslar.
- NRICH Project: nrich.maths.org - ijodiy va muammoli masalalar yechish bo'yicha resurslar.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ADABIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Matyakubova Sh.Sh.

Termiz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, badiiy adabiyot, adabiy tushuncha, badiiy-estetik tafakkur, tayyorlov bosqichi, boshlang'ich bosqich, asosiy bosqich, badiiy asar matni, adabiy janr, adabiy qahramon, PIRLS.

Ключевые слова: начальное образование, художественная литература, литературная концепция, художественно-эстетическое мышление, подготовительный этап, начальный этап, основной этап, текст художественного произведения, литературный жанр, литературный герой, ПИРЛС.

Key words: primary education, fiction, literary concept, artistic-aesthetic thinking, preparatory stage, initial stage, main stage, text of an artistic work, literary genre, literary hero, PIRLS.

РЕЗИОМЕ:

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarining adabiy tushunchalarini shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Unda boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarda adabiy tushunchalarni tarkib toptirish bosqichlari ko'rsatib beriladi.

РЕЗИОМЕ:

В данной статье рассматривается литература учащихся начальных классов обсуждаются способы образования понятий. Показаны этапы формирования литературных представлений учащихся на начальных занятиях по читательской грамоте.

SUMMARY:

In this article, the literature of students in primary education ways of forming concepts are discussed. It shows the stages of students' formation of literary concepts in elementary reading literacy classes.

Boshlang'ich ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilariga, ularning fanlardan yaxshi o'zlashtirishlariga alohida e'tibor beriladi. Xususan, mamlakatimizda ham bu borada yaxshi o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab o'quvchilarining bilimini baholash, ta'lim sifatini oshirish



maqsadida hukumatimiz tomonidan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish belgilab qo'yildi.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratildi, huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi. [1]

O'qish darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'rganiladigan badiiy asarlarni bir-biridan farqlash, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday vositalar yordamida aks ettirgani, qanday adabiy qahramonlar yaratganini tushunish, asar qahramonlarining xatti-harakatiga o'z munosabatini bildirish, ularni baholay olish va tegishli xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq adabiy tushunchalar yuzasidan hosil qilinadigan elementar bilimlar orqali o'quvchilar kishilarning fikrlari, histuyg'ulari va ichki dunyosini ifodalashda badiiy nutqning ahamiyatini anglab boradilar. O'quvchilarning badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanini anglashlariga erishish lozim. Buning uchun badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarning rasmda ranglar orqali ifodalanishini namoyish qilish orqali badiiy adabiyot tasviriy san'at kabi san'at turi deb tushuntirish mumkin. Har ikkisi hayotiy voqealar aks etishi, tasviriy san'atda ranglar orqali, badiiy adabiyotda so'zlar orqali tasvirlanishi haqida ma'lumot berish foydadan xoli bo'lmaydi. Asar yaratish uchun yozuvchi so'zga boy bo'lishi lozim ekanligi, bunga o'qish-o'rganish orqali erishish mumkinligini o'quvchilar ongiga yetkazish zarur. Boshlang'ich sinflarda adabiy tushunchalarni o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi adabiyot nazariyasidan ilmiy tushunchalarga ega bo'lishi, asar tahlilida nimalarga e'tibor berilishini ajratib olishi, o'qitish usullarini yaxshi bilishi, tahlilga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi o'qish darslarida badiiy asarni o'qitish sifatini belgilovchi omillardandir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- PIRLS xalqaro baholash dasturi haqida ma'lumot to'plash;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish yo'llarini ifodalash;
- Zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida yosh pedagoglarning rivojlanish istiqbollari o'rganish;



- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini nazariy bayon etish;

- O'quvchilarda adabiy tushunchalarni shakllantirishga doir o'quv topshiriqlaridan foydalanish tizimi ishlab chiqish.

Amaliyotga tatbiqi ketayotgan PIRLS xalqaro baholash dasturi ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishga, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. [6]

Ma'lumki, o'qish savodxonligi darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.

O'quvchilarda adabiy tushunchalarni hosil qilishda ularning badiiy adabiyot san'atining bir turi ekanini anglashlariga erishish lozim. Buning uchun badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarning rasmda ranglar orqali ifodalanishini namoyish qilish orqali badiiy adabiyot tasviriy san'at kabi san'at turi deb tushuntirish mumkin. Har ikkida hayotiy voqealar aks etishi, tasviriy san'atda ranglar orqali, badiiy adabiyotda so'zlar orqali tasvirlanishi haqida ma'lumot berish foydadan xoli bo'lmaydi. Asar yaratish uchun yozuvchi so'zga boy bo'lishi lozim ekanligi, bunga o'qish-o'rganish orqali erishish mumkinligini o'quvchilar ongiga yetkazish zarur.

Boshlang'ich sinflarda adabiy tushunchalarni o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi adabiyot nazariyasidan ilmiy tushunchalarga ega bo'lishi, asar tahlilida nimalarga e'tibor berilishini ajratib olishi, o'qitish usullarini yaxshi bilishi, tahlilga ijodiy yondashishi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi o'qish darslarida badiiy asarni o'qitish sifatini belgilovchi omillardandir.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni malakali kitobxon sifatida tarbiyalashda asar tahlili va o'quvchining shaxsiy ijodkorlik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi.



O'qish metodikasida badiiy asarni o'qish bilan bog'liq ikkita talab olg'a suriladi: birinchidan, o'quvchilar namunadagi asar mazmunini tushunsin, ikkinchidan, asarda qalamga olingan voqea-hodisalarni qalbdan his qila bilsin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'z san'atini bevosita idrok etish qobiliyatining rivojlanishi asar syujetining o'ziga manzur jihatlarini aniqlash, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, o'z xulosalarini umumlashtirib bayon qilish tarzidagi adabiy tahlil ko'nikmalarini egallay borishiga bog'liq.

Badiiy asarning o'quvchilar tomonidan idrok etilish darajasi kitobxonlik faoliyati natijalari tahlili asosida belgilanadi. Adabiy ta'lim jarayonida asarning to'liq idrok etilishi adabiy tushunchalarning chuqur egallanganligidan dalolat beradi. Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda adabiy tushunchalarni o'rganish yuqor sinflardagidan farq qiladi. Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshi, saviyasi, tajribasi badiiy asar ustida qat'iy nazariy tushunchalar asosida ishlashni ko'tarmaydi. G.Mamatova boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarda adabiy tushunchalarni tarkib toptirishni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'ladi:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu bosqich amal qilinadigan 1-sinfda asarning estetik tarbiyaviy g'oyasini kuzatish, asar voqealarini qismlarga ajratish; badiiy asar mavzusini aniqlash, she'riy nutq bilan nasriy nutqning bir-biridan farqini kuzatish bilan bog'liq tushunchalar ustida ishlanadi. O'quvchilarning talaffuzi va og'zaki nutqiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

2. Boshlang'ich bosqich. 2-sinfda amal qilinadigan bu bosqichda asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini kuzatish; asar mavzusi va g'oyasi ustida ishlash; dialog haqida umumiy tushuncha berish; asarni qismlarga ajratish va uning o'zaro bog'liq voqealardan tashkil topishi haqida tasavvur hosil qilish; asardagi kichraytirish, erkalash, ko'chma ma'noli so'zlarning badiiy xususiyatlarini aniqlash; she'riy nutqning band va misralardan tashkil topishiga doir tushunchalar ustida ishlanadi. Adabiy janrlarning farqi, asarning tarkibiy elementlari, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar va adabiy qahramonlarning o'zaro munosabatlarini aniqlashga o'rgatiladi.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich amal qilinadigan 3-4-sinflarda asar qahramonlarining suvrati va siyratini kuzatish, tasvirlangan voqealarning hayot bilan bog'liqligini anglashlariga erishish, yozuvchining asar qahramonlariga munosabati ustida ishlash; hikoya va tasvir haqida tushuncha; tabiat tasviri, qahramon tasviri ustida ishlash; asarni qismlarga ajratish va uning rejasi haqida ma'lumot berish; asardagi voqealarning rivojlanib borishini, sabab-natija bog'lanishini aniqlash; o'xshatish, jonlantirish, ibora haqida tushuncha hosil qilish; nasriy va she'riy nutqning o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish; she'riy nutqqa xos takror, mubolag'a haqida amaliy tushuncha hosil qilish; she'riy nutqda so'zlar tartibi, she'r tuzilishi



– qofiya, band haqida umumiy tushuncha hosil qilish kabi ishlarni amalga oshirish koʻzda tutiladi. [7]

Boshlangʻich sinflarda badiiy asar tahlilida oʻquvchilarning yoshi, hayotiy tajribasi, saviyasi, tasavvur qila olish uquvi va asar bilan tanishish jarayonida hosil boʻlgan ruhiy kayfiyati hisobga olinadi. Adabiy tushunchalarni oʻrganish oʻquvchilarning ichki hissiy kechinmalari bilan bogʻlanmasa, ularda adabiyotga boʻlgan qiziqish susayadi. Oʻquvchilarda estetik zavq uygʻotish uchun oʻqituvchi adabiy tushunchalardan vosita sifatida foydalanishi lozim.

Boshlangʻich sinflarda adabiy tushunchalar badiiy asar matnining tahlili jarayonida shakllantiriladi. Jumladan, sheʼr, qoʻshiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, hikoya (1-2-sinflar); rivoyat, masal, latifa, qofiya, misra, band, doston (3-sinf); sarlavha, obraz, jonlantirish, oʻxshatish, ibora, peyzaj, dialog, gʻoya (4-sinf) kabi adabiy tushunchalar yuzasidan amaliy bilim hosil qilinadi. Mazkur tushunchalar dastur talablariga koʻra 1-sinfdan boshlab badiiy asarning gʻoyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlari bilan bogʻlab shakllantiriladi.

1-sinf oʻquvchilari ertak, masal, rivoyat, sheʼr, hikoya, maqol, topishmoq, tez aytish janrlariga mansub asarlarni oʻqiydilar va shu jarayonda ularni janriy xususiyatlariga koʻra bir-biridan farqlay boshlaydilar. Oʻqituvchi boʻlim yuzasidan oʻtkaziladigan takrorlash-umumlashtiruvchi darsda “Siz “Oʻzbekiston – mening Vatanim“ boʻlimida qaysi sheʼr va hikoyalar bilan tanishdingiz? Vatan haqidagi maqollarni ayting?” kabi savol-topshiriqlar bilan murojaat qiladi. Fasllarga doir boʻlimlar oʻrganilayotganda fasllarga bogʻliq topishmoqlar oʻquvchilarni atrofimizdagi olam bilan chuqurroq tanishtirishga yordam beradi.

2-sinfda oʻquvchilarni fikrlashga oʻrgatish uchun “Bir parcha patir olamga tatir“ topishmogʻining javobini toping. Uni topishda sizga nima yordam berdi?, Nima uchun buni topishmoq deb aytamiz?”, “Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda“ maqoli nima haqda?, Uni kim yaratgan?, Siz bilan qaysi maqollarni oʻqib-oʻrgandik?, Nima uchun ularni maqollar deb nomlaymiz?”, “Qaysi ertaklarni oʻqidik?, Qaysi hikoyalarni oʻqidik?, Ertaklarni kimlar yaratadi?, Hikoyalarni kim yaratadi?, Qaysi biridagi voqealar hayotda boʻladi?, Ertakdagi voqealar hayotda yuz beradimi?, Oʻzingiz bilgan ertaklar nomini ayting. Ertagingiz qanday boshlanib, qanday soʻzlar bilan tugaydi?

Hikoya shunday soʻzlar bilan boshlanadimi?” kabi savol-javoblar oʻrganilayotgan mavzular bilan bogʻliq holda tashkil etiladi.

3-sinf oʻqish darslarida oʻquvchilar bilimi ibora, lof kabi janrlarga doir tushunchalar bilan boyitiladi. U yoki bu janrga mansub asarlar oʻrganilayotganda boshqa janrga oid asarlarga taqqoslash ijobiy samara beradi.

Bir janrdagi asarlar oʻrganilayotganda boshqa janrdagi asarlarga taqqoslash orqali ularning farqi oʻrgatiladi.



4-sinfda didaktik talablardan kelib chiqqan holda badiiy asarda tugun, voqealar rivoji, syujet, kompozitsiya, g'oya, tasviriy ifoda vositalari ustida ishlanadi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmalilik, o'quvchilarning faolligini oshirish, tahlilda individual yondashish tamoyillari o'qitish jarayonida qo'llanadigan metod va usullarni belgilab beradi. [9]

Xulosa qilinadigan bo'lsa, boshlang'ich sinflarda o'qish ta'limi o'quvchilarning savodxonligi, kitobxonlik malakasini shakllantirish va shu orqali ma'naviy axloqiy tarbiyasiga xizmat qilishdek birdan-bir vazifasini bajarishda adabiy tushunchalarga tayanadi. Shunga ko'ra, adabiy tushunchalar nafaqat nazariy ahamiyat kasb etadi, balki juda muhim amaliy mohiyatga ham egadir. Ayniqsa, badiiy asar mavzusi va g'oyasi, syujeti va kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi va badiiy til xususiyatlarini adabiy tushunchalar vositasida aniqlash o'quvchilarning tahliliy ko'nikma-malakalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Zero, tahlil o'qituvchi uchun o'quvchilar bilan muloqot qilishning, ularning badiiy asarni tushunish hamda idrok qilish qobiliyatlari va dunyoqarashlarini shakllantirishning muhim omilidir. Shu bois, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning adabiy tushunchalarini shakllantirish ta'limda izchillik va tizimlilik tamoyiliga qat'iy amal qilishni taqozo etadi. Negaki adabiy tushunchalar ko'proq nazariy xarakterda bo'lib, amaliyot bilan chambarchas bog'liqlikda mustahkamlanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori.
3. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat o'quv dasturi // 2017. – B. 21-33.
4. Uzlusiz adabiy ta'lim kontseptsiyasi. – T.: O'zPFITI, 1998. – 21 b.
5. Kuznetsova M.I "PIRLS 2021 solishtirma tadqiqot doirasida o'qish savodxonligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari".
6. Koraleva G. "PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha Rossiya tajribasi, o'qituvchilar malaksini oshirishning muhim jihatlari, baholash vositalari va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish" mavzusidagi taqdimoti.
7. Mamatova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi. Metodik qo'llanma. – Toshkent: «Istiqlob» nashriyoti, 2010.
8. Marasulova U. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida adabiy-nazariy tushunchalarni shakllantirish va takomillashtirish usullari. Metodik qo'llanma. – T.: 2006.
9. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Nosir", 2009.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA BADIY ASARLARNI O'QITISHDA IJTIMOY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Butayorova M.X.

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: badiiy asar, ko'nikma, ijtimoiy ko'nikma, xatti-harakat, qadryatlar, ijtimoiylashuv, xulq-atvor, shakllantirish, atrof-muhit, faoliyat.

Ключевые слова: художественное произведение, навык, социальный навык, поведение, ценности, социализация, поведение, формирование, среда, деятельность.

Key words: art work, skill, social skill, behavior, values, socialization, behavior, formation, environment, activity.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlar bilan tanishtirish, badiiy asarlarni o'qishga va tahlil qilishga tayyorlash – bular orqali esa ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish haqida tushunchalar berib o'tilgan. Badiiy asar o'qishning foydali va samarali tomonlari yoritilgan

РЕЗЮМЕ:

В данной статье даны концепции по ознакомлению учащихся начальной школы с произведениями искусства, подготовке их к чтению и анализу произведений искусства и посредством этого развитию их социальных навыков. Выделены полезные и эффективные аспекты чтения художественного произведения.

SUMMARY:

In this article, concepts are given about introducing elementary school students to works of art, preparing them to read and analyze works of art, and through this, developing their social skills. The useful and effective aspects of reading a work of art are highlighted.

Kirish. Milliy psixologiya va pedagogikada bolaning ijtimoiylashuv jarayoni va uning ta'lim-tarbiyasi o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishning o'tmishdan saqlanib kelayotgan katta tajribasi mavjud. Ammo bunda ijtimoiylashuv, qoida tariqasida keng ma'noda, ya'ni o'sib kelayotgan avlodning an'ana va qadriyatlarini o'zlashtirishi hamda ijtimoiy tajribani faol qayta qo'llash tufayli jamiyat hayotida ishtirok etish jarayoni va natijasi sifatida tushuniladi. Mazkur holat: boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini maqsadli yo'lga qo'yishga



doir pedagogik ta'minotga bo'lgan zaruratva ushbu muammo bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor bermaslik o'rtasida;-zamonaviy ta'lim jarayonining kommunikativ va ijtimoiy yo'nalishini amalga oshirishga bo'lgan zarurat bilan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga nazariy yondashuvlarning yetarli darajada ishlabchiqilmaganligi o'rtasida;-faoliyat sub'yekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchisini rivojlantirishga zamonaviy boshlang'ich ta'limning umumiy ko'rsatmasi va an'anaviy tarzda ijro etuvchi komponentini amalga oshirishga yo'naltirilgan bolalar faoliyatini tashkil etish shakllari o'rtasida qator qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, jamiyatda o'sib kelayotgan avlodni faol ijtimoiylashuviga bo'lgan zarurat va o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratmaslik, shuningdek, maktab amaliyotiga bo'lgan ehtiyoj va ushbu muammoni amalga oshirish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi o'rtasidagi qarama-qarshilik ko'zga tashlaadi. Reglamentli yondashuv asosan faqat bir bo'g'inda: yoki sinfdan tashqari faoliyat yoki katta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda qo'llaniladi. Bu bizning fikrimizcha, yuqori natijadorlikka erishish imkoniyatini pasaytiradi.

Asosiy qism. Ijtimoiy jihatdan maqbul xulq-atvor shakllarini shakllantirish va mustahkamlash hamda ulardan yangi munosabatlar tizimida foydalanishni amalga oshirish imkoni bor, deb hisoblaymiz. Xulq-atvorga oid vazifalarni hal qilishning tez-tez takrorlanadigan usullari odatlarga aylanib qoladi. Buni L.I.Bojovichning fikrlari ham tasdiqlaydi. Unga ko'ra, muayyan shaxsiy fazilatlar asosida bola xulq-atvorining belgilangan va odatiy shakllari yotadi. [1] Ijtimoiy ko'nikmalar - bu ijtimoiy xulq-atvorning o'zlashtirilgan elementlari bo'lib, ular ijtimoiy olam, o'zi va bu yorug' olamdagi o'rni, ijtimoiy o'zaro aloqalarni osonlashtiradigan xatti-harakatlar haqidagi bilimlarga hamda insonga atrof-muhit bilan munosabatlarni samarali ravishda o'rnatish, o'z o'rnini belgilab olish va o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan harakatlarga asoslanadi hamda bu muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va umuman olganda, ijtimoiylashishga yordam beradi.[2] Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish haqida gapirganda, o'zingiz yoki boshqa birovga sust taqlid qilishga emas, balki ijodiy o'zgarishlarga imkon beradigan samarali ta'sir ko'rsatish me'yor va vositalariga muvofiq taqdim etilgan vaziyatda faol va ongli xatti-harakatlarga urg'u berish kerak. Aynan shu turdagi xatti-harakatlar ijtimoiylashuvning yuqori darajasiga to'g'ri keladi va unda o'z shaxsiyati, atrof-muhit va o'z faoliyatini baholash bilan bog'liq bo'lgan anglash elementi mavjud. Ijtimoiy qulay sharoitlarda boshlang'ich sinf o'quvchisi atrofidagi dunyo bilan o'z



munosabatlarining yuqori darajasiga erishishi mumkin. U faqat mazmun-mohiyatni oʻzida ifoda etishi yoki umuman oʻzini ijtimoiy hayotdagi salbiy tendensiyalarning tashuvchisi sifatida koʻrsatishi, oʻz-oʻzini rivojlantirish imkoniyatini faol ravishda amalga oshirishi yoki ijobiy ijtimoiy mazmunni oʻz-oʻzidan va qisman namoyon etishi mumkin. Aynan oʻqituvchi mazkur yoshdavrining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maʼlum sharoitlarni yaratib, oʻquvchilarni har tomonlama rivojlantirishga doir bilan tabiiy ravishda shugʻullanishi mumkin. Zamonaviy boshlangʻich taʼlimni rivojlantirishning yetakchi tendensiyasi nafaqat oʻquvchilarning boshlangʻich bilim, koʻnikmava malakalarni egallashi, eng muhim intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bola shaxsining umumiy rivojlanishi taʼminlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur ijtimoiy koʻnikmalarni rivojlantirishni oʻz ichiga oladi. Ijtimoiy koʻnikmalar deganda biz ijtimoiy xulq-atvorning barqaror shakllarini tushunamiz. Koʻnikma –bu faoliyatning barqaror elementi, ijtimoiy harakat. Ijtimoiy xulq-atvor koʻnikmalari haqida gapirganda, biz nafaqat mazkur yoʻnalishga doir bilimlar, balki ularni qoʻllash, rolli xatti-harakat meʼyor va qoidalari, ijtimoiy funksiyalar, urf-odatlariga qadriyatli munosabatni ham nazarda tutamiz. Amaliyotda ijobiy tasdigʻini topib, samarali natijaga erishish imkonini beradigan atrof-dagilar bilan oʻzaro aloqalar tizimida toʻplangan eng ahamiyatli shaxsiy tajribani qayd etish muhimdir. Koʻnikmalar –bu nafaqat yaxshi mashq qilingan va oʻzlashtirilgan, balki eng avvalo, muayyan xatti-harakatlar modelini qabul qilish hamda anglashga asoslangan harakatlardir. “Ijtimoiy koʻnikma” tushunchasida, bizning holatda, bu qisman inson faol foydalanadigan baʼzi bir amalga oshirilgan malakalar ekanligiga urgʻu beriladi. Ijtimoiy malakalar –bu bir nechta ijtimoiy koʻnikmalarning elementlarini oʻz ichiga olgan xulq-atvorning yuqori darajasi. Ular orasida xatti-harakatlar, oʻz ichki dunyosi bilan muomala usullari ham mavjud. Yaʼni ijtimoiy malakalarni shaxsga oid harakatlar deb hisoblash mumkin boʻlib, ularning predmetli mazmunini shaxslararo va shaxsga oid ichki taʼsir usullari tashkil qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy koʻnikma va malakalar –bu ijtimoiy xulq-atvorning oʻzlashtirilgan elementlari boʻlib, ular ijtimoiy olam, oʻzi va bu yorugʻ dunyodagi oʻrni haqidagi bilimlarga, ijtimoiy oʻzaro aloqalarni osonlashtiradigan xatti-harakatlar haqidagi bilimlarga hamda insonga atrof-muhit bilan munosabatlarni samarali ravishda oʻrnatishga, oʻz oʻrnini belgilab olishga va oʻzligini namoyon qilishga imkon beradigan harakatlarga asoslanadi hamda bu muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va umuman ijtimoiylashishga yordam beradi. Ijtimoiy koʻnikmalarning oʻziga xos xususiyati quyidagilardan



iborat: ijtimoiy-madaniy me'yorlarni bilish, ulardan tolerant xulq-atvor modelining namunaviy asosi sifatida foydalanish qobiliyati; atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarda o'z his-tuyg'ulari, emosiyalarini tushunish, ularni ijtimoiy maqbul hamda mos shaklda ifoda etish qobiliyati; o'zining individualligi va qadr-qimmatini anglash; shuningdek, boshqa insonlar shaxsining qadr-qimmatini anglash; atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan odatiy muammoli vaziyatlarni anglay olish qobiliyati, konstruktiv yechimlarni izlashga intilish; umumijtimoiy va shaxsiy tajribani umumlashtirish qobiliyati. Bolalarda ko'nikmalarni shakllantirishni rivojlanishning faoliyatli modeli sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Bunda muayyan vaziyatda ongli va mohirona xatti-harakatlarni namoyon etgan bolalarning bilim va tajribalariga urg'u beriladi, bu esa uning atrof-muhit bilan munosabatlar tizimiga qanday ta'sir qilishini aniqlashga imkon beradi. Ijtimoiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish shuni nazarda tutadiki, insonning o'zi va boshqalar (o'zi, boshqalar, ijtimoiy-tarixiy) haqidagi umumlashtirilgan psixologik bilimlar tajribasi asosida har qanday muammoni samarali hal etishi mumkin. Ijtimoiy ko'nikmalarning yuqori darajasi nafaqat boshqa kishining tajribasini ko'chirish, ma'lum qoidalar, stereotiplar, munosabatlarga rioya qilish, balki turli vaziyat va sharoitlarda bilim va malakalardan yetarli darajada foydalanishni anglatadi. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonining muhim bug'ini – bu faoliyat va xulq-atvorning bir qismi bo'lgan murakkab ruhiy harakatlarni shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishidir. Ijtimoiy xulq-atvorni boshqarish o'zini o'zi anglash va o'ziga nisbatan emosional-qadriyatli munosabat tarkib toptirishni nazarda tutadi. Ushbu jarayon xulq-atvor harakatini amalga oshirishning barcha bosqichlarida – uning motivasion tarkibiy asosdan faoliyatga doir komponentgacha faollikni ta'minlashni taqozo etadi. Maktab ijtimoiy muassasa sifatida quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim: atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarning me'yorlari, tamoyillari va usullari to'g'risida ma'lumot berish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish; mavjud tajriba, bilim, qadriyatli yo'nalishlar, shuningdek, shaxsga oid sifatlar va kommunikativ malakalarini rivojlantirishga asoslangan holda, shaxsning muammolarni hal qilishga qaratilgan tashqi va ichki faoliyati samaradorligini ta'minlash; hayotda o'z o'rnini topish, uni ongli tarzda loyihalashtirish – mustaqil hayotga tayyorlashda aniq mo'ljalni olishga o'rgatish. Bilim anglash jarayonining natijasi sifatida tasavvurlar, mulohazalar, tushunchalarda ifodalanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asar bilan tanishtirishdan oldin o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga tayyorlash kerak, chunki o'quvchilar asar



mazmuni anglab tushunishlari uchun keng (to'liq) tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun esa albatta tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari sinfda o'qishi uchun badiiy va ilmiy matnlar birlamchi o'rinda turadi. O'quvchilarni badiiy yoki ilmiy asar bilan tanishtirish-o'qishga tayyorgarlikning birinchi bosqichi hisoblanadi. Tayyorgarlik bosqichi bu o'quvchilarni badiiy asarlarni (matnlarni) o'qishga qulaylik yaratuvchi asosiy bosqichdir, bunda badiiy asarning janrli , muallifi haqida ma'lumot beriladi, o'quvchilar asarda tasvirlangan voqea hodisalarni idrok qilishi asar pafosini his qilishi, asar g'oyasi va murakkab obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi.[3] O'qituvchidan tayyorgarlik bosqichida e'tibor va g'ayrat bilan harakat qilishi lozim bo'ladi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ularda badiiy asar o'qish malakalarini rivojlantirishning o'ziga xosligi, o'quvchilarni badiiy asar o'qishga va tahlil qilishga tayyorlash muhim jarayonlar hisoblanadi. Ekskursiya jarayonida bolalar tabiatning go'zalligini ko'rib katta taasurot olib hissiyotlari rivojlanadi. Shu asosda jonajon O'zbekiston ona tabiatiga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tarbiyalanadi.. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi.[4]

Qadriyatlar inson faoliyatiga tushunish, baholash jihatlarini olib kiradiva xulq-atvor motivlariga aylangan holda, shaxsning qadriyatli yo'nalganligini aylanadi. Ta'lim tashkilotining vazifalaridan biri o'quvchilarga qadriyatlar tizimini ishlab chiqishga yordam berishdan iborat. Qadriyatlar tizimi o'zini va boshqalarni baholash, o'z munosabatini ifoda etish, o'z tanlovini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan koordinatalar tizimi vazifasini bajaradi. Qadriyat me'yordan farqli o'laroq, tanlash imkoniyatini beradi va shuning uchun aynan tanlov vaziyatida qadriyatli-mazmunli komponentga tegishli xususiyatlar yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunday holda qadriyat motiv sifatida namoyon bo'lishi mumkin, ya'ni insonning real harakatlarga undashi va yo'naltirishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish komponentlari ularning ruhiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqilishi kerak: o'zini ijtimoiy individ sifatida qabul qilish maktabda o'qishga bo'lgan kuchli motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi va bu yangi shaxsiy ta'lim "o'quvchining ichki pozisiyasi" deb ta'riflanadi;[5]-erkinlikni rivojlantirish, bu xatti-harakatlarda ongli ravishda maqsadlarni qo'yish, ularga erishish vositalarini izlash va topish, qiyinchiliklar va to'siqlarni yengib o'tish, shuningdek, ichki rejada harakatlarni rejalashtirish va bajarish qobiliyatini shakllantirishda namoyon



bo'ladi;-refleksiyani shakllantirish, bu o'z mulohaza va harakatlarini o'ylab qo'yilgan rejaga muvofiqligi nuqtai nazaridan ongli va ob'yektiv ravishda tahlil qilishva baholashga imkon beradi.

Ijtimoiy ko'nikmaning tuzilmasini biz kognitiv-motivasion, faoliyatli, refleksiv-baholovchi va xulq-atvor komponentlariyig'indisi sifatida talqin qildik va ularni ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning bosqichlari sifatida qabul qildik. Taklif etilayotgan bosqichlarning har biri avvalgi darajaning yangilanishlarini hisobga oladi va yanada boyitib boradi.

O'quvchilar lug'at boyligining muhim qismi ibora va tasviriy ifodalar tashkil etadi. Ibora odatda bir so'zga teng keladigan so'zlar qo'shilmasi bo'lib, u nutq mazmunini boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan muxim vositalardan biri sanaladi. O'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadida berilgan iboralarni so'zlar o'rnida iboralarni almashtirish yoki aksincha so'zlar o'rnida iboralarni qo'llash, iboralarning ma'nosini sharhlash, berilgan iboralarga yangi ma'noli iboralar tanlash, berilgan iboralarga qarama-qarshi ma'noli iboralar tanlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin. DTS talablari doirasida o'quvchilarning nutqini o'stirish, imlo savodxonligini o'stirish, talaffuz me'yorlarini shakllantirish va rivojlantirish, ifodali o'qish uchun zaruriy bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish – ta'lim prinsiplariga qat'iy amal qilish, dars metodlari, vositalari va usullarini to'g'ri belgilash, ta'lim tarbiya va rivojlanishini uyg'unligini ta'minlash, qayta xotirlash, qisman ijodiy va to'liq ijodiy topshiriqlar o'rtasidagi mutanosiblikni tanlash, ijodiy fikrlashga undaydigan o'quv topshiriqlariga keng o'rin ajratish, bilim ko'nikma va malaka hosil qilganda o'quvchilar yoshi, o'qish imkoniyatlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, bolaning savodxonligi, yozma nutq belgilarini talaffuzda almashtirish ko'nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunday miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni bir daqiqada berilgan matndan nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi olingan. O'quvchi sinfdan sinfga ko'chgan sari so'z miqdorining ham murakkablik darajasi xam ortib boradi. 4 sinfdan o'qish kitobi darsligidagi matnlardagi iboralarni o'rgatishda baxs munozara darslari ancha samaralidir. O'qish darslarining samaradorligi ko'p jixatdan o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashi bilan bog'liq. Ijodiy fikrlashga o'rgatishda baxs-munozara muxim ahamiyatga ega.[6] Bu narsalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'rganiladigan material o'quvchilarga oldindan ma'lum qilinadi, muxokamaga tashlanayotgan masala xususida xar bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikr muloxazalarini bildiradi. Baxs- munozara uchun tashlanadigan



savollar o'quvchi tomonidan puxta o'ylangan bo'lishi lozim. Masalan. Iborlar yuzasidan baxs munozaraga quyidagi muammo o'rta tashlanishi mumkin. 1. Kim iboralar biladi? 2. Matndagi iboraning ma'nosini izoxlang. 3. Shu ibora orqali ko'proq gap tuzing va xoqazo.... Odam nutq yordamida o'qishni, fikrlarri, his-tyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshkalarning fikrlari, xis tuyg'ulari, istaklarini anglab oladi. Inson nutqi rang-barang. Inson butun umr davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli qoydalanish oraqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Bu jarayon ayniqsa bolalik davrida samarali tus oladi. Kichik bolalik davridan boshlab u aloqa aralashuviga extiyoj sezadi, o'zgalarning fikrini tinglash va o'z fikrini bayon qilishga tobora ko'proq zaruriyat seza boshlaydi. Maktabda fan asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchi nutqini rivojlantirish inson umrining boshqa davrlariga nisbatan ancha samarali kechadi. Chunki har bir bola nutqini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi va u ona tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanishga yo'l ochadi. O'qish darsligi fan sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, tilning fikrini ifodalashdagi yangi rang-barang qirralarini ochib beradi, nutqini go'zal olamga olib kiradi. O'qish darsi ona tili darsidek, o'quvchi nutqini yaxshilaydi, boyitadi, unga badiiy bo'yoq beradi, nafasat bag'ishlaydi. Masalan 4 sinf o'qish kitobidagi matnlarni tez, to'g'ri, ravon va ifodali shqish, badiiy asarlarni sharhi, ifodali o'qish, so'z boyligini oshira borish va nutqida faol qo'llash, o'qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish, matndagi iboralarini nutqda to'g'ri qo'llash. Qanday nutqni yaxshi nutq deb atash mumkin? O'quvchi nutqiga qanday talablar qo'yiladi? Bu savollarga javob topmay turib bolalar nutqining boshqa muammolari xaida fikr yuritish qiyin. O'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri nutqning nutq sharoitiga mosligidir. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushniladi.[7] Bu sharoit bexad ko'p tarkibli, serqirra bo'lib so'zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa, buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so'zlovchining maqsadi va imkoniyatligacha bshlagn barcha narsalarni o'z ichiga oladi.[8] Nutq sharoiti nutq shaklini belgilashda juda muhim omildir. Chunonchi, bir-biridan uzoq turgan so'zlovchi va tinglovchi faqat yozma nutq (xat. Maktub, axborot, voqeanavislik va h.k.) vositasida fikr almashtira oladi.

Xulosa tabiiyki, bu nutqning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bir-biriga yaqin turgan so'zlovchi va tinglovchi orasida fikr almashishning eng qulay yo'li og'zaki nutqdir. Og'zaki va yozma nutqning o'z nutq sharoitlariga yarasha xilma-xil xususiyatlari bor. Chunonchi, so'zlovchi ko'p bo'lsa, so'zlovchining baland ovoza to'xtamlarga rioya qilib, imo-ishoralardan kamroq foydalanib, fikrini



izchil va bir biriga bog'liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o'ziga xos ko'rinishi, o'quvchining masalalarini yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida ma'lum bir mavzuni sinfda, biror yig'inda ochib berishdagi nutqida o'z aksini topadi. Shuning uchun bunday nutqda fikr izchilligi, gaplarning o'zaro to'g'ri bog'lanishi, bog'lovchilar, olmoshlar, soxa atamalari, iboralar, ovoz tembri, ohang kabilarni to'g'ri qo'llashga alohida e'tibor berish lozim.

Adabiyotlar:

1. Adizova N. O'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasi. B.- "Globe" nashriyoti, 2022.
2. M.X.Butayorova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlar bilan tanishtirishda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, inter education & GLOBAL STUDY. ISSN 2992-9024 (online) 2024, №4(1)
3. M.X.Butayorova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlar bilan tanishtirishda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, Inter education & Global study. ISSN 2992-9024 (online) 2024, №4(1)
4. Nigora Baxtiyorovna Adizova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. Scientific progress
5. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Wwww.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
6. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar.
7. AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. The main motives and tasks of children's folklore. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Mo'minov I.X.

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: innovatsiya, nazariy-metodologik asoslar, psixologik ta'sir, shakl, vosita, kommunikativ, kreativlik, model, tahliliy ko'nikma, texnologiya.

Ключевые слова: инновация, теоретико-методологические основы, психологическое воздействие, форма, мотор, коммуникативность, креативность, модель, аналитические навыки, технология.

Key words: innovation, theoretical-methodological foundations, psychological impact, form, medium, communicative, creativity, model, analytical skills, technology.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari mantiqiylik, tezkorlik, kreativlik imkoniyatlari asosida takomillashtirilganligi, boshlang'ich sinf darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ma'qbul shakl, vosita va usullari kommunikativ va tahliliy ko'nikmalar, psixologik ta'sir ko'rsatish ko'nikmalari, mazmunini shakllantirish modeli asosida takomillashtirilganligi yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье показано, что теоретико-методологические основы использования инновационных педагогических технологий в начальных классах совершенствуются на основе возможностей логичности, быстроты, креативности, что приемлемая форма, средства и методы использования инновационных педагогических технологий на уроках начальных классов совершенствуются на основе коммуникативно-аналитических навыков, навыков психологического воздействия, модели формирования содержания освещено.

SUMMARY:

This article highlights the fact that the theoretical and methodological foundations of the use of innovative pedagogical technologies in primary classes are improved on the basis of the possibilities of logic, speed, creativity, the acceptable form, means and methods of using innovative pedagogical technologies in primary classes are improved on the basis of communicative and analytical skills, psychological impact skills, content formation model.

Kirish. Hozirgi vaqtda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashda zamonaviy axborot texnologiyalari keng imkoniyatlar yaratmoqda. Innovatsion



texnologiyalar hamda zamonaviy uslublar ta'limning sifat va samaradorligini oshirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi kuchli va izchil siyosat, bir tomondan, jahon ta'lim standartlarining yuksak darajasiga erishishga qaratilgan, ikkinchi tomondan esa xalqimizning ma'naviy-madaniy qadriyatlari va o'ziga xosligini hisobga oladi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini to'liq axborotlashtirishni, o'qitish mazmunini qayta ko'rib chiqish, o'quv fanlarini o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. "O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida Maktab o'qituvchilarini belgilangan xalqaro standartlar asosida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu o'z navbatida ta'lim muassasasida yagona axborot ta'lim muhitini shakllantirish, o'quv-me'yoriy hujjatlarni fanlar innovatsion ta'lim asosida takomillashtirish, Istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish zaruriyatini tug'diradi".[1]

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o'rganilgan.

Asosiy qism: Darhaqiqat, ta'lim muassasasida innovatsiya jarayonlarini tashkil etishning pedagogik shartlari sifatida quyidagilar sanab o'tiladi: innovatsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish; ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot salohiyatini shakllantirish; innovatsiya faoliyatini tashkil etishni ta'minlashning asosiy shartlari alohida boshqaruv jihatlari, ya'ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan, yangilangan boshqaruv tuzilishini shakllantirish.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va zamonaviylashtirish, ma'naviy etuk va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda innovatsion faoliyatning o'rni beqiyos. Chunki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti barcha turlarining sifati va takomillashuvining bevosita uzkuksiz ta'lim tizimida innovatsion faoliyatning samarali tashkil etilishi bilan uzviydir.

"Raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion yangiliklarning o'ta muhimligi, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat samaradorligi va natijaviyligi bevosita innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog'liqligi, ta'lim, fan va ishlab



chiqarishning samarali integratsiyalashuvini tahminlashning asosiy dastaklaridan biri ekanligi kabi ko'rsatkichlar tahlilda innovatsion menejmentning qay darajada muhimligidan dalolat beradi"[2]

Binobarin, innovatsion ta'lim texnologiyalari majmuaviy integrativ tizimlar bo'lib, ta'lim maqsadi bilan belgilangan kasbiy ko'nikma, malaka shaxs xislatlarini o'rganuvchilar tomonidan egallanishi, bilimlar o'zlashtirishga yo'naltirilgan operatsiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to'plamini o'z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik vazifaning belgilanishi quyidagilar bilan izohlanadi:

ta'lim maqsadlarini tahlil qilish, shu asosida o'quv fani mazmunini aniqlash;

o'quv fani mazmuni tuzilmasini ishlab chiqish va uni o'quv elementlari tizimi ko'rinishida ifodalash;

o'quv elementlarini o'zlashtirilish darajalarini belgilash;

maktab o'qituvchilarining dastlabki bilim darajasini aniqlash, bu ko'rsatkich o'quv fanining mazmuni asoslanadigan o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi;

o'quv-moddiy bazasi hamda ta'limning tashkiliy shakllariga qo'yiladigan chegaralarni belgilash.

Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan pedagog faoliyat ta'limning metod va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagog faoliyat uchta asosiy tashkil etuvchi turlar bilan tavsiflanadi: boshqarish turi, axborot almashinuv jarayonining turi, axborotni uzatish vositalari tiplari va bilish faoliyatini boshqarish.

"O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish kontseptsiyasiga asoslanib, uni tashkillashtirishni quyidagi mantiqiy ketma-ketlik asosiga qurish mumkin. Dastlab o'quv material mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan ko'zlangan maqsad (o'zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo'yilishi shartlari tahlil etiladi. So'ngra, o'qitishning mos ravishdagi metodlari hamda bo'lajak maktab o'qituvchilari bilish faoliyatini boshqarish sxemasi belgilab olinadi. Shu asosda o'qitish vositalarining ro'yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan ta'lim metodlari va vositalari tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg'unlashtiriladi, ya'ni texnologiya ishlab chiqiladi."[3]

"O'qitish texnologiyasi - bu tizimli kategoriya bo'lib, ilmiy ta'limotning didaktik qo'llanishiga, o'qituvchilarning innovatsion emperik yondashuvlari asosida ta'lim tizimini tashkil etish va tahlil qilishni ilmiy asoslashga, ularni rivojlantirishda yuqori natijalarga erishishga yo'naltirilgan jarayondir.

Ta'limning bu ko'rinishi quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan:

ta'limning maqsadi;



ta'limning mazmuni;
o'qitishning motivatsiyasi va vositalari;
o'qitish jarayonini tashkil etish;
maktab o'qituvchilari;
pedagog; faoliyat natijasi.

Ta'lim texnologiyasi o'zaro uzviy bog'langan ikki jarayonni o'z ichiga oladi:
o'qitiladigan shaxsning faoliyatini tashkil etish;
faoliyat ustidan nazoratni tashkil etish.

Ta'lim texnologiyasini o'rganishda zamonaviy elektron vositalarga to'xtalmay bo'lmaydi. Ularni ta'lim innovatsiyasining strategik elementlari deb atash mumkin. Odatiy ta'limda o'qitishning fanlararo modeli xos bo'lib unda fanlar keragidan ortiq ma'lumotlarga ega.”[3]

Innovatsion o'qitish strategiyasi ta'lim-tarbiya jarayonini shunday tashkil etishni ko'zda tutadiki unda avvalgiday pedagog etakchi element hisoblanadi, faqat uning maktab o'qituvchilariga va o'ziga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Shu bilan bir qatorda ularning yondashuvi ham o'zgaradi.

“Innovatsion ta'lim texnologiyalar muassasalarda ta'lim berishning zamonaviy ta'lim texnologiyasidir. Bu texnologiyaning maqsadi axborot texnologiyalaridan dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish o'qituvchilarni o'z faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishdan iborat bo'lib, ularning fanlarni o'rganishga ijodiy yondashuvini tarbiyalash; adabiyotlar bilan mustaqil ishlashni o'rgatish; fanlar o'rtasidagi bog'lanishdan foydalanishni ko'rsatish vazifalarini hal etish tarzida amalga oshiriladi.”[3]

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari nomini olgan mazkur metod asosida bir qator muammolar o'z echimini topmoqda. Harakatli rasmlar, telekonferentsiya, transliteratsiya, elektron kitob kabi yangi kompyuter axborot texnologiyalari o'quv jarayonini faollashtirish uchun xizmat qilmoqda. Innovatsion ta'lim texnologiyalari nafaqat fan, balki texnikani o'rganishda ham ahamiyatlidir. Texnikani o'rganishda ushbu o'quv texnologiyasidan quyidagi tartibda foydalanishni tavsiya etiladi: mavzuga oid materialni o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirishi uchun pedagog tomonidan texnikaviy vazifaning qo'yilishi; texnikaviy vazifani hal qilish yo'llarini ular tomonidan amalga oshirilishi.

Bunda o'qituvchilar muammoli savollar va o'zining ilmiy taxminlarini yozib boradi hamda interfaol muloqot rejasini tuzadi. Mazkur interfaol metod mashg'ulot qatnashchilarini o'zaro faolligi asosida darsni tashkil etila boshlandi. Boshlang'ich sinf darslari samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish o'qituvchilarning kitobdan kerakli ma'lumotni o'qib o'rganishi mustaqil ta'lim shakllaridan biridir. Uning samarasi ko'p jihatdan pedagog va ular o'rtasidagi muloqotning natijasiga bog'liq.



Demak, “interfaol metodlar katta ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid izlanishlarning natijalari haqidagi turli dars mashg’ulotlarida aytilgan fikr-ma’lumotlar, olimlarning ibratli hayoti va faoliyati bilan o’quvchilarni tanishtirish, ularni bugungi kundagi dolzarb hayotiy masalalarni professional darajada echa olishga o’rgatish, ularda fanga bo’lgan qiziqishni shu tarzda kuchaytirish muhimdir.”[4]

Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o’quvchining faolligiga asoslanadi. Bu usullardan foydalanilganda bilim olish o’quvchi uchun qiziqarli hayot faoliyatiga asoslanadi. Interfaol usullar qo’llanilganda o’quvchilar o’qitilmaydi, balki ularning o’zlari o’qituvchi bilan birgalikda muayyan yo’nalish va miqdordagi bilimlarni mustaqil o’zlashtiradilar.

Bu hol, ayniqsa, boshlang’ich sinf o’quvchilarida erkin fikirlash, mustaqil izlanishga rag’bat paydo qiladi. Bu shaklda uyushtirilgan ta’lim jarayoni qatnashchilari o’zaro bimalol tortishadilar, o’quv materialini buyurilganiday emas, balki o’zlari xohlaganiday erkin o’zlashtiradilar.

Ta’lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarda bo’lingan holda ishlashadi. O’quv topshiriqlari alohida bir o’quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha azolariga beriladi. O’quvchilarda jamoa tuyg’usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini oshiradi.

Interfaol usullar o’z - o’zidan tasodifan paydo bo’lib qolgan emas. U XX asrning so’ngi choragida yuzaga keldi. Ta’limni interfaol usulda tashkil etish uchun insoniyat tafakkuri muayyan yuksaklikka ko’tarilishi, ilm-u fanning taraqqiyoti o’zining avj nuqtasiga yuksalishi lozim edi. Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini mukammal loyihalashtirishni, aniq masalalar qo’yishni, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshiruvchi uzviy bog’langan majmua hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik jamoada muvaffaqiyatli joriy qilinishi va yaxshi samara berishi bir qator omillarga bog’liq. Ularni uchta katta guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh omillari kiritilayotgan yangilikning mazmuni, sifati va boshqa xususiyatlari bilan bog’liq. Bunda yangilikning mukammaligini, tajribada sinab ko’rilganligini va milliy - mahalliy sharoitda mosligini chuqur o’rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi guruh esa yangilikni kiritishga oid yondashuv bilan bog’liq omillarni qamrab oladi: yangilik kiritishning rejalashtirilganligi, bosqichma-bosqichlikka amal qilinganligi. Uchinchi guruh ijtimoiy- psixologik omillar bo’lib, uning tarkibiga yangilikka pedagogik jamoa munosabati, rahbarlik uslubi va boshqalar kiradi.



Har qanday yangilik kiritilishini, shu jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiyaning joriy qilinishi va zaruriy samara berishi pedagogik jamoa a'zolarining yangilikni qanday qabul qilishiga, unga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Odatda, yangilikning kiritilish jarayonida yangilikka nisbatan psixologik g'oya paydo bo'ladi. Psixologik g'ov yangilikka tegishli bo'lgan pedagogik jamoaning o'z yangiligiga nisbatan befarq yoki salbiy munosabatida namoyon bo'ladi. Kishilarda bunday psixologik g'ov ochiq yoki yashirin holda uchrashi kuzatiladi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, bunday g'ov kishilarning odatdagi faoliyat uslubini afzal ko'rishi, noaniqlikdan qo'rqishi, ortiqcha ishlarning paydo bo'lishidan, innovatsion jarayonning zaruriyati yoki muhimligini tushunmasliklari bilan bog'liq.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish samaradorligiga pedagogik jamoa rahbarlarining yangilikka munosabati, boshqaruv uslubi, rahbar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xususiyatlari kuchli ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik jamoa a'zolari bu yangilik haqida to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash hamda ularning bu zamonaviy pedagogik texnologiya munosabatini aniqlash, shu asosda bu munosabatni yaxshilashga yo'naltirilgan tadbirlar olib borish zarur.

Qator ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahlil etish asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish sharoitida samarali boshqaruvning quyidagi asosiy tamoyillarini ajratish mumkin:

1. Yangilik kiritishga har tomonlama tayyorlanish.
2. Yangilikning maqsadi, mazmuni va ahamiyati haqida xodimlarni to'liq, ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash.
3. Yangilik kiritish haqida qaror qabul qilish, unga tayyorgarlik ko'rish va kiritish jarayonlarida tegishli bo'lgan barcha xodimlar, mutaxassislar, rahbarlarning faol qatnashuvini ta'minlash, motivatsiyalash.

Darhaqiqat, ta'lim muassasalarida innovatsiya jarayonlarini tashkil etishning pedagogik shartlari sifatida quyidagilar sanab o'tiladi.

1. Innovatsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy - pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish.
2. Ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot salohiyatini shakllantirish.
3. Innovatsiya faoliyatni tashkil etishni ta'minlashning asosiy shartlari alohida boshqaruv jihatlarini, ya'ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan, yangilangan boshqaruv tuzilishini shakllantirish.

O'qituvchilarni ta'lim tizimidagi innovatsiya jarayonlariga va innovatsiya faoliyatiga tayyorlash, o'ziga xos pedagogik muammo bo'lib, uning asosida o'qituvchining o'zini o'z - o'zini kasbiy rivojlantirishga intilishi, innovatsiya



jarayonlarining ahamiyatini anglashi, o'zgarishlar va yangiliklarni mazmun - mohiyatini tushunish va mantiqan zarurligini qabul qilishi kabi omillar yotadi.

Jumladan, mamlakatimiz ta'lim tizimining hozirgi taraqqiyot bosqichi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash tajribasi, milliy va tarixiy, mafkuraviy shart - sharoitlarga javob berishi, ta'limning an'anaviy modellari umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus, kasb - hunar kollejlari sinf dars tizimi, oliy ta'lim muassasalarida ma'ruza, seminar kabi ta'lim hukmron bo'lgan vaqtda shu davrga mos keluvchi texnologiyalarni qo'llash ijobiy natija berishi shubhasiz.

Rivojlangan mamlakatlardagi ko'plab texnologiyalardan keng qo'llanilayotgan hamkorlikda o'qitish, loyihalar uslubi, tabaqalashgan o'qitish, o'quvchi papkasi kabi texnologiyalarni tanlashimizda yuqoridagi shart-sharoitlardan tashqari, taklif qilinayotgan texnologiyalarning yana bir muhim jihati shundaki, ya'ni ularning hozirgi ta'limdagi ijobiy tomonlarini saqlagan holda qo'llash imkoniyatining mavjudligidir.

Bundan tashqari, bu texnologiyalar falsafiy, psixologik, pedagogik, didaktik mohiyatiga ko'ra insonparvarlik tasnifga ega. Bularning insonparvarlik tavsifi faqat nazariy va mafkuraviy jihatdan milliy istiqloq mafkurasiga talablariga mos kelishi emas, balki amaliy jihatdan ma'naviyati yuksak, barkamol insonni shakllantirishga yo'nalganligida. Ular ta'limning tarbiyaviy mazmunini kuchaytirish, ta'limning tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirish, o'quv materialini o'quvchilar jamoa bo'lib, bir-biriga suyanib, hamkorlikda chuqur va puxta o'zlashtirishini ta'minlash, ularning intellektual, axloqiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashini ta'minlaydi. Shu bilan bir - biriga yordam berishi muloqotini yaxshilashga xizmat qiladi.

Hozirgi o'qitishdagi har bir ta'lim oluvchining faqat o'zi bilimni o'zlashtirishidan manfaatdorligi asosida unda shakllanuvchi raqobat, kalondimog'lik, qo'pollik, manmanlik, avtoritar xislatlardan xalos bo'lishga zamin tayyorlaydi. Bu esa bizning milliy va hozirgi ta'lim islohotimizning talablariga hamohang. Bu texnologiyalarning ta'limdagi asosiy mohiyati ta'lim oluvchi shaxsi kamoloti, tanqidiy fikrlashi hamda o'ziga xos individualligiga asoslanishi. Shu bilan birga ularning an'anaviy ta'limdagi faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ularni takrorlashga muqobil uslub sifatida xizmat qilishi. Mazkur texnologiyalar uslubiy jihatdan "O'zbek modeli"ning bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasiga mos kelib, ta'limni tadrijiy tarzda mohiyat e'tibori bilan zamonaviy texnologiya asosida ko'rish imkoniyatini beradi.

Ular psixologik va pedagogik mohiyati bilan insonparvarlik tavsifiga ega bo'lgan shaxsga yo'nalgan texnologiya: hamkorlikda o'qitish, loyihalar uslubi,



tabaqali o'qitish, "o'quvchi papkasi" o'z mazmun va mohiyati jihatidan o'zaro bog'liq va bir - birini taqozo qiladi va yaxlit didaktik tizimni tashkil etadi. Bular ta'lim oluvchilarni halollik, oshkoralik, boshqalarga g'amxo'rlik, saxovat, samimiyluk, o'zaro yordam ruhida tarbiyalaydi.

Shaxsga yo'nalgan ta'lim texnologiyalarini qo'llashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

ta'lim oluvchi tajribasi, bilimning tabaqaliligi, fanga qiziqishi, bilim saviyasi;

ta'lim oluvchining psixik xususiyati (xotira, idrok, tafakkur, o'z hissiyatini boshqara olish);

fe'l-atvori va mijozining xususiyati. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchi shaxsining o'ziga xos belgilarini e'tibordan soqit qilmasligi lozim.

Hamkorlikda o'qitish faqat ta'limiy jihatdan ahamiyatli bulmay, balki tarbiyaviy tomondan ham o'quvchilarning intellektual va axloqiy kamolotiga kuchli ta'sir qiladi. Hamkorlikda o'qitishning muhim jihati jamoaviy faoliyat ko'rsatish bo'lib, bunda o'quvchilarda o'zaro hamkorlik, bir-biriga bog'liqlik hissiyotlari, o'zaro harakatlar faoliyatini muvofiqlashtirish munosabatlari shakllanadi. Hamkorlikda o'qitish o'quvchilarning ijtimoiylashuviga, o'zaro muloqot ko'nikmalarining shakllanishi uchun muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilarda yoshligidan bir - biriga yordam hissiyotlari rivojlanib, bu faqat darsda emas, balki yashash tarzida va butun hayoti davomida bironvga yordamga kelish, har qanday muammoni birgalikda hal qilishdan quvonish kabi shaxsiy sifatlariga aylanadi. Xo'sh hamkorlikda o'qitish texnologiyasining mohiyati yoki didaktik asoslari nimada? Bu usul o'quvchilarning harakatlarini ma'lum ketma - ketlikda bajarishi bo'lib, o'qitishning u yoki bu uslublarini amalga oshirishni ta'minlaydi, yoki uslublar majmuasi bo'lib, ta'limga ma'lum yondashishni ta'minlaydigan didaktik tizim.

"O'quvchilarning bilimi va faoliyatini tashkil qilishning turli usul va vositalari umumiy mantiqi, hamkorlikda o'qitish tamoyillarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu majmualar o'z navbatida hamkorlikda o'qitish texnologik asosini tashkil etadi. Faqat shunday asosda ko'rilgan didaktik tizim va pedagogik jarayonda sinalgan usul, vositalar texnologiya sifatida xizmat qilishi mumkin. Didaktik tizimning asosini o'qitish uslublari majmuasi tashkil etib, ular ma'lum nazariy asos, prinsiplarga ta'lim konsepsiyasiga asoslanadi." [5]

Tanlanadigan o'qitishning usul va vositalari hamkorlikda o'qitish g'oyasi talablaridan kelib chiqishi lozim. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi turli mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinmoqda degan edik. Bunda uning hamma joyda, bir xil qolipda emas, balki turli xilda qo'llab boyitish, turli variantlar shakllanishi e'tiborga molik. Masalan, Amerikadagi Djon Xopkins universitetida komanda tarzida o'qitish keng qo'llaniladi. Bunda asosiy e'tibor ta'limning



guruhli maqsadiga qaratilib, guruh muvaffaqiyati uning har bir a'zosi mustaqil ishing natijasiga bog'liq bo'ladi.

Guruhning har bir a'zosi boshqalar bilan doimiy o'zaro hamkorlikda o'rganiladigan mavzu (muammo) ustida ish olib boradi. Guruh har bir a'zosining vazifasi birgalikda muammoni hal qilib, birgalikda bilish asosida komandaning har bir a'zosi zarur bilimlarni egallab, kerakli ko'nikma va malakalarning shakllanishiga erishiladi. Bunda butun komanda har bir o'quvchining nimaga erishganini bilishi muhim hisoblanadi. Butun guruh o'quv materialini uning har bir a'zosi egallashidan manfaatdor. Chunki butun komanda muvaffaqiyati uning har bir a'zosining qo'shgan ulushi va guruhning hamkorlikda o'z oldiga qo'ygan masala echishiga bog'liq. Hamkorlikda o'qitishning komanda tariqasida o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi quyidagi uch asosiy tamoyilga asoslanadi:

1. Har bir o'quvchining shaxsiy mas'uliyati butun guruhning yutug'i va kamchiligini belgilaydi. Bu esa guruh a'zolarining har birini boshqalar faoliyatini nazorat qilish, o'quv materialini o'rtog'ining o'zlashtirishi va tushunishiga yordamlashishiga zamin hozirlaydi. Guruh a'zolarining o'z bilimlarini turlicha baholash, nazorat qilishga tayyor turishlarini ta'minlaydi.

2. Guruhdagi har bir o'quvchining o'zlashtirishdagi teng imkoniyatlari o'z komandasiga olib keladigan ochkolari avvalgi natijalarini yaxshilash asosida amalga oshiriladi. O'zlashtirish natijalarini avvalgilari bilan taqqoslash aynan shu guruh o'quvchilari erishgan natijalarni baholash imkoniyatini beradi.

Ta'limni bunday tashkil qilishda asosiy narsa butun komandani taqdirlash va har birining shaxsiy mas'uliyatini sezishini shakllantirish. Bunda o'quvchilarning birgalikda ishlashi uchun ko'rsatma berish muhim bo'lmay, balki har bir o'rtog'ining bilim egallashidan manfaatdorlikni shakllantirish asosiy hisoblanadi. Shu bilan birga o'quvchilarning hozirgi egallagan bilimlarini avvalgi natijalari bilan taqqoslash, ularni taqdirlashga nisbatan ancha ta'sirchan hisoblanadi. Bu esa ularning shaxsiy natijalarini yanada chuqurlashtirishga olib keladi. Hamkorlikda o'qitishning komanda tarkibida ishlashning to'rt xili mavjud. Bulardan ikkitasi umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlarning hammasida qo'llanilishi mumkin.

Bunda o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirib, so'ngra o'quvchilarni guruhlarda uni mustahkamlash, hamma jihatlarini anglab olishni topshiradi. Guruhlarda ma'lum topshiriq, zaruriy tayanch tomonlarini fahmlash beriladi. Bunda topshiriq ayrim qismlarga bo'lib, har bir o'quvchi o'z qismini o'rganishi yoki aylanma tariqasida har bir o'quvchi undan keyingi qismni bajarishi tarzida bo'lishi mumkin.



Topshiriqni bajarishni guruhdagi kuchli yoki bo'shroq o'zlashtiruvchi o'quvchi boshlashi, ammo, har bir topshiriqni bajarish oshkora, ovoz chiqarib tushuntirilishi va butun guruh nazorat qilishi lozim bo'ladi. Agar topshiriq guruh uchun bir xil bo'lsa, butun guruh topshiriqni bajarib bo'lgach, o'qituvchi darsni turli guruhlarining ishini umumiy holda muhokama qilishi mumkin. Agar topshiriq turlicha bo'lsa, har bir guruh, alohida yakunlashi mumkin.

Xulosa. Boshlang'ich sinf darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlardan foydalanish o'qitishning uzluksizligini ta'minlaydi, o'qitish individuallashtiriladi, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratiladi. Jumladan:

1. Ta'lim - tarbiya tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari va dars jarayonida pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilindi va o'rganildi.

2. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishga oid o'quv materialini tanlash tamoyillari aniqlandi.

3. Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlardan foydalanish holati o'rganildi va tahlil qilindi.

4. Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslar va ta'limning interfaol usullari o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini va ilm olishga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

5. Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhim tarbiyaviy ahamiyati shundaki, har bir darsda o'rganiladigan ilmiy tushuncha va qonuniyatlarni shunchaki o'rganib qolmasdan, balki uni keltirib chiqaruvchi sabablarni ham aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - T.: -2017. 6-son. 70-modda.

2. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. O'quv qo'llanma. - T.: 2001. - 68 s.

3. Mo'minov I., Eshmatov I. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 70-75.

4. Eshmatov I., Mo'minov I. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish //Международная конференция академических наук. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 28-31.

5. Muminov Isroil Xudoysshukur ugli. (2023). The role and importance of using interactive methods in the educational process. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7668591>.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI TAYYORLASHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

Raupova S.A.

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: TIMSS, xalqaro baholash, milliy monitoring, baholash.

Ключевые слова: TIMSS, международная оценка, национальный мониторинг, оценка.

Key words: TIMSS, international assessment, national monitoring, assessment.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini TIMSS xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy tajribalari tahlil etilgan. Tahlillar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini TIMSS tadqiqotlariga tayyorlash yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье анализируется опыт Сингапура, Южной Кореи и Китая по подготовке учащихся начальных классов к международным оценочным исследованиям TIMSS. На основе анализа были сделаны предложения и рекомендации по подготовке учащихся начальных классов к изучению TIMSS.

SUMMARY:

The article analyzes the experiences of Singapore, South Korea, and China in preparing elementary school students for TIMSS international assessment studies. On the basis of the analysis, suggestions and recommendations were made regarding the preparation of primary school students for TIMSS studies.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarorida "O'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta'minlash dasturini ishlab chiqish" ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].



Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement) Matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi – TIMSS (Trends in International mathematics and science study) tomonidan har to'rt yilda bir marta 4- va 8- sinf o'quvchilarining matematika hamda tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi baholab boriladi.

Bugungi kunda globallashuv, mehnat bozorining talablari ta'lim tizimiga yangi standartlarni joriy etishni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda raqobatbardoshligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda xorijiy tajribani o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.


TIMSSning 2019-yilgi natijalariga ko'ra tabiiy fanlar bo'yicha Singapur, Janubiy Koreya, Rossiya, Yaponiya, Finlandiya kabi davlatlarning o'quvchilari yuqori natijalarga erishdi. Ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga muvaffaqiyatli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Singapur. Singapur ta'limi yangi bilim va texnologiyalarga tayangan, iqtisodiyot uchun namuna bo'lgan tizimdir. Bilim va insoniy ko'nikmalarga sarmoya kiritish tizimning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Ta'lim tizimining rivojlanishida muhim element – STEM (Science – Fan, Technology – Texnologiya, Engineering – Muhandislik va Mathematics – Matematika) ta'lim modelining joriy etilishi natijasida texnologik rivojlanish yuzaga keldi.

Singapur iqtisodiyoti rivojlanishining yuqori darajasi o'z navbatida ta'limga yuqori global xarajatlar bo'lishini ta'minlaydi. 2018-yilda ta'limga 12,8 milliard Singapur dollari, sog'liqni saqlashga 10,2 milliard Singapur dollari sarflangan. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining 16 foizi ta'limga sarflanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (OECD- Organisation for Economic Co-Operation and Development) a'zo mamlakatlarda o'sha paytda ta'limga sarflangan xarajatlarning o'rtacha miqdori yalpi ichki mahsulotning 4,5 foizini tashkil etgan. Quyidagi 1.1.1-rasmda 2000-2019 yillarda Singapur ta'lim tizimiga sarflangan xarajatlar miqdori keltirilgan:

Ko'rinib turibdiki, deyarli 10 yil davomida Singapurda ta'limga sarflanadigan mablag'lar ortib borgan. Ammo 2019-yilda xarajatlar 0,5 milliard Singapur dollariga kamaygan. Shu yili bu mamlakat yalpi ichki mahsulotning 2009-yildan beri eng kichik o'sishi qayd etildi. Ta'limga sarflanadigan mablag'lar bilan bog'liq yana bir muhim jihat - bu o'qituvchilarning mehnati uchun mo'ljallangan mablag'lardir. Bu sohada Singapur ta'lim tizimi ham shu maqsadda o'z resurslarini ajratayotgan davlatlar orasida birinchi o'rinda turadi.[1]

Dunyoning boshqa mamlakatlarida bo'lgani kabi Singapurda ham uning madaniyati va iqtisodiyoti uchun o'ziga xos ta'lim tizimi mavjud. Yillar davomida o'tkazilgan barcha islohotlar dunyodagi eng samarali zamonaviy ta'lim tizimini yaratishga yordam berdi.



1.1.1-rasm. 2010-yildan 2019-yilgacha Singapurda ta'limning barcha darajalariga hukumat xarajatlari (Singapur dollari hisobida)

Singapur ta'lim tizimida 1-4 sinflar uchun dastur majburiy hisoblanadi, 5-6 sinflarda o'quvchilarga ko'p bosqichli dasturlar taklif etiladi. O'quvchilarga qiziqish hamda imkoniyatlariga qarab bir dasturdan ikkinchisiga o'tish imkoniyati beriladi.

O'quvchilarni baholashda ikkita asosiy maqsadga qaratiladi: nimani o'rgandi, nimani bajara oladi.

O'quv jarayonida qo'llaniladigan baholashning 3 ta turi mavjud: yakuniy, shakllantiruvchi(formativ), diagnostik. Summativ(yakuniy) baholash test yoki imtihonlar yordamida o'quvchining nimani o'zlashtirganligini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Uning natijalari ball(baho) yoki o'rganilgan materialni o'zlashtirganlik darajasi ko'rinishida bayon qilinadi. Formativ va diagnostik baholash o'quvchilarga o'quv jarayonida, o'qituvchilarga esa dars jarayonida o'z vaqtida yordam ko'rsatish maqsadida o'tkaziladi. Shuning uchun, o'quv jarayonida baholashning asosiy maqsadi o'quvchilarga yordam berishdir, shu bois u asosan shakllantiruvchi va diagnostik xarakterga ega bo'lishi shart.

An'anaviy yozma testlardan tashqari qo'shimcha ma'lumot olishga imkon beradigan boshqa baholash usullardan foydalaniladi. O'quvchilarga kundalik hayot yoki real dunyo bilan bog'liq muammoli vazifalar beriladi. Baholash o'qituvchi topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchining kuzatishi, yechimni interaktiv tarzda sharxlashga alohida e'tibor qaratiladi.[2]

O'qituvchi o'quvchilarni o'z qarorlarini baholashga, kamchiliklarni aniqlashga va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashga jalb etadi. O'quv jarayonining borishiga qarab, o'quv jarayonida baholash ham qo'llaniladi.

Maktablar har bir o'quvchining o'zlashtirishini tizimli ravishda kuzatib boradi va ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Ota-onalar o'z farzandlarining



yutuqlari haqida xabarlar, shaxsiy telefon suhbatlari, o'qituvchining uyda shaxsiy tashriflari va o'qituvchilar bilan maktabda ota-onalar yig'ilishlarida xabardor qilinadi.

O'qituvchilarning tayyorgarligini davlat darajasida baholash boshlang'ich va o'rta maktablar yakunida umumxalq imtihonlari shaklida amalga oshiriladi. Imtihon varaqlarining mazmuni boshlang'ich va o'rta maktablarining milliy dasturlari asosida tuziladi.

Imtihonlar. Singapur imtihonlari va baholash qo'mitasi tomonidan Ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi va boshqariladi. Boshlang'ich maktab kursi bo'yicha yakuniy imtihon (PSLE-Primary School Leaving Examination) 6-sinf oxirida o'tkaziladi. Ushbu imtihon talabaning quyidagi fanlar bo'yicha yutuqlarini tekshiradi: ingliz tili, ona tili, matematika va tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya).

Ushbu imtihonning asosiy maqsadi o'quvchining o'rta maktabda o'qishga tayyorligini va o'rta maktabdagi fanlar bo'yicha kurs dasturini fanlarni o'rganishda uning imkoniyatlariga ya'ni qobiliyatlari va qiziqishlariga eng mos keladiganini tanlaymiz.

Misol tariqasida matematikadan imtihondan foydalanib, boshlang'ich sinf imtihonining xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Bu imtihon shakli va uslubi jihatidan boshqa mamlakatlardagi o'xshash imtihonlardan yaqqol farq qiladi. O'quvchilar uchun ish 3 ta daftarda taqdim etiladi, unga 2 soat 30 daqiqa vaqt ajratiladi. Imtihonning birinchi qismi -1-ish(50 min) 2daftar –A daftar va B daftardan iborat, imtihonning ikkinchi qismi – 2-ish (1 soat 40 min) uchunchi daftarni o'z ichiga oladi. A daftarida faqat bir nechta variantni tanlash imkoniyati bo'lgan 15 ta vazifa mavjud.

Dastlabki 10 ta topshiriqning har birini bajarish uchun 1 ball, qolgan 5 ta vazifaga 2 ball beriladi. Ushbu 15 ta topshiriqni bajarish baholari butun imtihon varaqasi uchun umumiy ballning faqat kichik qismini (20%) tashkil qiladi. B kitobida 15 ta ochiq savollari mavjud. Dastlabki 10 ta topshiriqning har birini bajarish uchun 1 ball, qolgan 5 ta vazifaga 2 ball beriladi. 1-qoidadagi topshiriqlar, asosan, o'quvchi yutuqlarining bilim komponentini sinab ko'rishi uchun oz kuch talab qiladi. 2-ish bir nechta vazifalarni o'z ichiga oladi, ular murakkabligi oshishi bilan tartibga solinadi, ularning bajarilishi 2 dan 5 ballgacha baholanadi, jami – 60 ball . Ishda batafsil javoblari bo'lgan topshiriqlar mavjud bo'lib ular 4 dan 5 ballgacha baholanadi.[3]

Bular evristik xususiyatga ega bo'lgan vazifalar bo'lib, o'quvchidan o'z bilimiga asoslanib, yangi qoida, bayonot, tushuncha yoki algoritm yaratishni talab qiladi, shu bilan birga, faqat topshiriqga javob berishga olib keladigan mulohazalar va hisoblar baholanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi so'nggi vazifalar ota-onalarning tanqidiga sabab bo'ladi, chunki ularning fikriga ko'ra, ular dastur doirasidan tashqariga chiqadi, mutaxasssilar tomonidan aniq baholanmagan va o'qituvchilar tomonidan muhokama qilinadigan mavzudur.[4]



Janubiy Koreya. Koreya ta'limning maqsad – barcha odamlarga o'z fe'l-atvorini yaxshilash, mustaqil hayot kechirish qobiliyatini rivojlantirish, demokratik jamiyatning malakali fuqarosi bo'lish, demokratik davlat qurishda faol ishtirok etish va insoniyatning gullab-yashnashiga yordam berishdir. Koreyada fuqarolik jamiyati yaratilgan bo'lib, u insonning butun hayoti davomida ochiq ta'limni yaratish va uning faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun resurslar bilan ta'minlashga yordam beradi.

Koreyadagi maktab tarkibi 6 yil – boshlang'ich, 3 yil-o'rta va 3 yil – yuqori. Davlatning har bir fuqarosiga o'z imkoniyatlarini hisobga olgan holda maktabning uchta bosqichida erkin o'qish imkoniyati yaratilmoqda. Shu qatorda, barcha bolalar uchun boshlang'ich maktabda va 2002 yildan boshlab o'rta maktabda ta'lim majburiydir. Koreyada 1-10- sinflar uchun milliy umumiy asosiy o'quv dasturi mavjud.

11-12- sinflar uchun har bir o'quvchi o'zining qiziqishlari, fanlarga bo'lgan munosabati va martaba rejalarini inobatga olgan holda o'z imkoniyatlariga mos fanlari tanlashi mumkin bo'lgan dastur ishlab chiqilgan.

O'quvchilar yutuqlarini shakllantirish va diagnostik baholash o'qituvchilar va maktab ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi. Baholashning bu turlari o'qituvchiga muayyan o'quvchining yutuq va kamchiliklari to'g'risida tezkor ma'lumot olish va unga o'z vaqtida yordam ko'rsatish, shuningdek, muayyan sinfda tashkil etayotgan o'quv jarayoniga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Baholash o'quv fanlari bo'yicha standartlarga erishishga, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan.[5]

Maktabda baholash. Maktablar turli materiallar va usullardan foydalangan holda, o'quv fanlari mamuniga muvofiq, ma'lum bir sinf darajasida o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasini baholaydi. Boshlang'ich maktablar (1-6-sinflar) o'quvchilar tomonidan ko'rsatilgan individual natijalarni yozma ravishda qayd etishlari kerak, ular orasida: o'quvchining darsdan tashqari faoliyati, xarakter xususiyatlari va fanlar bo'yicha muvaffaqiyati. O'quvchilar asosan quyidagi fanlar asosida sinovdan o'tkaziladi: matematika, o'qish, yozish, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar va boshqalar.

Milliy monitoring tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi: o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati va yutuqlarini, davlat darajasidagi ta'lim sifatini va milliy ta'lim dasturining uning maqsadlariga muvofiqligini baholash; o'quv jarayoni sodir bo'ladigan sharoitlarini tavsiflovchi va o'quvchilar yutuqlariga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida kontekstli ma'lumotlar to'plami. Monitoring natijalari talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar va hukumatga yetkaziladi. O'quvchilarning davlat darajasidagi yutuqlarini nazorat qilishdan tashqari, Koreyaning alohida hududlari (metropoliya va viloyatlar) darajasida o'quvchilarni tayyorlash testlari o'tkaziladi. O'quvchilar davlat darajasida tizimli imtihondan o'tkazish quyidagi fanlar bo'yicha amalga oshiriladi: koreys tili, ijtimoiy fanlar, matematika, tabiiy fanlar va ingliz tili. Bu tasodifiy test bo'lib unda 6,9 va 10-sinf o'quvchilarning namunalari (taxminan



3%) ishtirok etadi; Ushbu sinflarning tanlanishi tasodifiy emas va boshlang'ich maktab ta'limi 6-sinfda, o'rta maktabda esa 9-sinfda tugashi bilan izohlanadi.

Xitoyda ta'lim sifatini monitoring qilish milliy tizimi 1990-yillarda shakllana boshlagan. Ushbu tizim maktabda o'quvchilarning axloqiy, intellektual va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak, deb hisoblagan, unga ta'lim sifatini nazorat qilish va oshirishda muhim rol berilgan.[6]

Xulosa. Ta'lim taraqqiyotining rivojlanishida ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida 1995-yilda TIMSS Xalqaro o'quv dasturi (ICA) mamlakatning o'quv dasturlari standartlarini mo'ljallangan o'quv dasturlari va ularning darsliklarini potensial amalga oshirilgan o'quv dasturlari sifatida qamrab olish uchun ishlab chiqilgan. Ta'lim imkoniyatlari haqidagi tasavvur IEA o'quv rejasining uch tomonlama moduli edi. O'shandan buyon ushbu tadqiqotdan olingan bilimlarni kengaytiruvchi ko'plab maqolalar va kitoblar nashr etildi. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoniga TIMSS tadqiqotini targ'ib qilish, uni amaliyotga joriy etish va TIMSS tadqiqotining o'ziga xos talab va maqsadlarini qisqacha ko'rib chiqish barcha davlatlar uchun muhim, dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. Martin, M. O., Mullis, I.V.S., & Foy, P. (2013). TIMSS 2015 assessment design. In Mullis, I.V.S. & Martin, M.O. (Eds.), TIMSS 2015 Assessment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center website: https://timssandpirls.bc.edu/timss2015/downloads/T15_FW_Chap4.pdf
2. Martin, M. O., Mullis, I.V.S., & Foy, P. (2017). TIMSS 2019 assessment design. In Mullis, I.V.S., & Martin, M. O. (Eds.), TIMSS 2019 Assessment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center website: <https://timss2019.org/wp-content/uploads/frameworks/T19-Assessment-Frameworks-Chapter-4.pdf>
3. Martin, M. O., von Davier, M., Foy, P., & Mullis, I.V.S. (2019). PIRLS 2021 assessment design. In I.V.S. Mullis, & M. O. Martin (Eds.), PIRLS 2021 Assessment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center website: http://pirls2021.org/frameworks/wp-content/uploads/sites/2/2019/04/P21_FW_Ch3_AssessDesign.pdf
4. Martin, M. O., von Davier, M., Foy, P., & Mullis, I.V.S. (2019). PIRLS 2021 assessment design. In I.V.S. Mullis, & M. O. Martin (Eds.), PIRLS 2021 Assessment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center website: http://pirls2021.org/frameworks/wp-content/uploads/sites/2/2019/04/P21_FW_Ch3_AssessDesign.pdf
5. UNESCO. (2012). International standard classification of education ISCED 2011. Retrieved from <http://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/international-standard-classification-of-education-isced-2011-en.pdf>
6. P., Fishbein, B., von Davier, M., & Yin, L. (2020). Implementing the TIMSS 2019 scaling methodology. In M. O. Martin, M. von Davier, & I.V.S. Mullis (Eds.), Methods and Procedures: TIMSS 2019 Technical Report (pp. 12.1–12.146). Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center website: <https://timssandpirls.bc.edu/timss2019/methods/chapter-12.html>



TIMSS TADQIQOTIDA MATEMATIK SAVODXONLIK BO'YICHA TOPSHIRIQLARNING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARI UCHUN AHAMIYATI

Eshnazarova M.T.

Termiz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Tayanch so'zlar: kompetentlik, matematika va tabiiy fanlar, TIMSS, topshiriq, matematik savodxonlik.

Ключевые слова: компетентность, математика и естественные науки, ТИМСС, задание, грамотность по математике.

Key words: competence, mathematics and natural sciences, TIMSS, task, mathematical literacy.

РЕЗИЮМЕ:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida TIMSS Xalqaro baholash tizimining ahamiyati haqida so'z boradi.

РЕЗИЮМЕ:

В данной статье рассматривается важность Международной системы оценивания TIMSS на уроках начальной математики.

SUMMARY:

This article describes the importance of the TIMSS International Assessment System in elementary mathematics classes.

Bugungi kunda jahondagi har bir davlat matematik savodxonlik yoki kompetentlik tushunchasi bo'yicha o'z qarashlariga ega bo'lib bormoqda. Shuningdek undan kutilgan natijaga erishish uchun o'z ta'lim jarayonini takomillashtirmoqda. Bunda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholashning Xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan



birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:[1] PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash; TIMSS – 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish; PISA – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. Ushbu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

TIMSS (The Trends in International Mathematics and Science Study)- Matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi. Bu tadqiqot o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich maktabning 4-sinfi va tayanch maktabning 8-sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o'rganishni maqsad qilib qo'ygan xususiyatlari va yutuqlarini e'tirof etadi. [2]

Ta'lim sifatini oshirish va xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) tadqiqotidir. Ushbu tadqiqot har to'rt yilda bir marta turli davlatlarda o'quvchilarning matematik va ilmiy bilimlarini baholash maqsadida o'tkaziladi. TIMSS tadqiqotining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ahamiyati katta bo'lib, ularning matematik savodxonligini o'lchash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot orqali olingan natijalar mamlakatlar ta'lim tizimini takomillashtirishda, o'qitish usullarini zamonaviylashtirishda va kelajakdagi muvaffaqiyatli ta'lim jarayonini yaratishda yordam beradi.

Bilamizki, ilk maktab yoshidayoq o'quvchi o'rganuvchi sifatida barcha fanlarga sekin-asta kirib, ularni o'zlashtirib boradi. Xususan matematika fani asosida boshqa fanlar ham bola tasavvurida shakllana boradi. Matematikaga qiziqish bolada, avvalo, oilada shakllanadi. 3-4 yoshidayoq sanoqni, o'rinni, tartibni, o'lchovni farqlay boshlaydi. Qushlarning soni, uylarning joylashuv o'rni, aka-opalarning tartibi, “orqada-oldinda”, “katta-kichik” tushunchalarini ayta oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish maqsadida qiziqarli matematik o'yinlar, boshqotirmalar, geometrik masala va mashqlar, muammoli arifmetik masalalar, matematik



mazmundagi topishmoqlardan vosita sifatida foydalanish o'rinlidir. Matematik o'yinlar o'quvchilar bilimini boyitishga, ularda aqliy faoliyatni o'stirishga yordam beradi. Shu jumladan, qiziqarli matematik o'yinlar o'quvchilar tafakkurining rivojlanishiga har tomonlama ta'sir etuvchi vosita hisoblanib, uning yordamida aqliy va irodaviy rivojlanish amalga oshiriladi. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, o'zining bo'lgan qiziqishini yo'qotmaydi. U avvalgidek o'yinga o'ch bo'ladi. Hatto qiziqarli masalalar ham bolalarda faollikni uyg'otib, taffakurini rivojlantiradi. Bunday bilimlarni rivojlantirish, matematik savodxonlikni shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasida bo'ladi.

Matematik savodxonlik deganda, o'quvchilarning matematik tushunchalar, arifmetik amallar va geometrik shakllar haqida bilimga ega bo'lishi va bu bilimlarni kundalik hayotda qo'llash qobiliyati tushuniladi. TIMSS tadqiqotida matematik savodxonlik ko'proq amaliy ko'nikmalarga urg'u beradi, ya'ni o'quvchilarning real hayotdagi matematik muammolarni yechishdagi mahoratini aniqlashga qaratilgan. Bu o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ijodiy yondashishni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. [3] U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, dalillar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Matematik savodxonlik har bir kishiga matematika olamini tushunishga, uning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini anglashga, faol, mulohazali va ishning kozini biladigan (konstruktiv) shaxs uchun zarur bo'lgan, asosli mulohazalar yuritish orqali maqbul qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o'zida shakllantirishga xizmat qiladi. Matematik savodxonlik aniq hisob- kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, kasbiy, oilaviy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik hayotda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy bilish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan qulay sharoitga olib keladigan fan-texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur bilimlar matematika fani asosida barcha fanlar orqali o'quvchilarda matematik savodxonlikni shakllantiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, boshlang'ich sinfdagi matematikani o'rganish, matematik savodxonlikni shakllantirish yuksak bilimlarni egallashda poydevor bo'lib xizmat qiladi.[4]



Hozirda yangi Milliy o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan yangi taraqqiyot darsliklari xalqaro standartlarga to'liq mos holda yaatilmogda. Unda keltirilgan qiziqarli topshiriqlar, misol-masalalar, boshqotirmalar, grafiklar, jadvallar, audio topshiriqlar o'z-o'zidan bolani fikrlashga undaydi, dars faoliyatiga bolani erkin fikrlashini ta'minlaydi. Ammo, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bular bilan cheklanib qolmasligi lozim. O'qituvchi qo'shimcha mashg'ulotlar, to'garaklar tashkil etib, bolani matematika olamiga jalb etishi, qo'shimcha topshiriqlar orqali bolada matematik dunyoqarashni shakllantirishi kerak. O'quvchilar qoriyona yod olishdan mustaqil fikrlashga o'tishlari lozim. O'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni o'quvchi o'zlashtirib, xulosani mustaqil chiqara olishi, keng fikr yuritib qaror qabul qila oladigan darajada savodxon bo'lmog'i lozim. Bularga erishish uchun o'qituvchi juda ko'p mehnat qilishi, darslar samarali tashkil etilishi, dars soatlaridan ko'zlangan maqsadga erishilishi, o'qituvchi kuchli metodik bilimga ega bo'lishi, darsni noan'anaviy turli texnologiya hamda metodlar orqali tashkil etib o'quvchilarni matematikani sevishtga o'rgatishi lozim. Shundagina o'quvchilarning matematik savodxonligini shakllantirib, o'quvchilarga matematikani egallash sari yo'l ochib bergan bo'ladi. Matematik savodxonlikni shakllantirish bilan birga uni baholash ham muhim ahamiyatga ega. Bunda hozirgi zamon xalqaro baholash dasturlari qo'l keladi. Bu albatta, katta maktab yoshidagi o'quvchilar uchun moslangan dastur. Ammo, ulardan andoza olgan holda ilk maktab davrlarida beriladigan bilimlarga hamohang tarzda baholay borish ta'limda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. Xalqaro baholash tadqiqotlarida ham yuqori ko'rsatkichlarni egallashga zamin bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematik savodxonlik ko'nikmalarining rivojlanishi ularning kelajakdagi ta'lim jarayonlarida muvaffaqiyat qozonishining asosini tashkil qiladi. TIMSS tadqiqotining boshlang'ich ta'lim uchun joriy etilgan topshiriqlari orqali o'quvchilarning quyidagi yo'nalishlardagi bilimlari aniqlanadi:

1. Asosiy matematik bilimlar: TIMSS o'quvchilarning matematik tushunchalar va amaliyotdagi asosiy ko'nikmalarini baholaydi. Masalan, sonlar va ular ustida amallar bajarish, geometrik shakllar bilan ishlash kabi vazifalar orqali bilimlari sinovdan o'tkaziladi. Mullis va boshqalarning tadqiqotlarida qayd etilishicha, TIMSS dasturi o'quvchilarning matematik bilimlari darajasini baholashda muhim mezon sanaladi.

2. Amaliy masalalarni yechish: TIMSS tadqiqotida kundalik hayotdagi matematik muammolarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlar katta ahamiyatga ega. O'quvchilar bu kabi topshiriqlarni bajarayotganda, real hayotiy vaziyatlarda matematikani qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, vaqtni



o'lash, xarid qilishda to'lovlarni hisoblash kabi topshiriqlar o'quvchilarning amaliy bilimlarini sinovdan o'tkazadi .

3. Mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish: TIMSS tadqiqotidagi topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini amalda qo'llashni o'rganadilar va murakkab masalalarni hal qilishda mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu orqali o'quvchilarning matematik muammolarni hal qilishdagi yondashuvi va ijodiy qobiliyatlari aniqlanadi. Valverde va Schmidt tadqiqotlariga ko'ra, TIMSS topshiriqlari o'quvchilarning murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi .

TIMSS tadqiqoti natijalari mamlakatlarning ta'lim tizimini rivojlantirishda asosiy indikator hisoblanadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar har bir davlat uchun o'z ta'lim tizimidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini yaratadi. Xususan, o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi pedagogik yondashuvlarni kiritish va o'quvchilarni kelajakdagi ta'limga tayyorlashda TIMSS natijalari muhim o'ringa ega. Mullis va Martin o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, TIMSS natijalari xalqaro ta'lim reytinglarida mamlakatlarning pozitsiyasini belgilashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi . [5]

Xulosa. TIMSS tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini baholash va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot orqali o'quvchilarning matematik bilimlari, mantiqiy fikrlash ko'nikmalari va real hayotdagi muammolarni yechish qobiliyati aniqlanadi. Bu esa mamlakatlarning ta'lim tizimini rivojlantirishda va o'quvchilarni kelajakda yanada muvaffaqiyatli ta'lim olishiga tayyorlashda katta hissa qo'shadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.
2. „Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash“. Sharq. NMAK. Toshkent 2019.
3. Fayzullayeva S.N., Qosimov, F. M. Boshlang'ich sinflarda matematik savodxonlikni rivojlantirishning ahamiyati. International Conference on Developments in Education. 73-bet
4. Eshnazarova M. „Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik savodxonlikni shakllantirish mazmuni. Boshlang'ich ta'lim: samarali ta'lim amaliyoti, muammolari, istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 268-269-betlar.
5. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Hooper, M. (2016). TIMSS 2015 International Results in Mathematics. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILI O'QITISHNI TASHKIL ETISH VA UNGA DIDAKTIK YONDOSHUVLAR

Dexkanova M.U.

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası v.b. professor

Kurbonova M.B.

Toshkent shahar Mirobod tumanidagi

65-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchilar, xorijiy til, usullar, o'yin-mashqlar, didaktika, ta'lim, faoliyat.

Ключевые слова: начальный класс, учащиеся, иностранный язык, методы, игры-упражнения, дидактика, обучение, деятельность.

Key words: primary school students, foreign language, methods, games-exercises, didactics, education, activity.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning maqsadi va so'z boyliklarini egallashlari to'g'risida tavsiflar berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish, o'qitish jarayonida pedagogik va psixologik muammolarning yechimlari qayd etilgan. Shuningdek, xorijiy tilini o'rgatish darslarining samaradorligi, o'qitish usullari, texnologiyalarini qo'llashi, didaktik yondoshuvlari va dars mazmuni, uning hajmini to'g'ri taqsimlash kabi fikrlar yoritib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье описываются цели обучения английскому языку учащихся младших классов и приобретение ими словарного запаса. Отмечены пути решения педагогических и психологических проблем в процессе обучения и речевого развития учащихся младших классов. Также подчеркивается эффективность занятий по обучению иностранному языку, использование методов обучения, технологий, дидактических подходов, содержание урока, правильное распределение его объема.

SUMMARY:

The article describes the purpose of teaching English to elementary school students and their vocabulary acquisition. Solutions to pedagogical and psychological problems in the process of teaching and speech development of elementary school students are noted. Also, the effectiveness of foreign language teaching classes, the use of teaching methods, technologies, didactic approaches, the content of the lesson, and the correct distribution of its size are highlighted.



Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim muassasalari o'quv jarayoni, ta'lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon ... oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart"ligi [1] ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada chet tillarini o'qitishda talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

Ma'lumki, o'quv-tarbiya muassasalarida xorijiy til maqsadli o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflardan xorijiy tilni o'rgatishdan ko'zlangan maksad, o'quvchilarni shu tilda muomalaga o'rgatishdir. Xorijiy tilda muomala qilaolish uchun o'quvchilar shu tildagi so'z boyliklarini egallashlari zarur. Tildagi so'z boyliklarini egallamay turib na tinglab tushunish, na gapirish mumkin. Boshlang'ich sinfdan xorijiy tilni o'rganish bola imkoniyati va qobiliyati kanday bo'lishidan qat'i nazar foydalidir, chunki xorijiy til bolaning bilish jarayonlari - xotira, diqqat, tafakkur, xayol va idrokining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy til bolani til o'rganish qobiliyatinigina emas, balki o'z ona tilini ham yaxshi o'zlashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy til o'qituvchisi o'z faninigina emas, bolaning psixofiziologik xususiyatini ham yaxshi bilishi kerak [2]. Zero, xorijiy tilni o'zlashtirish orkali bolada obyektiv olamning aks etishi o'zgarishi mumkin. Tilning lug'at tarkibini egallash o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning badiiy adabiyot, tarix, madaniyat, tabiatshunoslikga oid bilimdonligini oshiradi.

Xorijiy til fanining boshqa fanlardan farqini bilib olish maqsadga muvofiqdir. Zero, ta'lim jarayonida xorijiy til fanining xususiyatlarini bilmaslik, tushunmaslik natijasida yuzaga kelayotgan ba'zi kelishmovchiliklar, to'siqlar bartaraf yetiladi. Boshlang'ich sinflardan xorijiy tilni o'qitishning xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, maktabga birinchi bor kelgan bola uchun qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu qiyinchiliklar xorijiy tilni o'zlashtirish bilan ham bog'likdir. Xorijiy tilni o'zlashtirish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tabiiy til muhitini yaratish lozim. Boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'rgatish metodikasida aynan shunday muhitni yaratish uchun mashqlar, o'yinlar, multimedia vositalari majmuasi zarur. Ular o'ziga xos holda xorijiy tilni o'zlashtirishga motivatsion muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarga chet tilini o'rganish uchun ularda 4 ta ko'nikma va malakani rivojlantirish ijobiy samara beradi. Maktab yoshidagi bolalarda og'zaki nutk ko'nikma va malakasini rivojlantirish uchun pedagogik



jihatlarga, ya'ni 1-sinf o'quvchisida asosiy psixologik funksiyalar: his etish, e'tibor berish, xotira, tasavvurga ega bulish, idrok kilish kabilar shakllangan bo'lishiga e'tibor berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish jarayonida ularning qiziquvchanligi, giperaktivligi, ijodkorligi va qobiliyatiga o'qituvchi alohida e'tibor berishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim olishga bo'lgan qiziqishining yukoriligi, "xohlayman" motividan "qila olaman" motivining ustuvorligi aqliy rivojlanishga zamin yaratadi. Aynan shunday motivni shakllantirish uchun dars mashg'ulotlari davomida qo'llash uchun yaratilgan majmuaviy mashqlar inobatga olinadi. Ular:

- o'yin-mashqlar o'quvchining fonetik eshitish, nutqiy qobiliyati, o'quv motivatsiyasi va o'z-o'ziga baho berishini oshiradi;

- birgalikda ashula etish tug'ri artikulyatsiya va ritmni his etishni shakllantiradi;

- rasm chizish va bo'yash o'quvchining aqliy va nutqiy qobiliyatini rivojlantiradi [3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida analiz kilish, kiyoslash, umumiyashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Qiyoslash-kuzatishni rivojlantirish xorijiy tilni idrok etishda eng samarali metodlardan biridir. Bu holda xatolar kamayib, idrok etish rivojlanadi. Bunday sharoitda boshlang'ich sinf o'quvchilari xorijiy til (misol uchun, ingliz tili)da tezrok va muvaffaqiyatliroq gapira olishni o'rganadi. Xalq orasida "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir", degan fikr qadimdan qo'llanilishi bejizga emas. Ingliz tili (umuman, xorijiy tillar)da og'zaki nutq faoliyatini rivojlantirishga ozgina e'tibor berilmasa, og'zaki gapirish ko'nikma va malakasi yo'qolib ketadi.

Ingliz tilini o'rganishda, ayniksa, fonetikasini e'tiborga oladigan bo'lsa q o'qituvchi qanday ochiq yuzliligi va ovozinig ohangdorligi bilan so'z va iboralarni talaffuz etishi juda muhimdir. Shubhasiz, o'qituvchining ovozi yumshoq mayin, yuz-chehrasi esa ovoz toniga mos xushchaqchaq, quvnoq yoki jiddiy bo'lishi kerak. Boshlang'ich 1-sinf o'quvchilari ingliz tilini o'rganishida atrofdagilar bilan muloqot kilaolishiga, ya'ni til kompetensiyasining shakllanganligiga e'tibor qaratish ham zarur. Xorijiy tilni o'qitishda o'qituvchidan didaktik yondoshuvni, vakti to'g'ri taksimlay olish, shakllangan nutqiy kobiliyatni talab etadi. O'qituvchining boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan qiladigan muloqoti jarayonida muomala-munosabat uslubiga egaligi muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muhim xususiyatlaridan yana biri, ulardagi o'qituvchiga ishonch hissining yuqoriligidir. Bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchisini aql sohibi, ziyraq



sezgir, mehribon inson, deb biladi. O'quvchi uchun o'qituvchining obrusi ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'larning nufuzidan keskin farq qiladi. Shu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Demaq o'quv faoliyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishida o'qituvchi yetakchi shaxs sanaladi.

Ta'kidlashicha, xorijiy tilini o'rgatish amaliyotida tashqi topshiriqqa urg'u beriladi, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish sezilarli darajada faoliyatning o'zini ham, shaxs subyektiv sifatlarini ham rivojlanishini cheklagan va bu o'rganilayotgan tildan foydalanishning o'quv va real holati o'rtasidagi tafovutni keltirib chiqargan [4]. Samarali o'quv faoliyatining asosiy xususiyatlari ijtimoiy yo'naltirilgan kontekstual xarakter, shaxsiy ta'lim mahsulotiga yo'nalganlik, konstruktiv (yaratuvchilik)ga ye'tibor qaratish, faol (ijodiy) xarakter, ijodiy (tadqiqotchilik) xarakter, refleksiv-baholash xakteri, talabaning yetarli daraja ta'lim va kognitiv kompetensiyasi, faol dialogik xarakter hisoblanadi.

Xorijiy til o'rgatish-o'rganishni takomillashtirish ta'lim natijalari va kompetensiyalar, baholash shkalasini taqozo yetadi. Ular quyidagilar:

- Individual holda yondashuv orqali o'quv jarayonini tashkil yetish;
- o'quvchilar o'quv faoliyati natijalarini baholash tizimida olgan bahosiga stimuly berish;
- o'quv rejasi, ta'lim standarti va dasturlari mazmunini doimiy rivojlantirish va shakllantirish;
- o'qituvchilarga o'qitish metodikasini yerkin tanlash huquqini berish [5].

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatish jarayonida individual ta'lim ham muhim ahamiyatga ega. Individual ta'limda o'quv jarayoni to'g'ri tashkil yetilsa quyidagi natijalarni kafolatlaydi:

- o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlarini saqlab qolish va ularni yanada rivojlantirish;
- o'quv fanlari asoslarini o'zlashtira olmaslikning oldini olish uchun har bir o'quvchining fanni o'rganishini individuallashtirish vositalaridan foydalanish;
- har bir o'quvchini yaqin kelajakda rivojlantirish uchun tayanch bo'ladigan umumiy ta'limiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- o'quvchining o'quv motivatsiyasini oshirish va ularda bilishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish;
- o'quvchilarda mustaqillik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, fikrlash va ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirish.



Xorijiy tilning boshqa o'quv predmetlaridan keskin farqi o'quvchilar til tajribasi, ya'ni kompetensiya (lingvistik, sotsiolingvistik, ijtimoiy-madaniy va pragmatik)larning hisobga olinishidir.

Xorijiy til fikrni ifodalashning ona tilidan farq qiluvchi usullarini, shakl bilan mazmun o'rtasidagi boshqa bog'liqliklarni ko'rish imoniyatini taqdim etadi, bu ona tilida muayyan hodisalarni chuqurroq anglash imkonini beradi, ya'ni tilni amaliy egallashdan tashqari o'quvchida o'zining shaxsi, uning tafakkuri, hotirasi shakllanadi, eshitish, ko'rish va harakatlantiruvchi sezgilari, uning nutqiy qobiliyati takomillashadi, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining til va nutqiy rivojlanishi amalga oshiriladi. Xorijiy tilni o'rganayotib boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z nutqiy madaniyatini shakllantiradi. O'z fikrlarini ifodalashga nisbatan e'tiborli bo'lishga undaydi, ularning nutqiy kuzatuvchanligini, ijodiy tasavvurini, assotsiativ va mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi nutqidan.
2. Гришанова И.А. Коммуникативная успешность младших школьников (Теоретический и практический аспекты). – Москва-Ижевск: Институт компьютерных исследований, 2006. – 136 с.
3. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. – T., 2002.
4. Коряковцева Н.Ф. Теоретические основы организации изучения иностранного языка учащихся на базе развития продуктивной учебной деятельности (общеобразовательная школа). Автореферат дисс. на соискание уч. ст. докт. пед. наук. – Москва, 2003. – 52 с.
5. Методические рекомендации по внедрению в вузе системы зачетных единиц (кредитов) / Государственный университет управления, Центр качества; [сост. О.В.Давыдова, В.И.Звонников, М.Б.Чельшкова] – М.: ГУУ, 2010. – 50 с.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI FANLARARO TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Jumayeva Q.F.

Termiz davlat pedagogika instituti 2 kurs magistranti

Tayanch so'zlar: ekologik kompetentlik, pedagogik, takomillashtirish, imkoniyatlari, muammoli vaziyat.

Ключевые слова: экологическая компетентность, педагогический, улучшение, возможности, проблемная ситуация.

Key words: environmental competence, pedagogical, improvement, possibilities, problematic situation.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirishda olib borilgan ishlar va bundagi imkoniyatlar, yutuqlar va ko'zlanayotgan natijalar haqida so'z boradi. Bugungi kunda dolzarb bo'lib kelayotgan uslubiy qo'llanmalar va metodik qo'llanmalar haqida fikr yuritilgan. Ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirishning asosiy g'oyasi shundaki o'quvchilarda nafaqat o'quvchilarning atrof-muhit muammolarini tushunishlari kuchaytirilgan, balki ularga harakat qilish imkoniyatini beradigan yahlit ta'lim muhitini yaratishi mumkin va bundan tashqari, ekologik ongli liderlarni yetishtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассказывается о работе, проводимой в рамках междисциплинарного совершенствования экологической компетентности учащихся младших классов, а также о возможностях, достижениях и ожидаемых результатах. Обсуждаются методические материалы и методические пособия, которые становятся актуальными сегодня. Основная идея междисциплинарного улучшения экологической компетентности заключается в том, что не только улучшается понимание студентами экологических проблем, но и может быть создана целостная среда обучения, которая дает им возможность действовать, а также важна для воспитания экологически сознательных лидеров.

SUMMARY:

This article talks about the work carried out in the interdisciplinary improvement of the environmental competence of elementary school students, as well as the opportunities, achievements and expected results. Methodical guides and methodical manuals, which are becoming relevant today, are discussed. The main idea of interdisciplinary improvement of environmental competence is that not only students' understanding of environmental issues is enhanced, but it can also create a holistic learning environment that empowers them to act, and is also important in cultivating environmentally conscious leaders.



Ekologik ta'lim - shaxsning tabiat bilan munosabatlarida ekologik savodxonligi, shaxsning inson-tabiat-jamiat tizimida barkamollashuvi, o'zini-o'zi rivojlantirish xususiyatlaridir. Ekologik ta'lim-tarbiya tizimini o'rganish jarayonida bir nechta rivojlangan davlatlarda ekologik ta'lim - tarbiya berish tizimini qiyoslab ko'rish, ulardagi innovatsion ta'lim muhiti, zamonaviy o'qitish tizimi va ekologik madaniyatning yuqoriligiga sabab bo'lgan omillarni o'rganish va ulardan o'z tajribamizda foydalanishning samarali usullarini yaratish, o'quvchilar ekologik kompetentligini rivojlantirishda yordam beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab pedagog-ekologlar tomonidan ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik kompetensiya, ekologik kompetentlik masalalari keng yoritib berilgan. Jumladan: G.O.Komilova, L.T.Shanasirova, M.R.Xalilovalar maktab o'quvchilarida ekologik tafakkur, ekologik kompetensiya, kompetentlik va ekologik savodxonlikni rivojlantirish, shuningdek, ekologik bilimlarni integratsiyalash bo'yicha: X.B.Norbo'tayev, X.A.Raxmatova, A.A.Nazarov, N.U.Nishonova, M.Q.Muxliboyev, V.N.Sattorov, Nishonboyeva, M.D.Raxmatullayeva, O'.G.Saidova, B.O'.Qo'chqorov, O.T.Abdiyeva, G.K.Saparova, M.K.Xashimova, M.B.Rahimqulova, N.Ashurova, M.M.Aliqulova, N.J.Isaqulova, G.A.Sultanovalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirish jarayonining tahlili shuni ko'rsatadiki, uni ta'minlovchi faoliyatning tarkibiy qismlarini ajratish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

o'quv jarayonida o'quvchilarda ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirish mazmunini ifodalovchi qismi, bu qism o'zida o'quvchilarda ekologik kompetentlikni shakllantirish imkonini beradigan nazariy bilimlar tizimini mujassamlashtiradi;

o'quv jarayonida o'quvchilarda ekologik kompetentlikni shakllantirishning tayanch qismi, bu qism o'quvchilarni ilmiy dunyoqarash faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydigan amaliy ko'nikmalar va malakalarni o'zida mujassamlashtiradi;

o'quv jarayonida o'quvchilarni ilmiy faoliyat ko'rsatishga undovchi qismi; bu o'quvchilarda ilmiy faoliyatni rivojlantirish imkonini beradigan didaktik metodlar, tamoyillar, ish rejalari va o'quv modellarini o'zida mujassamlashtiradi;

o'quv jarayonida o'quvchilarning ekologik kompetentlikni rivojlanganlik darajalarini nazorat qilishga yo'naltirilgan qismi; bu qismda o'quvchilarning ilmiy faoliyatini rivojlanganlik darajalarini nazorat qilish, ularning ilmiy faoliyatida mavjud bo'lgan yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ekologik kompetentlikni shakllantirishda ularning o'ziga xosliklari va taraqqiyot darajalariga tayanish lozim.

O'quvchilarda ekologik kompetentlikni shakllantirish darajalarini hisobga olishda ularning o'quv jarayonidagi faolliklari va shaxslararo ijtimoiy muloqot



me'yorlarini o'zlashtirganliklariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning ilmiy faoliyat taraqqiyoti ularning fikrlash tarzi, o'quv jarayonidagi faolliklari, bilish ko'nikmalariga egaliklari, mantiqiy tuzilmasi shaxs rivojlanish sohalarining (motivatsion, intellektual) o'zaro aloqadorlikga asoslangan holda amaliyotga joriy etilganligi, ularning egallagan nazariy va amaliy bilimlari yordamida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirishga yo'naltirilgan mantiqiy tuzilma shaxs rivojlanish sohalarining (individual, hamkorlikda) faoliyati mazmunini kengaytirib borishning pedagogik jarayonini ishlab chiqish asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi.

I.V.Pestalotssi o'zining didaktikaga doir maqolasida o'quv darsliklaridagi bo'g'liqlik masalasiga keng to'xtalib o'tar ekan, "Bir biri bilan bog'liq fanlarni ongingga keltir, ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla", deydi. Pestalotssi bir fanning boshqa bir fandandan uzoqlashuvi, hatto xavfliligini takidlaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning turli fanlarni o'zlashtirish orqali ular haqidagi tushunchalarni oshirish juda muhimdir. Bu turli mavzularni mantiqiy tarzda birlashtirish, o'quvchilarga hamma narsa bir-biriga qanday mos kelishini ko'rishga yordam berish demakdir.

Bu jarayon faqat bir yo'nalishda sodir bo'lmaydi. Unda o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtirish demakdir. Umuman olganda, bu yondashuv o'quvchilarni alohida fanlar yuzasidan tashqariga olib chiqadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirish jarayonida ularda o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi omillardan biri o'quvchilarni ta'lim jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish hisoblanadi. Unda insonning o'zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi va bu mustaqil ta'lim jarayonida, ya'ni o'quvchiga o'qituvchi tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonida vujudga keladi, mazkur jarayonda muhokama qilinayotgan muammoning mazmun va mohiyati tushuniladi va tahlil qilinadi, refleksiv faoliyat amalga oshadi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik kompetentlikni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirish uchun ularda umumiydan xususiyya va xususiyydan umumiyga qarab fikrlashni o'rgatish zaruriyatida ham ko'zga tashlanadi. Buning uchun darslik va o'quv qo'llanmalarida o'quv materiallarini induktiv-deduktiv usulda bayon etishga erishish talab etiladi. K.D.Ushinskiy shunday deb ta'kidlaydi, "Har qanday fan tomonidan xabar qilinayotgan bilim, g'oya, dunyo va hayotga keng nigoh va yorituvchan holatda berilishi lozim"

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda muammoli ta'lim ham alohida o'rin egallaydi. O'quvchilar turli muammolarni



echish jarayonida mantiqiy fikrlay boshlaydilar. To'g'ri tarzda tashkil etilgan har qanday o'quv-bilish jarayoni o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilgan o'quv jarayoni o'quvchining ma'naviy, mantiqiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, ularni intellektual faoliyatga yo'naltiradi. Agar o'quv materiallari va uni o'quvchiga taqdim etish metodlari ular oldiga muammoli vaziyatlarni qo'ya olmasa, o'quvchilarning ilmiy taraqqiyoti jadal kechmaydi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ekologik kompetentlikni fanlararo aloqadorlikda shakllantirish masalasi, bugungi kunda didaktikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu masala ta'limning turli bosqichlarida turli yo'sinda echilishi mumkin. Chunki o'quvchilar o'zlarigagina xos bo'lgan turli ko'rsatgichlar bilan o'zaro bir-birlaridan farqlanadilar. Shuning uchun ham, ularning intellektual rivojlanish jarayoni turlicha kechadi.

O'quvchilarni individualligini hisobga olish jarayonini quyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

har bir o'quvchiga individual yondashgan holda ta'lim-tarbiya berish;

o'ziga xos imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'quv materiallarini tabaqalashtirish.

Buning uchun quyidagi pedagogik vazifalarni hal qilish talab etiladi:

individual ta'lim va o'quvchilarga individual yondashuv tushunchalarining o'ziga xos jihatlarini didaktik nuqtai nazardan tahlil qilish;

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda individual ta'limning imkoniyatlarini baholash va hakoza.

Individual ta'lim yo'nalishining avvalo, o'quvchi talabaga har jabhada o'ziga xos "independent researcher", ya'ni mustaqil maqomini ochishga yo'l ochadi. O'z-o'zini qadrlash, shaxsiy rivojlanishga bo'lgan intilish o'quvchini kelajakdagi qiziqish sohasida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Bundan tashqari o'quvchi yo'l qo'ygan xato kamchiliklarni ilmiy rahbar orqali aniqlab olishga sharoit yuzaga keladi.

Psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda ta'limni individuallashtirish tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, pedagogik atamalar lug'atida individual ta'lim, individuallashtirilgan o'qitish atamalari quyidagicha izohlangan.

Individual ta'lim-o'qituvchining o'quvchiga yakka tartibda pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri, o'qituvchining o'quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan alohida faoliyati.

Individuallashtirilgan o'qitish-bunday o'quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy-boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi.



Binobarin, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirishga asos bo'ladigan tushunchalar quyidagi guruhlariga ajratilgan:

jonli va jonsiz tabiatning bir butunligi, yuz beradigan hodisalarning umumiyligi va uzviyligi;

moddiy borliqdagi hodisa voqealarni o'rganishning zarurati ekologik fojialarning sabablari va ularni bartaraf etish tadbirlari;

inson tomonidan tabiat qonuniyatlarini o'rganish va undan samarali va oqilona foydalanish yo'llari;

tabiiy hodisalarning bog'liqligi va rivojlanishida sabab-oqibat bog'lanishlari;

inson ijtimoiy mavjudot;

tabiatni muhofaza qilish bu sayyoramizda hayotni asrashning asosidir.

Ekologik bilim va ekologik kompetentlikning tayanch fazilatlarini sifatida "Ahloqiy ekologik onglik", "ekologik ma'suliyatlilik", "ekologik irodaviylik", "ekologik qadriyatlarni himoya qilish"ni belgilab olish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlash asosida metodik xizmat imkoniyatlarini kengaytirish.

Ta'lim mazmunini tanlash, o'quv jarayonini fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etishdan iborat. Chunki ushbu yondashuvlar doirasida o'quvchilarning shaxsiyati, faoliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual, hissiy-irodaviy hamda boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirish asosida ularda mas'uliyatlilik, maqsadga yo'nalganlik, tanlov erkinligi, bag'rikenglik, tabiatga ongli munosabat tuyg'ulari ham rivojlantiriladi.

Shuningdek, o'quv jarayonida vaziyatli-muammoli yondashuvdan ham foydalaniladi.

Mazkur yondashuvlar doirasida o'quvchilarda ekologik kompetentlikni fanlararo takomillashtirish jarayoni amalga oshiriladi. Bunda turli muammolarga bag'ishlangan o'quv vaziyatlari tashkil etiladi. Ushbu vaziyatlar atrof-olamni muammoli vaziyatlar orqali o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarda muammoli vaziyatlar orqali atrof-muhitga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lish tajribasini ham hosil qilish talab etiladi.

Pedagog olimlar tomonidan o'quv topshiriqlarini o'quv jarayoni birligi sifatida tadqiq qilingan, ular tomonidan o'quvchilarda fanlararo aloqadorlikni shakllantirishda turli yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Ushbu yondashuv doirasida o'qituvchilar izchillik xarakteridagi ijobiy-rolli topshiriqlarni oldindan modellashirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni echishlariga ko'maklashib, uning o'zaro muvofiq keladigan kommunikativ jihatlarini jadal o'zlashtirishlariga asos yaratadi.



O'quv dasturlaridagi mavzular ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari asosida tanlanishi, o'quv fanlari mazmunini yangi g'oyalar bilan boyitish zarurligi fanlararo aloqadorlikga asoslangan ta'limning muhim talablaridan biri hisoblanadi. O'rganilayotgan har bir o'quv fani mazmunida ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega o'quv elementlarining mavjud bo'lishi o'quvchilarga real borliq, ijtimoiy-siyosiy voqelikni anglash imkonini beradi.

Robert Karlosning ta'kidlashicha, boshlang'ich maktab faqat yozish va sanashni o'rgatibgina qolmasdan, bundan ham muhimroq va kattaroq masalani amalga oshirish kerak. Chunki har bir o'quvchini shakllantirish davrida uning intellektual faolligini rag'batlantirish, tabiiy qobiliyat singari, uning keying muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir.^{43-b}

Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlar tizimini bilishni ta'minlaydi o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni fanlar integratsiyasi asosida amalga oshirish aqliy faoliyatning yuqori pog'anasini hisoblanadi.

Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilishga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Fanlararo ilmiy dunyoqarashning shakllanishi, bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasidagi bo'shliqlarni aniqlashga imkon beradi.

Bugungi kunda pedagogikaga oid ilmiy izlanishlarda o'quv fanlarini o'qitishdagi tarqoqlikni bartaraf qilishga qaratilgan shakl, metod hamda vositalari tizimini, ularning asosi bo'lgan o'qitish va tarbiyalash jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik kompetentlikni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirish mexanizmidan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni o'rganish jarayonida hosil qilingan tasavvur va tushunchalar umumlashtirgan holda o'quvchilarda ijtimoiy-gumanitar turkumida muayyan ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Adabiyotlar:

1. Norbo'tayev X.B "Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim" darslik 2023yil. 19b, 43b
2. Turg'unpo'latov D.R "Ta'lim sifatini oshirishda individual ta'lim mohiyati" maqolasidan
3. Xodjibaliyeva N.M "ekologik kompetentlikning ijtimoiy pedagogik mazmuni va uning komponentlari" maqolasidan
4. Norbo'tayev X.B Bialogiyani tabiiy fanlararo sinxronsinxron o'qitishda ekologik tafakkurini rivojlantirish shakl va metodlarini takomillashtirish. Oquv qo'llanma Toshkent "innovatsiya Ziyo", 2020.
5. Ataqulova N.A. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tizimi: ped. fan. bo'yicha falsafa dok (PhD): diss. avtoref.- Namangan, 2019 y-12b.
6. Atrof-muhitni asrang. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qo'llanma. Qarshi: Nasaf, 2004.-16 b.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MA'NAVIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH

Karimova M.A.

Termiz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistri

Tayanch so'zlar: milliy tarbiya, maktab, ta'lim, shakl, metod, foydalanish, meros, manba, qadriyat, o'qitish, tarbiya, munosabat, tushuntirish, ma'naviy tarbiya, o'quvchi, boshlang'ich sinf.

Key words: national education, school, education, form, method, use, heritage, source, value, teaching, education, attitude, explanation, spiritual education, student, primary class.

Ключевые слова: народное образование, школа, образование, форма, метод, использование, наследие, источник, ценность, учение, воспитание, отношение, объяснение, духовное образование, ученик, начальный класс.

РЕЗИЮМЕ:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda milliy tarbiya, milliy g'urur tushunchalarini shakllantirishda qadriyatlarning o'rni, tarbiya fanini o'qitishda o'quvchilarning ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasini yuksaltirish, o'quvchilar ma'naviyatining turli muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga tegishli bilimlar bayon qilingan.

РЕЗИЮМЕ:

В данной статье рассматривается роль ценностей в формировании понятий о национальном воспитании, национальной гордости, определении возможностей духовного развития учащихся при преподавании педагогики, совершенствовании духовного воспитания учащихся, значении духовности. В этой статье обсуждаются знания студентов, связанные с различными учебными предметами, изучающими различные проблемы.

SUMMARY:

In this article, the role of values in the formation of the concepts of national education, national pride, determining the possibilities of spiritual development of students in the teaching of education science, improving the spiritual education of students, the importance of the spirituality of students are discussed in this article. knowledge related to different academic subjects studying different problems is described.

Jamiyatimizda ma'naviy tarbiya eng avval, milliy g'oyamizni aholi, yoshlarning shaxsiy, amaldagi fazilatlarida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Ammo, ba'zi tushuncha, g'oyalar insonning ko'ngliga yaqin, ta'sirchan bo'lishi, qolganlari esa faqat axborot, ma'lumot sifatida qolishi va e'tiqodga aylanmasligi mumkin. E'tiqod umumlashtirilgan fakt va ma'lumotlar,



bilimlarning sintezlanishi natijasida paydo bo'ladi. E'tiqod shaxsning ichki pozitsiyasiga aylangan bilimlari sifatida kishining dunyoga, Vatanga, millatga va o'z-o'ziga munosabatini belgilab beradi. Uning xulq-atvori va faoliyatini boshqarib turadi. Natijada e'tiqod, ya'ni "... shaxsni o'z qadriyatlari tizimidan kelib chiqib harakatga keltiradigan tushnilgan ehtiyoj shakllanadi". O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga berilgan Murojaatnomasida hamda keyingi nutqlarida yoshlar tarbiyasi borasidagi yagona fan bo'lgan pedagogikada yoshlardagi e'tiqodni, Vatanga bo'lgan sadoqatni tarbiyalash bo'yicha aniq ijtimoiy ko'rsatmalar berildi. Jumladan, tug'ilib o'sgan yurtiga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlaktimizning aholisini milliy g'oya asosida birlashtirish, bunyodkor ishlarga safarbar qilish, Vatan ravnaqi yo'lida daxldorlik, amalga oshirilayotgan islohotlarga o'z hissalarini qo'shish ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llarini, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu mavzudagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorlikka tayangan holda amalga oshirilishini belgilab beradi.

Mustaqil Vatanimiz, O'zbekistonni o'zining haqiqiy vatani deb bilishi va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish.

Vatan bilan mushtarak hayot kechirish. O'lkamizning madaniyati, tarixi va tilini o'rganish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlik va hamjihatlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash. Ana shu uch yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yildan-yilga, yangidan-yangi shakllarda, turlarda, yo'nalishlarda olib borilmoqda, shu jumladan;

- o'zining milliy tarixini, madaniyatini, tilini, urf-odatlarini o'rganish to'garaklari faoliyat olib bormoqda;

- milliy musiqa, raqs va hunar to'garaklari o'z ishini yoymoqda;

- milliy bayram kunlariga bag'ishlab tadbirlar tashkil qilinmoqda, festivallar o'tkazilmoqda;

- tarixiy vatanimizning rassomlari, yozuvchilari, shoirlari, baxshilari, madaniyat va siyosat arboblari bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda;

- turli siyosiy arboblarning madaniyat namoyondalari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Bu kabi tashkil qilinayotgan tadbirlar hali yetarli emas. Chunki, globallashuv davrida, axborotlar ko'laminin kengligi va rivojlanishdagi jadallashuv bizdan tinmay o'z ustimizda izlanishni talab qiladi.

Bundan tashqari, boshlang'ich ta'lim bosqichidagi bolalarga chet tillarini o'rgatish, shu bilan birgalikda yoshlarimizning dunyo yoshlari bilan raqobatlasha



oladigan mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlash masalasi ko'zda tutilgandir. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim bosqichida chet tillarini o'rganish davlat talabi darajasiga ko'tarilgan bo'lib, u maktab komponenti hisobidagi soatlarda amalga oshirilishi mumkin. Qo'shimcha ravishda qo'shimcha soatlarni tashkil qilish, til bo'yicha bolalargina emas balki, o'qituvchilarning ham savodxonligini oshirish nazarda tutilgan. Zero, mustaqillik sharoitida milliy til masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir kelajak avlodda milliy til masalasini zamon talabi darajasida tushunish, talqin va shunga yarasha o'z faoliyatini belgilash katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, milliy tilimiz bizning milliy-ma'naviy merosimiz hisoblanadi. Fikrimga ko'ra, bu tushunish va talqin qilish hamda faoliyat uch asosiy yo'nalishga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

1. O'z milliy tilini mukammal bilish, uning adabiy, yozma, og'zaki, sheva shakllarini bilish, ular ustida fikr yuritish, o'z fikrlarini savodli va erkin ravishda yozma yoki og'zaki shaklda izhor qila olish.

2. Xalqlar, mamlakatlar, qita'lar va mintaqalar orasida o'sib, jadallashib borayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy aloqalar talablarini ko'zda tutib va shu aloqalarda faol qatnashib, ularning takomillashishiga o'z ulushini qo'shish uchun xalqaro va mintaqaviy tillarni mukammal bilish, ular yordamida o'z yurti, o'z vatani, uning madaniyati, salohiyati, istiqbollari, tarixi, insoniyat sivilizatsiyasi, ya'ni, moddiy va ma'naviy merosi, madaniyati majmuasiga qo'shgan hissasi to'g'risida boshqa millatlarga jahon minbaridan so'zlay olishdir.

3. Ilg'or mamalakatlar tajribasiga suyanib, tillarni o'rganishga xizmat qiladigan turli bir jildli, ko'p jildli, katta, o'rta va kichik hajmdagi lug'atlar so'zlashgichlar, qo'llanmalar, darsliklar yaratish va har yili ularni yangilab, to'la holda chop etib boruvchi sanoat tarmog'i, yuzaga keltirilishi va uning ravon ishlashini ta'min etish. Bu borada O'zbekistonda bajariladigan ish va vazifalar ko'p. O'zbek maktablari uchun rus tili, o'qishlar boshqa tillarda (rus, qozoq, turkman, tojik, qirg'iz va boshqa) olib boriladigan maktablarda davlat tili (o'zbek tili) rus tili o'qitish konsepsiyasida hamda "O'qishlar boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili o'qitish davlat ta'lim standarti" da o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham bu sohalarida olib boriladigan ta'limning mazmuni mazkur standart talablariga tayangan holda belgilanishi ta'kidlanadi.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida boshlang'ich ta'limning ahamiyati juda katta. U bolaning jamoa ichida tarbiyalashning o'ziga xos muhim dorilfununi hisoblanadi. Shunga ko'ra odob-axloq ilmidan saboq beruvchi "Tarbiya" o'quv predmeti o'quvchini milliy va umuminsoniy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini bilishga, xalq an'ana va asotirlarini qadrlashga, oila



va jamoatjoylarida o'zini tutish me'yorlariga amal qilishga, katta-kichikni birdek ardoqlashga, yosh avlodni kichikligidan boshlab o'zlikni anglashiga yo'naltiriladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan tarbiya jarayonida foydalashning mazmuni va o'ziga xos usullari sharq mutafakkirlari Al-Farobiy, Abu-Rayhon Beruniy, Ibn-Sino, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqalarning ta'limiy-axloqiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu asarlar hozirgi davrda ham qadriyat sifatida, ham yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim tarbiyaviy dastur deyishimiz mumkin. Allomalarning mazkur ta'limiy ahloqiy asarlari qadriyat sifatida milliy tarbiyaning asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhimdir. Bular - birinchidan, odob-axloq tarbiyasidir. Bu bolalarni go'daklikdan boshlab to'g'ri tarbiyalashdan iboratdir. Ibn Sinoning «Tib qonunlari»ning I jildida «Farzand tarbiyasi» bo'lishi bolalarni tarbiyalashning ana shu muhim davriga bag'ishlanadi. Milliy tarbiya an'alarida odob-ahloqqa bunday katta e'tibor «Insonda axloqiy kamolot – hayot mazmuni va maqsadi, burch va mas'uliyat, baxt, diyonat, yaxshilik, yovuzlik, haq va nohaqlik to'g'risidagi tushunchalarning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Insonning bilimi, kasbi, hunari, malakalari ham muayyan darajadagi axloq va odob asosida shakllanadi»³². Bu borada keksa avlodning boy tajribasi muhim rol o'ynaydi. Chunki keksalarning vazminlik, o'ylab, mulohaza yuritib ish ko'rishi va shu kabilar ma'naviy boylik hisoblanadi. Haqiqatan ham qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratmasdan turib, bu muhim vazifani amalga oshirib bo'lmaz edi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bu negizlar: - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; - xalqimizning ma'naviy merosini saqlash va rivojlantirish; - inson o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; - vatanparvarlik dan iboratdir. Yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlardan tarkib topadi. Asrlar davomida xalqning ma'naviy ehtiyojlari asosida shakllangan qadriyatlarda olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni o'z ongida shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, yoshlarga mustaqil respublikamiz tarraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladi.

Bu esa o'z navbatida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmun mohiyatini chuqur o'rganishni talab etadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda ta'lim muassasalari mas'ul sanaladi. Ta'lim tarbiya oldiga qo'yilgan muhim



maqsad ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiya mazmunini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish va uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni ko'zda tutadi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu-istaklari, e'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositasidir. Shu bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tarixiy bosqichga ega, hayot sinovidan o'tgan, avloddan-avlodga o'tib ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir. Shuningdek, jamiyat rivojining negizi, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarini ifodaluvchi va saqlovchi qudratli omildir. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish yosh avlod tarbiyasining omilidir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldida muhim vazifalar qo'yilgan: bolani sog'lom, har tomonlama - aqliy, ma'naviy-madaniy yetukligini ta'minlash, uning milliy madaniy va umumbashariy qadriyatlar asosida kamol topishi uchun zamin yaratish hisoblanadi. Komil inson tushunchasini faqat intellektual madaniy ma'naviy yetuk, baxtli inson deya tushunilsa xato bo'ladi. Haqiqiy barkamol inson hayotda o'z o'rnini topgan, tanlangan kasb hunaridan baxtini, jamoa o'rtasida obro' e'tiborini qozongan insonni mehnatsevar xalqimiz barkamol baxtli inson deb tan oladi. Inson baxtli bo'lishi uchun uning mehnat layoatiga, to'g'ri tanlangan kasb hunariga bo'lgan yuksak munosabatlariga bog'liqdir. Shunday ekan, bolani kasbga yo'naltirishni kichik maktab yoshidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Qaysi ota-ona yoki murabbiy o'z farzandini, shogirdini baxtli bo'lishini istamaydi deysiz? Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tevarak atrof va tabiat bilan tanishtirish, nutq o'stirish va badiiy adabiyot, tasviriy faoliyatni tashkil etish mashg'ulotlarida, sayr va ekskursiya, suhbatlar va qiziqarli uchrashuvlar, xullas kun davomida olib borish imkoniyatlari bisyor. Boshlang'ich ta'limning 1-sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladigan «Kim bo'lsam ekan?» qiziqarli didaktik o'yin davomida doktor, uchuvchi, haydovchi, militsioner, kosmonavt, o'qituvchi, artist, dehqon, tikuvchi kabi kasb-hunarlariga bo'lgan qiziqishlari rivojlantiriladi. Ayniqsa o'zbek milliy hunarmandchilik bilan tanishtirish davomida bolalar nafaqat qadimiy kasb-hunarlar haqida ma'lumot olishlari, balki gilam to'quvchi kasbi, etikdo'z, kulol, chilangar, naqqosh, do'ppido'z kabi hunarlarga havas - qiziqish paydo bo'la boshlaydi. O'quvchilarni turli kasb-hunar maxsulot namunalari bilan tanishtirish davomida bu kasb egalarining mashaqqati, og'ir mehnati tufayli yaratilganligi, 1025 har qanday buyum ko'p mehnat evaziga yaratilishini



uqtirilishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevar etib tarbiyalash, mehnatga bo'lgan munosabatlarini shakllantirishi ilk bor o'z o'ziga xizmat qilishdan, guruhlarda navbatchilik qilish, gullarni parvarish, hovlidagi maydonchani tozaligini saqlash kabi topshiriqlardan boshlanadi. Ushbu topshiriqlarni bajarishida o'quvchida topshiriqni bajarish ishtiyoqini, xavasini uyg'otish muhim. Bajarilgan topshiriq uchun, mashg'ulotda chizgan rasm uchun o'quvchi rag'batlantirilsa, unda shu kabi ishlarni yanada yaxshiroq, puxtaroq bajarishga ishtiyoq paydo bo'la boshlaydi, har qanday ishni tirishqoqlik bilan, bekamu-ko'st bajarish ko'nikmalari shakllanadi.

Buyuk allomalarimizdan Husayn Voiz Koshifiy odob-axloq qoidalarining inson hayotida muhim o'rin tutishini uqtirib: "Odob bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlab qolish, o'zini va o'zgalarni hurmat qila bilish, shu bilan birga, o'zining va o'zgalarning ham obro'sini tushirmaslikdir" degan edi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanidan dars berish o'qituvchidan chuqur bilim, mahorat va ijodkorlikni talab etadi. U kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangani uchun o'quvchining obrazli fikrlashining hisobga olinganligi, o'quvchining nazariy bilimlardan ko'ra amaliy bilimlarni oson o'zlashtirishini e'tiborda tutilishi, bunda darsning qiziqarli tashkil etilishining muhimligiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega o'quv fani hisoblanadi. U o'zida "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanining g'oya va yo'nalishlarini ifodalaydi.

Adabiyotlar:

1. Vvedenie v nauchnoe issledovanie po pedagogike. /Pod red. V.I. Juravleva - M., 1998 13. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. Uslubiy qo'llanma. - T., 2001
2. Kuzmina N.V. Metody isledovaniya pedagogicheskoy deyatel'nosti. - L., 1996
3. Kurbanov Sh., Seytxalilov E. Natsionalnaya model i programma po podgotovke kadrov dostizhenie i rezul'tatnezavisimosti Uzbekistana. - T., 1998
4. Pedagogika tarixid an'xrestomatiya. (Tuzuvchi O. Hasanboyeva). - T., 1993
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T., 2010
6. G'aybullayev N. vaboshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma. - T., 2005
7. Suyunov D.A. Improving the use of the heritage of central asian thinkers in forming ecological thinking in primary school students. Web of Scientist: International Scientific Research Journal ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565 volume 3, issue 3, March - 2022 -P.159-165.
8. Suyunov D.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirish vositalari // Science and innovation. International scientific journal// 2022 №5-P.43-47.



DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FOYDALANISH

Xudaynazarov E.M.

*Pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD), dots. professor v.b.,
Ma'mun universiteti ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va
tijoratlashtirish ishlari bo'yicha prorektori*

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, dasturiy ta'lim vositalari, o'quv jarayoni, Interaktiv ta'lim, texnologiyalar, ta'lim sifatini yaxshilash.

Ключевые слова: начальное образование, образовательные программные средства, образовательный процесс, интерактивное образование, технологии, повышение качества образования.

Key words: primary education, educational software tools, educational process, interactive education, technologies, improving the quality of education.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqola boshlang'ich ta'limda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning ahamiyati va ta'sirini o'rganadi. Maqolada, dasturiy ta'lim vositalarining ta'lim jarayoniga qo'shgan hisssasi, o'quvchilarning o'rganish motivatsiyasini oshirish va ularning interaktiv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy texnologiyalar va dasturiy ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'lim tizimiga kiritilishining amaliy misollari keltiriladi. Natijalar, dasturiy vositalardan foydalanish o'quvchilarning ta'lim sifatini yaxshilash va ularni hayotiy ko'nikmalarga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

РЕЗЮМЕ:

Other types of complex puzzles can also be taught in the upper grades of primary education during the lesson, which in turn can be taught in extracurricular activities. There are also puzzles that are interesting to children, as well as educational, which can include puzzles about letters. Even when teaching this category of puzzles, it is a good idea to cite a few puzzles created about a single letter:

Conclusion. At the same time, it is possible to encourage small school-age students to collect folklore works, collect a small amount of materials and submit them to the school museum. Their interest in collecting puzzles will be especially strong. After all, the riddle genre is closer to the psyche of children than the proverb. Consequently, the riddles, which are among the small genres of folklore, mainly teach the younger generation to know life, to remember the properties of objects, ingenuity, ingenuity.

Literature:

1. See Tokhliev B. Methods of teaching special subjects.-T.:TDPU Publishing House, 2008.
2. Ziyodova T. Talismanic riddles are a factor in shaping speech activity.(Methodical manual for native language teachers). –T.: “Tacher”, 1998.
3. Ruzimboev S., Rahimboeva D. Proverbs, sayings and their differences. //”Ma’rifat yog’dusi”, - Urgench, 1998, №2. B.39-43.
4. Ruzimboev S. Typology of riddles of Turkic peoples. // Selection. – Urgench, “Khorezm”, 2012.- P.77-102.
5. Ruzieva D., Qoraev Z. Use of folklore.//Primary education. 2009, №3.-B.6-10.



ТАСВИРИЙ САЪНАТ

ЖАС ТАМАШАГӨЙЛЕР ТЕАТРЫ ШӨЛКЕМЛЕСИЎИНДЕ УСТАЗ РЕЖИССЁР НАЖИМАТДИН АНСАТБАЕВТЫҢ ОРНЫ

Назарымбетов Б.

Қарақалпақстан Республикасына хызмет көрсеткен артист, доцент

Назарымбетов А.

ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыушы

Таянч сўзлар: театр, режиссёр, спектакль, драматург, ёш тамошабинлар театри.

Ключевые слова: театр, режиссер, спектакль, драматург, театр юного зрителя.

Key words: theatre, director, performance, playwright, youth theatre.

РЕЗЮМЕ:

Мақолада устоз режиссёр, Ўзбекистон халқ артисти, Бердак номидаги давлат мукофотининг лауреати Нажиматдин Ансатбаевнинг Қорақалпоқ давлат ёш тамошабинлар театрида сахналаштирган спектакллари ҳақида сўз боради.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассказывается о спектаклях, поставленных Наджиматдином Ансатбаевым, мастером режиссера, народным артистом Узбекистана, лауреатом государственной премии имени Бердака, в Каракалпакском государственном театре юного зрителя.

SUMMARY:

The article tells about the performances staged by Nadzhimatdin Ansatbaev, a master director, People's Artist of Uzbekistan, laureate of the Berdak State Prize, at the Karakalpak State Theater for Young Spectators.

Қарақалпақстан Республикасы Хўкиметиниң 1978-жыл 22-мартдағы №173 қарары менен Нөкис қаласынан Қарақалпақ мәмлекетлик Жас тамашагөйлер театры өз жумысын баслады. Жаңадан дүзилип атырған театрдың шөлкемлестириўшилиқ, дөретиўшилиқ хәм финанслық қыйыншылықлары есапқа алынып, Қарақалпақстан Республикасы Мәденият министрлигиниң 1978 - жылдың 30 - марттағы №38 санлы буйрығына тийкарланып театрдың директоры етип Ўзбекстан, Қарақалпақстан хәм Татарстан Республикалары халық артисти Байрам Матчановты, театрдың бас режиссёры етип қарақалпақ мамлекетлик музыкалы драма хәм комедия театрынын талантлы актёры хәм режиссёры, Ўзбекстан Республикасы



халық артисти, Бердақ атындағы мәмлекетлик сыйлықтың лауреаты Нажиматдин Ансатбаевты тайынлады.

Нажиматдин Ансатбаев жақсы актёр, жақсы режиссёр, искер басшы хәм устаз. Қарақалпақ театрларын Нажиматдин Ансатбаевсыз көз алдымызға келтире алмаймыз. Бул тулғаның театр көркем өнер тарауына оның рауажланыу жолына қосқан үлесі көп. 60 жыллық саналы өмирін театрға бағышлады. 1960 -жылы театрға келген жас өспирим, бугін 80 жастан өтип, кекселик дәуірінде жасларға билим берип устазлық етпекте.

Ол жас тамашагөйлер театрында бас режиссёр лауазымына тайынла-наман дегенше Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик академиялық музыкалы театрында актёр, бас режиссёр, көркемлик басшы, директор лауазымларында иследи. Театрды жан-тәни менен сүйетуғын, театр ушын жанын пидә ететуғын, жууапкершликти қатты сезетуғын халқымыздың сүйикли актёры, режиссёры Н.Ансатбаевты жас тамашагөйлер театры-ның бас режиссёры етип бекитиуи театр ушын үлкен жетискенлик еди. Н.Ансатбаев ушын жаңадан дүзилген дөретиушлик жәмәәтинде ислеу машақатлы хәм қызықлы болды. Жаслар менен ислесиу хәм жас та-машагөйлер кеуиллеринен шығыу оғада жууапкершликти талап етер еди. К.Рахмановтың «Егленген бәхәр» пьесасын алғанда да ол заман талапла-рынан келип шығып, сахналастыруға бел байлайды. Драма қахарман-лары кеуил шешими менен “Қырқ қыз” массивиндеги жаңа жерлерди өзлестириу жумысларына өз мийнетин қосып, шөллеп жатқан боз жер-лерди ана халқына хызмет қылдырыу жумысына үде қылған жаслар Арысланбай, Төребек, Арзыгул, Зияда хәм олардың дослары бир уақытла-ры мийуели болған, хәзирги уақытта қызыл кум астында қалып, сахраға айланған “Қырқ қыз” массивин өзлестириу режелестирилген.

Пьесада мийнет темасына қарағанда жаслардың бир-биреуине болған умтылыулары, жаслық мухаббаты, дослық мүнәсибетлериниң хақыйқый мухаббатына айланыуы көрсетилген. Арысланбай менен Зияда, Арзыгул менен Төребек араларындағы мүнәсибетлер хақыйқый мухаббат хәм та-машагөйлерди исендиреди.

Республика жас тамашагөйлерине саўға қылынған жаңа театрдың би-ринши спектакли өзиниң көркем-идеялық тәсиршеңлиги, онда қойылған мәселениң актуаллығы, спектакльде бәнт болған жас актёр хәм актриса-лардың кеуил кеширмелери олардың қахарманларының хәрекетлерине сәйкеслиги спектакльди тамашагөйлер хәм республика кен жәмәәтши-лиги тәрөпинен жақсы күтип алыуына себеп болды. Спектакльдеги тий-карғы роллерди көтериңки руўхта атқарған жас актёр хәм актрисалардан



Ж.Жуманов, Ж.Абдимов, С.Давлетова хәм А.Наўрызовалардың атқарыўшылық қәбилетин тамашағөйлер жақсы баҳалады.

Спектакльдеги ўақыялар болатуғын мәнзилин режиссёр Н. Ансатбаев хәм художник И.Алибековлар еки орынға туўрылады.

Биринши орын район баслығының уйи болса, екинши орын шөлдеги вагон. Режиссёр хәм художниктин бундай шешимге келиўлериниң себеpleri бар әлбетте.

Бириншиден, үлкен режелер менен “Қырқ қыз”ға келген жасларға район басшылығы тәрәпинен жаратылған шәрт-шараятлар менен тамашағөйлерди таныстырыў, баслығының жаслар талпынысына итибардын қай дәрежеде екенлигин көрсете билиў болса,

Екиншиден, район басшыларының жасаў шараятларын көз-көз қылып, бул еки қыйлы шараят, еки қыйлы шараятты салыстырмалы анализ қылып, оннан жуўмақ шығарыўды тамашағөйлердиң ыхтиярларына қалдырыў еди. Демек, художник И.Алибеков сценографиясының тийкарғы ўазыйпаларынан бири - ўақыялар жүз берип атырған шәрт-шараятты, образлы түсиндирип, шығарма қаҳарманлары роллерин атқарып киятырған театрдың жас актёрларына турмыслық образ жаратыўларына имкәният жаратып берген.

Улыўматеатрдағы сценограф-художниктин тийкарғы ўазыйпасы шығарманы сахналастырыўшы режиссёрдың идеяларына тийисли сахналық безеўлерди көрсетиў болып табылады. Ол жаратқан безеў турли-турли ўазыйпаларды орынлаўы мүмкин. Бул әлбетте художниктиң театр жәмәетин сахналастырыўға бел байлаған шығарманы да режиссёр концепциясын қай дәрежеде өзлестирди, анализ қылды хәм өзине қандай жуўмақ шығарыўға байланыслы. Художник жаратқан спектакль декорациясы шығарма қаҳарманларына шараятты сезиў, драматург илгери сурген шарт-шараятта жасаўға имкәният жаратады. «Егленген баҳар» спектаклиндеги художник И.Алибеков жаратқан безеклер режиссёр идеясын ашыўға жәрдем берген. Тәжирийбели сценографист мархум И.Алибековтың доретиўшилигине тән қасийетлерден тийкарғысы художниктиң драматургиялық шығармалардың тәбиятын, қан тамырындағы ритмди нәзик сезиўи болып табылады. «Егленген бәхәр» спектаклиниң көркем безегинде художниктиң драматург қәлемин, ол айтпақшы болған идеяны нәзик илгенлиги сезилип турады.

Сахнаның шаңын жалаған, онын майда-шүйделеринен хабардар, жетерли доретиўшилиқ тажирийбеге ийе болған еки көркем өнер ғайраткери - актёр хәм режиссёр Н. Ансатбаев хәм Мухтар Аўезов атындағы қазақ



академик драма театрының үлкен дөретиүшилиқ қазанында қайнап уллы сахна дарғалары Н.Жантурин, А.Ашимов, А.Жанибетовлар тажирийбелеринен сабақ алыўға мияссар болған Ислам Алибековлардан ибарат тандемнин өз-ара пикирлері, драматург К.Рахманов өз шығармасында алға сүрген идеяны сахна тилинде, сахна қураллары менен тәсирли, ҳақыйқый көрсете билгенлиги спектаклдиң табысын тәмийнледи.

Спектакльдиң жеңисинде, турмыслықлығында режиссёрдың халықлық сахналарға үлкен итибар берийи, жанлы ҳәрекетте сахнада жүз берип атырған ўақыяларға мүнәсибет билдирийи халықтың пикири, мүнәсибети тамашағөйлерди бийпарық қалдырмады. Бәхәрдиң сәўир самалларында тапланып атырған қалби мақтанышқа толы, мийнетке забердес қыйыншылықлардан қорықпайтуғын жас жигит-қызларды залдағы тамашағөйлер сезип отырады.

Әсиресе дала мийнеткешлері, жаслар театрдың өз заманласлары өмиринен сөз етийи мазмунлы спектаклин қызғын күтип алды. Аўыл жаслары спектакль қаҳарманлары Арыслан, Зияда, Салтанат киби жас шөл қуўарлардың мийнети, умтылыслары, пикирлеринде өзлерин көргендей болды.

Бәрше шөлкемлестирийишлиқ, руўхый, турмыслық хәм дөретиүшилиқ қыйыншылықлар хәм жетиспеўшилиқлерге қарамастан жас театр жамаатинин биринши спектакли «Егленген бәхәр»диң бай қадеми қутлы келди.

Театрдың екінши мәўсимине төрт жаңа шығарманы сахналастырыўды режеге киргизди. Булар Исадор Штоктың «Яратқаннын далкеги» («Божественная комедия»), М.Ағамирзаев хәм А.Бабахановлардың «Жолбарыс хәм аңшы» («Тигр и охотник»), Ж.Махмудовтың «Жалаңаш король» хәм И.Юзеевтиң «Ойыннан оймақ» («Не по злобе») шығармалары еди.

Жас тамашағөйлер театры өзиниң бағдарынан келип шыққан ҳалда Андерсенниң ертеги тийкарында драматург Жура Махмудов тәрөпинен жазылған «Жалаңаш король» шығармасын сахналастырыўға қарар етти. Н.Ансатбаев бул сапар өзине пикирлес декоратор-художникти Москвадан изледі.

Сахналастырыўшы режиссёр Н. Ансатбаев Москвалы художник Р.Казачек пенен бирге ислесиўде Андерсен ертеги қаҳарманларын қарақалпақ театры сахнасында жанландырыўға ҳәрекет қылды. Спектакльдиң премьерасы 1979- жылдың 27-мартында халықаралық театр кунинде болып өтти.



Драматург Ж.Махмудов, режиссёр Н.Ансатбаев ҳам художник Р.Казачеклер сахнада көрсетиў қураллары арқалы түрли ажайыбатларға бай сахна шығармасы, жас тамашагөйлер ой-пикирин байытып, оларды ертеклер әлемине алып киретуғын кеўилли, гөззал спектакль жаратып, қарақалпақ жасларын биринши марте атақлы Дания ертекшиси Андерсен дөретиўшилиги менен таныстырды.

Спектакльдин декорациясы, шығарма қаҳарманларынын липаслары, Андерсен ертеги ушын зарўр болған бәрше буйымлар Москва театрларының арнаўлы цехларында орынланды. Ертеқ жанрына қолайлап жеңил, гөззал, сахнада даўир орталық, ертеқ қаҳарманлары жасап атырған шарт-шараят ҳаққында залда отырған аўыл жасларына анық ой беретуғын бай декорация, миллий калоритке тан безелген костюмлар спектаклдин профессионааллығы, тамашагөйлиги ҳам тасиршеңлигин тамийнленди. Жәмәат өз имарат ҳам өз сахнасына ийе болмағанлығы себепли тамашагөй заўықлы «Жалаңаш король» спектаклин, тийкарынан республика қалаларындағы, район орайлары ҳам аўыл мектеплеринин клубларында көрсетилди. Тек ғана 1979-жылдың өзинде «Жалаңаш король» спектакли 97 марте аўыл ҳам қаладағы жасларға көрсетилди. Спектаклди 50 мыңға жақын жаслар тамашалап, театр актёрларынын атқарыў шеберлигинен заўықланады.

Режиссёр Н.Ансатбаев спектаклдин көркемлик дәрежеси, тәсир күши ҳам тамашагөйлигин тәмийнлеў, спектаклде бант болған театрдын жасларына жәрдем сыпатында үлкен театрдың жетекши актёри Өзбекстан ҳам Қарақалпақстан халық артисти, Бердақ атындағы мәмлекетлик сыйлығының лауреаты Рейимбай Сейтовты бас роллерден бирине мирәт етти.

1980-жылы Н.Ансатбаев өз жәмәатине- Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик академиялық музыкалы театрына бас режиссёр етип тайынланды. Бирақ ол жаслар театры жәмәати менен дөретиўшилиқ байланысты үзген жоқ.

1990- 1995 -жыллары да С.Хожаниязов атындағы Қарақалпақ мамлекетлик жас тамашагөйлер театрында көркемлик басшы лаўазымында ислейди. Бул жыллары ол, Б.Жакиевтың «Әке тәғдири», Ж.Махмудовтың «Жалаңаш король», С.Жумағуловтың «Адамлар қалай бузылған», «Күйеўинди берип тур», С.Балғабаевтың «Ең сулыў келиншек», Т.Жумагелдиев, Ч.Момедовлардың «Жетимек» спектакллерин сахналастырып театр тарийхында өшпес из қалдырды.

1994-жылы Ташкент қаласында өткерилген Орта Азия ҳам Қазахстан Республикаларының «Наўрыз» театрлар фестивалында ол сахналасты-



рған «Ең сулуў келиншек» спектакли менен қатнасып белгили қәнигелер тәрәпинен жоқары баҳаланды ҳам Гулпаршын ролин атқарған актриса Г.Сарыбаева «Ең жақсы ҳаял образын атқарыўшысы» номинациясы женимпазы болды. Әлбетте буның бәринде режиссёр Нажиматдин Ансатбаевтың жемисли мийнетлери нәтийжеси. Спектаклдерде актерлардың мүмкиншиликлерин жақсы билип, сол арқалы актерларды роллерге бөлиўлери көп нәтийже береді.

Жас драматург, еле пьеса жазып көрмеген, телевидениеде тек минатюралары менен белгили болып журген С.Жумағұловтыңда драматург болып танылыўында Н.Ансатбаев хызметлери бар. Оның «Адамлар қалай бузылған» пьесасы театрға келип түскенде, ол қайта-қайта драматург пенен ислесип сахна сырларын үйретип, пьеса жазыўда нелерге итибар бериў кереклигин көп үйретеди. Пьесаны бир неше мәртебе қайта жазылып, нәтийжеде пьеса балалар ушында үлкенлер ушында тарбиялық әҳмийетке ийе, философиялық характерге ийе болып тәсиршен шығады. Онда әййемги дәўирде ҳайўанлар менен адамлардың биригип жасап атырған бир ўақытлары, ҳәмме дос татыў жасайтуғын ўақытларды, адамлар арасына от таслап ишлерине шайтан кирип, олардын бир-бирин көре алмай душпанлық сезимнин пайда болыўлары бир тоғайда ҳайўанлар тили менен сөз етиледі. Спектаклди балларымыз жүдә қуўаныш пенен күтип алады. Сахналарын безеген художник сценографистлер Ислам Алибеков ҳәм Исхақ Мухитовлар жүдә бир бай тәбият көриниси менен ҳайўанларға образлы костюмлар таңлай билген.

Н.Ансатбаев жас тамашагәйлер театрын шөлкемлестириўде ҳәм оның бүгинги күндеги дөретиўшилиқ жолында да мийнетлери айрықша саналады.

Әдебиятлар:

1. Алланазаров Т. Каракалпакский театр. Ташкент, 1966 г.
2. Алланазаров Т. Театр ҳәм драматургия. “Қаракалпакстан”, 1982.
3. Алланазаров Т. Некоторые вопросы каракалпакской драматургии. Н. Каракалпакстан, 1987
4. Алланазаров Т. Қарақалпақ театрында миллий режиссураның қәлиплесиўи. Н. “Билим”, 1996
4. Баяндиев Т. Қарақалпақ театр тарийхи. Тошкент 2011-й.
5. Баяндиев Т. Қарақалпақ театрының Бердақ шайыры. Тошкент 1914.
6. Баяндиев Т. Қарақалпақ сахнасининг шоири. Театр журнал.-2013/6, 12-13 бет.
7. Баяндиев Т. Қарақалпақ театрининг биринчи профессионал режиссёри. Театр журнал.-2014/3, 15-16 бет.



INSON FAZILATLARIDA IJODKORLIKNING AHAMIYATI

Sharipova Sh.N.

*Qarshi Davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrası mustaqil tadqiqotchisi*

Tayanch soʻzlar: ijodkorlik, fazilat, tajribaga ochiqlik, fikrni ochish, innovatsion-muqobil yechim.

Ключевые слова: креативность, добродетель, открытость к опыту, открытость к мысли, инновационно-альтернативное решение.

Key words: creativity, virtue, openness to experience, openness to thought, innovative-alternative solution.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada har bir insondagi mavjud fazilatlar orqali oʻziga xos yondoshuv orqali ijodkorlik xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va oʻz ustida ishlash bilan ijodkorlikni samarali rivojlantirish haqida batafsil maʼlumot berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В этой статье представлена подробная информация об эффективном развитии творчества путем выявления, формирования и работы над собой особенностей творчества через уникальный подход через качества, которые есть у каждого человека.

SUMMARY:

This article provides detailed information on the effective development of creativity through the identification, formation, and self-improvement of creative characteristics through a unique approach through the qualities present in each person.

Ijodkor odamlarning xususiyatlarini bilib oling, siz ulardan birimisiz?

Insonning eng qadrlı fazilatlaridan biri bu ijodkorlikdir. U nafaqat san'atda, balki hayotning boshqa sohalarida ham qo'llaniladi. Ushbu maqolada biz ijodkorlik bilan qanday fazilatlar bog'liqligini ko'rib chiqamiz.

Ijodkorlik - bu boshqacha fikrlash, yangi yechimlarni topish va o'ziga xos g'oyalarni ifodalash qobiliyati. Ijodiy aql - bu muammolarni hal qilish va yangi va innovatsion narsalarni yaratish uchun kuchli manba. Ijodkorlik odatiy chegaralardan tashqariga chiqadigan yangi g'oyalar, tushunchalar, loyihalar va mahsulotlar shaklida ko'rinadi.

Ijodkorlikning ikkita asosiy komponenti quyidagilardan iborat:



O'ziga xoslik: g'oya allaqachon mavjud bo'lgan boshqa narsaning kengaytmasi bo'lmagan yangi narsa bo'lishi kerak.

Funktsionallik: g'oya ishlashi yoki ma'lum darajada foydali bo'lishi kerak.

Ijod o'ziga xos fazilatlar bilan ajralib turadi. Ijodkor odamlarning o'ziga xos xususiyatlari orasida ular har qanday vaziyat uchun innovatsion yechimlarni olishlari va chiziqdan tashqariga chiqishlari bilan ajralib turadi. Shaxsning tavsifini bitta xususiyatga qaratmasdan, uni boshqalardan alohida ajratib turadigan xususiyati haqida batafsil ta'riflash mumkin. Shuning uchun, quyida biz ijodkorlarni aniqlaydigan narsalarni tushuntirishga e'tibor qaratamiz.

Ijodkor odamlar qanday bo'ladi? Umuman olganda, ijodkorlik barcha insonga tegishli sifatdir; lekin bu sifatni hamma ham o'zida shakllantira olmaydi (yetarlicha e'tibor qaratmaydi, o'z ustida ishlamaydi va h.k). To'g'ri, ijodkorlar badiiy ijod bilan shug'ullanishi tabiiy holdir. Biroq, ular buni yangi muammolarga muqobil yechimlarni topishni talab qiladigan boshqa sohada ham qo'llashlari mumkin. Muxtasar qilib aytganda, ijodkorlik ixtiro, innovatsiya va yaratilish qobiliyatini rag'batlantiradi. U qo'llaniladigan kashfiyot ko'plab omillarga, shu jumladan shaxsiy didga bog'liq bo'ladi. Bu xususiyat aqliy moslashuvchanlik, qiziquvchanlik yoki umuman konservativ bo'lmagan muqobil turmush tarzi bilan birga keladi. U barcha yoshdagi va barcha ijtimoiy tabaqalardagi odamlarda mavjud.

Ijodkor odamlarning xususiyatlari. Quyidagi jihatlar eksklyuziv yoki to'liq bo'lmasa-da, ijodiy insonlarning xususiyatlarini tashkil etadi, bu ularning hayotida tez-tez uchraydi yoki ustunlik qiladi: axir, har kimning o'ziga xos bo'lish usuli bor.

1. Kognitiv moslashuvchanlik.

Kognitiv moslashuvchanlik ijodiy odamlarning eng ko'zga ko'ringan va o'rganilgan xususiyatlari orasida ajralib turadi. Bu miyaning frontal loblarida joylashgan bo'lib, u bir vaqtning o'zida ikki xil alternativa haqida o'ylash va ishlamaydigan yechimni sinab ko'rganimizda, o'zimizni to'g'rilash uchun javobgardir. Shu ma'noda, Valyadolid universiteti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot kognitiv moslashuvchanlik va ijodkorlik o'rtasidagi ijobiy munosabatni topadi: birinchisi kuchayganda, yangi g'oyalar paydo bo'lishi va yanada original bo'lishi kutiladi.

2. Tanqidiy qarash.

Bu yerda qo'zg'olon muxolifatchi bo'lishni anglatmaydi, balki ijtimoiy qoidalar "oddiy" deb hisoblagan narsadan tashqarida yashash uchun jasoratga ega bo'lishni anglatadi. Hayotiy tajribalar shuni ko'rsatadi-ki, buyuk rassomlar, musiqachilar, rassomlar yoki boshqa soha vakillarilarning ko'pchiligi tanqid qilingan yoki ko'rsatilgan bo'lsa-da, odatiy turmush tarzini tanlamagan. Aksincha,



ular haqiqatan ham kim bo'lishlari ijtimoiy mandatlardan ustun edi. Shu tufayli ular o'z kasblarini erkin rivojlantirishga muvaffaq bo'lishdi.

3. Qiziqish.

Qiziqishni ijodkorlik uchun tetik deb hisoblash mumkin, chunki ko'p hollarda u yangi g'oyadan oldin bo'ladi. Qiziquvchan bo'lish - noma'lum narsaga qadam qo'yish yoki biz allaqachon bilgan narsamizdan tashqariga chiqish. Ijodkor odamlar qiziqish doirasi keng bo'lib, juda ko'p savollar berishadi.

4. Pragmatizm. Ijodkorlik har doim kundalik hayotda qo'llaniladigan yangi g'oyalar va manbalarni topishdir. Shu nuqtai nazardan, ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lgan odam ham pragmatik yoki amaliydir, chunki ular harakatga yo'naltirilgan va muqobillarni izlaydi. Darhaqiqat, u o'z g'oyalarini aniq narsalarga qaratsa va boshqalar tomonidan tan olinsa, u katta mamnuniyat his qiladi, muvaffaqiyatga erishadi.

5. Muvofiqlik.

Bu sifat kognitiv moslashuvchanlik bilan chambarchas bog'liq. Ijodkorlar muhitni o'zgartirishi va tezda moslasha olishi bilan ajralib turadi. Moslashish qobiliyati boshqa shunga o'xshash sifat bilan birga keladi: ko'p qirrali. Ular deyarli har qanday sharoitda yaxshi ishlaydigan odamlardir, o'zgarishni qo'rquvdan ko'ra rag'bat deb bilishadi.

6. Sezuvchanlik.

Nozik bo'lish - ijodkorlikning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bu xususiyat shaxslar, tabiat, hayvonlar bilan bog'lanish uchun maxsus iste'dodga ega bo'lishni, boshqa odamlarning his-tuyg'ularini o'qish va tushunishi mumkin.

7. Kuzatish.

Ijodkor bo'lish uchun inson kichik tafsilotlarni juda yaxshi aniqlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bularning yig'indisi o'ziga xoslik va oddiylilik o'rtasidagi farqni keltirib chiqaradi: hayratlanarli va oddiy. Bu sifat tug'ilishdan kelib chiqadigan narsa emas, balki o'qib-o'rganish orqali amalga oshadigan jarayondir. Buning uchun insondan sabr-toqatli bo'lish talab etiladi.

8. Proaktivlik.

Ularga o'tirib o'tirmaydigan, boshqalarning g'oya bilan chiqishini kutib o'tirmaydigan, o'zlari tashabbus ko'rsatadigan ijodkorlarga xos xususiyatlar qo'shiladi. Barcha sohada ular tadbirkordir, chunki ular innovatsion reja modellariga ega bo'lishdan tashqari, o'z loyihalarini haqiqatga aylantirishdan qo'rqmaydilar.

9. Tajribaga ochiqlik.

Tajribaga ochiqlik va ijodkorlik o'rtasidagi bog'liqlik psixologiyada keng o'rganilgan. Ushbu ochiqlik ichki va tashqi tajribalarni izlash, shuningdek, noan'anaviylikka yo'naltirishni anglatadi. Barselona universiteti tomonidan



o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, yuqori ochilish tajriba va o'rganishga, ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan xatti-harakatlarga moyilligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, bu ko'proq ma'lumotni diqqat markaziga kiritish va uni yanada xilma-xil va g'ayrioddiy qilish imkonini beradi.

10. O'zi ergashgan narsaga bo'lgan ishtiyoq.

Bu odamlar o'zlari erishmoqchi bo'lgan narsaning kuchli tuyg'usiga ega. Ular buni haqiqiy ishtiyoq bilan his qilishadi va bu ularni yaxshiroq ishlashga intiladi. Eng xarakterli misol - bu o'z karyerasini yaxshilash uchun tinimsiz izlanuvchi va intiluvchi ijodkor insonlar (rassomlar, arxitektorlar, oshpazlar, tadbirkor va h.k.).

11. Fikrni ochish va ijodkorlikni rivojlantirish.

Shu paytgacha biz ijodkor odamlarning xususiyatlarini tasvirlab berdik, lekin bu xususiyat tug'ma deb o'ylamaslik kerak. Natijalarni boyitish uchun ijodkorlikni yaxshilash mumkin. Xo'sh, qanday qilib ko'proq ijodiy bo'lish kerak? Birinchi qadam yuqorida muhokama qilingan xususiyatlarni oshirish bo'ladi, masalan: qiziquvchan, ochiq fikrli munosabatni namoyon etish va tafsilotlarga e'tibor berish. Bu bizning ongimizda yangi g'oyalar paydo bo'lishiga olib keladi va ular yanada sifatli bo'ladi. Har bir insonda allaqachon qiladigan ish bor, bu fikrni ochish va u berishi mumkin bo'lgan hamma narsani kashf etish.

Psixologlar ijodkorlikni qanday aniqlaydilar? Ijodkorlikni o'rganish murakkab jarayon bo'lishi mumkin. Ijodkorlik nafaqat o'z-o'zidan murakkab mavzu, balki ijodkorlikni qanday aniq belgilash haqida aniq konsensus mavjud emas. Eng keng tarqalgan ta'riflarning ko'pchiligi ijodkorlik - bu muammolarni hal qilish yoki yangi narsalarni yangi usullar bilan yaratish tendentsiyasi ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar.

1. М.Хаутамки. График дизайнер ишда g'oyalar generatsiyasi. 2010. 110 b.
2. Гальперин П.Я. Психология как объективная наука: Избранные психологические труды. / Под ред. Подольского А.И. - М.: МПСИ, Воронеж: НПО МОДЭК, 1998; Леонтьев А.Н. Эволюция психики. - М.: МПСИ, Воронеж: НПО МОДЭК, 1999. 86 с.
3. Якобсон П.М. Психология художественного творчества. - М.: Знание, 1971. 125 с.
4. Шумилин А.Т. Талант и творчество. // Формирование творческих способностей: Сущность, условия, эффективность. Сб. науч. тр. / Редкол.: Гончаров С.З. (отв. ред.) [и др.] - Свердловск: Изд-во СИПИ, 1990. 55 с.



O'QUVCHILARGA IJODIY YONDOSHUV ORQALI GRAFIK VA DIAGRAMMALARNI O'QISH VA BAJARISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Shafoatov Z.J.

*Qarshi davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
kafedrası o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: grafik va diagrammalar; chiziqli, ustunli va sektorli grafik va diagrammalar.

Ключевые слова: графики и диаграммы; линейные, столбчатые и секторные графики и диаграммы.

Key words: graphs and diagrams; linear, column, and sector graphs and diagrams.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada muhandislik grafikasi fanini o'qitish orqali grafik va diagrammalarni o'qish va bajarishda o'quvchilarga turli interfaol usullarda yondoshuv, bu mavzu boshqa fanlar va sohalar bilan chambarchas bog'liqligini tahlil qila olish ko'nikmasi, turli hayotiy tajribalarga ega bo'lishi hamda mavzuni o'zlashtirish orqali erishiladigan innovatsion g'oya, natijalar haqida takliflar ilgari surilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье выдвигаются предложения об инновационной идее, результатах, достигаемых путем чтения и выполнения графиков и диаграмм посредством преподавания предмета "Инженерная графика," умения анализировать тесную связь этой темы с другими предметами и областями, приобретения различного жизненного опыта, а также усвоения темы.

SUMMARY:

This article proposes an innovative idea and results that can be achieved through various interactive approaches to students in reading and executing graphs and diagrams through the teaching of engineering graphics, the ability to analyze the close connection of this topic with other subjects and fields, having different life experiences, and mastering the topic.

Kirish. Talabalarni muhandislik grafikasi fanidan grafik ishlarni samarali tashkil etishning metodik asoslari borasida ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari ilib borilgan hamda metodik asoslari yaratilgan, ammo bugungi texnika, texnologiya va fan taraqqiyoti barcha sohalar qatori muhandislik sohalarida ham xususan talabalarni muhandislik grafikasi fanidan grafik ishlarni samarali tashkil etishning metodik asoslarini yangicha, ya'ni zamonaviy yondoshuvlar asosida ishlab chiqilishini taqazo qilmoqda. Jumladan,



muhandislik grafikasi sohasida ijodiy iqtisodiyot maslalarini o'rganilgani yoq. O'quvchilar o'zlari yaratgan muhandislik va texnik ixtirolardan moddiy manfaatdorlikga erishishlari kerak. Bizga ma'lumki bogungi kunda talabalar tomonidan yaratilgan ijod namunalarini, texnik va texnologik ixtirolarning rag'batlantirilishi faqargina davlat tomonidan amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Bu imkoniyat o'quvchilarning o'zlarida ham bo'lishi kerak, buning imkoniyat va shart-sharoitlarini nazariy va amaliy jihatlarini olimlar tomonidan ishlab chiqilishi, asoslanishi hamda metodik jihatlarini muhandislik darslarida o'quvchilarga yo'llanma o'laroq o'rgatilishi kerak. Bu o'quvchilarning qiziqishlarida muhim asoslardan bo'lib xizmat qiladi. Busiz o'quvchi mustaqil natijalarga erishishi qiyin.

Grafik va diagrammalarni bajarishga o'rgatish. Grafik va diagrammalar fan, texnika, tibbiyot, maorif va turmushda keng qo'llaniladi. Fanda ular yordamida har xil murakkab jarayonlarning kechishi va qonuniyatlari o'rganiladi, tibbiyotda tashxis qo'yishda (kardiogrammalar,...) foydalaniladi, ishlab chiqarish, maorif va shu kabilarda ma'lum bir davr mobaynida biror sohadagi ko'rsatkichlarning o'zgarishlari sodda va tushunarli shaklda ifodalaniladi.

O'quvchilar grafik va diagrammalar bilan matematika, fizika, iqtisodiy bilim asoslari, mehnat ta'limi darslarida va shuningdek gazeta hamda jurnallarni mutolaa qilish jarayonlarida tanishishgan. Shuning uchun biz grafik va diagrammalarni o'qish va bajarishni bilishning foydasi va zaruriyati haqida batafsil to'xtalib o'tirmaymiz. Har bir o'qituvchi bunga istalgancha misol keltirishi mumkin. Quyida grafik va diagrammalarning turlari va ularni bajarish metodikalari haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Amaldagi o'quv dasturiga asosan umumla'lim maktablari chizmachilik kursida grafik va diagrammalarni o'rganish ko'zda tutilmagan. Lekin kasb-hunar kollejaridagi reklama faoliyati va dizayn yo'nalishlaridagi ixtisosliklari talabalari zamonaviy shakldagi, kishilarni o'ziga jalb qiladigan ko'rinishli grafik va diagrammalarni bajarishni bilishlari kerak. Grafik va diagrammalar amaliy grafika tarkibiga kiradi, chunki ular ko'pincha ko'rsatkichlarni namoyish qilish, iqtisodiyot, moliya, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy, maorif, tibbiyot kabi sohalardan hodisa va jarayonlarni o'rganish hamda oldindan aytishda qo'llaniladi.

Grafik va diagrammalar shakliga ko'ra chiziqli, ustunli va sektorli (shu jumladan hajmli va uch o'lchamli) ko'rinishda bajarilishi mumkin. O'quvchilarning kundalik turmushlari bilan bog'liq sohalardan misol va



topshiriqlar tanlansa, ular ushbu mavzuni qiziqish bilan o'rganadilar. An'anaviy ko'rinishda bajarilgan grafik va diagrammalarga misollar keltiramiz.

Chiziqli grafik, ustunli va sektorli diagrammalarni bajarish metodikasi.

Grafik va diagrammalar axborot uzatishning bir shakli bo'lib, ular o'zining ixchamliligi, mazmunliligi, universalliligi va tushunarililigi bilan ajralib turadi. Ulardan insonlar kundalik turmushida va kasbiy faoliyatlarida foydalanadilar.

Grafik (grek. graphikos - chizma) biror kattalik (funksiya)ning ikkinchi kattalik (dalil) o'zgarishiga bog'liq holda, o'zgarishining grafik shakldagi tasviridir.

Inson faoliyatining statistika, hisob-kitob va boshqa sohalarida grafiklar jarayonlarning miqdoriy bog'liqligini yaqqol tasvirlash uchun keng qo'llaniladi. Masalan, rejaning oylar yoki yillar bo'yicha bajarishning borishi grafigi, mamlakat aholi sonining yillar bo'yicha o'sishi grafigi va hokazo.

O'quvchilarni grafik va diagrammalar bajarishga o'rgatishda dastavval ularning shu sohadagi bilimlarini chuqurlashtirish, grafik va diagrammalar turlari hamda turli texnikada bajarilgan shakllari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish kerak. Buning uchun ularga ushbu mavzu bo'yicha birinchi topshiriq sifatida A3 formatli chizma qog'ozi varag'iga gazeta va jurnallardan grafik va diagrammalarni qirqib olib, yelimlashni va maktab darsliklaridagi grafik va diagrammalardan namunalar ko'chirib chizishni topshirish mumkin. Keyingi darsda vazifani tekshirish va ular ichidagi original yechim topilgan variantlarni o'qituvchi sinfdagi o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilishi tavsiya etiladi.

Ushbu metodik usul yordamida o'quvchilarning grafik va diagrammalar ularning ishlatilish sohalari, shuningdek ularga bo'lgan zaruriyat to'g'risidagi tasavvurlari kengayadi. Buning natijasida o'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan mavzuni mustaqil tanlashga, keyingi bajariladigan individual grafik topshiriqni yuqori saviyada bajarishga harakat qilishadi. Quyida grafik va diagrammalarning matbuotda va o'quv adabiyotlarida eng ko'p uchraydigan turlariga misollar keltiramiz. Ularni bajarish tartiblari o'quvchilarga avvaldan tanish bo'lganligi uchun bu haqda to'xtalmaymiz. Ushbu misollardan chizmachilik o'qituvchisi o'quvchilar uchun individual topshiriqlar variantlarini tuzishda foydalanishi mumkin.

Yaqqollikni ta'minlash maqsadida ustunli diagrammalardan ham foydalanish mumkin. Ularni bajarishda eni bir xil bo'lgan to'g'ri to'rtburchaklardan foydalaniladi. To'g'ri to'rtburchaklarning balandligi solishtiriladigan kattaliklarning son birliklariga mos bo'ladi. To'g'ri to'rtburchaklarning yuzalarini shtrixlab chiqish yoki bo'yash kerak bo'ladi. To'g'ri to'rtburchaklarning ichiga



yoki ustiga ulaming son qiymatlari yoziladi. Ustunlar guruhlar orasidagi masofa taxminan bitta ustunning eniga teng qilib olinadi.

Sektorli diagrammalar odatda yaxlit bir butun tarkibiy qismlarining nisbatlarini tasvirlash maqsadida qo'llaniladi.

Bunday diagrammani qurish uchun avlana fikran 100 ta teng bo'lakka bo'linadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, talabalarni muhandislik grafikasi fanidan grafik ishlarni samarali tashkil etishning metodik asoslarini bugungi kun talablariga mos tarzda bo'lishini asosiy talablaridan biri sifatida talab, taklif va natija deb hisoblanishi to'g'ri bo'ladi. O'quvchilar tomonidan yaratilgan amaliy ishlarni moddiy rag'batlantirilishi muammoligicha qolmoqda. Albatta bu borada yechimlar ishlab chiqilishi kerak. Xususan, mentalitetimizda muhandislik ixtirolariga munosabat maslasini to'g'ri baholanishi zarur, kerak bo'lsa yondashuvlarni o'zgartirish maslasi ham hal qilinishi kerak. Jamiyatimizda yangiliklarni qabul qilish hamda tashnalik hissini paydo qilish kerak bo'ladi. Bu o'z-o'zidan o'quvchi ta'lim-tarbiyasida ota-ona va o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni yuzaga keltiradi. Albatta ota-ona ham manfaatdorlikni ko'ra bilsagina farzandlarini ushbu sohaga rag'batlantirishi mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. E.I.Ro'ziyev, A.O.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2010, 248 bet.
2. J.Y.Yodgorov. "Geometrik va proyeksion chizmachilik". O'quv qo'llanma –T.: Yangi asr avlodi. 2008 yil, 102 b.
3. A.Abduraxmonov. "Chizmachilikda grafik ishlar tizimi". O'quv qo'llanma. T.: Cho'lpon, 2010 yil, 56 b.
4. Z.J.Shafolatov. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi (Chizma geometriya). O'quv qo'llanma. Qarshi 2023 yil, 90 b.
5. T.X. Jo'rayev. Chizma geometriya va kompyuter grafikasi. Buxoro 2017yil.280-bet.
6. A.A.Чекмарев. "Начертательная геометрия и черчение". Учебник для вузов "Владос" Москва, 20010. 370 стр.



СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

OILADA O'SMIRLARNI TOLERIANTLIK RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK MEKXNIZMLARI

Ortikova M.J.

*Toshkent davlat texnika universiteti Amaliy ingliz tili kafedrası
katta oqituvchisi*

Tayanch so'zlar: oila, o'smir, toleriatlik, oliy qadriyat, munosabat, ota-ona, maqom, fazilat, burch, tinchlik, an'ana

Ключевые слова: семья, подросток, толерантность, высокая ценность, отношения, родители, статус, добродетель, долг, мир, традиция.

Key words: family, teenager, tolerance, high value, relationships, parents, status, virtue, duty, peace, tradition.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada oilada o'smirlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik mexnizmlari to'g'risida fikrlar yuritiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматриваются социально-педагогические механизмы воспитания подростков в духе толерантности в семье.

SUMMARY:

This article examines the socio-pedagogical mechanisms of raising adolescents in the spirit of tolerance in the family.

Mamlakatimizda "Oilaviy munosabatlar - oliy qadriyat" deb hisoblangan o'zbek oilasi va uning ijtimoiy maqomi nihoyatda baland. O'zbek oilasi necha ming yillik tarixga ega bo'lib, o'z mavqeini hozirgacha sakdab kelmoqda. Zero, o'zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko'nikmalar avloddan-avlodga o'tib kelmokda. Ko'p bolali o'zbek oilalarida patriarxat tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlagan. Bugungi kunda oila o'smir ta'lim-tarbiyasida eng muhim vazifalarni bajaradi. Chunki aynan oilada o'smirning individual qobiliyatlari, shaxsiy, kasbiy qiziqishlari, axloqiy me'yorlari shakllanadi. Demak, oila omili o'smira butun umri davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan ham oila o'smir turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila o'smirning o'z-o'zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy



faolligini oshirishiga yordam beradi va o'smirning shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy guruh hisoblanadi.

Oilada ota-ona va o'smirlarning tabiiy-biologik va ijtimoiy aloqalari uzviy bog'lanib keladi. Oila mikromuhit sifatida o'smirning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Oilaning vazifasi o'smirni asta-sekinlik bilan jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga tayyorlash iboratdir. Oilada o'smirlarga beriladigan to'g'ri ta'lim va tarbiya uning aqliy, ijodiy qobiliyatlarining to'g'ri rivoji sabab bo'ladi. Aynan oilada o'smir mehnatga, hayotga, ta'limiy faoliyatga yo'naltiriladi.

Oilaning ijtimoiy-madaniy maqomi mavjudki, bu maqom oilaning ta'lim darajasi, yurish-turish madaniyati, an'nalarni sakdab qolish va o'tkazish vazifasi, qiziqishlarning keng doirasi, rivojlangan ma'naviy ehtiyojlar, dam olish va maishiy hayotning birgalikdagi shakllari bilan tavsiflanadi. Tolerantlik ham oilaning yurish-turish madaniyati, an'nalari, qiziqishlari, rivojlangan ma'naviy ehtiyojlarida tarbiyalanadigan tuyg'udir. Zero, tolerantlik o'zgalarning xattixarakati va fikr mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga toqatli, chidamli va kengfe'llik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. O'zgalarning fikriga, mulohazalariga va e'tiqodlariga tabiiy ravishda bo'ysunishni anglatmaydi. Ijtimoiy ishga oid ensiklopedik lug'atda tolerantlikni boshqalarning madaniy, irqiy va boshqa tafovutlarini tan olish, qadrlash va hurmat qilish, ularga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish sifatida ta'riflanadi.

Tolerantlik bugungi kunda insonlar hayotini tartibga soluvchi kuchli vosita sifatida davlat tuzilishi, ijtimoiy tizimda va inson huquqlarining rivojlanishida yetakchi omil bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'smirlarda aynan oila muhitida tolerantlikni shakllantirish ham ijtimoiy, ham psixologik, ham pedagogik jarayondir. Bu jarayonni tashkil etishda esa oila muhiti, ota va onalar, umuman kattalarning o'zni alohida ahamiyatga ega. Zero, tolerantlik tushunchasi o'z tarkibiga chidam, bardosh, o'zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofda qilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni ham qamrab oladi. O'smilar qalbida qachonki shu tushunchalarning mazmuni to'liq shakllansagina, keyin bu mazmun amaliyotga ko'chadi.

Tolerantlik muammosi bir qator tadqiqotchilarni ham qiziqtirib kelgan. Masalan, o'zbek tadqiqotchilaridan M.Xajievaning fikricha, tolerantlik turli ijtimoiy va e'tiqodiy tafovutlarga ega insonlar va millatlarni bir biriga bog'lab, ular o'rtasida do'stona munosabatni va muhitni yaratish orqali ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi, yoki tadqiqotchi Z.Husniddinovning bu tushunchaga bergan quyidagi ta'riflari: "Tolerantlik umumiy ma'noda biror narsa, hodisani, o'zgacha fikr va qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar chidam



va toqat bilan qabul qilishni anglatadi”. G‘arb olimi G.Ayzenk esa tolerantlikni chidamlilik, murosasozlik va o‘zga olam bilan muloqotga kirishiga ruxsat berish, unga nisbatan erkinlik va toqatlilik sifatida ta’riflaydi . G.U.Soldatova, L.A.Shaygerova va O.D.Sharova kabi olimlar o‘z izlanishlarida tolerantlikning quyidagi asosiy mezonlarini ko‘rsatib o‘tadilar:

- tenglik;
- o‘zaro hurmat;
- turli ijtimoiy guruhlariga nisbatan tolerantlik;
- jamiyatning siyosiy hayotida barcha a’zolarini ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar;
- barcha millatlar va etnik guruhlarining madaniy o‘ziga xosligi va tillarini saqlash va rivojlantirish;
- imkon qadar ko‘proq insonlarni ijtimoiy xarakterdagi voqealar va bayramlar bilan qamrab olish;
- barcha millatlar va etnik guruhlar vakillari uchun o‘z an’alarini hurmat qilish qobiliyati, din erkinligi;
- umumiy muammolarni hal qilishda hamkorlik qilish;
- millatlararo, irqalararo munosabatlarning eng zaif sohalarida jinslar o‘rtasidagi munosabatlarda ijobiy munosabat o‘rnatish. Demak, tolerantlik o‘zaro hurmat, o‘zgalarni qabul qilish va madaniyatlarning butun xilma-xilligini, o‘zini namoyon qilish shakllarini va inson individualligining namoyon bo‘lishini to‘g‘ri tushunish, ma’naviy bursh, siyosiy va huquqiy zarurat, tinshlikka yerishish imkonini beruvshi va urush madaniyatidan tinshlik madaniyatiga olib boradigan fazilatdir.

O‘spirinlarda tolerantlik fazilatini tarkib toptirish va ularni shu ruhda tarbiyalashda oila o‘z orniga ega, chunki oilada o‘spirinlarni har tomonlama, ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma’naviy pok qilib tarbiyalash yacheykasidir. Oila qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga o‘tkazuvchi qudratli omildir. Oila kunning muhum va dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotgan tolerantlikni o‘smirlarda rivojlantirish, tarbiyalashni davr va bugungi turmush taqozosi sifatida yondashilgan holda quyidagi ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni nazarda tutadi:

- har qaysi oiladagi ma’naviy muhitni o‘zaro hurmat, odob-axloq, insoniy munosabatlar asosiga qurilishi;
- ota-onalarning o‘zlari yuksak axloqiylik sifatleri bilan birga turli fikrlar, g‘oyalar, qarashlar va e’tiqodlarga, umuman olganda, plyuralizmga toqatli va chidamli bo‘lish ko‘nikmalariga egaliklari;



- o'smirlarda toli-reantlik fazilat va xislatlarini rivojlantirish maqsadida oila a'zolari, atrofdagi kishilarning faol bo'lishlari;

- o'smirda o'zligini anglashga, milliy o'zlikni anglash umuminsoniy qadriyat ekanligini tushuntirish;

- o'smirda ijtimoiy munosabatlar madaniyatini tarbiyalash;

- millatga mansublik tuyg'usini o'stirish, qachonki o'spirin o'z millati sha'ni, g'ururi, or-nomusi toptalishiga befarq bo'lmasa, boshqa millat milliy madaniyatlardagi o'ziga xosliklarini ham hurmat qila oladi;

- o'zgalarning fikrlari, e'tiqodlari, urf-odatlariga sabr-toqatli bo'lishni singdirish;

- ijtimoiy hayotda faol qatnashuvchi, davlat ichida ham, davlatlar o'rtasida ham tartibli, madaniy munosabatlar zarurligini anglashiga tayyorlash;

- tolerantlik qobiliyatini shakllantirish o'zga tomonning barcha fikr-mulohazalari va dalil-isbotlarini tinglash, ularni puxta mushohada qilish, o'zga tomonning nuqtai nazariga xolisona yondashish, uning yondoshuvidagi zaif va kuchli jihatlarni aniqlash, so'ngra shunga muvofiq ravishda o'z nuqtai nazari va taktikasiga tuzatish kiritish imkonini beradi.

- o'smirda tolerantlik tafakkuri va ko'nikmalarini rivojlantirishni zaruratga aylantir;

- oilada tolerantlik muhitini yaratish;

- oilada o'smirni diniy, milliy, madaniy qadriyatlarni hurmat qilish hissida tarbiya qilish;

- ta'lim-tarbiyada maktabning oila bilan o'zaro bog'liqligi va hamkorligiga e'tibor qaratish, uni mustahkamlash, ota-onalarga, o'zga madaniyat vakillariga bo'lgan e'zozni umumbashariy tamoyillardan kelib chiqib rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;

- o'smirning qonuniy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ularning huquqlarini himoya qilish;

- o'smirni ijtimoiy hayotga jismoniy, ruhiy tomondan moslashtirish va turli muammoli holatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish;

- o'smirda Vatanga sodiq, fidoyi, faol fuqaroviy pozitsiyalarni paydo qilish;

- ko'p asrlik jahon xalqlari dinlari tarixini tushuntirish bilan birga, biror bir dinda zo'ravonlik, ekstremizm va terrorizm g'oyalarini targ'ib etilmaslikni singdirib borish;

- o'smir faoliyatini zamonaviy ijtimoiysiyosiy, ma'rifiy, iqtisodiy institutlar bilan o'zaro aloqadorligini kuchaytirish va h.k. Demak, o'smirlarda tolerantlik va yuksak axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda oila institutining o'rni yuqori hisoblanadi. Sababi insonning ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari avvalo oila bag'rida shakllanadi. Har bir insonning xarakateri, tabiati va dunyoqarashini



belgilaydigan mezonlar va qarashlar – ezigulik, mehr-oqibat, olijanoblik, oriyat, ibo-hayo va andisha kabi aziz tushunchalarning poydevori ham, ijtimoiy munosabatlarning, ijtimoiy tajribaning asoslari ham oila muhitida qaror topadi. Shunday ekan, oilaviy tarbiya masalasida jiddiy xatolikka yo‘l qo‘ymaslik zarur. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bag‘rikenglik, toqatlilik, chidamlilik ko‘nikmalarini va o‘zgalarni boricha qabul qilish dunyoqarashini shakllantirish orqali butun dunyoda tolerantlikni rivojlantirish mumkin. Shu bois o‘zbek oilasiga tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi muhim ahamiyatga ega fundamental asos sifatida qarash dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi kunda tolerantlik ko‘rinishlari o‘zbek oilasiga xosliklari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda, masalan, vasiylik, otaliqqa olishlar. Vasiylik, otaliqqa olishlar o‘zaro ta’sir etishning ko‘rinishlaridan biridir, uni tolerantlik tushunchasiga taqqoslash mumkin. Ya’ni vasiylik tabiiy me’yor bo‘lib, bola shaxsiyatiga, or-nomusiga va g‘ururiga tegmaydigan g‘amxo‘rlik va mehribonlikni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentiimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 74-maqsadi diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasiga qaratilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2022-yil Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida ham “Millati, tili va dinidan qat’i nazar, O‘zbekistonni o‘zining Vatani deb biladigan, uning ravnaqi uchun hissa qo‘shib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e’tibori va ardog‘ida bo‘ladi. Millatlararo do‘stlik, diniy konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik, ijtimoiy bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz” deya ta’kidlab o‘tganlarini keltirish joiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy bag‘rikenglik-tinchlik va barqarorlik garovi” mavzusidagi matbuot anjumanidagi nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabr, —2017— 2021 yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori
3. Nazaralieva M.X. Tolerantlik namoyon bo‘lish muammosining nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilganligi // TDPU ilmiy axborotlari. - Toshkent, 2024. 5-son.-B. 558-564 . (19.00.00 №15)
4. Nazaralieva M.X. Ta’lim sifatini va mazmunini takomillashtirishda kommunikativ tolerantlikni o‘rganishning psixologik imkoniyatlari // Fan va Innovatsiya 2022: Rivojlanish va ustuvor yo‘nalishlari mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Namangan, 2022. B. 355-357.



INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Fayziyeva U.Yu.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
dotsenti*

Tayanch so'zlar: psixologik-pedagogik yondashuvlar, inklyuziv ta'limni tashkil etish, fazoviy-semantik, kommunikativ, tashkiliy, kognitivsh komponenti va affektiv, inklyuziv ta'limning psixologik modeli.

Ключевые слова: психолого-педагогические подходы, организация инклюзивного образования, пространственно-смысловая, коммуникативная, организационная, когнитивная составляющая и аффективная, психологическая модель инклюзивного образования.

Key words: psychological and pedagogical approaches, organization of inclusive education, spatial-semantic, communicative, organizational, cognitive component and affective, psychological model of inclusive education.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada inklyuziv ta'limni tashkil etishning psixologik, pedagogik va tibbiy-ijtimoiy modellari bo'lgan inklyuziv ta'limning yaxlit modelini uning maqsadi, vazifalari tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatildi. Inklyuziv ta'limning samaradorligiga erishishda psixologik- pedagogik yondashuning tutgan o'rni yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье выделены цели и задачи целостной модели инклюзивного образования, являющейся психологической, педагогической и медико-социальной моделью организации инклюзивного образования. Отмечена роль психолого-педагогического подхода в достижении эффективности инклюзивного образования.

SUMMARY:

The article highlights the goals and objectives of a holistic model of inclusive education, which is a psychological, pedagogical and medical-social model for organizing inclusive education. The role of the psychological and pedagogical approach in achieving the effectiveness of inclusive education is noted.

Inklyuziv ta'lim bo'yicha qator rivojlangan xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta'lim modellarini o'rganildi. Masalan, XX asrning boshlarida rus olimlari inklyuziv ta'limning ko'plab nazariy muammolarini tadqiq etgan. Inklyuziv ta'lim modelida quyidagi komponentlari tadqiq qilingan: fazoviy-semantik, kommunikativ, tashkiliy, kognitivsh komponenti va affektiv kabi komponentlar



bilan hal qilingan Inklyuziv ta'limning integratsiyalashgan sharoitda olib borishda pedagogik jarayonning xususiyatlari, darslarning modellashtirilishi, tuzilishi ochib berilgan.. Xorijiy mamlakatlar tajribasi va eksperimental loyihalar natijalariga asoslanib, biz psixologik, pedagogik va tibbiy-ijtimoiy modellarni o'z ichiga olgan inklyuziv ta'limning yaxlit modelini tanladik va tegishli maqsad, vazifalar belgilanib, har bir modelning tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatildi. Inklyuziv ta'limning psixologik modeli maqsad, mazmun va tashkiliy komponentni o'z ichiga oladi. **Inklyuziv ta'limning psixologik modeli** samarali psixologik yordam maqsadini ko'zlaydi. Model komponentining vazifalariga psixo-diaqnostika, psixo-korreksiya, psixo-agitatsiya, psixo-konsultatsiya, monitoring, ta'lim sifatiga yordam berish, rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, fanlar o'qitilishini qo'llab-quvvatlash kabi jarayonlar kiradi. **Psixo-diaqnostika**-bu ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarning nutqini rivojlantirish darajasini, idrok etish qobiliyatini, vizual-motor funksiyasining rivojlanish darajasini o'rganish; autizmli bolalarning tashvish darajasining diaqnostikasi; diqqat diaqnostikasi, o'rganish va mehnat qobiliyati uchun motivatsiya, o'z-o'zini hurmat qilish va hissiy holat. **Psixo-korreksiya** bu ruhiy jihatlar orqali tuzatish ishlarini olib borish psixo-jismoniy rivojlanish turiga qarab tabaqalashtirilgan yondashuvni tuzatishga muhtoj bo'lgan bolalarning ruhiy kasalliklarini tuzatish, bolaga ta'lim muhitida moslashishga yordam berish, aqliy va jismoniy rivojlanishda aniqlangan og'ishlarni bartaraf etish yoki qoplashga qaratilgan faol ta'sir orqali shaxsiy munosabatlarni uyg'unlashtirish. Ta'lim dasturini o'zlashtirishda doimiy qiyinchiliklarga duch kelgan bolalarning shaxsiy rivojlanishi. **Psixo-agitatsiya** va **profilaktika**-bu yangi inklyuziv muhitga kirishi bilan bog'liq barcha turdagi og'ishlarning namoyon bo'lishini oldini olish, rivojlanishdagi psixologik qiyinchiliklarni o'z vaqtida aniqlash, maktabda bolaning shaxsini aqliy jixatini to'liq shakllantirish uchun zarur bo'lgan psixologik sharoitlarni yaratish. **Psixo-konsultatsiya** atrofdaqi voqelikni ijobiy idrok etishga, boshqalar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatishga, o'quv jarayoniga ijobiy munosabatda bo'lishga va o'rganishga qiziqishni oshirishga qaratilgan. Monitoring nogiron bolaning sog'lom tengdoshlariga moslashishga psixologik tayyorgarlik holatini, inklyuziv muhitda va o'qitishda taklif etilayotgan o'quv materiallarini qabul qilishga tayyorlik darajasini, ishonch darajasini aniqlaydi. **Ta'limni sifatli bo'lishiga ta'sir ko'rsatish**, sinf o'qituvchisi tomonidan psixolog va defektolog bilan birgalikda, butun sinf bolalari va nogiron bolalarning aqliy rivojlanishidagi asoratlarning oldini olish orqali o'quvchilar va o'quv jarayoni sub'yektlari bilan ishlash orqali amalga oshiriladi.



Inklyuziv ta'limning psixologik modelida quyidagi tamoyillar alohida o'rin tutadi: har bir o'quvchi shaxsini hurmat qilish, shaxsiy metodologiya, gender yondashuv, maxfiylik, psixologik qo'llab-quvvatlash tamoyillari, ilmiy, tizimli, o'zgaruvchanlik, vaziyatlilik, individuallik, kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyillarning har biri psixologik ta'sir jarayonida o'ziga xos ravishda bir-birini to'ldiradi. Ushbu modelning bir qismi sifatida o'quvchilarni har tomonlama o'rganish uchun turli usullar ishlab chiqilgan. Masalan, kognitiv, kommunikativ imkoniyatlar va shaxslararo munosabatlarni o'rganish usullari. Ushbu usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning o'quv materiallarini idrok etish imkoniyatlari oshdi, shaxslararo munosabatlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Nogiron bolalar rivojlanishining barcha jihatlarini o'rganib, o'quv jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklarni aniqlab, biz maxsus pedagogik modelni ishlab chiqish zarurligini aniqladik. **Pedagogik model** va uning mazmunli, tashkiliy, baholash komponentlari inklyuziv ta'limni tashkil etish jarayonida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ushbu turdagi mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan edi. Mazmun komponentiga o'quv dasturlari, davlat standartlari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari kiradi. Inklyuziv ta'limda o'quv jarayoni umumiy didaktik tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar bilan bir qatorda qo'shimcha ravishda biz taklif qilgan tamoyillar jarayonda qo'llanildi: o'zgaruvchanlik, bag'rikenglik, vaziyatlilik, o'zaro ishonch, refleksivlik, "natijaga yemas, balki ishtirok etishga" e'tibor, korreksion -tuzatish yo'nalishlari. Bizning modelimizda o'quv jarayoniga qo'yiladigan talablarga alohida e'tibor beriladi. Pedagogik talablarga vakolatli, korreksion-tuzatish, individual-yakka tartibdagi, kompensasion yondashuvlar kiradi. Pedagogik talablardagi vakolatli yondashuv, ularning tarkibi va barcha jarayonlar o'qituvchilarga mahorat darslari, o'quv seminarlar orqali yetkazib borildi. Inklyuziv ta'limga psixologik yondashuv talablari o'quv jarayonini uslubiy jihatdan to'g'ri va maqsadli takomillashtirishini ta'minlanishiga asos bo'ldi. **Inklyuziv ta'limga qo'yiladigan uslubiy talablar** metodik jihatdan tashkil etish, nogiron bolalarning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitish usullarining turlaridan foydalanishni maqsad qiladigan asosiy komponent hisoblanadi. Tadqiqot davomida biz ijobiy natijalarga erishishimizga hissa qo'shgan asosiy uslubiy yondashuvlarni aniqladik: didaktik ta'minot, interaktivlik, integrativlik, sinfda yordamchi vositalardan foydalanish. Bu jarayonda **inklyuziv ta'limga qo'yiladigan tashkiliy va gigiyenik talablar** alohida o'rin tutadi. Bularga jismoniy daqiqa, 1-3 daqiqa dam olish, toza havo, ichimlik suvi, himoya va qo'llab-quvvatlovchi rejim, faol harakat rejimi kiradi.



Himoyalovchi va qo'llab-quvvatlovchi rejim bolalar salomatligini himoya qilishdir. Maktab va oila birgalikda bolalar salomatligini himoya qilishi muhim o'rinda turadi. Bolalar salomatligi uchun kun tartibiga to'g'ri rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda bolalarning sog'lig'i va jismoniy tarbiyasiga e'tibor berilishi, boshlang'ich sanitariya-gigiyena ko'nikmalarini singdirish, ularning sog'lig'iga ongli munosabatni va kun tartibini to'g'ri tashkil etish, sog'lig'i uchun kurashish qobiliyatini tarbiyalash talab etiladi. To'g'ri to'zilgan jadval va o'quv yuklamasi, yumshatilgan rejimga rioya qilingan faoliyatning namoyon bo'lishi, o'qish va o'rganishga qiziqish, samaradorlikka erishish uchun sharoit yaratuvchi muhim omillardan hisoblanadi. O'quv yuklamasi va o'quv rejimining ta'siri o'quv yili davomida nafaqat o'quvchilarning neyropsik sohasiga, balki salomatlik holatining boshqa ko'rsatkichlariga ham ta'sir qiladi. Aniq, izchil, odatiy va yumshoq rejim o'quvchining faoliyatini osonlashtiradi, bunday rejim jarayonning sog'lom kechiishi uchun sharoit yaratadi: faollik, o'qish va o'rganishga motivatsiya, uyg'otadi, samaradorlikka olib keladi. **Faol harakat rejimi** salomatlikni mustahkamlash, butun organizmning o'sishini to'g'ri shakllanishiga qaratilgan himoya rejimining bir qismidir. Bolalarni jismoniy salomatligiga qarab sport klublariga jalb qilish, nogiron bolalar uchun terapevtik va qo'llab-quvvatlovchi jismoniy tarbiya, sport sifatida va sog'lig'ini yaxshilash, kamchiliklarni tuzatish uchun sharoit yaratishni ko'zda tutadi. Modelning tashkiliy komponenti ta'lim faoliyatini tashkil etishga qaratilgan jarayonni nazarda tutadi. U maxsus yondoshuvlar, usullar, texnologiyalar va vositalarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida og'zaki, vizual, amaliy, an'anaviy va maxsus korresion usullardan foydalanilgan. Bundan tashqari, innovasion texnologiyalar va interfaol o'qitish usullari qo'llanildi, bu esa o'quvchilarning bilim olish, ijtimoiy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon berdi. Ushbu texnologiyalar, usullar va vositalar nogiron o'quvchilarga darslarda teng ravishda qatnashish, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini berdi. Inklyuziv ta'lim, o'quvchilar salomatligi va tibbiy yordam bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, amalda tibbiy model muhim omil hisoblanadi. **Tibbiy-ijtimoiy model** Alohida ehtiyojli bolalarga samarali tibbiy xizmat ko'rsatish, va doimiy ijtimoiy yordamga erishishga xizmat qiladi. U ehtiyoj doirasida samarali tibbiy xizmat qilish qoidalari, tarkibiy qismlar va talablarni o'z ichiga oladi. Adolatlilik bu **ijtimoiy prinsip bo'lib**, tizimli kuzatish, global qamrov, diqqat, ustuvorlik ushbu modelning tamoyillari hisoblanadi. **Tibbiy-ijtimoiy modelning** tarkibiy qismlari-nogiron bolalarni o'qitish jarayonida nogiron bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish, nogiron bolalarning huquqlarini



himoya qilish, o'z vaqtida tiklanish uchun sharoit yaratish, nogiron bolalarning oilalariga tizimli sog'liqni saqlash va rehabilitatsiya xizmatini tashkil etishda yordam berish sifatida foydalanilgan. Mahallaning ishtiroki tibbiy xizmatni tashkil etish, sog'liqni saqlash organlari tomonidan to'g'ri tashxis qo'yish, tegishli ta'lim turini tanlashda ota-onalarga tavsiyalar berishni tashkil qilish, inklyuziv ta'lim olish imkoniyatini yaratish, nogiron bolalarni maktabga borishini xavfsiz tashkil etilishini ta'minlash kabilardan iboratdir.

Integrativ modelning tuzilishi yuqoridagi modellarning barcha vazifalarini o'z ichiga oladi.

Bolalar bilan psixologik-pedagogik ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi mumkin:

1. Ta'limni targ'ib qilish, tushuntirish ishlari. "Qiyin" bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari tushuntiriladi, qo'llab-quvvatlash, yordam berish, hamkasblar va bolalar o'rtasida o'zaro ta'sir va o'rganish usullari e'firoga uzatiladi.

2. Qo'shma ta'lim faoliyatini tashkil etish. Ishning texnikasi, usullari va shakli bolalarning yoshiga, ularning intellektual qobiliyatlariga va ishning mazmuniga qarab tanlanadi – har bir bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda, yetakchi faoliyat va bevosita rivojlanish zonasiga muvofiq (L. S. Vygotskiy).

3. Psixologik treninglar o'tkazish. Shaxsiy maslahat. Maxsus bolalarni guruh ishlariga kiritish. Shaxsiy o'sishni rivojlantirish, aks yettirish, muloqot qobiliyatlarini shakllantirish, ishonchli xatti-harakatlar va boshqa tematik uchrashuvlar.

4. Qo'shimcha dam olish faoliyati. Bayramlar, ijodiy tadbirlar, choy partiyalari, norasmiy muloqotni tashkil yetish.

Inklyuziv ta'limning klaster modelining samaradorligiga erishishda qo'llanilgan psixologik-pedagogik yondashuv ahamiyatli natijalarga erishilishida katta ahamiyat kasb etdi.

Adabiyotlar:

1. Юсупова А.Ю. Совместное обучение детей с различными образовательными возможностями в концепции Т.Хелльбрюгге: дис.канд. пед. наук / Юсупова Александра Юрьевна. - Казань, 2002. - 210с.
2. Ярская-Смирнова Е.Р. Социокультурный анализ нетипичности / Е.Р. Ярская - Смирнова. - Саратов: СГТУ, 1997. - 100с.
3. Яркина Т.Ф. Критический анализ состояния и тенденций развития буржуазной педагогики в ФРГ / Т.Ф. Яркина - М.: Педагогика, 1979. - 215с
4. Ямбург, Е.А. Школа для всех: Адаптивная модель (Теоретические основы и практическая реализация) / Е.А. Ямбург. - М.: Новая школа, 1997. - 352с.



5. Файзиева У.Ю. Особенности внедрения инклюзивного образования в Республике Узбекистан //Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў. - Нукус, 2023. - №2-1. Б. 248-256. (13.00.00 №20).

6. Файзиева У.Ю. Международная практика инклюзивного образования история становления инклюзивного образования //Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў. - Нукус, 2023. - №2-1. - Б. 272-279. (13.00.00 №20).

7. Fayziyeva U.Y. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatlarining kelajagi-kasbiy ta'lim berishda // Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. - Toshkent, 2021. - B. 180-184.

8. Файзиева У.Ю. Условия для качественной и эффективной организации инклюзивного образования // Инклюзив таълимнинг долзарб масалалари: муаммо ва уларнинг ечимлари мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. - Тошкент, 2021. - Б. 274-277.



OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA IJTIMOIIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TENDENSIYALARI

Ibroximov M.A.

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, talabalar, yosh mutaxassislar, ijtimoiy kompetentlik, rivojlantirish, ta'lim-tarbiya.

Ключевые слова: будущий учитель, студенты, молодые специалисты, социальная компетентность, развитие, образование-воспитание.

Key words: future teacher, students, young professionals, social competence, development, education-training.

РЕЗЮМЕ:

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va ularning bo'lajak mutaxassis sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy jihatdan kamolga yetishi borasida qator ustuvor vazifalarning amalga oshirilishi to'g'risida fikrlar qayd etilgan. Xususan, talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim sifatini yuksaltirish ijtimoiy jamiyatning dolzarb masalalaridan sanaladi. Mazkur maqolada muammoning mohiyati bilan bog'liq turli manbalar talqini tahlil etilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda amalga oshirilayotgan jadal va tub o'zgarishlar natijasida bo'lajak pedagog kadrlarga bo'lgan talabning ortib borayotgani bilan bog'liq tavsiflar aks ettirilgan.

РЕЗЮМЕ:

Зафиксированы мышления о необходимых условиях для проявления студентами высших учебных заведений своего потенциала и выполнения ряда приоритетных задач с точки зрения их социально-экономической, политико-правовой, духовной, образовательной и культурной зрелости как будущих специалистов. В частности, повышение качества образования в сфере развития социальной компетентности учащихся считается одной из актуальных проблем социального общества. В данной статье анализируются интерпретации различных источников, связанных с сутью проблемы. Отражены характеристики, связанные с возрастающей потребностью в будущих педагогических кадрах в результате быстрых и радикальных изменений в нашей социально-экономической жизни.

SUMMARY:

To create the necessary conditions for the students of higher education institutions to show their potential and to fulfill a number of priority tasks in terms of their socio-economic, political-legal, spiritual, educational, and cultural maturity as future specialists. Opinions about its increase have been recorded. In particular, improving the quality of education in the development of social competence of students is considered one of the urgent issues of social society. This article analyzes the interpretation of various sources related to the essence of the problem. Descriptions related to



the increasing demand for future pedagogic personnel as a result of rapid and radical changes in our socio-economic life are reflected.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodikasini takomillashtirish muammosi mavjud. Pedagogik jarayonni boshqarish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib, uni takomillashtirish ta'limning dolzarb muammosi hisoblanadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarining rahbarlari va tashkilotchilari hamda pedagogika fani sohasida xizmat qilayotgan olimlar va ilmiy xodimlarning doimiy diqqat e'tiboridagi dolzarb masaladir. Talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodikasini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini samarali, oqilona tashkil qilish, har bir rahbar va pedagoglarining o'z burchlarini sifatli bajarishi, o'quv tarbiya ishlari samarasiga, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarning aniq-ravshanligiga, vazifalarning to'g'ri taqsimlanishiga va ijtimoiy kompetentlik bo'yicha ta'lim-tarbiya ishini mohirlik bilan bir-biriga muvofiqlashtirib olib borilishiga bog'liq.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining ishlab chiqilishi va keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi, "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" [1] tamoyilining ilgari surilgani, keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari belgilangani muhim ahamiyatga ega. Xususan, fuqarolarning ijtimoiy madaniy huquqlarini ta'minlashning noyob tizimi yaratildi. "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh muhim tashabbus" kabi 20 dan ortiq davlat ijtimoiy dasturlari va konsepsiyalari amalga oshirilgan. Ta'kidlanganidek, talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni bevosita Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy va ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarga bog'liq.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish umumiy pedagogik jarayonning eng muhim va ahamiyatli bo'g'inlaridan sanaladi. Talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish natijasida ular jamiyatdagi turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri tahlil qila bilish va boshqarish, bugungi kun hamda kelajak uchun ko'nikmaga ega bo'ladilar. Talabaning jamiyat hayotiga integratsiyasi bir qator ehtiyojlar, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muhit va talablar bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyatda mavjud kasbiy ehtiyojlar, muammolar, talablar va imkoniyatlarga nisbatan talabalar tafakkurini mos rivojlantirish ta'lim muassasasidagi talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning bosh vazifasi hisoblanadi.



Pedagogik ilm nazariyasi va amaliyoti nuqtayi nazaridan talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning yaxlit pedagogik andozasi ishlab chiqilmaganligi, uni ta'minlashning maxsus shakllari, vositalari va usullari ishlanmaganligi, tartibga solinmaganligi hamda joriy etilmaganligi, biroq maxsus ravishda talabalarning ta'lim-tarbiya tizimiga yo'naltirilgan mazkur shakllar, vositalar va usullarsiz samarali o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etib bo'lmashligi aniqlandi. Ushbu oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar tayyorlash jarayonini tashkil etish, fanlarni o'qitish, malakaviy pedagogik amaliyot holatini tahlil etish kabi ilmiy-tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari yetarlicha yoritilmagan, bu esa mazkur muammoni tadqiq etish zaruratini taqozo etadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot talablaridan kelib chiqqan holda bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik va ilmiy-metodik asoslari, tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodikasini takomillashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Pedagogikadagi kompetentli yondashuv va ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turli yo'nalishlarda talqin qilingan. Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy fikrlashi, mustaqilligi, faollik hamda ijodkorliklarining rivojlanib borishi, dunyoqarashlarining kengayib borishi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ilmiy texnik taraqqiyotning innovatsion rivojlanishi, bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo'lajak mutaxassislarning zamonaviy sharoitlarga tez moslashishi hamda o'quv-bilish motivlarini egallashlariga intilishini talab etadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil izlanishga, kasbiy muammolarni mustaqil yechish bilan birga ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish zaruriyatini tug'diradi. Shuning uchun ham, bugungi kunda ijtimoiy faol bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining eng asosiy vazifalaridan bo'lib, bunda ijtimoiy kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy kompetentlik juda keng tushuncha bo'lib, ijtimoiylashuv milliy xarakterga ega bo'lgan falsafiy, pedagogik-psixologik va sotsiologik hodisalarni ham qamrab oladi. Shu boisdan, ijtimoiylashuvning o'rganilishi ko'p xollarda shaxs shakllanishi masalalari ichida ko'rib chiqiladi. Ijtimoiylashuv jarayonini pedagogik nuqtayi nazardan ko'rib chiqqan tadqiqotlar kam sonli hisoblanadi, ammo shaxs shakllanishining pedagogik aspektlariga oid ko'lab tadqiqotlar bor.



Mamlakatimiz ta'lim tizimida shaxs, shaxs va jamiyat taraqqiyoti, shaxs xususiyatlari, layoqatlarining jamiyat taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyati hamda shaxs va jamiyat munosabatlari masalalari, shu jumladan shaxsni shakllantirish jarayonining falsafiy, siyosiy, sotsiologik, tarixiy, milliy, shu jumladan pedagogik aspektlari o'rganildi. Jumladan, o'zbek olimlaridan U.Mahkamov, Sh.Olimov, N.Ortiqov, N.Egamberdiyeva, M.Quronov, Q.Quronboyev tadqiqotlarida shaxs shakllanishining ijtimoiy, sotsiologik va pedagogik masalalar atroflicha tadqiq etilgan [5]. Shuningdek, ijtimoiy tarbiya masalalari milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash, milliy istiqloq g'oyasi va milliy mafkura kabi masalalar doirasida M.Quronov, N.M.Egamberdiyeva, Z.Qurbonniyozova, K.Quronboyev, M.Quronboyev, Sh.Sodiqova, F.Mustafayeva, N.G.Gulamovalar tomonidan o'rganildi [5].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.V.Andropova, I.V.Grishina, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, M.I.Lukyanova, S.N.Mironenko, V.A.Slasteninlar tomonidan bo'lajak maktab o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorgarlashda kasbiy kompetentligini shakllantirish, ta'lim natijalarining yangi paradigmasida asosiy kompetensiyalarning o'rni [4], ularni diagnostika faoliyatiga tayyorlash va ta'lim mazmunini integratsiyalash orqali bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish kabi ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, kasbiy ta'lim o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, professional-pedagogik tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirgan.

Xorijiy mamlakatlarning tadqiqotchi olimlaridan D.Gvin, K.Kamiron, M.Shamiyer va J.Xemeleynenlarning ilmiy izlanishlarida yoshlar ijtimoiylashuvining pedagogik konsepsiyasi va amaliy xususiyatlari yoritilgan [3]. Ta'limda ijodkorlik, kompetentlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, professional-pedagogik yetuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishni nazariy va amaliy asoslash kabi masalalar B.Blum va Radha Mohan kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan [6].

Ijtimoiylashuvning qator mexanizmlari mavjud bo'lib, ulardan: ana'naviy mexanizmi – oila va yaqin muhit orqali talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish, faoliyat va muloqotda maqbul shart-sharoitlarni yaratish; institutsional mexanizm – ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari tomonidan talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlanishi uchun zaruriy imkoniyatlarni yaratish; shaxslararo mexanizm – talabalarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb



etish, ularda muloqotlilik malakalarini rivojlantirish; refleksiv mexanizm – o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini loyihalashni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali individual ongni taraqqiy ettirish.

Subyekt ichki kechinmalarining ruhiyati asosida shakllanib, emotsional-irodaviy darajaga o‘tish, subyektiv dunyo miqyosidan borliqda, ya’ni aniq predmetlarni yaratish (ishlab chiqarish) va jarayonlarni vujudga keltirishda ifodalanishi ijtimoiy faollikdir. Individual resurslardan foydalanish ijtimoiy munosabatlar tizimida tashqi qo‘zg‘atuvchi tarzida namoyon bo‘ladi. Faol subyekt qabul qilingan ijtimoiy me‘yorlarga amal qilgan holda, faollik ifoda etsa, jamoatchilik tomonidan tezda e‘tirof etiladi. Jumladan, talabalar bilan ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazishni rejalashtirishda, ular tomonidan faollikning qaysi turi rivojlantirilishi zarurligi inobatga olinadi. Inobatga olish esa chora-tadbirlarning mazmunini maqsadli boyitish uchun muhim sanaladi. Shu o‘rinda faollikning asosiy shakllarini sanab o‘tish zarur. Ular: jismoniy faollik; ijtimoiy faollik; siyosiy faollik; madaniy faollik; ijodiy faollik; dialogik faollik; kommunikativ faollik; intellektual faollik; idrok faolliigi; ongli faollik; tafakkur faolliigi; kognitiv faollik; ichki faollik va boshqalar.

Kompetentlik (lotincha, competence – layoqatli) tushunchasining lug‘aviy ma‘nosi bevosita “layoqatli, munosib bo‘lmoq, qobiliyat” [2] ma‘nolarini ifodalaydi. Faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish mazmunini anglatadi. Shu o‘rinda kasbiy kompetentlik tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tish joiz, bu – mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga egaligi va ulardan amaliyotda yuqori darajada foydalanishidir.

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan xolda bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga quyidagicha ta‘rif beramiz:

Ijtimoiy kompetentlik bu – bo‘lajak mutaxassislarning o‘zlashtirgan bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari, e‘tiqodi, motivlari, qadriyatli mo‘ljallari, ijtimoiy ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlari va ijtimoiy kompetentlik faoliyatining amaliy tajribasiga mos holda “Inson – jamiyat – ma‘rifat” tizimida hatti-harakat qilish qobiliyatini belgilovchi integrativ fazilatdir, degan ta‘rifni berishimiz mumkin.

Ijtimoiy kompetentlik – keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u talaba yoshlarning ta‘lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagina emas, balki madaniyat, san‘at, siyosat, huquq kabi sohalarida ham talabalarning jamoaga, jamiyatga, inson hayotiga oid munosabatlarda harakatchanlik, ta‘sirchanlik, samaradorlik, jonbozlik ko‘rsatishini anglatadi. Shuningdek, aqliy zakovat, ruhiy, ma‘naviy kamolot,



insofu diyonat, muruvvat, mehr-oqibat – bular barchasi ma’rifatli, ma’naviyatli insonlarning asosiy fazilatlari sanaladi. Ana shu fazilatlarni yoshlarimizda shakllantirish bugungi kunning muhim vazifasidir.

Ta’kidlangan ta’rif talabalarning ijtimoiy jamiyat hayotiga integratsiyasi, ya’ni faol yashashi va ijtimoiylashuvini ta’minlovchi mezonlardir. Pedagogikada ijtimoiylashuv talabalarning ijtimoiy shakllanish jarayoni, ta’minlanishi, namoyon bo’lishi va natijalari bilan uzviy bog’liqdir. Binobarin, talabaarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishni ta’minlash muammosi kuyidagi sabablarga ko’ra dolzarblik kasb etadi: Talaba-yoshlar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarida pedagogikaning roli va ahamiyati kundan-kunga ortib borgani; talaba ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik jarayon eng muhim va ahamiyatli bo’g’inlardan biriga aylangani; oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak o’qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari zamonaviy davrning dolzarb pedagogik talablardan biriga aylangani boisdir.

Ijtimoiy kompetentlik ijtimoiy muhitda shakllantiriladi. Ijtimoiy muhitsu ushbu maqsadni amalga oshirish murakkab jarayon hisoblanadi. Bo’lajak o’qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda talabalar ijtimoiylashuvning uzviy tarkibiy qismi sanaladi. Hozirgi globallashuv jarayonida intizomli, mas’uliyatli, sabr-bardoshli, diyonatli, vijdonli, iymonli, e’tiqodli, bag’rikeng, insonparvar, ijtimoiy faol va shu kabi oliyjanob fazilatlar egasi bo’lgan yoshlarga yashash uchun zarur bo’lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo’la oladilar. Yoshlarning ijtimoiy kompetentligi, deganda ularning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda, mustaqil ishtirok etishlari, zarur bo’lganida, ijtimoiy munosabatlarni o’zgartirishga tashqaridan bo’ladigan bosimsiz ko’maklashishga intilishlari tushuniladi. Mas’uliyat ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko’rsatkichlardan sanaladi. Ijtimoiylashuvning mas’uliyat hissiga bog’liq yo’nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsad va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq-yaqinga mo’ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta’minlaydi. Maqsad va rejasiz inson ma’naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsad doimo o’zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog’liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o’rnashishida ma’lum ma’noda ideal ham rol o’ynaydi.

Bo’lajak o’qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda pedagogik faoliyat va nazorat muhitining o’zaro ta’sirlashuvi mexanizmlari quyidagi jarayonlarni o’z ichiga oladi:



– bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy maqsadi davlat buyurtmasi va jamiyat talablariga muvofiq malakali kadrlar tayyorlash;

– pedagogik faoliyatda o‘qituvchilik, tarbiyachilik, o‘quv-metodik, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot vazifalarini amalga oshirish;

– bo‘lajak o‘qituvchilar tayanch, umumkasbiy va maxsus-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan birga ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagilardan foydalanishi aniqlangan: ta’lim mazmuni, o‘quv reja, dasturlar, ta’lim shakli, metod, vositalari va darsliklar, elektron axborot ta’lim resurslari hamda boshqa didaktik materiallar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, laboratoriya jihozlari, ta’lim texnologiyalari va boshqalar.

Pedagogik faoliyatni amalga oshirish va nazariy bilimlar hamda psixomotorik harakatlar asosida amaliy ko‘nikmalarni real sharoitda qo‘llash maqsadida malakaviy pedagogik amaliyot tashkil etiladi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilar ta’lim jarayonida egallangan umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni namoyon etish jarayonida malakali kadrlarning tayyorgarligini aniqlash va tahlil qilish uchun quyidagi faoliyat monitoringi amalga oshiriladi: keng dunyoqarashga ega, mustaqil, faol, tashkilotchi, qobiliyatli, ijodkorligi va shu kabilar. Natijada, kadrlarning mustaqil, rejali, o‘z ustida ishlaydigan, yetuk, malakali, ijtimoiy kompetensiyalarni izchil rivojlantirib borishi ta’minlanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
2. Abdullayeva Sh.A., Askarov A. Umumiy pedagogika. / O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zMU, 2019. – 374 b.
3. Block K., Gibbs L., Staiger P.K., Gold L., Johnson B., Macfarlane S., Long C., Townsend M. (2012) Growing community: the impact of the Stephanie Alexander Kitchen Garden Program on the social and learning environment in primary schools. Health Educ Behav. 39(4): 419-432.
4. Зимняя, И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. 2003. – № 5. – С. 36-45.
5. Ibroximov M.A. Talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodikasini takomillashtirish. Monografiya. – Namangan: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022. - 120 b.
6. Murtozayeva M.M. Ta’lim jarayonini ijtimoiy pedagogik loyihalashtirishda innovatsion usullar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 160 b.



ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

STUDENT JASLARDÍ FIZIKALÍQ TÁRBIYALAWDA INNOVACION TEXNOLOGIYALARDAN PAYDALANÍW

Qaliev Q.S.

*stajyor-oqıtıwshı, Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası
ham sport universiteti Nókis filiali*

Tabımbaev B.A.

*assistent-oqıtıwshı, Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası
ham sport universiteti Nókis filiali*

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy sifat, sport madaniyati.

Ключевые слова: физическое воспитание, физическое качество, спортивная культура.

Key words: physical training, physical quality, sports culture.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada o'quvchilarni jismonan yetuk qilib tarbiyalashda jismoniy madaniyat qadriyatlarini o'zlashtirish jarayonida yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini qondira oladigan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning maqbul usullari bir nechta mutaxassislar va mualliflarning fikrlari asosida ko'rib chiqiladi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются педагогические подходы, способные обеспечить интересы и потребности молодежи в процессе освоения ценностей физической культуры при воспитании студентов физически зрелыми. Рассматриваются приемлемые методы использования инновационных технологий на основе мнений нескольких специалистов и авторов.

SUMMARY:

This article analyzes pedagogical approaches capable of addressing the interests and needs of young people in the process of assimilating the values of physical culture while educating students to be physically mature. Acceptable methods for utilizing innovative technologies are examined based on the opinions of several specialists and authors.

Student-jaslardıń salamatlıǵınıń jaǵdayı millet salamatlıǵı potencialınıń eń zárúrli kórsetkishlerinen biri bolıp tabıladı, sol sebepli onı saqlaw hám rawajlandırıw jámiyet ushın ústin turatúǵın wazıypa bolıp tabıladı. Studentler salamatlıǵı mashqalası jáne onı bekkemlewge jantasıwlar kóplegen qánigeler tárepinen izertlew teması bolıwına qaramay, jetekshi ilimpazlar tárepinen alıp barılǵan kóplegen izertlewler nátiyjeleri studentlerdiń joqarı oqıw orınlarında oqıwdıń pútkil dáwiri dawamında onıń jamanlasıwında fizikalıq salamatlıǵı



hám fizikalıq tayarlıǵınıń tómen dárejesi, sonıń menen birge tendenciyalardı kórsetedi. Avtorlardıń kópshiligi óz izertlewlerinde tálim mákemelerinde dene tárbiyası procesin túpten qayta qurıw, jaslardı úzliksiz fizikalıq aktivlikke tartıwdıń zamanagóy jantasıwları, student jaslardı oqıtıw sistemasında dene tárbiyası hám salamatlandırıw jumısların shólkemlestiriwge innovaciyalıq iskerliklerdi engiziw zárúrligine itibarın qaratadı. Fizikalıq belsendilik dárejesin tómenletiw, oqıwshılardıń den-sawlıǵınıń tómenlew mashqalasın sheshiwdiń perspektivalı usıllarınan biri, ilimpazlar oqıwshılardıń dene tárbiyası processinde qollanılatuǵın qurallar quramın jaqsılaw dep esaplaydı.

Atap aytqanda, oqıwshılardıń dene tárbiyasına bolǵan qızıǵıwshılıǵın asırıw maqsetinde qurallar quramına kópshilikke arnalǵan fizikalıq shınıǵıwlar toparları hám háreket iskerligi túrlerin kirgiziw usınıs etiledi. Bul arqalı ǵalabalıq sporttıń rawajlanıwına hám qızıǵıwshılıqtıń keńnen bolıwına xızmet qıladı. Búgingi kúnde oqıwshılardıń dene tárbiyası sistemasın sport penen qamtıw ideyası keńnen tarqalıp barmaqta, bul kóplegen ilimpazlardıń pikirine kóre, shınıǵıwlardıń oqıw hám mektepten tısqarı formalarda oqıtıw hám tayarlaw ushın dene tárbiyası hám sport iskerligi shınıǵıwlarǵa hám jarıslarǵa qatnasıwǵa itibar qaratqan halda onı modernizaciyalaw baǵdarlarınan biri bolıp, ol oqıwshılardıń tańlaw erkinligine tiykarlangan boladı. Bul óz náwbetine nátiyjenıń jaqsı bolıwına hám oqıwshınıń imkaniyatların sheklep qoymastan, kerisinshe onıń jańa qırılın ashıp beredi [1].

Dene tárbiyasınıń sportqa baǵdarlangan baǵdarınıń abzallıqları jergilikli hám shet el ilimpazlarınń miynetlerinde óz mánisin tapqan. Bul fizikalıq mádeniyat qádiriyatların ózlestiriw barısında jaslardıń fizikalıq mádeniyat qızıǵıwshılıqları hám mútajliklerin qandıra alatuǵın pedagogikalıq jantasıw. Qánigeler aytıp ótkeni sıyaqlı, dene tárbiyası barısın sportqa baǵdarlaw dene tárbiyasında dástúriy pedagogikalıq processke tán bolǵan qatar kemshiliklerden jıraqlı bolıw imkaniyatın beredi: sport sheńberindegi shınıǵıwlar hár bir oqıwshınıń fizikalıq múmkinshilikleri hám psixologiyalıq qásiyetlerin esapqa alıwdı názerde tutadı; dógerek shınıǵıwları sport haqqında tereń bilim beredi; sekciyalı sport túrleri kóbirek jarıslar menen baylanıslı bolıp, bul oqıwshılardı úzliksiz túrde sport shınıǵıwlarına tartıwǵa túrtki beredi. Dene tárbiyasın bunday shólkemlestiriw tekǵana tálim, bálki insannıń ómiriniń úlken bólegi dáwirinde de sport shınıǵıwlarına turaqlı jeke qızıǵıwshılıqtı qalıplestiriwge alıp keledi. Usınıń menen birge, izertlewlerde aytıp ótkeni sıyaqlı, ayırım qánigeler joqarı oqıw orınlarınń materiallıq, texnikalıq hám kadrlar resursları sheklengenligi mashqalası bar ekenligi sebepli dene tárbiyasın sportqa aylandırıw boyınsha unamsız pikir bildirmekte; dógerek sportı arnawlı bir sport túri sheńberinde joqarı



qánigelestirilgen fizikalıq tayarlıqtı támiyinleydi hám jaslardın hár tárepleme fizikalıq rawajlanıwına tosqınlıq etedi; sportqa baǵdarlaw jarıs, nátiyjeli sport túrleri qádiriyatların en jaydırıwdı názerde tutadı, bul rezerv sport túrlerin, elita sport túrlerin hám professional sport túrlerin rawajlandırıwdı qollap-quwatlaw ushın sportta tańlaw mexanizmin engiziwdi dep esaplaw múmkin [2].

Joqarıdaǵı, izertlewshilerdiń pikirine qaraǵanda, málim dárejede dene tárbiyası boyınsha oqıw dástúrinin maqsetlerine qarsı keledi.

Soǵan qaramastan, sportqa baǵdarlangan dene tárbiyası koncepciyası táreptarları joqarı oqıw orınlarında oqıw procesin dástúriy shınıǵıwlar formalarına emes, bálki individual sport túrleri boyınsha oqıw shınıǵıwların óz ishine alıwı kerek degen ideyanı qollap-quwatlamaqta. Sport táliminiń usınıp atırǵan modeli, qánigeler aytıp ótkeni sıyaqlı, dene tárbiyası procesin sport mádeniyatı principleri tiykarında qayta qurıwdı názerde tutadı: jarıslar ótkeriw, olardıń bayramǵa say ortalıǵınan paydalanıw, sport statistikası, atap aytqanda, tálim shólkeminiń sport jetiskenliklerin júrgiziw, sonıń menen birge, sport shınıǵıwların máwsimge, oqıwshılardıń sport toparlarına tiyisliligine qaray shólkemlestiriw hám taǵı basqa. Bunda student jaslardın tekǵana aqlıy iskerlik nátiyjeliligine emes, fizikalıq jetikligine hám ruwxıy tárepten bekkem áwlat etip jetilisiwine erisiw múmkin boladı. Búgingi kúnde texnologiyanın tez pát penen rawajlanıwı jaslardın kem is hárezet etiwı, ol arqalı hár túrli keselliklerdiń payda bolıwı siyaqlı mashqalalardı sheshiwge járdem beriwi anıq.

Juwmaq. Studentler ushın fizikalıq iskerlik hám tálimdi ámelge asırıwdın nátiyjeli quralları málim fizikalıq pazıyletlerdi rawajlandırıw ushın ayrıqsha talaplardı qoyatuǵın oyın sportı bolıp tabıladı.

Sport oyınlarında óz aldına fizikalıq sapanı rawajlandırıwǵa tańlap tásir kórsetpeydi, shınıǵıw effektleri tayarlıqtın barlıq táreplerin kompleks rawajlandırıw hám jetilistiriwge qaratılǵan. Sport oyınların, atap aytqanda, voleyboldı óz ishine alǵan studentlerdiń motorlı iskerliginiń ústin turatuǵın quralları belgilengen.

Kópshilik qánigeler sport oyınlarınan paydalanǵan halda oqıwshılardı dene tárbiyası procesine sportqa baǵdarlangan texnologiyalardı engiziwdi maqsetke muwapıq dep esaplaydı.

Ádebiyatlar:

1. Smirnov N.K. Salomatlikni tejaydigan ta'lim texnologiyalari va maktabda salomatlik psixologiyasi. 2005.
2. Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va metodikasi. 2020



11 ЁШЛИ ФУТБОЛЧИЛАР ЖИСМОНИЙ ВА ПСИХОФИЗИОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ЙИЛЛИК ДИНАМИКАСИ

Қутлымуратов М.

*Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия университети
Нукус филиали ассистент ўқитувчиси*

Таянч сўзлар: футбол тўғараклари, бошланғич тайёргарлик босқичи, жисмоний ривожланиш динамикаси, психофизиологик ривожланиш динамикаси.

Ключевые слова: футбольные клубы, начально-подготовительный этап, динамика физического развития, динамика психофизиологического развития.

Key words: football clubs, initial preparatory stage, dynamics of physical development, dynamics of psychophysiological development.

РЕЗЮМЕ:

Мазкур мақолада футбол тўғаракларида шуғулланувчи 11 ёшли футболчиларнинг жисмоний ва психофизиологик кўрсаткичларининг йиллик динамикаси ўрганилган.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается годовая динамика физических и психофизиологических показателей 11-летних футболистов, выступающих в футбольных клубах.

SUMMARY:

This article examines the annual dynamics of physical and psychophysiological indicators of 11-year-old football players playing in football clubs.

Долзарблиги. Бугунги кунда жисмоний тарбия ва спорт соҳаси мамлакатимиз олимлари томонидан соҳани модернизациялаш ва янги босқичга олиб чиқиш, ёшларни маънан ва жисмонан тўғри ривожлантириш ҳамда жараённинг сифатини оширишга йўналтирилган илмий салоҳиятга эга эканлиги билан аҳамиятлидир. Хорижий давлатларнинг тадқиқотчи изланувчи мутахассислари томонидан, мавзуга алоқадор бўлган тадқиқот ишларини, ва адабиётлари ўрганилди. Қолаверса соҳада ютуқларга эришиш мақсадида амалётга тадбиқ қилинаётган қатор ислохотлари натижа-сида эришилган ютуқлари ўрганилди.

Мамлакатимиз ва хориж тадқиқотчи изланувчи олимлари томонидан яратилган илмий-услубий адабиётларига қуйидагиларни мисол қилиш



мумкин. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғуланувчи футболчиларнинг умумий жисмоний тайёргарлик динамикаси юзасидан қатор олимлар томонидан изланишлар олиб борилган бўлиб, [Комилов Ж.Р. 2018], [Нуримов Р.И. 2005], [Р.И. Нуримова. 2005] ва бошқалар шулар жумласиндандир.

Футболчиларнинг жисмоний тайёргарлик даражалари бўйича қатор хориж олимлари [Гриндлер К., Пальке Х., Хеммо Х.1976] томонидан мавзуга доир муаммолар ечимига эришиш бўйича изланишлар олиб борган.

Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғуланувчи футболчиларнинг махсус жисмоний сифатларининг юқори кўрсаткичларига эришишга қаратилган ва психо-физиологик тайёргарлигини аниқлашга қаратилган тадқиқот илмий-услубий тадқиқотлар жараёнида ишлаб чиқилган методикаларни [Тюленьков С.Ю.2007] [Озолин, Н.Г. 2009], [Шамардин А. И. 2000], [Золотарев А.П. 1995] каби олимларнинг адабиётларида кўриш мумкин.

Хориж ва мамлакатимиз мутахассислари томонидан ўтказилган тадқиқот ишларини ўрганиш натижасида тўпланган улкан тажриба ва билимларга таяниб шуларни хулоса қилиш мумкинки, Жаҳоннинг ривожланган давлатлари ва мамлакатимиз олимлари томонидан бошланғич тайёргарлик босқичида шуғуланувчи футболчиларнинг психологиясига, жисмоний сифатлари ҳамда унинг ривожланиши, бағишланган тадқиқот ишларининг аниқланган муаммолар ўз ечимини топган. Шунга қарамай тадқиқот 11 ёшли футболчиларнинг жисмоний ва психофизиологик тайёргарлигининг йиллик динамикасининг ўсиш кўрсаткичларининг яхшиланишига қаратилган илмий-услубий изланишлар амалга оширилиб, назарда тутилган муаммолар юзасидан асосли методик тавсиялар ишлаб чиқарилиб, инobatга олинмаса ва амалётга тадбиқ қилинмаса бази муаммолар муаммолигича қолаверади.

Тадқиқотнинг мақсади: бошланғич тайёргарлик босқичида шуғуланувчи 11 ёшли футболчиларнинг жисмоний ва психофизиологик тайёргарлигининг йиллик динамикаси кўрсаткичларини аниқлаш.

Тадқиқотнинг вазифалари: мавзуга доир адабиётларни таҳлил қилиш,

- 11 ёшли футболчиларнинг жисмоний тайёргарлигининг йиллик динамикасини кўрсаткичларининг аниқлаш,

- бошланғич тайёргарлик босқичида шуғуланувчи 11 ёшли футболчилар психофизиологик тайёргарлигининг йиллик динамикаси кўрсаткичларини аниқлаш.



Тадқиқотнинг объекти: бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи 11 ёшли футболчиларнинг машғулотлари жараёни.


Тадқиқотнинг предмети: 11 ёшли бошланғич тайёргарлик босқичи футболчиларининг машғулотлари жараёнида жисмоний ривожланиш ва физиологик тайёргарлигининг йиллик динамикасини аниқлаш.

Тадқиқот усуллари: илмий-услубий адабиётлар таҳлили, педагогик кузатув, педагогик тест, математик-статистик таҳлил.

Тадқиқотни ташкиллаштириш: Қорақалпоғистон Республикаси Болалар ва ёш ўспиринлар футбол маҳорат мактабида шуғулланувчи ёш футболчиларнинг ўқув-машғулотлари жараёнида ўтказилди. Тажрибаларимизда 11 ёшли футболчилар иштирок этишди ($n=52$).

Ўтказилган тадқиқот натижалари ва муҳокамаси. бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи 11 ёшли футболчиларнинг жисмоний тайёргарлигининг йиллик динамикаси кўрсаткичларини аниқлаш мақсадида ташкиллаштирилган педагогик тажрибаларда спортчилар томонидан қайд этилган натижаларнинг илмий-услубий таҳлили қуйида баён қилинади.


Демак 11 ёшли футболчиларнинг тана оғирлиги бўйича ривожланиш кўрсаткичлари ўрганилди. Унга кўра футболчиларнинг тана оғирлиги тадқиқот аввалида ўртача $35,9 \pm 1,28$ кг га тенг, тадқиқот охирида эса бу кўрсаткич $37,1 \pm 1,43$ кг га етган. Ушбу ёшдаги футболчиларнинг жисмоний ривожланишида вазн кўрсаткичларининг йиллик ўсиши фарқи 2,4 кг га фарқ қилган (6,5%). Кўрсаткичлар орасидаги статистик фарқлар ишончли эмас ($P > 0,05$) (1 расмга қаранг).



1 расм. 11 ёшли футболчиларнинг йиллик жисмоний ривожланиш динамикаси кўрсаткичлари.

